

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



O'ZBEK ONOMASTIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI

Respublika ilmiy-nazariy anjumani

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**


**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



O‘ZBEK ONOMASTIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI

Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Toshkent, 2018-yil, 1-iyun



927220

Toshkent – 2018

“O‘zbek onomastikasining dolzarb muammolari” nomli Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati: Tolib Enazarov, filologiya fanlari doktori;
Abdumurod Tilavov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Sabohat Bozorova, ToshDO‘TAU o‘qituvchisi;
Ilhom Sayitqulov, ToshDO‘TAU o‘qituvchisi;
Gavhar Komilova, ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Mazkur to‘plamda “O‘zbek onomastikasining dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari jamlangan. Ularda o‘zbek onomastikasining bir qator dolzarb masalalari tavsifi, tahlili va yechimi to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Ushbu to‘plam o‘zbek onomastikasi sohasining bugungacha bo‘lgan va hozirgi holati, shuningdek, kelajakdagi maqsad hamda vazifalari haqida muayyan ilmiy-nazariy tasavvur beradi.

Bu kitob o‘zbek onomastikasi masalalari bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib borayotgan mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrilar, bakalavr talabalari hamda keng ilmiy jamoatchilikka mo‘ljallangan.

Mualliflarning qarashlari va keltirilgan fikrlar tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Ushbu ilmiy to‘plam ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti Kengashining 2018-yil 27-apreldagi 9-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

**ЎЗБЕК ОНОМАСТИКАСИННИНГ ДОЛЗАРБ
ВАЗИФАЛАРИ ХУСУСИДА**

*Носиржон УЛУҶОВ,
НамиГУ профессори*

Жаҳон тилшунослигида нарса-буюм, воқеа-ҳодисаларнинг мавжудлиги ифодаси, тил ва нутқда яшаш омили сифатида номинатив, коммуникатив ва услубий вазифаларни бажарадиган атоқли номлар – ономастик бирликлар лисоний тадқиқи тилнинг ва унинг ономастик тизими таракқиёти, шаклий ва мазмуний такомиллини ўрганиш имконини бериши нуктаи назаридан ҳам илмий, ҳам амалий аҳамиятга эга. Шу боис тилшуносликнинг ономастика соҳаси ривожланган ва юксак такомилга эришган илмий йўналишдир.

Ҳозирга қадар ўзбек ономастикасининг антропонимика, топонимика, гидронимика, этнонимика, қисман, космонимика, зоонимика йўналишлари, ономастик лугатшунослик, атоқли отлар имлоси қониқарли тадқиқ этилган.

Ахборот, инновация асри, глобаллашув ва жамиятдаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий-маърифий, маданий ўзгаришлар, илм-фан таракқиёти, фанлар интеграцияси ономастика соҳасининг янги замонавий илмий-назарий ва амалий йўналишларини белгилашни, махсус тўпланмаган, кам ўрганилган ёки алоҳида тадқиқ этилмаган, ҳам миқдор, ҳам сифат жиҳатидан бойиб, такомиллашиб бораётган ономастик макро ва микро қўламининг барча бирликларини янги лингвистик парадигмалар асосида тарихий ва замонавий аспектларда тадқиқ этишни кун тартибига қўймоқда.

Зеро, “Инновация – бу келажак дегани. Биз буюк келажакимизни барпо этишни бугундан бошлайдиган бўлсак, уни айнан инновацион ғоялар, инновацион ёндашув асосида бошлаш керак”¹. Бу фикрлар ўзбек тилшунослигининг барча соҳаларига, жумладан, ономастика соҳасига ҳам тааллуқли. Бугунги кунда ўзбек тилшунослиги ва ономастикаси олдида замонавий таракқиёт тамойилларига асосланган истиқлол даври тил сиёсати ва унинг узвий бир қисми бўлган топонимик сиёсати асосида янги тадқиқотлар яратиш вазифаси қўйилмоқда.

Э.Бегматов “*Тилнинг асосий коммуникатив вазифасини инкор этмаган ҳолда нули таъкидлаши керакки, унинг бошқа ижтимоий, маданий, маънавий, маърифий, дидактик ва таълимий, этикавий, эстетик, регионал-ҳудудий, руҳий, бадий ва илмий эмоционал-эстетик томонлар билан боғлиқ ижтимоий-лисоний қирралари мавжуд*”, – деб ёзади.² Бу барча ономастик бирликларга оид. Шу боис ўзбек тили ономастик бирликларини

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 20.

² Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти. Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. – №3. – Б.36.

антропологистик, социоллингвистик, этнолингвистик, психоллингвистик ва лингвокультурологик жиҳатдан тадқиқ этилиши лозим.

Немис тилшуноси Я. Гримм: «Халқларнинг қўҳна тарихи ҳақида дарах берувчи сўзлар, тобурлар ва қўроқлардан ҳам афзалроқ жонли восита, дарах мавжудо -- бу уларнинг тилидир», – деган эди.¹ Тил ономастик бирликлардир. Zero, ҳар қандай халқ ёки миллатнинг тарихи унинг фольклорига ва атоқли отлар тизимида ёрқин кузатилади.

Ономастик бирликлар тил ва инсон, тил ва жамият, халқлар, миллатлар ва уруғ ҳамда қабилалар ўртасидаги ижтимоий, маърифий, маданий-маънавий, ахлокий, этник муносабатларини ўрганишда бой материал беради. Тил-да шундай воситалар – лисоний бирликлар мавжудки, уларнинг табиати, пайдо бўлиши, вазифалари, ривожланиши, ўзгариши ҳамда маъно қирраларини фақат тил нуқтаи назаридан ёндашиб тадқиқ қилиш етарли бўлмайди. Мана шундай лугавий ҳолисалардан бири – ономастик материал, яъни атоқли отлардир. Шу сабабли ҳам тилнинг атоқли отлар тизими билан нафақат тилшунослик, балки тарих, этнография, этнопсихология, этномаданият, социал психология, фольклоршунослик, мифология, семиотика каби соҳалар ҳам кизиқади ва ундан ўзлари учун керакли материални ахтаради.

Ономастик бирликлар бир предметни, воқеа-ҳодисани иккинчисидан ажратиш, фарқлаш эҳтиёжи туфайли яратилган. Бу ономастик бирликларнинг асосий вазифаси бўлса-да, уларни инсон яратган. Ҳар қандай атоқли отнинг генезисига инсоннинг эҳтиёжи, фаолияти, ижоди, ўтмиши, тарихи ётади.

Биринчи Президентимиз И. А. Каримов тўғри таъкидлаганларидек, *“Албатта, ҳар қайси халқ ёки миллатнинг маънавиятини унинг тарихи, ўзига хос урф-одат ва анъаналари, ҳаётий қадриятларидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Бу борада маънавий мерос, маданий бойликлар, қўҳна тарихий ёдгорликлар энг муҳим омиллардан бири бўлиб хизмат қилади”*.² Бу фикрлар, албатта, халқимизнинг маънавий-маърифий, маданий, фалсафий мушоҳадаси ва қарашлари маҳсули бўлган атоқли номларга ҳам тааллуқлидир. Шундай экан, ономастик бирликлар социоллингвистик аспектда ўрганилиши лозим.

Тилнинг тараккиётига жамиятнинг, аксинча жамият ривожига тилнинг таъсири, бунинг омиллари, қонуниятларини тадқиқ қилувчи соҳа социоллингвистика (ижтимоий тилшунослик) дир.

В. Д. Бонделатов социоллингвистиканинг ономастиканинг тадқиқ қилиш билан боғлиқ муаммоларига қуйндагиларни киритади:

1. Ономастик лексиканинг умуман ва алоҳида кўринишларини уларнинг бажарадиган вазифалари, бунинг характерини уларнинг лисоний ва ижтимоий омилларини ҳисобга олган ҳолда белгилайди.

2. Антропонимия, топонимия ва бошқа ономастик гуруҳларнинг турли ижтимоий-тарихий даврдаги тараккиёт хусусиятларини ўрганади.

3. Алоҳида халқлар (элатлар) ҳамда давлатга хос маданий-маънавий, диний ва этнографик анъаналарнинг ифодаланишини ўрганади.

¹ Бу ҳақида қarang: Бегматов Э.А. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 9-10.

² Каримов И. Юсак маънавият – сиёсатмас қил. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 29-30.

4. Турли тиллар материали асосида (жумладан, социал диалектларни ҳам) интралингвистик, шунингдек, экстралингвистик кўрсаткичларни (далил-ларни) ҳисобга олган ҳолда киёсий-типологик тадқиқ қилади.¹

Демак, атокли номларда инсон омили, унинг яшаш тарзи, тафаккури, дунёқараши, орзу-истакларининг ифодаланиши, тили, яъни номда шева ва лаҳжавий унсурларнинг қўлланиши, номларнинг лисоний тақомили ва тараққиётида жамиятдаги ўзгаришларнинг ижобий ва салбий ўрни, таъсири каби масалалар социолингвистик жиҳатдан тадқиқ этилиши лозим.

А.В. Суперанская атокли отлар тизимиға кирувчи номларни илмий жиҳатдан таҳлил қилар экан, бу сатҳнинг бирликлари деб антропонимлар, зоонимлар, мифонимлар, епелонимлар, дремонимлар, пелагонимлар, лимонимлар, гелонимлар, потагонимлар, гидронимлар, документонимларни, шунингдек, ҳали тишшуносликда махсус номға эға бўлмаган ҳаракат воситалари атокли оти, фирмавий номлар, муассаса ва ташкилотлар атокли оти, оммавий нашрлар махсулоти атокли оти, байрам, юбилей, тантаналар ва бошқа маросимлар номи, баъзи муҳим талбирлар, компаниялар, урушлар номи, адабиёт ва санъат асарлари номи, табиат стихияларига берилган атокли отларни ҳам тилға олган.²

Ўзбек ономастикасининг асосчиси Э.Бегматов таъкидлаганидек, тилдаги атокли отларнинг бой материалнинг кўринишлари етарли тўпланмаган ва тадқиқ қилинмаган.³ Ўзбек тилининг ономастик бирликларини, ҳозиргача махсус тўпланмаган ва тадқиқ этилмаган ўзбек фольклори ономастикасини, мифонимларни, хрононимларни, геортонимларни, гемеронимларни, эргонимларни ўрганишға киришиш навбатдаги муҳим вазифалардир.

1970-1980 йилларда ўзбек тишшунослигида топонимик лугатшунослик ҳам шаклланди ва ҳозирги кунға кадар Х.Ҳасанов, С.Қораев, З.Дўсимов, Х.Эгамов, Т.Нафасов, Н.Охунов, Б.Ўринбоев, Т.Эназаров, Б.Турдалиев, Т.Нуъмонов, А.Ҳайдаровларнинг изохли лугат, лугат-маълумотнома характеридаги топонимик лугатлари нашр этилди⁴, бироқ мукаммал Ўзбекистон топонимларининг изохли, имло, этимологик лугатлари яратилмаган.

Г.Н.Смолицкая таъкидлаганидек, топонимлар атокли отларнинг бир қисми сифатида тадқиқот-ниға шундай ахборотлар бериш мумкинки, у буни тилнинг бошқа бирор бир бирлигидан олишға кодир эмас⁵. Ўзбекистон

¹ Боплатетов В.Д. Ономастик и социолингвистика // Антропонимика. – Москва, 1970. – С. 23.

² Суперанская А.В. Аллелгив-онома // Имя нарицательное и собственное. – Москва: Наука, 1978. – С.5.

³ Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.33.

⁴ Ҳасанов Х. Географик номлар сирин. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 120 б.; Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 203 б.; Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 240; Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изохли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 174 б.; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изохли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 290 б.; Қашқадарё энцклопедияси. – Тошкент: Мухаррир, 2009. – Б.5. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 86 б.; Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах: 1992. – 53 б.; Самарқанд вилояти топонимларининг изохли лугати. – Самарқанд, 1997; Эназаров Т.Ж. Топонимларо этимологик тадқиқининг илмий-назарий ва амалий-усулий асослари (1 китоб). – Тошкент, 2001; Туркий соҳли топонимларининг этимологик тадқиқи (2 китоб). Турдалиев Ё., Нуъмонов Т., Ҳайдаров А. Наманган вилояти топонимларидаги материаллар. – Наманган, 1995. – 122 б.

⁵ Смолицкая Г. П. Топонимический арал и вопросы реконструкции лексической системы языка (на славянском материале). – Вопросы языкознания, 1978. – №4. – С.115.

Республикасининг истиқлол давридаги топонимик сиёсати асосида ўзбек тили топонимик тизимида юз берган сифатий ва миқдорий ўзгаришларни далиллар асосида социолингвистик таҳлил қилиш, ономастик бирликларнинг, топонимларнинг этимологик, имло ва изохти лугатларини яратиш, туристлар учун ўзбек тили топонимлари, жумладан, агнотопонимларининг таржима лугатларини яратиш, вилоятлар ойконимларини қиёсий-тарихий ва ареал тадқиқ этиш ҳам ҳозирги ўзбек ономастикасининг долзарб вазифаларидир.

НАРСА ВА УНИ НОМЛАШ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР

Абдулҳай СОБИРОВ,
ТошДУТАУ профессори

Оламдаги нарса ва ҳодисалар бездаддир. Улар доимий ўзгаришда, тақомилда. Бордан йўқ бўлмайди, йўқдан бор бўлмайди. Инсон борликдаги нарса ва ҳодисаларни кузатади, уларнинг доимий ҳамда муваққат белгиларини аниқлайди, улар ичидан энг муҳимини танлаб предметга ном беради. Тилда номлаш вазифасини бажарувчи бирликларни ҳосил қилиш номинация (лот. *nominatio-natio*, ном қўйиш) деб юритилади¹. Сўз ономаσιология аспектида *ном*, *кинома* каби атамалар билан номланади. Унинг аташ вазифаси номинатив вазифа саналади. Ўзбек тили лексикасида ономастик номлар алоҳида ўрин тутати².

Ономастик номлар бўйича ўзбек тилида етарлича ишлар қилинган³. Улар иккиламчи номлар саналганлиги учун мазкур диссертациянинг мақсад доирасига киритилгани йўқ.

Ном билан предмет ўртасидаги муносабатни аниқлаш борасида турли хил қарашлар мавжуд. Бу масаланинг ўрганилиш тарихи қадимги Юнонистонда фаолият кўрсатган файласуф олимларнинг баҳсларига бориб тақалади. Ҳатто, у ерда буюмларнинг хусусиятларига қараб ном қўйиш билан шуғулланувчи алоҳида **ономатопея** (юн. *onomotopoeia*-ном ҳосил қилиш; *омота*-ном + *пейс*-*ясайман*, *килам*) оқими мавжуд бўлган.

Машҳур файласуф олим Платон (эр. аввалги 427-347 йиллар) ўзининг «Кратил ёки номларнинг келиб чиқиши тўғрисида» номи асарида предмет билан ном ўртасидаги алоқани очиб беришга ҳаракат қилган.

«Қурол бирор шунини бажаришга мос бўлгани каби, сўзлар ҳам ўзлари англатган нарсаларга мос келишлари керак. Аввал бонданок улар тўғрилиққа эга. Ҳар қил ҳам янги сўз ҳосил қила олмайди. Нарсаларнинг табиатини яхши

¹ Языковая номинация (Общие вопросы) - М.: Наука, 1977; Языковая номинация (Визуальные наименования) - М.: Наука, 1977 ва бошқаларга.


² Ономастика в формах - М.: Наука, 1976; Бондалетов В.Д. Русская ономастика. - М.: Просвещение, 1983.

³ Бегматов О. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1965; Ўзбек исмлари. Тошкент: Қомуслар Боп таҳририяти, 1991; Ўзбек исмлари - Тошкент: Ў. М.О. 1998. - Қораев С. Этнонимика. - Тошкент: Ўзбекистон, 1979. - Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изохти лугати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1943; Дўендов З. Хоразм топонимлари - Тошкент: Фан, 1985; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ашторликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. Фил. фанлари докт. ... дис. автореф. - Тошкент, 2000 ва бошқалар.

билган одамгина бунинг уddасидан чиқади», – дейди Кратилнинг тарафдори бўлган Сукрот¹.

Бир карашда бу фикрларда асос борга ўхшайди, аммо даврлар ўтиши билан лексема-сўз ўзи ифодалаган предметдан узоклашиб, унга бегона бўлиб қолади. Масалан, осмон жисмлари: *ой, қуёш, булут, шамол, қор, уфқ* билан уларни ифодалаётган сўзлар орасидаги табиий боғланишни топши кийин.

Тилшунос олимлар лексема-сўзнинг предметга мутаносиблигини баён қилишда турли хил усуллардан фойдаланиб кўришган. Жумладан, К.Огден ва И.Ричардслар «семантик учбурчак» оркали буни баён қилмоқчи бўлишган. 1-жадвалга қаранг.




2-жадвал



Л.А.Новиков лексик маънонинг белги ва тушунча мазмунини ифодалашдан ташқари объектив борлиқнинг ўзига хос инъикоси эканлигини ҳам ҳисобга олган ҳолда "семантик трапеция" гоёсини илгари суради (2.5-жадвалга қаранг).

2.5-жадвал



¹ Якушин Б.В. Гипотезы о происхождении языка. - М.: Наука, 1985. - Б. 30.

² Степанов Ю. С.О. Основы общего языкознания. - М.: Просвещение, 1975. - Б. 9.


Аслида, сўз оркали ифодаланган денотат (реферант) муайян нарсa-бўиом эмас, балки ифодаланаётган предметларнинг умумлашма образидир. У реал борлиқдаги нарсaга нисбатан олиниб, инсон онгида яратилади.

Масалан, **“боғ”** сўзи ўзида мевали ва мевасиз дарахтлар ўсган барча жойларнинг умумлашма образини гавдалантириб келади. **Богбон, тоққайчи, тоқ, хомтоқ, шипсил** сўзларида ҳам худди шу ҳолат мавжуд.

Айтилганлар асосида предмет (денотат), тушунча (сигнификат) ва сўз (лексема) ўртасидаги муносабатларни семантик учбурчак ёки трапеция шаклида эмас, балки олам тараққиётнинг рамзи саналган айлана шаклида кўрсатиш мумкин.

3-жадвал

СЕМАНТИК ДОИРА



Лексема – сўз тўғридан-тўғри предметга (денотатга) боғланади. ўртада у ҳақда тушунча (умумлашма образ) бўлиши керак. Бунинг негизида эса асос (марказий) маъно ва уст (қўшимча) маъно шаклланади. Демак, предмет (денотат) – умумлашма образ (сигнификат) – асос (марказий) маъно – уст (қўшимча) маъно – лексема-сўз (белги) қондасига амал қилинади.

Лексеманинг предметга алоқадорлигини мукаммал аниглаб етиш учун денотатнинг турлари ҳақида муайян маълумотларга эга бўлиш лозим.

Денотат ҳиссий ва назарий билиш натижасида бир турдаги нарсаларнинг умумий ва хусусий белгилари ичидан ажратиб олинган минимал қийматдир.

Объектив борлиқдаги нарсa ва ходисалар бекарор ва ўзгарувчан, кўпинча аниқ чегарага эга бўлмайди. Масалан, **чилип** сўзини олиб кўрайлик. Чигитни ерга қадашимиз билан моддий асос (денотат) ўз шаклини босқичма-босқич ўзгартириб боради. Илдиз, чинбарг, тана, шох, гул, шона, кўсак, чанок, пахта пайзо бўлади. Уларнинг ҳар бири кўриниши, шакл-шамойили, қимёвий ва физик хоссаларига кўра бутунлай янгича сифат босқичига ўтади. Масалан, кўсак кўм-кўк, юмалок, қаттиқ бўлади, саноат учун ҳеч қандай аҳамият қасб этмайди. Пахта эса кўсак негизида етилиб ошпоқ, юмшоқ нарсa шаклини олади, саноат учун қимматбаҳо хом ашё маҳсулоти саналади.

Чигитдаги (ёки уруғдаги) ерга экилиш, униб чиқиш, ривож топиб илдиз, тана, шох, барг, гул ва мевага эга бўлиш каби хусусиятлар барча ўсимликлар ҳамда дарахтларга хос умумий белги саналади. Мана шу моддийлик (денотатив

асос) даги умумийлик бизга уларни битта ном билан аташга изн беради. Қайси ўсимлик ёки дарахтнинг илдизи бўлишидан катъи назар ҳаммасини ягона ном -- *илдиз* номи билан атайвераимиз. Солиштиринг: *анорнинг илдизи*, *бугдойнинг илдизи*, *чинорнинг илдизи* каби. Бундан ташқари *тинининг илдизи*, *думанининг илдизи*, *маънавият илдизлари* каби бирикмалар таркибида келаётган *илдиз* сўзида ҳам биринчи *илдиз* денотатининг “акс-садоси” бор.

Умумийлик негизда хусусийлик кўзга ташланадиган бўлса, ном ҳам шу заҳотиёқ ўзгаради.

Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида ўрганишда денотат турларини билиш жуда муҳим. Сабаби оламдаги нарсаларни тил ёрдамида тур ва жинсларга ажратиб, таснифлашда сунъийликка йўл қўйиб бўлмайди. Аслида, оламдаги нарсалар ва ҳодисаларнинг ўзи табиий равишда муайян гуруҳларга ажралиб, умумий ва хусусий жиҳатларига кўра алоҳида гўдаларга бириккан ҳолда бўлади. Ҳамма гап мана шу воқеликни тилда тўла-тўқис равишда ифодалай олишдадир.

ТЎРА НАФАСОВ ВА ЎЗБЕК ТИЛИ ОНОМАСТИКАСИ МУАММОЛАРИ

*Эшнўлат ЖАББОРОВ,
Қарғув доценти*

“Давлат тили ҳақида”ги Қонуннинг қабул қилиниши ономастика фани муаммоларини қайта кўриб чиқишни кун тартибига олиб чиқди. Ана шундай бир пайтда профессор Тўра Нафасов соҳанинг мутахассиси сифатида Қашқадарё вилояти топонимикасини тартибга солиш, шўролар давридаги сиёсат билан боғлиқ бўлган ва биз ўзбекларга ҳеч қандай алоқаси бўлмаган номлардан воз кечиб, бир пайтлар истеъмолдан сунъий равишда чиқариб ташланган маҳаллий ва миллий номларни тиклашдек хайрли ишларнинг бошида турди. Бу ишларнинг натижаси ўларок бир қатор ономастиканинг назарий ва амалий масалаларига бағишланган мақолалар чоп эттирди. Жамоатчилик эътиборини миллий номларимизнинг тикланишига қаратди. Бу иш қатга жасорат саналиб, айни пайтда ватанпарварлик иши ҳам ҳисобланади.

Ўзбек номшунослигининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни билан алоқадор баъзи назарий ҳамда амалий муаммолари пайдо бўлдики, олим бу муаммоларни лисоний ва нолисоний муаммолар сифатида таққин қилади ҳамда муаммоларни ҳал этиш йўллари ҳусусида мулоҳаза юритади.

Ономастиканинг лисоний муаммоларга қуйидагилар киришини таъкидлайли: ўзбекча топоним ва антропонимларнинг “ягона миллий шаклда берилиши ва республика давлат тилида ёзилиши”, “қонуният ва имкониятларини тадқиқ қилиш, имловий қондаларни яратиш”, “Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати”, “Ўзбек исмларининг имло лугати”, “Атоқли отлар имлоси” сингари лугатларни, лугат маълумотларини яратиш.

Давлат тили ҳақидаги қонунга кўра Ўзбекистон жумҳуриясида яшовчи фуқаролар ўз исми, ота исми ва фамилиясини “...тарихий миллий анъаналарга

мувофик шаклда ёздириш ҳукукига эгадирлар” Демак, ўзбекларнинг номланиш русумларида мавжуд бўлган тарихий-миллий шакллари, усулларини илмий таҳлил қилиш ва уни замонавий нормаларга сингдириш муҳимдир. Шу билан бирга бутун мамлакат учун ягона, тургун ота исм ва фамилия яшаш шакллари яратиш ҳам зарур.

Ўзбек тарихий топонимияси ва тарихий антропонимияси материалларини тарихий ёзма обидалар матнларида, шунингдек, замонавий тил матнларида тўғри ёзиш йўллари, таъминлаш, тарихийлик ва замонавий принциплар ўртасидаги муносаббатларни таъминлаш (Ал-Хоразмий ва Хоразмий, Ат-Термизий ва Термизий, Навоий ва Навоий, Атоий ва Отоий каби). Ономастик матншуносликни яратиш керак.

Конунга кўра, “Ўзбекча исмлар, ота исми ва фамилиялар бошқа тилларда берилганда... уларнинг асл ёзилиш хусусияти сақланиб қолади”, дейилган. Бу тўғри талаб. Аммо ўзга тилларда ракам қилинувчи ўзбекча номлар доим ҳам “асил ёзилиш хусусиятини” сақлаб қололмайдди. Ўзбекча ў, қ, ғ, х, қисман ж, и, ё товуш ва ҳарфларини рус тилида айнан ўша шаклда сақлаб қолиш имкони йўқ. Демак топонимларнинг, исм ва фамилияларнинг хорижий тилларда ёзилиш хусусиятларини илмий таҳлил қилиш ўзбекча номларнинг дунёнинг етакчи тилларидан рус, инглиз, француз, немис, испан тилларида берилишига оид махсус амалий қўлланмалар, лугат-маълумотлар яратиш лозим бўлади.

“Конунда айтилишича, ўзга тилларга оид” барча жўрофий номлар ўзбек миллий-тарихий аъёналарига ва ўзбек тилининг ўзига хос хусусиятларига асосланган ҳолда ўзбек тилида ракам этилади”. Ушбу масала ўзбек тилшунослигида ҳозирга қадар ўрганилган эмас. Шу сабабли ҳозирда Америка – Амрико, Германия – Олмония, Европа – Овруро, Франция – Франгистон; Гейне – Хейне, Хейне, Гамлет – Хамлет каби вариант ёзилишлар қўпайиб кетди. Хорижий номларнинг ўзбек тилига мослашадиган ва мослаша олмайдиганлари ҳам бор. Хорижий номни ўзбек тилига мослаш, уни тўғри ёзиш учун ном мансуб бўлган тилни яхши билиш лозим. Демак, махсус мутахассис – тилшунослар ёрдамида жаҳоннинг асосий тилларига мансуб бўлган номларнинг ўзига хос хусусиятларини чуқур ўрганиш ва уларнинг ўзбек тилида ёзилишига оид алоҳида қўлланмалар, лугат – маълумотномалар яратиш лозим бўлади, деб тавсия этади олим.

Қардош туркий тиллар, шунингдек, МДХдаги бошқа халқлар тилларига мансуб бўлган топонимлар ва антропонимларнинг (Алмаги – Олма-Ота, Жетисай – Етгисой, Ашгабат – Ошхобод, Ашхабад, Душанбе – Душанба, Олжас – Ўлжас, Саригел – Сарикўл – Сарикўл) ўзбек тилида берилиши махсус тадқиқотларга муҳтождир.

Олим ономастиканинг нолисоний муаммолари сифатида қуйидагиларга эътибор қаратиш лозимлигини таъкидлаган эди: “Давлат тили ҳақида”ги Конунда қайд қилинишича, “*Ўзбекистонда барча тарихий исмлар ва жойларнинг номлари халқнинг миллий мулки ҳисобланади ва давлат томонидан муҳофаза қилинади*”. Ушбу қоида ўзбек номшунослари олдида бир катор нолисоний муаммоларнинг илмий ҳал қилишини кўндаланг қилиб қўяди. Буларнинг энг муҳимлари қуйидагилар:

- ўзбек халқининг кўп асрлик номлаш санъати тарихини, бундаги конуниятларни чуқур ўрганиш ва ундаги энг фойдали, илғор усуллардан янги номлар ясашида фойдаланиш;

- кишиларга, жойларга, бошқа хил объектларга ном беришнинг илмий принципларини, яъни ном қўйиш санъатини яратиш. Бу санъатнинг ижтимоий-сиёсий, маданий-маънавий, диний-фалсафий, этикавий ва эстетик мезонларини ўрганиш, бу белгиларни ном бериш амалиётига татбиқ қилиш;

- номларга тўғри муносабат маданиятини юзага келтириш ва такомиллаштириш, унинг илмий-объектив мезонларини белгилаш. Номлар тақдирига лоқайд, тўраларча, нописанд муносабатда бўлиш ҳолларига қарши конуний чораларни ишлаб чиқиш;

- исмлар ва топонимлар халқнинг ва тилнинг “тарихий ва маданий ёдгорлиги”, “лисоний бойлиги”, “маданий мулки” деб тушунишнинг илмий принциплари ва мезонларини, бунинг нозик ўлчовларини аниқлаш ҳамда илмий асослаш

Ўша асосда янги даврда беўрин ўзгартирилган, мажбуран катагон қилиниб унутилган тарихий топонимларни бутун жумҳурият ҳудуди бўйлаб қайта тиклаш. Бундай ҳаракатнинг пировард натижаси “Ўзбекистон топонимларининг дахлсиз китоби”, (“Кизил китоби”) ни яратиш бўлмоғи керак. Олимнинг мустақиллик давридаги илмий фаолиятини кўздан кечирсак, ўзи кун тартибига қўйган масалалар бўйича анча-мунча ишлар қилганини кўрамыз. Бунинг ёрқин намунаси сифатида **“Қарши шаҳар маҳалла ва кўча номлари”** монографиясини қайд этиш мумкин. Олимнинг ушбу асари иловасига эътибор берадиган бўлинса, Қарши шаҳрининг ўтмишдаги ва ҳозирги ўзгартирилган кўплаб номлари зикрига дуч келинади. Олимнинг бу борадаги хизматларидан яна бири 5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (Ўзбек филологияси) бакалавр йўналишида танлов фан сифатида “Ономастика” фанини киритганидир. Кўп йиллардан буён Қарши ДУнинг ўзбек филологияси факультети талабалари атоқли отлар тизими, уларнинг муаммоларидан сабоқ олиб келишмоқда. Демак, олим ўз назарий қарашларига содиқ қолган ва бу йўлда самарали фаолият юритган, дея ишонч билан айтиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Нафасов Т., Турсунов Ш. Қарши шаҳри маҳалла ва кўча номлари. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 168 б.

2. Нафасов Т. Жой номларига ёдгорлик мақоми // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. №5. –Б.68-69.

3. Тўра Нафасов Библиографик кўрсаткич. Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Э Жабборов, В.Нафасова. – Қарши, 2008. – 60 б.

ЎРХУН-ЕНИСЕЙ БИТИКЛАРИДАГИ МАНСАБ ВА УНВОН НОМЛАРИНИНГ БУГУНГИ НОМЛАР БИЛАН ҚИЁСИ

Ойдин МЎМИНОВА,
ЎзДКТУ доценти

Хар бир тилнинг лексикасида умуминсоният маданиятини ривожлантиришга хизмат қилувчи табиат ва жамиятни янада чуқурроқ билиш ва эгаллаш сирлари мужассамлашади. (1,1). VII-VIII аср ва ундан олдинги давлрлардаёқ ота-боболаримиз ҳали қабила ва уруғлар ҳолида яшаган пайтдаги туркий қабила ва уруғ тилларида мансаб ва унвон номлари ҳам мавжуд бўлган. Ҳаёт тақозоси билан айрим мансаб ва унвон номларини ифодаловчи лексемалар эскириб истеъмолдан чиққан, баъзилари ўз маъно доирасини кенгайтириб ёки бошқача маъно олиб ҳозирда ҳам ишлатилади. Икки тилли хитой-турк ёдгорликларида қайд қилинган қадимги турк руник ёзувларини шарҳлаш антропонимларни ўқишдан бошланган (2,26). Туркология илмида “Древнетюркский словарь” қадимги туркий ёдгорликлар бўйича яратилган илмий лугатдир. Лугат рус туркологиясининг етакчи мутахассислари томонидан тузилган. Ишда қамраб олинган ёзма ёдгорликларнинг қўлами ниҳоятда кенг: унда VII–XIII асрларда кўк турк (турк-руник), араб, уйғур, моний, брахма ёзувларида туркий тилда битилган турли хилдаги адабий, тарихий, диний-фалсафий мазмундаги асарлар, расмий ҳужжатлар, фаннинг турли соҳаларига оид битикларда қўлланган сўзлар жамланган. Булар қадимги турк хоқонликлари давридан қолган Ўрхун-Енисей ёдгорликлари, уйғур хоқонлиги ва давлатларида яратилган будда, моний ва христиан мазмуни битиклар, расмий ҳужжатлар, “Ўғузхон” достони, Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону лугатит турк” асари, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”, Аҳмад Юғнақийнинг “Ҳибат-ул ҳақойик” асари каби манбалардир.

Ўрхун-Енисей ёзма ёдгорликларида қуйидаги мансаб ва унвон номлари қўлланган: *beg*-бек, *qan*-хон, *qayun*-хоқон, *tegin*-тегин, *toru*–тўра.

Altı baş bodunqa beg ertim. (3,247). Бек сўзи эр маъносини ҳам англатган: *javlaq tilis begdan keru jalqus tul jeg* – Одиной вдовой быть лучше, чем иметь мужа со злым языком” [3, 91]. – Тили аччиқ бекдан (эрдан маъносиди) ёлғиз бева бўлган яхшироқ. Қадимги битикларда бу мансаб ва унвон номи киши исмлари билан ҳам қўлланган: *Bars beg*, *Тоғуз-уғуз беклери*. – Тўққиз ўғиз беклари. Эрак кишилар исмидан кейин келганда *аслзода* маъносини англатган.

Ҳозирги туркий тилларда мансаб ва унвон номларининг кўпчилиги сақланиб қолган. айримлари ўз маъноларини йўқотган, баъзилари эскирган. Масалан, туркий тиллар тарихий тараққиётида *бек* сўзининг фонетик вариантлари ва маънолари сақланган: *бэг ~ бәк ~ бик ~ би ~ бий* ...

Бугунги кунда *бек* шакли қуйидагича қўлланишда. Фразеологик ибораларда қўлланади. *Ўзига хон, ўзига бек*. Бек 2 Эраклар исмининг таркибий қисми. Отабек, Юсуфбек. 3. Ўз беги ёки хўжайинига мурожаатда ёки улар хақида гапирганда ишлатилган сўз. *Қайғурма бегим! Ҳасанали отанг бу тўғрида ҳам сени ёдидан чиқармайди.* (А.Қодирий. Ўтган қулар, 213-б.).

Бека. 1. Бекнинг ва умуман ҳукмдорларнинг, боёнларнинг хотини. 2. Кўчма. Оналага, хонадонга ёки хўжаликка бошчилик қилувчи аёл. *Тўй бекаси-Мирзакаримбойнинг хотини аёлларни уч гуруҳга айирган эди. Ойбек танланган асарлар. Богбонсиз бог мисли чўл-ёбон, Бекасиз уй-сувсиз тегирмон. Қанотли сўзлар.* 3. Кўчма поэт. Бошқарувчи, сардор, эга, соҳиб. *Нечун, ахир, мард гўзаллар бекаси. Гумбурламас Асқар тоғнинг теграси. А.Шер.*

Бекач. 1. Бекнинг ва умуман ҳукмдорларнинг, боёнларнинг хотини ёки қизи. *Бо худо, ўроа бекачи бўлса ўзига, дедим. А.Қодирий. Ўтган кунлар.* 2. Эск. Хотин-қизларга ҳурмат билан мурожаат қилишда ишлатилган сўз. – *Йиғлама бекачим, – деди Тўйбека. (А.Қодирий. Ўтган кунлар)* 3. Кўчма. Эга, соҳиб; ҳукмрон. *Учовлон бекачонр бу гал даргоҳда. Номлари Абукаррам, Буойина, Ойгул. (А.Орипов)* 4. Бекач (хотин-қизлар исми).

Бий. 1. Кабиланинг ёки қабилалар иттифокининг бошлиғи, тўраси; кўчманчи ёки ярим кўчманчи туркий халқларнинг уруғ оқсоқоли. *Хон билгани бий билар, Сўзлагудай ҳақон йўқ. Мақол. Излаганми бийнинг қизи, Жоним синганим, душ қол эди. Алломиш.* 2. Юқори мартабали кишиларни улуғлаш учун ишлатилган сўз ёки уларга берилган унвон. *Сўз улуг мартабали меҳмондўст Ғиждўвон бели Норбўтабий бинни Шодибекка етиб маълум бўлсинки... (М.Жўрабоев, М.Б.)* 3. Қозокларда ва қирғизларда: оқсоқол. *Мен умримда тўрт хон кўрдим, Талай бий кўрдим. (Миртемир, 255-256-б.)*

Туркий халқлардаги хон унвони Ўрхун-Енисей ёдгорликларида *qan* вариантда учрайди. У “хон, ҳукмдор, сардор” деган маъноларни англатган: *taŋγi aŋia tem̆l̆y qan bertim qanin̆ŋ qodur iŋikdin̆.* – Небо так сказало: “Я дало [тебе, тюркский народ], хана, а ты, покинув своего хана, подчинился [табгачам]” [3, 417]. – Тангри шундай деди: хон бердим, хонингни ташлаб, табгачларга бўйсундинг). Масалан: Хон 1. Туркий ва мўғул халқлари ҳукмдорлари унвони. 2. Хонлик қилган, хон лавозимидаги шахс исмига кўшилиб, унвон ифодалайди. Баҳодирхон Хивада, Худоёрхон Қўқонда хонлик қилган. 3. Эркақ ва аёллар исмига кўшилиб, ҳурматни ифодалайди. (4, 410-б.) *Ўзига хон, кўланкаси майдон.*

VI-VIII асрлардаги ёзма ёдгорликларда *qaqan* унвони хон сўзига синоним бўла оладиган “каган, верховный правитель, главный хан” маъносидда келган. Масалан, *Qaqan̆ alp ert̆m̆s aŋγuŋiŋ bilga ert̆m̆l̆y.* – “Каган его – герой, а советник – мудрый” [3, 405]. – *Унинг хоқони айт эди, кенгаиниси билхили эди. Qaqan* исмлар билан компонент бўлиб келган: *bilga qaqan.* – Билге каган, *hit̆m̆n qaqan.* – Бумин хоқон, *elt̆aris qaqan.* – Элтериш хоқон, *qaraqan qaqan.* – Қапаган хоқон ва б. Ўрта асрларда *хоқон* лексемаси Ўрта Осиёда фаол қўлланилган.

Ўрхун-Енисей ёзма ёдгорликларида *tegin* унвони кўп қўлланилади. У хон оиласининг кичик ёшдаги вакиллариининг исмига кўшиб айтилган “шаҳзода” деган маънони англатган. Масалан, *kalt̆egin* [Күлтегин], *oz̆m̆l̆y tegin* [Ўзмиш тегин]. Махмуд Кошгарийнинг “Девону лугатит турк” асарида бу унвоннинг келиб чикиш тарихига қуйидагича тавсиф берилади: *Tegin* сўзи, *аслида, кул* демакдир. *Сўнг бу сўзни хоқония болаларигагина хослаб атадишар. Бу исм Афросиёб болаларига ҳам қўллана бошлади. Афросиёбнинг болалари бирор воқеа, хабарни айтганда ёки ёзганда оталарига ҳурмат юзасидан ўзларини*

камситиб, “қўлингиз фалон қилди” деб “қўлингиз” ўрнида “тегин” сўзини ишлатар эдилар. Сўнг бу сўз уларга от бўлиб қолди. (5, 391-392)

Туркий халқларда идора этувчиларни *тўра* сўзи билан ҳам аташган. Руник ёзмалардаги *toru шакти* “тартиб, қоида” деб қайд этилган: *киш елдин кирса toru тушлуктин иқар*. – “Если сила входит через дверь, закон выходит через дымовое отверстие” [3, 581]. – *Куч эшикдан кирса, тўра мўридан чиқар*.

Тўра юқори табакага мансуб киши: золагон, оксуяк, аристократ. Бу икки қаватли қатта ҳоким Азлархон тўранинг ҳовлиси эди. Ойбон, ҳазил эмиш. 2. Хонлар даврида ва чор Россияси даврида Туркистонда қатта амалдор, ҳоким. *Унга жавоб қилмай, ҳокимдан сўради: -Нима қилайлик бўлмаса, тўрам? (М.Исмоилӣ. Фарғона тоғи отгунча)* Аввалги ёзмалар билан солиштирадиган бўлсак, бунда объект → субъект тарзида семантик кўчиш кузатилади. Тўраларнинг озига урни учун пулни бойлабча беради. (Ойбек. Танланган асарлар) Расмийатчи, бюрократлар назарда тутилади. *Бошқарма идорасига жойлашиб қолган икки-учта ўзбеклармон тўранинг бебоқчилиги туфайли ишлар кетга кетгани* (Ш.Ғуломов. Ёркин уфқлар) 4.Хурмат юзасидан ёки улуғлаб, кишиларнинг номига, унвонига, мансабига, шунингдек, кўчма маънода баъзи нарсаларни билдирувчи сўзларга қўшиб ишлатиладиган сўз. *Паловхон тўра, кўёв тўра* каби. 5.Эркақлар исми(4, 244-б.) Фарғона водийсида саййидлар авлодларига мансуб хонадон аҳлини “Тўра”, “тўраҳон” деб атаб келишган.(6, 84-б.)

Демак, жамият тараққиётининг ҳар бир босқичида ўзига хос лексик қатлам у ёки бу даражада ўз вазифасини адо этади. Лексикада юз берадиган бундай ўзгаришлар натижасида қўллаб келинган лисоний бирликлар семантикасида муайян ўзгаришлар, силжишлар содир бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Вопросы исторического развития лексики тюркских языков. Доклад делегации на XXV международном конгрессе востоковедов. – Москва, 1960.
- 2.Бартольд В.В. Сочинения. –М. –Т.5.-С.26.
3. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969.
- 4.Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилд. 2007-2009.
- 5.Махмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. –Т.:Фан. –Ж 1, 1960.
- 6.Абдулахатов Н., Эшонбобоев Ў. Кўхна Марғилон зиёратгоҳлари. –Ф., 2007.

ЎЗБЕК НОМШУНОСЛИГИ МУАММОЛАРИ

Аҳад ШУКУРОВ,

Тер/ТУ катта ўқитувчиси

Номсиз нарса бўлмаган, бўлмаса ҳам керак. Чунки нарсалардан инсон фойдаланаяптими, демак, улардан унумли фойдаланиш учун ҳам номлайди. Ономастика (номишunosлик) тилшunosликнинг бир соҳаси бўлиб, унда атоқли отлар илмий-назарий ва илмий-амалий асосларда ўрганилади. Ономастиканинг икки кўриниши бўлади: 1) умумий ономастика; 2) хусусий ономастика.

Уларнинг умумий муаммолари бўлгани каби, хусусийлигини асословчи фарклари ҳам мавжуд. Дунёдаги мавжуд номларнинг энг умумий жиҳатларини, одатда, умумий ономастика ўрганади. Ўзбек ономастикаси (ўзбек номшунослиги) хусусий номшуносликнинг бир кўриниши саналади.

Олдинлари атокли от деганда фақатгина кишиларнинг исми, шарифи тушунилган, яъни мазкур термин жуда тор маънода тушунилган. Айни вақтда атокли отларнинг бир канча турлари борлиги илмий тадқиқотларда исботланган. Масалан, антропоним, агрооним, агнионим, аспнионим, венусоним, космоним, гелоним, геоним, гидроним, годоним, дримоним, дромоним, зооним, комоним, кематоним, идеоним, мукаддаслаштирилган жой номлари, некроним, ойконим, ороним, парагогоним, планетоним, фитоним, хремоним, хрононим, хороним, этноним ва бошқалар.

“Ўзбек номшунослиги” тилшунослик, тарих, география каби фанларнинг туташган жойида шаклланган. XX асрнинг 60-йилларидан буён мамлакатимиз ҳудудида қўлланувчи атокли отлар ўрганилиб, маълум бир илмий ютуқлар қўлга киритилди. Бунда Х.Ҳасанов, А. Муҳаммаджонов, Э. Бегматов, А. Саъдуллаев, Р. Х. Сулаймонов, Д. Абдурахмонов, Т.Нафасов, С.Қораев, З.Дўсимов, Б. Ўринбоев, И. Жабборов, Х. Қудратуллаев, Б. Бафоев, К. Маҳмудов, Б. Йўлдошев, К. Шониезов, М. Жўраев, К.Назаров, Э. Қиличиев, М. Қодиров, Н. Ҳусанов, Зиёвуддин Раҳим, Ш.С.Қамолиддин, Х. Узоқов, Т. Раҳматов, Л. Қаримова, Н. Мирзаев, Ж. Латипов, Х. Холмўминов, М. Мамедов, Т. Эназаров, Н. Улуков, С.Турсунов, М. Н. Рамазонава, А. Аҳмедов, К. Юсупов, Н. Охунов, С.Наимов, Ё. Хўжамбердиев, Қ. Хуррамов, С. И. Зинин, О. Бўриев, Ш. Қодирова, Р. Абдуллаев, А. Закиров, А. Туробов, С.Турсунов, П. Ғуломов, М. Мирақматов, Б. Турдалиев, Т.Нуъмонов, А.Ҳайдаров, М.Турдибеков, А. Отажочова, Р. Йўлдошев, А. Аслонов, А.Примов, М. Тиллаева, М. Алмаматов сингари тилшунослик, география, тарих, геология каби фан соҳалари олимларининг хиссаси катта.

Шу билан бирга ўзбек ономастикасининг куйидаги муаммолари бор:

1.Бадний асарлардаги атокли отларни ўрганиб, уларнинг услубий хусусиятларини илмий асосларда тадқиқ этиш.

2.Атокли отларнинг матбуот саҳифаларида берилиши ҳамда таҳлилин илмий тақдир этиш.

3.Атокли отларни турли ономастик объектлар бўйича йиғиб, уларнинг мажмуини имло ва ўқув лугатлари шаклида бериш.

4.Атокли отларнинг имлоси масаласини ўрганиб, уларни қайд этишдаги камчиликларни аниқлаб, уларнинг орфографиясига аниқлик киритиш.

5.Мавжуд атокли отларнинг тарихий кўринишларини аниқлаш.

6.Мамлакатимиздаги атокли отларнинг автоматик картотекасини шакллантириш.

7.Уларнинг услублараро қўлланишини кузатиш ва ўрганиш.

8.Атокли отларнинг номлилик хусусиятларини тўлиқ баён этиш учун уларни илмий таҳлилга тортиш ишларини кучайтириш.

9.Атокли отларнинг изоҳли ўқув лугатларини тайёрлаш.

10.Атокли отларнинг этимологик ўқув лугатларини тузиш.

Айтиб ўтилган муаммоларни, яъни “Ўзбек номшунослиги” доирасидаги мазкур муаммоларни қуйидаги иккита йўл билан ҳал қилиш мумкин:

1) атоқли отларнинг имлосига, маъносига таълим-тарбия бериш жараёнида эътибор қаратиш;

2) атоқли отларни илмий тадқиқ этишни кучайтириш.

Айни вақтда ушбу соҳани таълим-тарбия пизимида ўрганиш, талаба-ёшларга ўргатиш ишлари ҳам бошлаб юборилган. “Географик топонимика”, “Тарихий топонимика”, “Топонимика”, “Ўзбек номшунослиги” “Номшунос-лик масалалари”, “Ўзбекистон топонимикаси”, “Ўзбек тили ономастикаси”, “Ономастика (номшунослик)”, каби фанлар воситасида таълим тизимида ўргатилмоқда. Бу эса таълим тизими билан илмий тадқиқот ишларини ўзаро мувофиқлаштириш имконияти борлигини кўрсатиб турибди.

Буларнинг ҳар бирини билиш, тўғри, аниқ ёзиш ва айтиш уларнинг муаммолари ечимини топишга, кўрсатишга хизмат қилади. Чунки уларнинг ҳар бири ўзларининг ички қисмлари билан бир бутун номлар тизимини англатадики, улар бирлашиб бир бутун ҳолда номлар тизимининг мажмуини ифодалайди. Юқорида қайд этилганларнинг ҳар бири, “Ўзбек номшунослиги”нинг маълум бир бўлаги бўлгани каби, уларнинг мажмуи бу соҳанинг тизимлилигини кўрсатишга хизмат қилади.

ОБЪЕКТЛАР НУҚТАН НАЗАРИДАН НОМЛАРНИНГ ТАСНИФИ

Нурбек ҒАНИЕВ.

*Навоий давлат қончилик институтини
катта ўқитувчиси*

Ном деганда фақат атоқли отларнинг бир кўриниши бўлган инсоннинг номини тушуниш ушбу терминни тор маънода англашдир. Бу ҳол, шубҳасиз, номи бор бўлган бошқа объектларга нисбатан олиб қаратганда унчалик тўғри эмас. Аслида, ном “Ономастика(Номшунослик)”да, хусусан, “Ўзбек номшунослиги”да бир қанча объектларнинг номи маъносида қўлланади. Яъни борлиқдаги барча нарсаларнинг бирдан иккинчисини фарқлаш учун ишлатиладиган атоқли отлари деган маънода ном ва уларга ҳос номлар тизими шакллантирилган. Бу *ном* терминини кенг маънода тушуниш ҳисобланади. Шунинг учун *инсон, қабилла, халқ, тоғ, тена, қабристон, ариқ, ўсимлик, ҳайвон, шайхар, қишлоқ, гузар, кўча, йўл, йўлак, берк кўча, қўнриқ, ўлка, давлат* қабилларнинг номлари тилшуносликдан бошқа фанларнинг соҳаларидаги номлар билан биргаликда номшуносликка оид тадқиқотларнинг объектлари саналади. Номшунослик соҳасининг фандаги махсус тушунчаларни аниқлаш терминлари бор. Номшуносликка оид тадқиқотларни ўрганиш объекти сифатида уларнинг объектлар нуктаи назаридан умумий таснифини қуйида бирма-бир кўрсатиб, изохлаб ўтиш шарт:

1. *Агроотим* – шаҳардаги майдон, бозор ва экинзор ерларнинг номлари. Экинларнинг тури кўп бўлгани каби, агроотимларнинг ҳам миқдори кўп бўлиши табиий. *Агроотимика* – номшуносликнинг майдон, бозор ва экинзор

ерларнинг номини ўрганувчи бўлим номи. *Агрономия* – шаҳардаги майдон ва бозор ҳамда экинзор ерларнинг номлари мажмуи.

2. *Агионим* – илоҳий (диний) номлар¹. *Агионимия* – илоҳий (диний) номлар йиғиндиси. *Агионимика* номшуносликнинг илоҳий (диний) номларини ўрганувчи бўлими.

3. *Антропоним* – кишиларнинг исми, фамилияси (отасининг исми), шарифи, тахаллуси ва лақабларидир. *Антропонимия* эса кишиларнинг исми, фамилияси ва лақаблари йиғиндиси. *Антропотопоним* – кишиларнинг исми, фамилияси ва лақаблари асосида шакллланган топонимлар. *Антропонимика* номшуносликнинг киши исми-шарифини ўрганувчи бўлими. *Антропотопонимия* – кишиларнинг исми, фамилияси (отасининг исми), шарифи, тахаллуси ва лақаблари асосида шакллланган топонимларнинг мажмуи.

4. *Астномим* – шахар номлари. *Астномимия* – шаҳарларнинг номлари мажмуи. Урбонимия – шаҳар ичидаги объектлар номи. Шаҳарлар ҳам тарихий, ҳам синхрон планда ўрганилади. Чунки улар тарихда ва айни вақтда ҳам мавжуд, янгилари пайдо бўлмоқда. *Астномимика* номшуносликнинг шаҳар номларини ўрганувчи бўлими.

5. *Венусоним* – **Венера** планетасидаги табиий географик объектлар номи. *Венусонимия* – **Венера** планетасидаги шундай объектларнинг номи мажмуи.

6. *Гелоним* – ботқоқликлар номи. *Гелонимия* – ботқоқликлар номи мажмуи. Ботқоқликлар сувли жойлар атрофида учрайди. *Гелонимика* номшуносликнинг ботқоқликлар номларини ўрганувчи бўлими.

7. *Геоним* – планета, географик жараён ва горизонтлар номлари. *Геонимика* номшуносликнинг геонимлар мажмуини алоҳида ўрганувчи бўлими. *Геонимия* – планета, географик жараён ва горизонт номлари мажмуи.

8. *Гидроним* – сув иншоотлари (дарё, арик, ховуз, сув омбори)нинг номи. *Гидронимия* – сув иншоотларининг номлари мажмуи. *Гидронимика* номшуносликнинг сув иншоотлари номларини ўрганувчи бўлими.

9. *Годоним* – шаҳар кўчалари номлари². *Годонимика* номшуносликнинг шаҳар кўчаларини ўрганувчи алоҳида бўлими. Годонимларнинг йиғиндиси годонимия ҳисобланади.


10. *Дигитоним* – кишиларнинг қилган ишларига маънавий ва рухий рағбатлангириш учун таъсис этилган унвон (фахрий, диний ва илмий), орден, медаль ва мукофотларнинг номлари. *Дигитонимика* номшуносликнинг унвон, медаль ва мукофотларнинг номларини ўрганувчи бўлими.

11. *Дримоним* – ўрмон участкаси номи. *Дримонимия* – ўрмон участкалари номи мажмуи. *Дримонимика* номшуносликнинг ўрмон участкалари номларини ўрганувчи бўлими.

12. *Дрономим* – йўл ва йўлакчаларнинг номлари. *Дрономимика* номшуносликнинг йўл ва йўлакчаларнинг номларини ўрганадиган бўлими. *Дрономимия* – йўл ва йўлакчаларнинг номлари мажмуи.

¹ Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1977. – С. 26. 27. 42.

² Карант А. В. Супераская. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. – С. 61.



13. *Зооним* – хайвон номлари. *Зоонимия* хайвон номлари мажмуи. *Зоотопоним* – хайвон номлари билан ясалган топонимлар. *Зоонимика* номшуносликнинг хайвон номларини ўрганадиган бўлими. *Зоотопонимия* – хайвон номлари билан ясалган топонимлар мажмуи.

14. *Комоним* – ойконимнинг тури бўлиб, кишлоқ номи. *Комонимия* – кишлоқ номлари тўдаси (мажмуи) саналади.

15. *Ктематоним* ва *идеоним* – сарлавҳа ва асар номлари. *Ктематонимия* ва *идеонимия* – сарлавҳа¹ ҳамда асар номлари мажмуи. Бу терминлар ифодалайдиган номлар ҳам йилма-йил кўпайиб бормоқда.

16. *Некроним* – қабристонларнинг номлари. *Некронимия* – қабристонларнинг номлари жами. Инсон яшаган жойда уларнинг қабристони бўлади. *Некронимика* номшуносликнинг қабристон номларини ўрганадиган бўлими.

17. *Муқаддаслаштирилган жой номлари* – диний ҳамда илохий, шунингдек, зиёратгоҳ жойларнинг номлари. Мустақиллик шарофати туфайли топонимларнинг ушбу гуруҳи ҳам илмий ва амалий жиҳатдан махсус ўрганилиши ҳамда тадқиқ этилиши зарурият бўлиб қолди.

18. *Ойконим* – шаҳар, кишлоқ, маҳалла, овул каби топобъектларнинг номи. *Ойконимия* – аҳоли пунктлари номининг мажмуи². *Ойконимика* – номшуносликнинг аҳоли пунктлари номларини ўрганувчи бўлими.

19. *Океаноним* – денгиз ва океан номлари, уларнинг ичи ҳамда атрофидаги объектларнинг номлари. *Океанонимия* – денгиз ва океан номлари, уларнинг ичи ҳамда атрофидаги объектлар номларининг тўдаси.

20. *Ороним* – баланд, пастликлар, тоғ, тепа, адир, қоя қабиларнинг номлари. *Оронимия* – баланд, пастлик, жарлик, тоғ, тепа, адир, қиялик, қоя қабиларнинг номлари жами.

21. *Парагогоним*³ – қорхона, ташкилот номлари. *Парагогонимия* – қорхона, ташкилот номлари йиғиндиси. Янги ташкилотларнинг пайдо бўлиши парагогонимларнинг номига эътиборли бўлишни талаб қилади. *Парагогонимика* номшуносликнинг қорхона, ташкилот номларини ўрганадиган бўлими.

22. *Планетоним* – планеталар номи. *Планетонимия* – планеталар номи мажмуи.

23. *Фитоним* – мавжуд ўсимликларнинг номлари. *Фитотопоним* – ўсимлик номларидан шакллانган жой номлари. *Фитонимика* номшуносликнинг ўсимликлар номини ўрганадиган бўлими. *Фитотопонимия* – ўсимлик номлари асосида шакллانган жой номлари жами.

24. *Хремотоним* – материаллар номи. *Хремотонимика* номшуносликнинг турли материалларнинг номини ўрганувчи бўлими. *Хремотонимия* – материаллар номи тўдаси. Янги-янги материаллар чиқаётганлигини эътиборга олинса, улар миқдоран кўп учраши табиий ҳол.

¹ Топадиев И. Сарлавҳалар стилистикаси – Т., 1995.

² Караев С. Ойконимия Ўзбекистанда. Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада – Т.: С. 50.

³ Ибраҳимов Г. “Ўзбекистон топонимикаси” номи махсус курси ўқитилиш методикаси – Т., 1999. 20-бет.

25. *Хрононим* – тарихий воқеалар номи. *Хрононим*лар икки хил бўлади: 1) тарихий воқеаларни билдирувчи хрононимлар; 2) тарихдаги байрамларни англатувчи хрононим (**Мустақиллик куни**, **Наврӯз байрами**, **Ҳосил байрами** каби)лар. *Хрононимия* тарихий воқеалар номларининг йиғиндиси. Уларда халқимизнинг ўзига хос тарихию тақдири муҳрланган. *Хрононимика* – номшуносликнинг тарихий воқеалар номини ўрганувчи бўлими.

26. *Хороним* – вилоят, туман, шаҳар ва табиий географик объектлар номи. *Хоронимия* – вилоят, туман, шаҳар кабилар номининг жами.

27. *Этноним* – уруғ-қabila, элат ва халқларнинг номлари. Бу термин иккинчи бир ном билан ҳамда генонимлар ҳам дейилади. *Этнонимлашув* – апеллятив лексикада қўлланувчи сўзларнинг этнонимга кўчиш жараёни саналади. *Этнонимия* – уруғ-қabila, элат ва халқларнинг номлари мажмуи. *Этнотопоним* – уруғ-қabila, элат ҳамда халқларнинг номлари асосида шаклланган топонимлар. *Этнотопонимия* – уруғ-қabila, элат ва халқларнинг номлари асосида шаклланган топонимлар жами. *Этнонимика* – номшуносликнинг уруғ-қabila, элат ва халқларнинг номларини ўрганадиган бўлими.

28. *Эрготопоним* – фабрика, завод, шахта кабиларнинг номларидан юзага келган топонимлар (жой номлари). *Эрготопонимия* – фабрика, завод, шахта кабиларнинг номларидан шаклланган топонимлар мажмуи.

Хуллас, номшуносликка оид бўлган илмий-назарий ва амалий тадқиқотларда ўрганиладиган ономастик объектлар анча миқдорни ташкил этади. Шунинг учун ҳам бу соҳада баҳсли ҳолатлар кўп учраб туради. Ономастик объектларнинг бир-биридан фарқланиши, тадқиқи ва таҳлили масалалари ўзбек тилшунослиги соҳасида кўп тартибида турган долзарб муаммолар жумласига киради.

“АЛПОМИШ” ДОСТОНИДАГИ ЗООНИМЛАРНИНГ ЛИСОНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Барчии ЮНУСОВА,
НамДУ тадқиқотчиси*

Атоқли отларнинг бир тури зоонимлардир. Ҳайвон ва бошқа хил мавжудотларга қўйилган махсус лакаб-номлар зоонимлар ҳисобланади.¹

Зооним термини грекча *зоо* – “ҳайвон” ва *онома* – *ном* сўзларининг бирикувидан ясалган бўлиб, *ҳайвон номи* деган луғавий маънони англатади. Ўзбек тилида қуш ва ҳайвонлар учун махсус қўйилган лакаб-номлар азалдан мавжуд. Ўзбек тилидаги зоонимларни қуйидагича гуруҳлаш мумкин:

- 1) **итларнинг номлари:** *Кўкўз, Арслон, Олапар* каби;
- 2) **отларнинг номлари:** *Ғирот, Буроқ, Дунон, Бойчибор, Ғирқўж* каби;
- 3) **сиғирларнинг номлари:** *Мунчоқ, Ғоамши, Читор* каби;
- 4) **қушларнинг номлари:** *Ҳумо, Селмуруғ* каби.

Зоонимлар алоҳида якка қуш ёки ҳайвонга берилган лақаб-номлар бўлгани учун атоқли от, Ит, мушук, от, баъзи ҳолларда қушларга нисбатан ҳам махсус ном бериш ўзбек тилида кенг тарқалган.¹

Ўзбек халқ оғзаки ижоди намуналарида ҳам зоонимлар кенг қўлланган. Туркий халқларда, жумладан, ўзбекларда от мукаддас жонзот саналади. Айниқса, қахрамон ва пахлавонлар оти ўзбек халқ оғзаки ижодидаги етакчи мавзулардан бири ҳисобланади. Чунки Алпомишнинг Бойчиборсиз, Гўрўғлини Ёирқўксиз тасаввур қилиш мумкин эмас. Халқ достонларидаги зоонимлар бадийий ғимсол даражасига кўтарилган бўлиб, ўзининг дисоний жиҳатлари билан асар муңларижасида алоҳида бадийий қиммат ва услубий вазифа касб этган.

Халқимизда *"От битон – қанот битон"*, *"От – йиғитнинг йўлдоши"*, *"От – йиғитнинг қаноти"* каби ўнлаб мақоллар бор. Уларда ўзбекнинг отга бўлган муносабати аниқ ва равшан ўз ифодасини топган. Отнинг аждодларимиз ҳаётида нақадар муҳим ўрин эгаллаганлигини афсона, ривоят, қўшиқ, эртақ, достонлар матнидан ҳам билса бўлади. Ота-боболаримиз отга, айниқса, зотли ва яхшисига, ҳеч қачон ҳайвондек муносабатда бўлмаган. Улар ҳамиша от билан суҳбатлашишган, ўз сирларини отга айтишган, таъвишларини ҳам, қувончларини ҳам от билан баҳам кўришган.²

"Алпомиш" достонидаги атоқли атоқли отлар доирасида зоонимлар алоҳида ўрин тутадн. Бойчибор – достондаги жанговар от. Бойчибор зооними морфемик таркибига кўра, қўшма сўз шаклида бўлиб, *"бой"* отига *"чибор"* сўзининг қўшиливидан ясалган.

Ўзбек тилида *бой* ва *чибор* сўзлари ўзига хос луғавий маъно англатади. *Бой* полисемантик сўз бўлиб, *"ҳеч нарсадан камчилиги йўқ, ҳамма нарсадан бадавлатир, тўқис"* деган маъноларга ҳам эга. *Чибор* сўзи ўзбек шеваларига хос сўз бўлиб, олатий тилда унинг *читор, олачитор* каби фонетик вариантлари маъжуд, луғавий жиҳатдан *"олатуси, олачитор"* деган маъноларни англатади.³ Масалан, *читор товуқ, читор илон* каби. Демак, *Бойчибор* соф туркий луғавий воситалар асосида шаклланган бўлиб, *"ҳар жиҳатдан бекам, тўқис бўлган ола туси"* от дегани. Бу достондаги Бойчибор тасвири билан боғлиқ ўринларда яққол кўринади:

Ҳайвонзоднинг асл бораир Бойчибор,

Ақл бораир одамзоддан зиёда ("Алпомиш", 191-б.)

Халқ оғзаки ижоди намуналаридан маълум бўлишича, *Човқар Чўлтоқ* афсонавий сув айғирларидандир. Бу бобо тулпор Довон аргумоклари ҳақидаги ривоятдаги тоғда яшовчи самовий айғирларни эслатади. *"Читор"* ва *"човқор"*, аслида, бир сўз бўлиб, *ола* демакдир. Шу боис "Алпомиш" достонидаги *Бойчибор* баъзан *"Човқор қўқ"* дея таъриф-ланади:

Ўзи мундай келган ақам Човқар қўқ,

Қўйруғидан берисида кири йўқ,

Минганларнинг бўлар экан қўнғай тўқ,

¹ Карант, Бегмагов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 18.

² Мадаев О. Алпомиш. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 64.

³ Ўзбек тилининг ятоқли тутати. – Москва: Рус тили, 1981. – 2-ж. – Б. 370.

Бунн мнгсанг, ака, сенга дунман йўқ.

Бундан кўринадики, *чибор*, *чолвор* от “*хосиятли, покнза ол*”. Шуниси диққатга молиқки, туркий элатлар ва турклар билан яқиндан муносабатда бўлган халқлар эпосида қахрамоннинг оти кўпинча *ола*, яъни *чибор тусли* бўлади. Бунн исботлайдиган далил шундаки, достондаги Кайкубоднинг оти ҳам *ола* бўлиб, *Олатой* деб аталади:

Эр Кайкубот хаста кўнглини хушлади,

Олатойнинг жисловидан ушлади. (“Алпомиш”, 221-б)

Олтой зооними морфемик тузилишига кўра, “*ола*” сифатига “*той*” отини қўшилиувидан (сифат + от) ясалган. *Олатой* ташки белгиси ок – малла тусли, саман той демакдир.

Алпомиш достони билан танишгач, достоннинг бош қахрамони Хакимбек – Алпомишнинг ўзи десак, хатога йўл қўямиз. Чунки ижодкор бахшиларимиз достонни яратиш оркали халқимизнинг севиқли ва суюқли хайвони отга ҳам ўзига ярашиқли хайкал ўрнатишган. Халқ орзусига ярашиқли хайкал ўрнатишган. Халқ орзусига яраша қахрамонларига мос отни раво кўради. *Ғирот*, *Ғирқўк*, *Бойчибор* ана шундай отлардандир.¹

Қахрамоннинг отини таърифлаш ўзбек халқ оғзаки ижодидаги етакчи мавзулардан биридир. Чунки Алпомишни Бойчиборсиз тасаввур қилиб бўлмагани сингари, Ғўрўглининг муваффақиятлари Ғирқўк туфайлидир. Достонларда афсонавий от тимсолининг мукаммал ишланганлиги халқимизнинг қадимий тотемистик тасаввурлари билан боғлиқ. Деярли кўчманчи ҳаёт кечирган туркий қабилалар турмушида от бениҳоя катта роль ўйнаган, ўз-ўзидан бу мўътабар жониворга сўғиниш анъанаси келиб чиққан. Ғарбий ҳушларда ок, шарқда бўз, шимолда қора, жанубда тўрик рангли отлар боқилган.

Афсонавий от тимсолини чуқурроқ текшириш учун “Алпомиш” достонига мурожаат қилайлик. Жанговар от – Бойчибор. Қозок, қорақалпоқ тилларида *Байшубар* вариантда қўлланади. *Бойчибор* – *ола* тусли от. *Чибор* сўзи жонли сўзлашувга хос бўлиб, *чибор* фонетик вариантыга ҳам эга, “*ола*”, “*ола-була*” деган маъноларни англатади.² Демак, Бойчибор – Алпомишдай бекнинг, бойнинг оти бўлганлигига, рангининг олалигига, *ола* от Тарлоннинг боласилигига кўра шундай аталган.

Олтой эпосида от қахрамоннинг муқаддас қабила хомийсига айланади. Машҳур ботири Олтой – Буучайнинг ғайри табиий кучга эга уч оти бор эди. Биринчиси Темчи – бўз айғир, Кўк тангрисидан; иккинчиси – Бойчукур – *ола* от, Боен тангрисидан; учинчиси – Улбўс – чопқир – бу ҳам *ола* бўлиб, Боен тангрисининг туҳфаси деб таърифланади.³ Бойчукур ҳамда Улбўс чокур билан Алпомишнинг жанговар оти Бойчиборнинг номлари орасидаги ғалати ўхшашлик туркий халқлар оғзаки ижодидаги афсонавий от тимсолининг тарихий асослари бир эканлигини исботлайди. Қадимий турк қабилалари

¹ Мидаяв О. Алпомиш. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.64

² Қарағ. Ўзбек тилининг изохли дугати. – Москва: Рус тили, 3, 365-, 370-бетлар.

³ Потатов Л. П. Конь в верованних и эпосе народов Саяна. – Алтая. – Фольклор и этнография. Москва. 1977. С.172.

тилида баъзи от номлари рангини англаувчи сўзлар маросим номлари сифатида қўлланади. Ёдномаларда бу вазифани “ола” ва “чоқур” сўзлари бажаради. “Човкар Чўнток сувда чиққан тулпорлардан эди, ҳамма тулпорларнинг отаси эди. Ёирқўк отлик хурматини килиб етмади. Бўлмаса Ёўрўғлининг отидан учар қуш қутулмас эди”.¹

Ҳумо // Ҳумой – афсонавий қуш бўлиб, унинг сояси тушган одам бахт-ли ва давлатли бўлади, дейилган ривоят бор. У “жаннат қуши”, “бахт ва давлат келтирувчи қуши” деб кўрсатилади². Шунинг учун отни танлашда бобоси Добонбўйдан қолган кўрикни олиб: “Саман сарига туш, ё олапocha тўрига туш, шапакнинг зўрига туш”, – деб ишга киришади. Кўрикка тушган “бир чилор от” унга ёкмайди ва уни қўйиб юборади. Бирок уч мартагача кўрикка битта от тушаверади. Аслини олганда, шу воқеанинг ўзи ҳам Ҳакимбекка айнан мана шу от насиб этганидан дарак беради. Синглиси Қалдирғоч акасининг кўнглини кўтариб: “...буни минган одам кўн ерларни кўради, мақсадини топиб қолади”, – дейди. Қалдирғоч тилидан айтилган шеърини парчада Бойчиборнинг таърифи жуда меҳрли сўзлар билан келтирилади. Қадимги афсона ва ривоятларга кўра, отни киз бола юшиб тараса, отда ижобий ўзгариш рўй берар экан. Шу боис Бойчиборни акасига Қалдирғоч эгарлаб бериши лавҳаси диққатимизни ўзига жалб этади.³

Синчилар бутун маҳоратларини ишга солиб пойгада катнаша оладиган тулпорларни саралайдилар. Кўкалдошнинг синчиси Бойчиборни яхшилаб кўради: “Қаричлаб кўрди: сағрисиининг устидан қулоғининг ўртасигачайин тўксон олти қарич чиқди, айил торғуви олтимиш уч қарич чиқди. Сағрисиини силаб, бурнидан найча қўйиб, дурбин билан қараб қўйдиқим, қўлтиғида тўрт ярим газ қаноти буклам-тарам бўлиббаётди”.(122-б.) Бундай зотдор отни кўрганидан хайратга тушган синчи Кўкалдошга бор ҳақиқатни айтади. Кўкалдош синчини ўзбекнинг берган пораси эвазига Бойчиборни мактаётган хисоблаб кўзларини ўйиб олади. Бирок бу адолатсизлик Кўкалдошнинг кўнглида пайдо бўлган қушқулани йўқота олмайди. Балки Бойчиборни кўрган Кўкдўнан оқват ейишдан қолади. Кўкалдош синчига ўз тулпорини даволаб беришни сўраганида, синчи унга яна ҳақиқатни айтади.⁴

“Алпомиш” дostonидаги от номини билдирувчи зоонимлар фонетик, луғавий вариантларига ҳам эга. Жумладан, *Бойчибор* зоонимининг дoston-даги *Читор*, *Чибор* каби вариантлари учрайди:

Чибори дўкиллаб йўртди. (“Алпомиш”,105-б)

Чипсириб қилинайди бойловли Чибор,

Сийсатман зарб кўрсатди қалмоқлар. (“Алпомиш”,135-б)

Дostonда **Кўкдўнан** зооними ҳам қўлланган. Кўкдўнан – Кўкаманининг оти: *Кўкамани аёл Кўкдўнанини қилиб, бир ўзи айрилиб, қўлга овға чиқиб кетади.* (“Алпомиш”, 45-б)

¹ Алпомиш. – Тошкент, 1979. – Б.77

² Ўзбек тилининг изохли дostonи. – Москва: Рус тили. 1981. II. 466-бет.

³ Мадаев О. Алпомиш. – Тошкент: Маънавият. 1999. – Б.67.

⁴ Мадаев О. Алпомиш. – Тошкент: Маънавият. 1999. – Б.67.

Kўkdўnan зооними таркибан *кўк* ва *дўнан* сўзларининг қўшиливи-дан ясалган. *Кўkdўnanнинг* дostonда *Дўнан* варианты ҳам кузатилади:

Чу, дейди Дўнанга камчи урди,

Яннидай дўн оқиб боради. ("Алпомил", 142-б)

Тахлиллардан кўринадики, ўзбек фольклори зоонимлари tadқиқи ҳам муҳим лексик-семантик ва услубий моҳиятга эга.

XALQ MAQOLLARI TARKIBIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLAR TADQIQI

Hulkarbegim UBAYDOVA,
BuxDU talabasi

Har bir til lingvistik birliklari tarkibida o'sha xalqning tarixiy o'tmishi, ma'naviy qiyofasi aks etgan bo'ladi, shu jumladan, mazkur jihat nomshunoslik bo'limi obyektli hisoblangan onomastik birliklarda ham kuzatiladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ular faqat ijtimoiy hayotdagina muhim o'rin tutib qolmay, balki tilshunoslik fani uchun ham muhim tadqiqot manbai bo'lib xizmat qila oladi. O'zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili R. S. Nuriddinova, Navoiy asarlarining onomastikasi Sh. Yoqubov, "Avesto" onomastikasiga qiyoslangan holda Xorazm onomastikasining tarixiy-lisoniy tadqiqi M. B. Tillayeva, Abulg'azi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari onomastikasi M. T. Turdibekov tomonidan nomzodlik ishi darajasida o'rganilgan.

Xalq maqollari tarkibida ham onomastik birliklar keng doirada qo'llaniladi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

a) antroponimlar (shaxs va ularga atab qo'yilgan nomlar) ishtirok etgan maqollar:

-Ishni Ismatqiladi. Lofni Toshmat uradi [1:184]. Mazkur maqolda og'ir yumushni bajargan insonlarning emas, aksincha "haybarakallaclular"ning tili uzun bo'lishi haqida gap ketmoqda.

-Tug'ilmagani Tilovga tilla beshik [1:189]. Bunda xalqimizning farzand ko'rish borasidagi azaliy an'anasi aks etgan bo'lib, tilab olingan bola uchun hali u tug'ilmasidan turib, yaxshi niyatda hozirlik ko'rilgan boshlashi haqidagi fikr ilgari surilgan.

-Zamona oxir bo'lsa, Echkinning oti - Abdulkarim bo'lar [1:231]. Bunda arzimagan narsani og'iz ko'pirtirib maqtash tanqid ostiga olingan.

-Alixo'ja - Xo'jaali [1:114]. Mazkur paremiologik birlik "Ikki o'n besh bir o'ttiz" maqoliga sinonim bo'lib, unda ikir-chikir yumushlar bilan boshni qotirmaslik lozimligi haqida so'z borgan.

-Aql - Hasan, Odob - Husan [1:121]. Bunda inson botinini bezovchi ikki omil aql hamda adab, aslida, egiz tushunchalar ekanligi ta'kidlangan.

-Hasan aka quvsin, Qo'chqor aka ichsin [1:319]. Mazkur maqol orqali kishini ichkilikning xalq orasida isnodga qoldiruvchi illat ekanligi uqtililadi.

-Otasini so'rasang - Ahmadi forig', Onasini - so'rasang to'voni yorig' [1:157]. Ushbu maqol xalqimizning tarixiy o'tmishi bilan bog'liq bo'lib, uning

ma'nosi qadimda zodagon, badavlat kishilar kambag'al odamlarning ham qizlariga uylanaverganliklariga borib taqaladi. Bunda: "Men kazo-kazolaming avlodidanman", – deb maqtangan kishilar ham, aslida, oddiy xalq orasidan chiqqanligi haqida ishorabor.

-Hazil-hazil. Hazilni tushunmagan kal Fozil [1:344]. Bunda azaldan hazil-mutoyibaga o'ch bo'lgan xalqimiz qarshlari aks etgan.

-Hayronman Shoniyozning ishiga. Etik sotib paytava olib yurishiga [1:345]. Mazkur maqol orqali ish ko'zini bilmaydigan kimsalar tanqid ostiga olingan.

-Borida-Hotami, Yo'g'ida – motam [1:408]. Ushbu maqol xalq orasida mashhur bo'lgan Hotami Toy hikoyati bilan bog'liq. Unda mol-u mulki borida hotamtoylik qilib, so'ng davlati qo'ldan ketgach, nima qilarini bilmay qoladigan ayrim qo'shtirnoq ichidagi boyvachchalar holati aks etgan.

-Cho'pni ko'rsang, Xizr bil [1:439]. Mazkur maqol esa insoniyatga baxt, omad yog'diruvchi Xizr alayhissalom nomi bilan bog'liq bo'lib, u orqali kishilar doimo savobtalab bo'lishga chorlangan.

-Suv tilasang, Sulaymondan tila [1:414]. Maqolda tilga olingan Sulaymon ismi yahudiylarning donishmand podshosi nomi bilan bog'liq bo'lib, mazkur ism turkiy xalqlar nasrining ilk namunalaridan bo'lmish "Qisasi Rabg'uziy" asarida dunyoga egalik qilgan to'rt podshohdan biri sifatida ham zikr etilgan [2:36]. Ushbu maqol orqali o'zing ehtiyojmand bo'lgan narsani yana boshqa bir ehtiyojmanddan emas, balki shu narsa serob bo'lgan kishidan so'ra, zero ikki tomon ham xijolatda qolmasin degan fikr ilgari surilgan.

b) toponimlar ishtirok etgan maqollar: *-Yonida bir puli yo'q, G'irvonga hokim [1:184].* Maqolda keltirilgan G'irvon – Namangandagi qishloq nomi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur maqol ayni Namangan va uning atrof hududlari aholisi orasida keng tarqalgan.

-Qul qutursa, Qo'ng'irotdan top [1:184]. Ushbu maqolda keltirilgan Qo'ng'irotdan nomi uning o'zlashma emas, balki sof o'zbek xalqi leksikasiga xos ekanligidan dalolat beradi. Bunda erkinlik, hurlik g'oyalari ilgari surilgan bo'lib, bu kabi ezgu maqsadlarga intilganlar Alpomish yurti – Boysun-Qo'ng'irotda talpinishi haqida go'zal o'g'it bor.

-Qarshining arpasini yegan eshak, Samarqanddan qaytib keladi [1:239]. Mazkur maqol esa Qarshining geografik joylashuvi, og'ir iqlim sharoiti bilan bog'liq bo'lib, suv tanqisligi sabab Qarshi hududida, asosan, arpa ekiladi va bu qadim odat xalq donishmandligi bo'lgan ushbu maqolda ham o'z ifodasini topgan.

-Beva xotinga Buxorodan it hurar [1:248]. Bilamizki, Buxoro azaldan diniy onat yurti bo'lgan. Bejizga Buxoroga nisbatan "Qubbar ul-islomidin ast" deyilmagan.

-Fil tushida Hindistonni ko'rar [1:11]. Bunda har bir kimsa uchun o'z Vatani aziz ekanligi g'oyasi ilgari surilgan.

-Gap desang qop-qop. Ish desang Ashtarxondan top [1:25]. Fikrimizcha, mazkur maqol yaratilishi sobiq podsho Rossiya istibdodi davriga to'g'ri keladi, sababi shu davrda Turkiston general-gubernatorligining shimoliy sarhadlari aynan

Rossiyaning Orenburg, Astraxan o'lkalariga tutash bo'lgan. Ushbu maqolda esa ishyoqmas odamga ish buyunib, foyda topmaslik haqidagi hayotiy fikr bayon etilgan.

-*Eshak Makkaga borib halol bo'lmas [1:43]*. Bunda butun umri davomida harom luqma yeb, noloyiq ishlar bilan shug'illanib kelgan odamning Olloh oldidagi gunohlari Makka ziyorati bilan yuvilib qolmaydi degan g'oya bor.

-*Bir ko'ngil – imorati ming Makka ziyorati [1:53]*. Mazkur maqol Alisher Navoiyning bir muskinning dilini xushlash musulmonchilik uchun nihoyatda savobli ish hisoblanishi haqidagi "*Kimki bir ko'ngli huzuqning xotirin shod aylagay, Oncha horkim Ka'ba vayron o'lsa, ohod aylagay*" baytini yodga soladi.

-*Inson – gavhari Qobul [1:64]*. Bunda Olloh yaratilari ichida gultoji – inson ekanligi qayd etilib, u eng bebaho tosh bo'lgan Qobul gavhariga tenglashtirilgan.

-*Turkistonda qo'y bir so'm, Kela-kela o'n bir so'm [1:92]*. Bunda buyumning asl bahosi qo'ldan qo'lga o'tib borgan sari ortib borishi tanqid ostiga olingan.

-*Nasib etsa kelar Shom-ulroqdin. Nasib yitsa, ketar qosh-u qaboqdin [1:357]*. Bunda har bir ish Olloh xohish-irodasiga bog'liq ekanligi g'oyasi ilgari surilgan.

-*Buxoroda moli borning ko'ngli to'q [1:419]*. Mazkur maqol orqali ikki xil ma'no anglashilishi mumkin: 1) Buxoroning iqlim sharoiti quruq-issiq ekanligi tufayli bu hududda dehqonchilikka nisbatan chorvachilik bilan shug'illanish mahsuldor. Shu sabab Buxoroda chorva mollari bo'lmagan xonadonni topish qiyin. Ular rizq, nasiba, oilaviy totuvlik ramzi hisoblanadi; 2) mazkur maqol Buxoroning tarixiy o'tmishi bilan ham aloqador bo'lishi mumkin. Ma'lumki, Buxoro hududi xonlik, amirliklar davridanoq qattiq qo'riqlangan, o'g'rilik, talonchilikka nisbatan shafqatsiz jazo qo'llanilgan. Shu sabab ushbu maqolda tinch aholining hech xavfsiramay o'z mehnat faoliyati bilan shug'illanaverishi mumkinligi ta'kidlangan.

-*Tokni qirqmasang. Qashqarga yetar [1:456]*. Bunda har bir ishda me'yorni bilish kerakligi haqida so'z yuritilgan;

c) zoonim (hayvon nomlari) ishtirok etgan maqollar:

-*Uyda bir osh uni yo'q. Itining oti – Marjonul [1:189]*;

-*Ichgani oshi yo'q. Itining oti – "Boytevat" (katta ko'ppak it)*. Yuqoridagi ikki maqol ham ko'rpaga qarab oyoq uzatmaydigan, dabdabaga o'ch kimsalar

tanqid ostiga olingan. Umuman olganda, xalq maqollari tarkibidagi onomastik birliklarni tadqiq etish ularning ma'no xususiyatlarini yanada teranroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollarning aynan qaysi miflat vakillari ma'naviy merosi ekanligini yorqin ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T., Musaqllov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari – Toshkent: Sharq NMAK, 2013.

2. Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1- kitob -- Toshkent: Yozuvchi, 1990.

NOMSHUNOSLIK VA KONVERSIYA

*Dilnoza TOG'AYEVA,
GulDu talabasi*

Bugungi tilshunoslikning zamonaviy bo'limlaridan biri nomshunoslik, ya'ni onomastikadir. O'zbek onomastikasining shakllanishi va rivojlanishida prof. Erms Begmatov katta hissa qo'shgan. Uning "Kishi nomlari imlosi" (1970), "O'zbek ismlari imlosi" (1972), 14600 ismning izohini o'z ichiga olgan "O'zbek ismlari" (1999) kitoblari alohida ahamiyatga ega. A.Hojiyevning "O'zbek terminlarining izohli lug'ati" kitobida onomastikaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bo'limiga onomastika deyiladi".

A.Nurmonovning kitobida onomastikaning bir necha turlari berilgan. Atoqli otlar nomlovchi obyekti turiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi: antroponimlar shaxs va ularga qo'yiladigan nomlar, toponimlar geografik obyektlar va ularning nomlari, gidronimlar suv havzalari va ularga qo'yiladigan nomlar va boshqa turlari mavjudligini aytib o'tgan. Shaxsqa qo'yiladigan nomlarda: ota-onaning orzusi (Baxtiyor, Umid, Go'zal), bolaning tashqi belgisiga ko'ra (Xoldor, Anor), xalqning urf-odati (O'roqvoy, Teshaboy), tug'ilgan kuni (Odina, Jumavoy, Navro'z) o'z aksini topgan bo'ladi. Turli xil obyektlarning muayyan nom bilan atalishida ularning ma'lum belgilari e'tiborga olinadi. Masalan, Hamzaobod shahri shu joyda ma'lum davr yashab, mehnat qilgan Hamza nomi bilan bog'liq; *Qipchoq*, *Saroy* qishloqlarining nomlari shu qishloq aholisining etnik kelib chiqishi bilan, *Qatortarak*, *Uchiol*, *Beshariq* singari joy nomlari shu joydagi o'simlik, bino, suv inshooti xususiyati bilan bog'liq ravishda qo'llangandir. Nomshunoslik mavzusiga turlicha yondashish mumkin. Onomastikada ham o'zaro turlar orasida va boshqa turkumlardan konversiya usuli bilan so'z ko'chadi. A.Hojiyevning lug'atida konversiya terminiga quyidagicha ta'rif berilgan: "*Konversiya (lat.conversion – aylanish, o'zgarish) so'zning fonetik, morfologik jihatdan har bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumiga o'tishi shu yo'l bilan yangi so'z hosil bo'lishi*".

Ana shu asosda turdosh otlarning bir tur bo'lgan qush nomlari ornitonimlar konversiya usuli yordamida atoqli otlar - onomatik birliklarga o'tishi mumkin. Masalan, *to'ti*, *burgut*, *chumchuq*, *qarg'a* singari qush nomlari turdosh otlar hisoblanadi va ular kichkina harflar bilan yoziladi. Agar bu qush nomlari asosida toponim, antroponim kabi onomastik birliklarga ayfansa ular atoqli ot sanaladi. Muyassar Tilavovanning "Burgutlar" hikoyasidagi ikki burgutga atab qo'yilgan Mag'rur va Buyuk nomlari atoqli otlardir. Qush nomlari ornitonimlar toponimlarga konversiya usulida ko'chishi mumkin. Masalan: Chumchuqli qishlog'i va boshqalarni misol qilishimiz mumkin. Bundan tashqari qush nomlari gidronimlarga ham ko'chishi mumkin: *Qarg'atiko'l*.

Shuningdek, ornitonimlar erkak ismlari sifatida qo'llanilishi mumkin. Bularga misol qilib quyidagi ismlarni keltirishimiz mumkin: *Lochinbek*, *Lochin*, *Shunqor*, *Sunqurboy*, *Suqsur*, *To'rg'aybek*, *Shohin*, *Shahin*, *Shohboz*, *Anqaboy*, *Anqoberdi*, *Samandar* va boshqalar. Shuningdek, ornitonimlar ayollar ismi sifatida ham

qo'llanilishi mumkin. Misol uchun: *To'tixon*, *To'tinso*, *To'tibibi*, *Qumri*, *Qumriniso*, *Qumriya*, *Qumrijon*, *Xumo*, *Suqsuroy*, *Suqsurxon*, *Qaldirg'och*, *Tovusxon*, *Gultovus*, *Oytovus*, *Anqogul*, *Maynaxol*, *Maynaxon*, *Bulbulnoz*, *Bulbuloy* va boshqalarni aytib o'tishimiz mumkin.

Bundan tashqari konversiya usuli bilan antroponimlar boshqa so'z turkumlari asosida paydo bo'lishi mumkin. Masalan, *Go'zal*, *Lobar*, *Zebo*, *Barno*, *Uhug'*, *Shirin* kabilar sifat so'z turkumi asosida paydo bo'lgan antroponimlar sanaladi. *Oltiboy*, *Yettiboy*, *Yetmishboy*, *To'qsonboy* kabilar son asosida paydo bo'lgan antroponimlar sanaladi. *Kimsan*, *Kimsanboy* ismlari olmosh asosida paydo bo'lgan. Fe'l asosida paydo bo'lgan antroponimlarga *Tursunoy*, *Turdiboy*, *O'lmas* kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. *Bulturbek*, *Avvalbek* kabilarni esa ravish asosida paydo bo'lgan antroponimlarga misol qilib olishimiz mumkin. Ra'zi antroponimlar so'z birikmalari va qo'shma so'zlardan kelib chiqqan: *Qoryog'di*, *Itolmas*, *Xudoyberdi*, *Berdiqul*, *Sotiboldi* va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, antroponimlarning tarkibiga kiruvchi shaxs nomlarining aksariyati turdosh otlardan, shuningdek, boshqa so'z turkumlaridan konversiya usuli bilan paydo bo'lgan deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2010.
2. Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-qism. – Toshkent, 2010.
3. Begmatov E. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent, 2010.

**ЭТИМОЛОГИК ЛУГАТ, ЭТИМОЛОГИК ТАХЛИЛ
ВА УЛАРГА ОИД ТЕРМИНЛАР**

Тошб ЭНАЗАРОВ,

ТошДУТАВ профессори

Абдумурод Есемуродов,

ЎзФА Қорақалпоғистон бўлими қониоағи

Гуманитар фанлар институти докторанти

Ономастиканинг “Ономастик лексикография” бўлимида ҳам, тилишуносликнинг “Лексикография” бўлимида, бошқа лугатлар каби, этимологик лугат(лар) тўғрисида фикр юритилади. Изоҳли лугатда сўзларнинг изоҳи берилгани сингари этимологик лугатда сўз ва топонимларнинг этимологик тахлиллари маълум бир илмий меъёрдаги тартибда берилади. Таъкидлаш керакки, этимологик тахлил фандаги мавжуд тахлилларнинг энг мукаммали ва мураккабдир. Шу билан бирга сўз ҳамда топонимларнинг этимологик тахлили бир-биридан фарқ қилади. Топоним эки сўзнинг қайси тилдан келиб чиққани бу этимологик тахлил эмас, балки тарихий генетик тахлилнинг бир кўринишидир.

III. Раҳматуллаевнинг “Ўзбек тилининг этимологик лугати” 2000 йилда нашр қилинган (Тошкент, Университет)¹. Бунгача муаллиф бир қанча ҳамкасблари билан ўқув лугати деб айтмаган ҳолда “Ўзбек тилининг этимологик лугати”ни кичик-кичик ҳажмли тўртта китобча ҳолатида 2000-2003-йилларда нашр эттирган². Бирок бу китобларда этимологик лугат, этимологик тахлил ҳамда уларга оид терминларга тўхталинмагани сабабли морфем лугат билан этимологик лугат фарқланмаган ўринлар мавжуд.

Этимологик лугатни турли мавзулар доирасида тузиш мумкинлиги учун топонимларнинг этимологик (ўқув) лугати мисолида этимологик лугат, этимологик тахлил ҳамда уларга оид терминларга тўхтатиш ўринлидир. Натижада, биз бир неча йиллик илмий кузатишларимиз асосида “Ўзбекистон топонимларининг этимологик лугати”нинг ўқув лугати шаклини тайёрлашга киришдик. Zero, этимологик тахлил ва этимологик тадқиқ қанчалик мураккаб бўлса, уларнинг мажмуини этимологик лугат ҳолатига келтириш ҳам шунчалик баҳсли. Аммо топонимлар этимологик лугати ўқув лугати шаклида эканлигини эътироф этган ҳолда, уни келажакда янги-янги маълумотлар билан бойитиб, қайта-қайта нашр эттириб, мукамал этимологик лугат ҳолига келтириш ҳам келажакда амалга оширилиши табиийдир.

¹ Раҳматуллаев III. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т: Университет, 2000. -600 б.

² Раҳматуллаев III. Миртожилов М., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик лугати. Биринчи қисм. -Т: Университет, 1997. -128 б.; Раҳматуллаев III., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик лугати. Иккинчи қисм. -Т: Университет, 1998. -108 б.; Раҳматуллаев III., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик лугати. Учинчи қисм. -Т: Университет, 1999. -142 б.; Раҳматуллаев III. Ўзбек тилининг қисқа этимологик лугати. Тўртинчи қисм. -Т: Университет, 1999. -144 б.

Бу дугатда топонимларнинг этимологик тахлиллари маълум тартибда келтириб ўтилади. Шунинг учун ономастика ва ўзбек номшунослигидаги номланиш қонуниятлари доимо эътиборда бўлиши табиийдир. Агар инсон топонимик объектларни эҳтиёждан келиб чиққан ҳолда номлаб олмаса, мавжуд маконда қандай ҳаракат қилишини билмай, сон-саноксиз объектлар орасида унинг ўзи ҳам йўқолиб қолар эди. Худди шу маънода объектлар юзага келдими, демак, уни бошқа объектлардан фарқлайдиган белги-хусусиятлари асосида номлаш зарурияти сезилади. Топонимларнинг пайдо бўлиши ҳамда уларнинг этимологик тахлилини зарурият ва тасодиф каби фалсафий категориялар билан асосланиши керак бўлади.

Сабаби, “Зарурият — ҳодиса ички элементларининг моҳияти билан боғлиқ, сабаби ва замини ўзида бўлган воқеалар ривожига жараёнида қонуний ва муқаррар тарзда рўй берадиган ҳодисадир. Тасодиф эса ривожланишнинг тадрижий жараёни билан боғлиқ бўлмаган, асоси ва келиб чиқиш сабаби мазкур ҳодисанинг ички моҳияти, муҳим томони билан эмас, балки ташқи жараён ва алоқа, омиллар билан белгиланадиган ҳодисадир”¹. Мана шуларни эътиборга олган ҳолда, топонимларнинг этимологик тадқиқига зарурият ҳамда тасодиф нуқтанан назаридан баҳо берилса, мақсадга мувофиқ иш қилинган бўларди. Бунинг учун қуйидаги ҳолатларни ҳисобга олиш ўринлидир:

1. Мавжуд топонимик объектларни бир-биридан фарқлаш учун уларга ном бериш объектив ва ҳаётий эҳтиёж ҳисобланади. Акс ҳолда, киши ўзига тегишли манзилларни топа олмасдан оворан сарсон бўлиб юарди. Шунинг учун ҳам мамлакатимиздаги шаҳар, туман, кўча ва маҳаллалар номлангани каби, қишлоқ, сой, дарё, тепа қабиларнинг ҳам номланиши табиий ҳолдир.

2. Топонимик объектларга ном бериш учун дугавий асослардан бирининг танланиши эса тасодиф ҳисобланади. Демак, Ўзбекистон топонимлари тизимида туркийча (Октепа (Тош. ш. маҳалла). Қизилёзи (Нам. в. Янгикўрғон т. к.; “ёзи - чўл, дашт, текислик”), арабча (Улуғнор (Фар. в. канал, дарё; шор - арабча наҳрнинг ўзгарган шакли), форс-тожикча (Зарафшон (Сам. в. дарё; “зар сочувчи”). Китеб (Қаш. в. т. ва ш. “кифти об - сув юқориси”²), сўғдийча (Новкат (Фар., Қаш. в. к.; “кат -шаҳар, қишлоқ”), Хонжизза (Сур. в. Денов т. т.; “жиз, диз - қатъа. Истеҳком”³)) сўзларнинг топонимлар учун дугавий асослар вазифасини бажариши мавжуд топонимик объектларга ном бериш зарурият асосида юзага келган тасодиф саналади.

3. Вақт ўтиши билан топонимлар таркибидаги топоасос, топоформантларда товушларнинг ўзгариши ёки тушиши ҳолатидаги фонетик ўзгаришлар рўй беради. Натижада уларнинг маъноларини тушуниш, илғаш анча қийин бўлиб қолади. Бу эса топонимлар тизимида ўз-ўзидан иккинчи заруриятни юзага келтиради, яъни топонимларни этимологик тадқиқ қилиш учун объектив эҳтиёж юзага келади”. Сабаби, «Факат баҳс, мунозара, таҳлил меваси бўлган ҳулосаларгина бизга тўғри йўл кўрсатиши мумкин». Ушбу ҳол эса фалсафада зарурият ва тасодифий ҳолатлар бир-бирини ҳам талаб, ҳам

¹ Фалсафа. Қомусий дугат. Т., Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2000. 132-134-б.

² Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг янги дугати. -Т.: Ўқитувчи, 1988.98-б.т.

³ Қораев С. Географик номлар маъноси. -Т.: Ўзбекистон, 1978.48-бет.

инкор қиладиган тизимий категориялар бўлгани каби, топонимик объектларнинг номланиши, қўлланиши ва турли фонетик ўзгаришларга учраб, тушуниб бўлмайдиган шаклга келганлиги учун уларнинг этимологик таҳлил қилиниши бир бутун тизим тарзида эканлигини ифодалаб турибди. “Мақсад шуки, фанда бизнинг тарихий томирларимизни аниқлайдиган, миллий ғуруримизни юксалтирадиган янги йўналишлар пайдо бўлиши керак”¹. Бу йўналишлардан бири топонимларнинг юзага келиши ва этимологик тадқиқ қилишни ўрганишдир. Демак, уларнинг шаклланиши ва этимологик таҳлилини ҳам табиий, ҳам ижтимоий, ҳам маърифий эҳтиёжлар юзига келтиради.

Мазкур тадқиқот топонимларнинг этимологик таҳлилига бағишланганлиги билан уларнинг изоҳли лугатларидан фарқланади. Бугунгача яратилган жой номларининг изоҳли лугатлари заминида уларнинг этимологик лугатлари яратилади. Мана шу маънода тайёрланган “Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини” мамлакатимиз жой номлари этимологик лугатининг бошланиши саналади.

Бу ишда этимологик таҳлил қилинадиган топонимлардан сўнг кавс ичида уларнинг қайси вилоят, туманларда учраши ва қандай объектлиги баён этилган. Хар бир топонимнинг этимологик таҳлилда ҳақиқатга яқинликни таъминлаш учун улар ҳақидаги тахмин ва фаразлар бирма-бир келтирилиб, тўғри фикр сифатида улардан биттаси танланиб, илмий ҳамда амалий далиллар билан асосланган. Уларнинг этимологик таҳлили охирида илк шакли ва маъноси сифатида эгимони қайд этилган.

Этимология ва этимологик таҳлил тушунчаси. Этимология тилшуносликнинг бир бўлими, этимологик таҳлил эса сўз ҳамда топонимларнинг келиб чиқишини тарихий тараққиётда кўрсатади². Сўз ва топонимларни этимологик таҳлил қилиш билан уларга хос бўлган эгимонлар аниқланади. А. Абдурахманов, Э. В. Севортян, Л. С. Левицкая каби олимлар бу соҳада бир қатор тадқиқотларни амалга оширишган бўлса, Э. М. Мурзаев этимологик таҳлилда топонимларнинг келиб чиқиши ва маъносини тушунтириш зарурлигини айтган³. Туркияда ҳам сўзларнинг этимологик тадқиқига оид ишлар амалга оширилмоқда⁴. Этимология ва этимологик таҳлил ҳақидаги тадқиқотлар ўзбек тилшунослигида ҳам бор.

Этимологик таҳлил турлари масаласи А. Ғуломов, Ф. Абдуллаев, Ш. Раҳматуллаев, Э. Фозилов А. Ишаев, Б. Бафоев кабиларнинг тадқиқотларида у ёки бу даражада қайд этилган. Б. Ў. Ўринбоев, Э. А. Бегматов ва С. Қораевлар

¹ Қаримов Н. Тарихий хотирасиз келажак йўли. -Т: Шарқ нашриёти матбуа котирини бош тахририяти. 1998. 6-, 30-бет.

² Хожиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли лугати. -Т: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2002. 136-бет.

³ Абдурахманов А. Топонимика және этимология. -Алматы. Ёлтым. 1975. -208 с.; Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М.: Наука. 1974. -767 с.; Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву "Б". -М.: Наука. 1978. -350 с.; Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы "В", "Г", "Д". -М.: Наука. 1980. -395 с.; Мурзаев Э. М. Очерки топонимике. -М.: Мысль. 1974. -С.78-79.

⁴ Баскаков Н. А. Проблемы языковедения в журнале "TURK DILI" (1960-1970). - ВЯ. 266. 1970. -С.105-110.

топонимларнинг тадқиқида ҳам этимологик таҳлил зарурлигини қайд этишган¹, бироқ бу тадқиқнинг назарий асослари тўғрисида фикр юритишмаган. Л. А. Введенская ва Н. П. Колесниковлар мустақил, халқона ҳамда окказионал этимология ҳақида фикр билдиришган². Илмий этимологик таҳлил топонимлар юзасидан олиб бориладиган тилшунослик, география, геология ва тарих фанларига оид далилларга ҳам эътибор қаратилади. Халқона этимологик таҳлилда сўз ёки жой номларининг келиб чиқиши турли хил ва мазмундаги ривожланиш афсоналарга боғлаб тушунтирилиб, изоҳланади. Фольклор аъёнлари асосида шаклланиган афсоналар ҳамда ривоятлар кишиларнинг мана шу соҳага қизиқишларини кўрсатади³. Мисол учун «Кунтуғмиш» ва «Гўрўгли» дostonларидаги топоним ҳамда киши исmlарини олиш мумкин. Улар афсона ҳамда мифологик номлар ҳисобланади. Гўрўгли номи «кўр ўгли» ва «гўрда туғилган ўгли» деган маъноларни англатади. Бизнингча, ушбу исмда «гўрда туғилган ўгли» маъноси устунроқ: *гўрда туғилган ўгли* > *гўр ўгли* > *гўрўгли* > *гўрўгли* > **Гўрўгли**. Номга асос бўлган бирикманинг мотивланиши натижасида ўзакдаги *и* товуши, кўшимча (-*да*) ва сўз (*туғилган*) тушиб қолиб, учинчи шахс эгаликни билдирувчи *-и* кўшимчаси қўшилган. Унинг этимони - *гўрда туғилган ўгли* бирикмаси. Бу номдаги *гўр* сўзининг «*ёруғлик*», «*нур*», «*қўён*», «*тоғ ҳамда қабр*», «*зор*», «*ер ости дунёси билан алоқадор*» маънолари бор⁴. Нутқда қўешнинг «*қун*» дейилиши эътиборга олинса, у ҳолда **Кунтуғмиш** номи эса «*доим қўён чиқсин*», «*яхши кунлар келсин*» маъноларини билдиради. Бу ерда халқ этимологияси билан илмий этимология далиллари бир-бирини тўлдирган. Афсона ва мифологик мазмундаги номларни этимологик таҳлил қилиш ўзбек тилшунослигида анъана тусига киргани йўқ. Аммо бу ҳолга мисол сифатида В. Н. Топоровнинг **Купала**, **Совий**, **Усыня** каби мифологик исmlарнинг этимологик таҳлилини кўрсатиш мумкин⁵.

Окказионал этимологик таҳлилда икки ва ундан ортиқ сўз шаклан ўхшаш бўлгани учун этимологик таҳлили бир хил бўлади. Л. А. Введенская ва Н. П. Колесников баъзи ҳолларда окказионал этимологик таҳлил ҳамда илмий далиллар билан асосланган этимологик таҳлил ўзаро ўхшаш бўлишини кўрсатганлар⁶. Халқ этимологиясига оид ҳолатларнинг бадий асарларда учрашини И. Тошалиев баён қилган⁷. Ушбу этимология стилистик талаб бўйича ва ижодий мақсадга мос ҳолда амалга оширилади. Бадий эти-мологиядаги халқона ҳамда илмий этимологик таҳлил қилиш хусусиятлари публицистика ва бадий ижодда восита вази-фасини бажаради.

¹ Уришбаев Б. У. Бегматов Э. А., Кариев С. К. Топонимика Узбекистана (состояние и проблемы) // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. -Джизак, 1983. - С. 3-5.

² Введенская Л. А., Колесников Н. П. Этимология и ее виды. -Ростов: Ростовского университета, 1986. -С.3-96.

³ Джўраев М., Саидова Р. Бухоро афсоналари // Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси напрати. 2002. 125-6.

⁴ Туртумов Ш. Гўрўгли номи хусусида // ЎТА. -Т.: Фан, 2000. 3-сон. 62-65-бетлар.

⁵ Топоров В. Н. Из наблюдений над этимологией слов мифологического характера // Этимология. 1967. -М.: Наука, 1969. -С.11-21.

⁶ Введенская Л. А., Колесников Н. П. Этимология и ее виды. -Ростов: Изд. Ростовского ун-та, 1986. -С.71-84.

⁷ Тошалиев И. Халқ этимологиясига доир баъзи қўғишлар // Ўзбек тилида сўз ясадиши. Илмий ишлар тўплами. 608-сон. -Т., 1979. 38-50-бетлар. Тошалиев И. Бадий этимология - стилистик приём сифатида. -Ўзбек тили стилистикаси масалалари. -Т., 1982. 29-30-бетлар.

Этимон тушунчаси. Илмий тадқиқотларда топонимларнинг этимологик тадқиқи ва этимони масаласи ўрганилмаса, улар юзасидан олиб борилаётган этимологик таҳлил мукаммал бўлмайди. А. А. Белецкий этимологик таҳлил қилишда сўзларнинг биринчи шакли ва илк маъноси сифатида этимонни талқин этган¹. Н. В. Подольская **этимон** терминини номнинг илк шакли ва маъноси сифатида шарҳлаган². «Этимон - ҳозирги тилда бор бўлган сўз ёки морфеманинг келиб чиқишига асос бўлган сўз ёки морфема. Мас., *қаттиқ*; сўзининг юзага келиш асоси *қот* (*қотмоқ* феъли) ва *-(и)қ* аффикси бўлган; *-ян* аффикси *-йатти* (*-ётиб*) дан юзага келган»³.

Бизнингча, **этимон** ном учун асос бўлган белги-хусусиятларнинг сўз билан аталган илк кўриниши ҳамда маъноси ҳисобланади. Бу борада Ш. Раҳматуллаевнинг «Этимологик талқин берилаётган сўз маъно жихатдан ўзгарган бўлса, бундай маъно таракқиёти қайси маъно асосида рўй бергани изоҳланади», деган фикри фойдадан холи эмас⁴. Албатта, сўз ёхуд топонимнинг илк шакли ва маъноси бўлган этмонни кўрсатиш этимологик таҳлилнинг асосий вазифаси бўлгани каби тузилаётган топонимларнинг этимологик лугатини тузиш тамойилларида ҳам этимон масаласи асосий масаладир. Самарканд ва Қамчин (довони) каби топонимларнинг этимологик таҳлилида уларнинг этимони кўрсатилган⁵.

Сўз ва топонимнинг этимологик таҳлили масаласи. Сўзнинг этимологик таҳлилига ЎТЭЛда намуналар берилган⁶. Топонимларнинг этимологик таҳлил қилиш талаблари қуйидагилар: 1) унинг қаерда жойлашганлиги, қандай ва қайси объектларнинг номи эканлиги ҳақида маълумот бериш; 2) топоним тўғрисидаги фаразларни қайд этиш; 3) қайд этилган фаразларни далиллар асосида таҳлил этиш; 4) ҳар бир фаразга муносабат билдириб, топонимнинг юзага келишига оид янги фикрни илгари суриш; 5) топонимнинг этимологик таҳлил қилиш жараёнида қўлланилган тамойил, усул ва омишлар ҳақида тўхталиш; 6) бундай таҳлил давомида далил сифатида кўрсатилган манбаларнинг саҳифаларини аниқ кўрсатиш; 7) топонимнинг этимологик таҳлилида сўнгги фикрга келиб, унинг апеллятив лексикадаги этимони ҳақидаги охириги таҳминни далиллар билан асослаш.

Сўз ва топонимларнинг этимологик таҳлили қуйидагича фаркланади: 1) сўзларнинг этимологик таҳлилида уларнинг тарихий таракқиёти кузатилади, топонимларнинг этимологик тадқиқида унга асос бўлган сўзларнинг этимологик таҳлили топонимлашув жараёнини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади; 2) сўзларнинг этимологик таҳлили бир босқичли, топонимнинг этимологик таҳлили эса икки босқичли таҳлилдир; 3) сўзлар номларини

¹ Белецкий А. А. Принципы этимологического исследования. - Киев: Издательство Киевского государственного университета им. Т. Г. Шевченко, 1950. -С.12-13.

² Подольская Н. В. Словарь русской онаместической терминологии. -М.: Наука, 1988. -С.167.

³ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. -Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2002. 136-бет.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т.: Унверситет, 2000. 6-бет.

⁵ Эназаров Т. Ж. Самарканд топонимининг этимологик таҳлили. -Тил ва адабиёт таълими. -2006. 2-сон. 90-92-бетлар. Эназаров Т. Ж. Қамчинми ёки қозонқим? -Ўзбек тили ва адабиёти. -2000.2-сон. 37-бет.

⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. -Т.: Унверситет, 2000. 248-бет.

туфайли предмет, ходиса кабиларнинг номи бўлиб келади, топоним экстралингвистик омиллар таъсирида ва лингвистик омиллар асосида шаклланади; 4) сўзда лексик маъно асосий маъно ҳисобланади, топонимда унга асос бўлган апеллативнинг маъноси бирламчи маъно бўлган ҳолда, унга турли объектиларни аташ учун юкланган топонимик маъно етакчи маъно саналади; 5) сўз ва топонимнинг этимологик таҳлилида мазкур таҳлилнинг ҳақиқатга яқинлиги муаммоси илгари сурилади.

Топонимларнинг этимологик таҳлилида ҳақиқатга яқинлик муаммоси. Тилшунослик соҳасида ҳам *лингвистик ҳақиқатга яқинлик* тўғрисида фикр юритиш мумкин¹. Жой номларининг этимологик таҳлилида бир неча фаразнинг берилиши шарт. Мана шунда «Топонимнинг келиб чиқиши тўғрисидаги қайси бир тахмин бошқаларига нисбатан тўғри?» деган саволга жавоб топилади. Топонимларнинг этимологик таҳлилида *ҳақиқатга яқинлик муаммосини* аниқ аниқлаш учун *тахмин* ва *фараз* сўзлари қўлланган. Уларга оид сўнгги фаразда *ҳақиқатга яқинлик* ишончли далиллар билан ифодаланади. Шунинг учун А. Т. Кайдаров *қозоқ* = *қазақ* = *казак* сўзининг келиб чиқиши ҳақида юзлаб фаразлари борлигини айтиб, уларни ҳақиқатга яқинлик жиҳатдан учта гуруҳга бўлган². Топонимларнинг этимологик тадқиқи ва таҳлилида тарих, тилшунослик, география фанлари далилларини ўзаро муқояса қилиш билан топоним келиб чиқишининг *ҳақиқатга яқинлиги* муаммоси ойдинлаштирилади. Демак, этимологик луғат, этимологик таҳлил ҳамда уларга оид терминларни илмий асосларда ўрганиш ва талабаларга ўргатиш соҳанинг ўрганилмаган жиҳатларини ҳам очиб беради.

¹ Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. - М.: Наука, 1973. - С. 99.

² Кайдаров А. Т. Тюркская этимология: проблемы и задачи // Проблемы этимологии тюркских языков. - Алма-Ата: Гылым, 1990. - С. 21.

III SHO'RA. O'ZBEK TOPONIMIKASI

AFG'ONISTONDAGI BA'ZI BIR TOPONIM VA ANTROPONIMLAR TO'G'IRISIDA

Tojnuhammad ELSEVAR,

Foryob bilim yurti ilmiy jurnali muharriri

Nom, nomlash va ularni ta'kid qilish masalasi har doim xalqning e'tiborida bo'lgan. Bu holni Afg'onistonning Foryob viloyatida qo'llaniladigan toponim hamda antroponimlar misolida kuzatsak. Men tug'ilib va unib-o'sgan qishloq nomi o'zbek tili nisbat yasovchi qo'shimchasi bilan yozganda *G'uzori* deganda G'uzordan kelganligini anglatadi.

Quyidagi nomlar Foryob viloyati Xo'jasabzipusht tumani hududida uchraydi. Biz qishlog'imiz yonboshida turadigan qishloq nomi *Boyg'izidir*.

G'uzoriga tegishli yana bir mahalla nomi *Katta ko'prikdir*. Bu esa avval o'sha yerda bir katta ko'priklar mavjud bo'lgani uchun bu nom qo'yilgan.

Qizil qishloq ham G'uzori qishlog'iga yaqin bo'lgan qishloqlardan biri bo'lib, uning tuprog'i qizil rangda bo'lgani uchun Qizil qishloq deb qo'yilgan. Qizil qishloq yonboshida joylashgan yana bir qishloq nomi *Katta qishloq* deb ataladi. Uning nomi aholining nisbatan ko'pligi uchun shunday nomlangan.

G'o'rmoqch – aslida Qovurmoch.

Yarimchoyrak – bu mahalla ham esa G'uzori qishlog'i hududida. Shiboxtu (Shibog'tu) – bu qishloq Shibog'zor ma'nosini anglatadi.

To'ripoxtu – (To'preqtu), Yangiqal'a, Ko'saqal'a, Tepaqishloq, Lopilar, Islomqal'a.

Kobul, aslida, *kovul* so'zidan kelib chiqqan.

Aybak, aslida, *Oybek* bo'lgan. Samangon viloyati markazi nomi. *Qunduz*, aslida, *kunduz* so'zidan shakllangan. Toshqo'rg'on Xulum viloyati markazidagi shahar nomi. Yonbuloq – Maymana shahri shimolida joylashgan qishloq nomi. O'nbicharlet – Maymana shahri janubida joylashgan qishloq.

Javuzjon – Foryob bilan Mozori sharif orasida joylashgan viloyat nomi.

Yakkapista – bitta pista daraxti bo'lgani uchun nomlangan yo'l nomi.

Afg'onistonning Foryob viloyatida qo'llaniladigan antroponim, ya'ni kishi nomlariga misollar:

Elsevar – *elini sevadigan bola* ma'nosini anglatadi, turkiy so'zlarning birikishidan ushbu antroponim shakllangan. Bako'g'li – *bekning, boshliqning o'g'li, farzandi* ma'nosini bildiradi.

Tojnuhammad – erkaklarga qo'yiladigan ism, *Muhammadning toji* degan ma'noni bildiradi.

Tojiniso – ayollarga qo'yiladigan ismdir.

Sulton Sanjar – erkaklarga qo'yiladigan ism.

Kumush – bu ism nisbatan kamroq ishlatiladi va faqat qizlarga nom sifatida beriladi.

Quvonch, Ishonch – *quvonish, ishonish, inonish* ma'nolarini anglatadigan ism, o'g'il va qizlarga qo'yiladigan ism, familiya, ya'ni nom. Bizda, Afg'oniston o'zbeklarida familiya o'rinda taxallus so'zi ishlatiladi.

Qo'rqmas – qo'rqmaydigan, cho'chimaydigan bola va kishilarga familiya sifatida ishlatiladigan nom.

Qochmas – *qochmaydigan inson, odam* ma'nolarini bildiradi.

O'chmas – *nomi o'chmay turadigan* ma'nosida, kishilarga beriladigan taxalluslardan biri.

Yalg'uz – ham ism, ham taxallus bo'lib ishlatiladigan nom.

Go'zal – bu nom Afg'onistonda qizlarga beriladigan ismlardan biridir.

Marjon – qizlarga qo'yiladigan nomlar sirasiga kiradi.

Oqmurod – *murodi amalga oshsin, murodi oq bo'lsin, baxti oq bo'lsin* degan ma'nolarda ishlatiladigan nom. Ushbu nom, asosan, erkaklarga qo'yiladigan nomlar jumlasiga kiradi.

Oqbulut – bulut oqligiga nisbatan insonlarning zararkor bo'lmashligiga nisbatan qo'llanilib, qizlarga qo'yiladigan nom.

To'g'ral – turkiy so'zdan kelib chiqqan nomlardan biri.

Xullas, qo'shni Afg'onistondagi toponim va antroponimlar xilma-xil ko'rinish va ma'nolarga ega. Zero, toponimlar ham, antroponimlar ham xalqning o'tmishi hamda tarixini o'zida jamlay olgan. Ularni jamlash, yig'ish va ilmiy tahlil qilish hammamizning burchimizdir.

ТОПОНИМЛАР - ТИЛ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШ МАНБАИ

(Жанубий Оролбўйи минтакасидаги топонимлар мисолида)

Ю.ИБРАГИМОВ,

Нукус ДПИ профессори

Топонимлар тилининг сўз бойлиги бўлиб, ўзбек тилининг тарихий лексикаси ва диалектологиясини ўрганишда, шунингдек, Жанубий Оролбўйида (бундан кейин ЖОБ) ҳудудда яшаган халқлар ва уларнинг тиллари ўртасидаги алоқа-муносабатларни, давлатчилик тарихи ва этногенезини аниқлашда муҳим манба. ЖОБ минтакасидаги жой номларининг луғат таркиби, асосан, араб, форс-тожик, мўғул, славян ва бошқа тилларга тааллуқли. Ўзбеклар тожик халқи билан қадим-қадимдан аралаш яшаб келаётганлиги тарихдан маълум. Эрамининг XIII-XIV асрларига қалар Хоразм воҳасида қадимги хоразмийлар яшаган. Улар Шарқий Эрон ғуруҳига мансуб қадимги хоразмий тилида гаплашган бўлиб, этник таркиби жиҳатдан жуда хилма-хил бўлган. Қадимги хоразмийлар таркибига эроний тилда гаплашувчи уруғ ва қабилалар билан бирга эроний бўлмаган, аниқроғи, туркий тилда гаплашувчи қабилалар ҳам кирган (Радлов, 1963:122).

Қадимги хоразмий тилининг унсurlари ҳозирги вақтда ЖОБ минтакасида кўپлаб топонимлар, антропонимлар, этнонимлар, ойконимлар, эронимлар, гидронимлар, агроонимлар, зоонимлар, теонимлар, астрономлар, таркибида сакланиб қолган. Масалан, **Гандимён, Дурбадиқ, Маздубаст, Миздақхон, Гавур, Зумуҳшир, Навкат, Сахтиён, Кердор, Дарсан** ва б (Фуломов, 1959:74-

89). ЖОБ ўзбек шевалари лугат таркибида учрайдиган бу атамаларнинг маънолари ҳозир унутилган. Масалан, ЖОБ минтақасидаги гидронимлар таркибида учрайдиган **арна:анна** (арик), **йап:джап** (арикча), **салма** (кичик арикча), **канал** (кирғок) каби гидроиндикаторларни мутахассислар қадимги хоразмий тилининг субстрати деб қарашади. Масалан, **арна:анна**-катта арик; сув окмай қолган арикнинг эски ўзани; **Сувалли арна**, **Қиличбай арна**, **Шават арна**, **Гонарна**, **Пахтарна** ва б. Мазкур сўз Ўзбекистон территориясида ҳам бир мунча кенг тарқалган. Хоразмда *бош канал*, Нурота тоғлари этагидаги кичик *жар*, Зарафшон этагидаги *қуруқўзан*, Қашкадарё вилояти кишлоқларида **арна:анна:орна:онна** тарзида ишлатилиб, *кичик сой*, *жарланган арик*, *чуқурлик*, *ташландиқ*, *сув окмай қолган сув йўли*. «Ўзбек тилининг изоҳли лугати»да **арна** сўзи диалектал белгиси билан берилиб, дарёдан ажралиб чиққан арик (Ўзб:54). Минтақадаги туркий тилларда ҳар хил маънода ишлатилиши аниқланди: қорақалпоқ, **арна**-катта канал, қозоқ, **арна**- дарё ўзани; қирғиз, **арна** сой; туркман, **арна** - бошланиши ва охири дарёга туташган жойи ва б. Тошкент ва марказий вилоятлардаги анҳор сўзига тўғри келади.

Арна:анна сўзининг келиб чиқиши ҳақида ҳар хил фикрлар мавжуд: **ар**-сув ва **на**-сўз ясовчи аффикс бўлиб, қадимги эрон тилига(56); «Сунъий сугориш соҳасига доир **арна** сўзи Хоразм тилининг қолдиғи»(1:122); қадимги эрон тилларида **ар:ир**-сув маъносини билдирилиши(4:144); санскрит тилида **ар**-окмоқ, иштимоқ, **арна**- кучли сув оқими(13:83), В.В.Радловнинг лугатида «**айри**-дарёча, айричак, айрик-ирмокча, айрилиш-дарё таъсирида ҳосил бўлган сувнинг оқимидан айрилган канал, арик, жарланган чуқурлик маъносида» (13:271) изоҳланган. Маҳмуд Қотиғарийнинг «Девони лугати турк» асарида: **арик**, **наҳр** сўзлари келтирилган. Бу «сўз ақида оғлақ туғса, **арикда** от унар» (молхонада улоқ туғилса, арикда майса униб чиқади) маъноси қайд қилинган(8:46.96). «Девон»да ариклик ер **айришди-айрлишди** сўзлари ҳам учрайди. Я.Ғуломов **анҳор** сўзини Хоразм шеваларидаги **арна** сўзига тўғри келишини кўрсатади¹.

Кўринадики, кўпчилик олимлар **арна:анна** сўзини эроний, хоразмий, санскрит тилларига мансублиги ҳақида фикр-мулоҳаза билдиришади. Лекин мазкур сўзнинг этимологик жиҳатдан туркий (ўзбек) тилига мансублигини ЖОБ минтақасидаги ўзбек шеваларидан йиғилган маълумотлар ҳам тасдиқлайди: **йыр:жыр** сўзи арикни қазиб оқибётган сувни бошқа томонга буриб юбормок; **ык** - дарё ёки арикда окмоқ; айырмак - ажратмок ва б. Аслида **арна** дарёдан соҳа олиниб, қўл билан қазилган катта **арик**,ўзбек адабий тилимиздаги **ажралмок** сўзи маҳаллий шеваларда айрилмокшаклига эга. Шунингдек, **арна** сўзининг келиб чиқиши маълум даражада **арик:анна**, арик, **йап**, **салма**,**канал** каби сўзлар гидронимлар таркибида кўп ишлатилади ва сўз ясашдаги имкониятлари билан мазкур лексемалар ажралиб туради. **Бешарик**, **Олтарик**, **Кокарик**, **Бўзариқ**, **Богйап**, **Қилчакйап**, **Ташлийап** **Жангаджап**, **Лавзанджип** ва б. Кузатишлар шунини кўрсатадики. ЖОБ минтақасида

¹ Ғуломов Я. Хоразмнинг сугориш тарси. –Тошкент: Ўзбекистонпр, 1959. – Ё:74-89.

арна:анна арик, **йап:джап**, **салма**, **канар** сўзлари мураккаб топонимлар таркибида кўп қўлланилиб, микдорий жиҳатдан сўз ясашдаги имкониятларни билан ажралиб туради. Туркий тилларда **арна:анна**, **арик** унсурларининг гидронимлар таркибида фаол қўлланилиши ҳам исботидир.

Қадимги қалъа ва шаҳаристонда икки хил сув йўли бўлган: ер устидаги очик арик ва ер остидаги ёпиқ арик. Кейингиси яширин сув йўли саналган, унинг бошланишидаги жой, қуйилиш дамбалари, банд ва туташ нукталари ўта махфий бўлган (10: 89). Туркий тилларнинг тарихида **йап сўзи ёпиқ** сув йўли маъносида ишлатилган бўлиб, асл туркий «**йапмок**» феъли ўзагига тегишли.

Туркий тилларда қадимдан экин майдонларига сув элтиш учун тортилган турли ҳажмдаги тармоқлардан ташқиш топган оқар сув ўрни маъносида ишлатилиб келаётганлигининг гувоҳи бўламиз. Масалан, **арик** сўзи, «Ўрхун-Энасой» ёдгорликларида **аггу**, **аруд** (7:360). «Тафсир»да **қазмишиарик**-қазилган арик, дарё, канал (3:58). Хоразм ёзма ёдгорликларида арик рус тилидаги арык шаклида ишлатилади. «Ўзбек совет энциклопедияси»да **арик** (айирик) қатта сувлар ва сойлардан айрилган шохобча (17:449). ЖОБ ўзбек шеваларида ҳозирги кунда ҳам **айрық** сўзи иккига ажралган, оқар сувнинг тармоғи, бўлинмок маънолари сақланиб қолган.

Н.Г.Миллицкий ҳам **арик** соф туркча сўз бўлиб, оқар сувнинг тармоғи, айрилмок, бўлинмок феълидан ясалган (9:276.287), деган фикрда; В.В.Радлов эса **арык**, арикерик, арх сўзларини канал, далага сув чиқариш учун ёпиқ сув йўли¹ деб изоҳлайди. Ўзбек тилшуносларидан С.Кораев **арик** сўзи асл туркий *а́риқ* сўзидан келиб чиқкан, З.Дусимов эса ҳозирги ўзбек тилидаги арик сўзини **арыкык**(ар-сув, ык-оқмок) шаклида ясалган (5:55) дейди. Б.Бафоев сўзнинг биринчи бош морфемаси **ар** (яъни сув) бўлиб, иккинчи морфема **и**=(**ы**=, **ы**¹, **иг**) от ясовчи қўшимчалар деб изоҳлаб, *аритмок*, *эритмок*, *итмок*, *примок* сўзларининг бош морфемалари билан бир хил бўлиши керак (2:58) деган мулоҳазани билдиради.

Демак, **арна:анна** арик сўзлари асл туркий сўз бўлиб, айрилиш, **айирик**, **айрик**, **айир** сўзларининг талаффузда қисқарган шаклидир. Ҳозирги ЖОБ ўзбек шеваларида **айры** (паншоҳа), икки ўрқачли туя (айры туя), икки қисмга бўлиниб, ажралиб кетган йўл ёки паҳса деворни **айрық** (оча) маъноларида фаол ишлатилади. Албатта, ЖОБ минтақасидан жой номларига оид маълумотлар таҳлили ушбу муаммонинг туркий тиллар фойдасига ҳал бўлиши учун ёрдамлашади.

Чиндан ҳам, **арна:арик:йап:джап** (ён), **салма**, **канар** каби сўзлар келиб чиқиши нуктаи назардан қадимги туркий тилларга хос бўлиб, эроний, хоразмий, сўғдий, форс-тожик, ҳатто, санскрит тилларига ҳам кириб ўзлашганлиги шубҳа туғдирмайди. Чунки Ўзбекистоннинг барча ҳудудларида **арна:анна**, **арик**, **йап:джап**, **салма** компонентли топонимлар жуда кенг тарқалганлиги фикримизнинг тасдиғидир.

¹ Сазонова М.В. К этнографии узбеков Южного Хорезма. В кн. Археологические и этнографические работы хорезмской экспедиции. –М.: 1952 с.247

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бафоев Б. Кўҳна сўлар тарихи –Тошкент: Фан, 1991. Б:80-81.
2. Боровков А.К. Лексика Среднеазиатского «Тефсира» XII-XIII вв. М:1963. с.58.
3. Дульзон А.П. Древние топонимы Южной Сибири индоевропейского происхождения. В сб: Топонимика Востока. – М:1964. с.144.
4. Дўсимов З. Арна сўзи хақида // Ўзбек тили ва адабиёти журнали №6. Б:56.
5. Жаббаров Х. Ўзбек тилининг сугориш лексикаси. Филол. фан. номз. автореф. – Тошкент. 1996. – Б.10-14.
6. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности.-М.-Л. 1951. с.360.
7. Кошғарий М. Девони лугатит турк Том 1. Тошкент: Ўздавакадем нашр. 1960. –Б.46-96.
8. Милицкий Н.Г. О некоторых географических терминах, имеющих отношение к Средней Азии-ИВГО. вып.5 т.77 – М. Л.1945. с.276-287.
9. Мурзаев Э.Словарь географических терминов.-М: Мысль. 1959. с.55-56.
10. Нафасов Т. Кишлоғингиз нега шундай аталган? –Тошкент: Фан, 1989. – Б.89.
11. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий Т.1.ч.1.-Санкт-Петербург 1893. с.271.
12. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб.Тошкент: Ўзакадемнашр. 1964. – Б.83.
13. Толстов С.П. Города тузов-ж «Советская этнография»1947.№3. – С.100.
14. Фрейман А. Хорезмийский язык I. –М., Л:1961. с.9.
15. Ўзбек совет энциклопедияси.-Т.1-Тошкент. 1971. Б:449.
16. Ўзбек тилининг изохли луғати. –Тошкент: Фан.1984. Б:54.
17. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан 1991.Б.22.
18. Ғуломов Я. Жўгрофия атамалари ва тушунчалари изохли луғати-Тошкент: Ўқитувчи. 1994. – Б.10-11.
19. Ғуломов Я. Хоразмни сугориш тарихи.-Тошкент: Ўзакадемнашр. 1959. – Б.74-89.

ОРОНИМИЯДА “ДОВОН” АТАМАСИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИГА ДОИР

О.БЕГИМОВ,
ҚирМИИ доценти

Ўзбек тили оронимиясида “тоғдан ошиб ўтиш” тушунчасини ифодалаш учун бир канча атамалар қўлланилган. Уларнинг келиб чиқиши, қўлланиш хусусиятлари, ясашиш имкониятлари ва бошқа масалалар ўзига хос ўрганиш объекти сифатида долзарб аҳамият касб этади.

Ҳозирги кунда ўзбек тилида *тоғдан ошиб ўтиш* тушунчасини ифодалашда *довон* атамаси фаол қўлланилади. Бу орографик атама “тоғнинг ошиб ўтиш қулай бўлган жойи, тоғ йўли, ошиб ўтиш мумкин бўлган тоғ” тушунчаларини ифодалайди. Бу атама ўзбек тили изохли луғатида шундай изохланган: “ Тоғ ёки тепаликнинг баланд, аммо ошиб ўтса бўладиган қулай

жойи; ошув. Капкар довони. Арпасиз от довон ошолмас (Мақол). Донога эргашган довондан ошар (Мақол). Бу вақт улар Қарақарга деган довондан ошиб, кўз илғамас, кенг, текис яйловга чиқдилар. Аскар Мухтор, Асарлар. Довоннинг белига чиққунча Муҳаммад шариф ҳам, эшак ҳам ҳолдан тойди. Қ. Мирзо, Олам гўзал [6, 633]. Жанубий Ўзбекистон оронимиясида Сангтор довони, Бирак довони, Тахта қорача довони, (Зарафшон тизмасида), Сангтор довони (Хисор тизмаси), Толешут давони (Хисор тизмаси), Жанко довони (Хисор тизмаси), Шахон довони, Қизил газа довони (Қамаши), Кўктуғай довони (Қамаши), Чакчор довони (Бойсун тизмасида) каби номларни учратиш мумкин. “Бобурнома” асарида *добон* шаклида қўлланган бўлиб, бу атама қатнашган 5та ороним келтирилган.

Бурятия топонимиясини тадқиқ этган Н. М. Мельхеев *добон* терминининг қўлланиши ҳақида қуйидаги маълумотларни келтиради: “*Дабан* – бир қанча тоғ ошувлари номлари. Мўғул тилида *дабаа*, *дабаан* – тоғдан ошиб ўтиш, тоғ қоялари, кўтарилиш; термин *дабаха* “тоққа кўтаришмоқ”, *тоғдан ошиб ўтмоқ*” маъносидagi фезидаан келиб чиққан. У аниқлосчи сўзлар билан бирикиб, тоғ номлари, тоғдан ошиб ўтиладиган жой номларини ясашига хизмат қилган: *Хамар-Дабан*, *Паган-Дабан* (тоғ тизмалари); *Дабан*, *Додо-Дабан*, *Монгол-Дабан* (тоғ ошувлари); *Барсин-Дабан*, *Молтин-Дабан* (кўтарилишлар). *Дабан* эвенкларда ҳам тоғдан ошиб ўтиш тўғрисида эга”. [2, 123].

Мўғул тилининг орографик терминологиясини ўрганган Н.И. Данзанова ишида “довон” терминининг қўлланиши билан боғлиқ шундай маълумотларни келтирган: ўрт.мўғ. *dabaan*[SH], қад.мўғ. *dabayan*, ҳоз.мўғ. *дабаа(н)*, бур. *дабаан*, қалм. *даба*, ойр.синъиз. *даваан* – “тоғдан ошиб ўтиладиган жой”.

Довон атамасининг ареали ҳақидаги фикрларни умумлаштириб, қуйидаги натижаларни кўриш мумкин: *даба(ан)* – тоғдан ошиб ўтиш жойи, баландлик; қалмиқча – *тепа*, халха-мўғулча – *даваа(н)* – ошиб ўтиш жойи бўлган тоғ; тунгус-манжурча – *дава* “ошиб ўтиш”, эвенкча – *даван*, *давакит* “тоғ ошиб ўтиш жойи, волок, ороқ – *дава* “тоғдан ошиб ўтадиган жой, манжурча – *даба* “тоғдан ошиб ўтиш, *дабаган* – тоғдан ошиб ўтиладиган жой, волок, тоғ уркачи(горный хребет); якут. *дабан* – тоғ, падь, тоққа кўтарилиш; хакас. – *даба* “тоғдан ошиб ўтиш жойи, дара, тува. – *дабан* “тоғдан ошиб ўтиш жойи”; олтой. – *дава* “тоғдан ошиб ўтиш жойи”; ўзб. – довон “тоғдан ошиб ўтиш жойи, тоғдан ошиб ўтиладиган йўл”, қирғиз. *дабан* “тоғдан ошиб ўтиш жойи”; озар. – *даба*, *дабан* “тепа, тоғча, тожик. – *даван* “тоғдан ошиб ўтиш жойи, тоғдан ўтиш йўли”, форс. – *дабан* “тоғдан ошиб ўтиш жойи, тоғдан ўтиш йўли, дара”.

Қирғизистон оронимиясини тадқиқ этган В. А. Никоновнинг келтиришича, Қирғизистоннинг 9 та топоними таркибида “дабан” сўзи мавжуд, улардан 5 таси довонларга, 2 таси чўккиларга тегишли. Топонимист Э. М. Мурзаевнинг кайд этилишича, бу термин орқали ясалган топонимлар Қирғизистоннинг Исиккўл, Кўчкор, Суусамй ва Жумгал хавзаларида нисбатан кўп учрайди, жануби-ғарбда нисбатан кам[4,65].

Қирғизистон топонимисти Б.О. Орузбоевнинг таъкидлашича, мўғулча сўзлар Шимолий Қирғизистоннинг географик номлари таркибида кўп учрайди

ва жануби-ғарбга қараб қўлланилиши қамайиб борган¹ [6,111]. Жумладан: Жангидабан (Сух дарёси ҳавзаси), Дўнгуздабан (Ок буура ҳавзаси), Арчадабан ва Шибедабан (Олойда) доволари, Қарадабан (Шоҳимардон ҳавзасида) ва Тегерекдабан (Қизилсув ҳавзасида) чўққилари, Дабан дарёси (Қосонсой дарёси ҳавзасида), Жамандабан довол, жой, дарё (Арпа ва Норин дарёлари ҳавзасида). Уларнинг барчаси Қирғизистоннинг жануби-ғарбий томонида жойлашган, республиканинг бошқа ҳудудларида биронта ҳам учрамайди [5, 102]. Агар Б.О. Орузбаева Қирғизистоннинг мўғулча сўзлардан иборат топонимларини катъий мўғуллар босқини даври билан боғласа, Э. М. Мурзаев эҳтиётлик билан бошқа мулоҳазани ҳам ўртага ташлайди – мўғулча сўзларни қирғизларнинг аجدодлари ҳозирги Қирғизистон ҳудудига келмасларидан олдин ўзлаштирган бўлишлари ҳам эҳтимолдан холи эмас. Жумладан, “дабан” сўзини мўғуллардан Марказий Осиёда ўзлаштириб олган қирғизларнинг бир қисми олиб ўтган бўлиши ҳам мумкин. С. У. Умрзоков “дабан” сўзини XII асрларда қорахитойлар олиб келган деган фикрни илгари суради [6, 200]. Юқорида айтилган фикрлар маълум бир жиҳатдан Ўзбекистон топонимиясида довол терминининг шаклланиши ва қўлланиши билан боғлиқ деб ўйтаймиз.

Агар давол хронологияси ҳақида айтилган фикрларни тўғри деб ўйлаган тақдирда, бу сўзнинг қўлланиши ва унинг асосида оронимларнинг ясалиши маълум бир даражада Қирғизистон ва Ўзбекистоннинг унга туташ ҳудудларида XIII-XIV асрларда ва XV-XVIII асрлардан кейин ҳам эмас (унгача давол сўзини билишмаган) содир бўлган.

Демак, довол терминининг тарихий-лисоний таракқиёти ва қўлланиш хусусиятлари ҳақида ўтказилган тадқиқлар қуйидаги хулосага келиш имконини беради: терминнинг асосий манбаи мўғул тили, у қадимги турк тили ва туркий тилларда учрамайди; терминнинг ареали Сибирь, Шимолий Хитой, Бурятия, Якутия, Ўзбекистон, Тожикистон, Қирғизистон, Озарбайжон, Эрон, Шарқий Тяньшан, Шимолий-Шарқий Хитой топонимиясига хос.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Данзанова Н. И. Орфографическая терминология в монгольских языках (формы возвышенного рельефа). АКД – Улан-Удэ, 2012. С. 20.
2. Мельхеев Н.М. Топонимика Бурятии // История, система и происхождение географических названий. – Улан-Удэ, 1969. – с. 185.
3. Мурзаев Э. М. Монгольские элементы в топонимии Киргизии // Географические исследования в Киргизии. – Фрунзе, 1970.
4. Никонов В.А. Заметки по оронимии Киргизии // Ономастика Средней Азии. – Москва, 1978. стр. 86-105.
5. Орузбаева Б. О. О киргизских и монгольских лексических параллелях в топонимике // Известия АН Киргизской ССР. – Москва, 1971. 1. стр. 108–111.
6. Ўзбек тилининг изоҳли дугати. – Тошкент, 2005.

¹ Умрзоков С.У. О киргизских географических терминах, обозначающих перевалы // Всесоюзная конференция по топонимии СССР. – Л., 1965.

ЖАНУБИЙ ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТОПОНИМЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Икром ХОЛМУРОДОВ,

НДПИ хузуридаги ХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси

Ҳозирги пайтда мавжуд бўлган Ўзбекистон топонимикаси маълум маънода туркий халқлар топонимикасини, биричи навбатда, Ўрта Осиё ва Қозоғистон, Туркменистон ва Қорақалпоғистон топонимикасини ўзида акс эттиради. Жой номларини морфологик жиҳатдан таҳлил қилганда, асосан, уларнинг структурасига аҳамият берилади.

Структурал элементлар таҳлили топонимик номларнинг қандай тарихий шароитга тааллуқлигини, қайси шева ва тилга мансублигини белгилашга, сўзнинг хақиқий этимологиясини яратишга ёрдам беради. Масалан, **Амиробод, Пахтабод, Янгнобод, Қирққизобод** каби жой номларини **Амир, Пахта, Янги, Қирққиз** ва **обод** структурал элементлар (морфемалар) ташкил қилган. Бу элементлар **обод** (форсча) аҳоли яшайдиган жой каби маъноларни англатади [С. Қораев].

Топонимик сўзларнинг морфологик хусусиятлари улардаги ўзак ва аффикс морфемаларнинг ўзаро муносабатларида ифодаланади. Уларни морфологик хусусиятларига кўра қуйидагича тасниф қилиш мумкин:

1. Содда топонимлар: а) туб топонимлар; б) ясама топонимлар.
2. Кўшма топонимлар: а) икки ўзакли топонимлар, б) мураккаб топонимлар.

Бу гуруҳларнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Биз уларни қуйида алоҳида кўриб чиқамиз. **Содда топонимлар:** Бу топонимлар бир ўзакли сўзлардан ташкил топган бўлади. Содда сўз маълум лексик-грамматик маънога эга бўлган нутқ бирлиги. Содда сўзлар кўшма сўз ёки сўз бирикмасидан ҳосил бўлавермайди, албатта [З. Дўсимов, Х. Эгамов].

Сўзлардаги туб ва ясамалик хусусиятлари топоним характердаги номларда ҳам мавжуд бўлади. Жанубий Қорақалпоғистон ўзбек шеваларининг топонимларида: **Мехнат, Маданият, Ғайрат, Роҳат, Суръат, Ўртоқ, Ҳаёт, Ҳамза, Чўпон** каби туб топонимлар (булар араб, форс тилларидан ўзлашган) ва **Учқун, Ўрнак, Тошли, Теракли, Жийдали, Бирлик, Озодлик, Қайнар** каби ясама топонимлар кўплаб учрайди.

Туркий тилларда туб сўзлар бир бутунлик характерига эга. Масалан: **тоғ>тов, сув, қир, қўл, сой, булок, тепа, адир** ва бошқалар. [Н. Охунов].

Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шеваларида учровчи **Булок, Бўсаға, Бозор, Дарбоза, Юлдуз, Чанок, Чўпон, Чаён, Ҳаёт, Шарк** каби топонимик атамаларни туб сўзлар қаторига киритиш мумкин.

Ясама топонимлар. Текширилаётган объектдаги топонимларнинг ясалишида, асосан, от ясовчи **-лик, -чи, -қор (-ғар, -лок, кент)** каби, сифат ясовчи **-ли** каби аффикслар билан иштирок этади. Жанубий Қорақалпоғистон топонимикаси сўз ясалиши ўзига хос хусусиятга эга. Топонимлар таркибида

қуйидаги шаклларнинг қўлланилиши юқоридаги фикрни тасдиқлайди: **-лик, -тик, -тық, -дық; -чи, -ши, -чилиқ, -шилиқ; -ли, -ды, -ты** ва бошқалар.

-лик // **-лик** аффикси билан ясалган топонимлар от, сифат, сон, равиш, баъзан олмош ва модал сўзларда белги, хослик маъноларини ифодалаб келади. Жанубий Қорақалпоғистон ўзбек шеваларида **-лик, -тық, -дик, -дық** каби фонетик вариантларда учрайди. У сифат ва сон сўз туркуми сўзларига қўшилиб келиб, жой номларини ясайди: а) сифатларга қўшылади: **Озодлик** (Азатлық), **Тенглик** (Тенлик) ва бошқалар; б) хусусият билдирувчи сифатларга қўшылади. Яхшилик (Жаксылық) ва бошқалар; в) рельеф ифодаловчи сифатларга қўшилиб, жой номи ясайди: Текислик (Тегистик) ва бошқалар; г) сонга қўшилиб жой номи ясайди: Бирлик (Бірлік), Беш йиллик (бесжылдық) ва бошқалар. Хуллас, **-лик** аффикси Жанубий Қорақалпоғистон топонимларининг ясалишида фаол иштирок этади. Бу аффикс от, сифат, сонга қўшилиб жой номларини ифодалайди.

-чилиқ қўшимчаси билан ясалган топонимлар от ёки сифатга қўшилиб касб-хунар, ҳолат оти ясайди. Дарҳақиқат, номларни лингвистик аспектда ўрганишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжудки, уларни характерлаш, специфик томонларини аниқлаш ҳар бир тил учун катта аҳамиятга эга.

Хусусан, жой номларини ифодаловчи сўз ва бирикмалар тил луғат гуруҳидаги бошқа сўз ва бирикмалардан фаркланади. Бу хусусият топонимларнинг вужудга келишларида маълум тарихий воқеалар билан, айрич тарихий шахслар фаолияти табиат қонуниятларининг таъсири, баъзан инсоният фаолиятининг тасодифий ҳолатлари билан боғлиқликда кўринади. Жой номларини ифодаловчи сўзларни аниқлаш тил луғат гуруҳидаги оддий сўзларни аниқлашга нисбатан бирмунча кийин. Топонимларни ифодаловчи сўзлар эса нутқда бир оз чегараланган ҳолда қўлланади [4].

Жой номларини ифодаловчи сўзлар кўпроқ тилнинг тарихий лексикасига хос бўлганлиги учун бундай сўзлар ҳозирги тил нуктаи назаридан тушунарли бўлавермайди. Уларни, асосан, этимологик таҳлил қилиш усули билан аниқлаш кўзланган натижани беради. Чунки тарихий характерга эга бўлган сўзларнинг морфологик состави қўп ҳолатда сезилмас даражага келиб қолади. Уларни ташкил этган морфемалар бутунлай унутилади. Масалан: Чимкент, Тошкент, Манкент каби жой номлари ҳозир бир сўз сифатида англашилади.

Жой номларини лингвистик жиҳатдан изоҳлашнинг мураккаб ва кийин эканлигига шу сўзларнинг турли шева ва диалект лексикасига мансублиги ҳам сабаб бўлади. Уларнинг структураси ҳозирги тилнинг фонетик, морфологик структурасига (орфографияси) бутунлай мос келмай қолади.

Топонимлар тарихий жиҳатдан икки гуруҳга бўлиб ўрганишни тақозо этади: 1) тарихий жой номлари; 2) ҳозирги жой номлари. Тарихий жой номларига XX асрнинг 20-йилларига қадар номланган ва ҳозир ҳам ўзгармай келаётган топонимларни киритиш ўринли.

Демак, жой номларини лингвистик аспектда ўрганиш энг мураккаб усуллардан бири бўлиб, буида тилнинг морфологик, синтактик, орфографик, орфоэпик ва лексик-семантик хусусиятларига алоҳида диққат қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Qoraev S. Toponimika. -Toshkent, 2006.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли лугати. -Тошкент, Ўқитувчи, 1977.
3. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. -Тошкент, 1989.
4. Эназаров Т. Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини -Тошкент: Университет.

QORAQALPOG'ISTON HUDUDIDA JOY NOMLARINING O'RGANILISHI

ZIBRAGIMOVA

Nukus PI o'qiruvchisi,

B.ABDULAMITOV

QQDU talabasi

Qoraqalpog'iston hududida urug' va qabilalar nomlari bilan atalgan joylar anchagina bo'lib, tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, ba'zi hududlar toponimiyasining uchdan ikki qismini mana shunday nomlar tashkil qiladi. Shunday shahar, qishloqlar, ko'llarning, bir qator qadimiy makonlar, qal'alar, xarobalar va tepaliklarning nomlari mavjudki, ularning berilish sabablari, anglatgan ma'nolari, kelib chiqishi (etimologiyasi) haqida fanda turlicha talqinlar, farazlar mavjud.

Toponimlar bizning o'tmish ajdodlarimiz qadimda va yaqin o'tmishda shug'ullangan kasb-korlar, dehqonchilik, chorvachilik sohalari, ularning moddiy-madaniy turmushi haqida qimmatli ma'lumotlarni «so'zlab» bera oladi. Bular shaharlar, qishloqlar, vodiylar, qo'rg'onlar, qal'alar nomida, ayniqsa, mahallalar, guzarlar, mavzalar, ko'chalarning nomlarida yorqin ifodalangan. Mana ularning ba'zi namunalari: Pichoqchilik, Temirchi, Temirchilik, Kulolchi, Tandirchi, Bo'zchi, Kigizchi, Katmanchi va b.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli sohalardan biri turizmdir. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shu maqsadda Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumanida *Mizdakxon qal'alari*, *Mazlumxon Suluv*, *Jo'mard Qassob*, *Halifa Rajab*, *Shamun Naby*, *Gavurqal'a* yodgorliklarida tiklash ishlari amalga oshirilmoqda. Kelgusi yillarda bu yerda yirik ziyorat turizmi shakllantirilishi ko'zda tutilmoqda. Qal'alar tarixiga e'tibor bersak, ularning har birining o'z qurilish tarixi bor. Masalan, Gavurqal'a bundan 2500 yildan ilgari barpo etilgan. Ilmiy izlanishlarda Govur qal'a miloddan avvalgi 1 ming yillikning o'rtalaridan eramizning X asriga qadar *Mizdakxon* deb atalib kelingan. Bu atamani ko'pchilik zardushtiylik dinining bosh xudosi Axuramazda bilan bog'laydilar. Lekin biz qal'a nomini mazdakiylik ta'limotini yaratgan Mazdak ibn Hamadon nomi bilan bog'lashni afzal ko'ramiz. Sababi, arablar bostirib kelgan paytlarda bu yerda mazdakiylik ta'limoti yoyilib ulgurgan edi.

Arablarning bu yerdagi hukmronligiga qarshi aynan mazdakiylar bosh ko'targanligi haqida tarixiy faktlar mavjud.

Mamlakatimizning turti hududlaridagi o'xshash toponimlarni uchratib turamiz. Qoraqalpog'larning mashhur "Qirqiz" dostoni hammamizga ma'lum. Ellikqal'a tumanidagi *Qirqiz tepaligi* va Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi IX-X asrlarga tegishli *Qirqiz yodgorligi* shu doston voqealariga aloqador.

Olimlar insoniyatning ko'lna tarixini o'rganishda toponimlar beruvchi ma'lumotlarni juda ham qadrlashadi. Tanqli nemis tilshunosi Ya. Grimm: *«Xalqlarning ko'lna tarixi haqida darak beruvchi suyaklar, tobular va qurollardan ham afzalroq jonli vosita, dalil mavjud - bu ularning tilidir»*, – degan edi. Bu fikr xuddi toponimlar haqida aytilgandek. Boshqa bir olim toponimlarni *«...o'ta qadimiy davrlarda yashagan ajdodlarimizdan bizga daraklar keltiruvchi elchilardir»*, – deganida nihoyatda haqlidir. Ko'pgina toponimlar anglatuvchi ma'nolar hozirda biz uchun qorong'idir. Nom qancha murakkab, ma'nosi biz uchun hozirda qanchalik tushunarsiz, noma'lum bo'lsa, u shunchalik qadimiy va ko'lna so'zdir. Uning paydo bo'lish ildizlari o'ta qadimiy tarix, zamonlar qat'riga kirib boradi. Darhaqiqat, joy nomlari tariximiz, tilimiz, madaniyatimizning oq sochli jilg'alaridir. Bu jilg'alar o'tmishda o'z «oqimi» yo'lida nimalarga duchor bo'lmagan deysiz. Ularning yo'lini to'sganlar, ularni quritmoqchi bo'lganlar ozmunchami? Qanchadan qancha chingiziylar, ajnabiy zulmkorlar o'lkamizni toptab, shaharlarimiz, qishloqlarimizni necha bor vayron qilib, kulturelarga aylantirdi, ularning ba'zilaridan hozirda ko'lna tepalar, qo'rg'onlar vayronalar qolgan, xolos.

Olimlar toponimlarni bekorga *«yerning tili»* deyishmaydi. Bu til nihoyatda boy, serma'no, sermazzmun, N.I.Nadejdin bundan 150 yil oldin: *«Yer - bu toponimlar yordamida insoniyat tarixi bitilgan kitobdir»*, – degan edi. Bu nodir va ko'lna kitobning muallifi o'tmish ajdodlarimiz, xalqimizdir.

O'zbek tilidagi toponimlarni umumiy tarzda ikki ulkan guruhga bo'lish mumkin: *tabiiy, ya'ni xalqona toponimlar va rasmiy, ya'ni sun'iy toponimlar*.

Tabiiy, ya'ni xalqona toponimlar tilda ko'p asrlar davomida tabiiy holda yuzaga kelgan nomlar bo'lib, ularning ijodkori, yaratuvchisi xalqdir. Bu nomlarning ba'zilarini kim, qachon qo'ygan, nima sababdan ana shunday atalgani hozirda unutilgan bo'lib, ularni aniqlash maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Xalqona toponimlar ko'p davrlar davomida tarix sinovlaridan o'tgan, silliqqlanib qisqa va lo'nda so'zlarga aylangan milliy tilning lisoniy talab va ehtiyojlariga moslashgan, bu til toponimiyasiga xos tipik qurilma (model)larni o'zida gavdalantiruvchi nomlardir.

Toponimlar tarkibida uchraydigan shakllar uzun bo'lgan qo'shma toponimlar ham ko'pi bilan ikki, uch bo'g'inli va yetti, sakkiz yoki to'qqiz tovushli. Chunonchi, Kumushkon, Moylisuv, Beshbuloq, Qizilsuv, Yong'oqli, O'rtasoy kabi.

Xalqona toponimlarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning moddiyligi, ya'ni yaratilishiga ko'ra moddiy (real) asoslarga egaligi. Shu sababli xalqona nomlarning aksariyati ma'lum o'rin, hududga jug'rofiy-fizikaviy obyektlarga xos bo'lgan xususiyatlar, belgilar, nomning yuzaga kelishi uchun sabab bo'lgan biror voqea, hodisalar haqida bizga xabar berib turadi. Shu sababli ham xalqona toponimlar xalqning qadimiy davrlardan tortib, asrlar davomida xalisona xizmati, izlanishi va ijodining ajoyib mahsulidir.

Tilda shunday nomlar ham mavjudki, ularning yuzaga kelishi alohida shaxsning xohish-irodasiga, maxsus qarorlar, ko'rsatmalarga bog'liq bo'ladi. Mana shunday nomlarni *rasmiy (sun'iy) toponimlar* deb yuritish mumkin. Bu nomlarning yuzaga kelishi, qo'yilish asosiy atalayotgan obyektidan tashqarida bo'lgan sabablar bilan izohlanadi. Bunday asos va sabablar ko'p holda alohida shaxs yoki kishilar guruhining istak va irodasi, siyosiy, mafkuraviy qarashlarga yoki bosqinchilik va zug'umga asoslangan majburiylik omillariga tayanadi. Tarixiy nomlarga «*madaniyat yodgorligi*» maqomini berishda ikki yetakchi maqsad ko'zda tutiladi: birinchisi, toponimlarning xalq madaniyati va ma'naviyatining tarkibiy qismi, uning nodir merosi ekanligini tan olish. Ikkinchidan, barcha madaniyat yodgorliklari kabi tarixiy nomlarni asrab-avaylab saqlash va muhofaza qilish lozimligi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi ma'muriy-hududiy birliklar, toponimik obyektlarni nomlash, ular nomini o'zgartirishning, shuningdek, tarixiy nomlarni asrash va muhofaza qilishning yo'l-yo'riqlari, mezon va talablarini izohlashga bag'ishlangan bo'lib, viloyat, shahar, tuman toponimiya komissiyalariga, shuningdek, joylarga nom berish masalalari bilan qiziquvchilarga nazariy va amaliy yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Xullas, joylarni nomlash, ular nomini o'zgartirish murakkab va mas'uliyatli ish bo'lib, joylarga berilayotgan har bir nomga mahalliy sharoit va talablardan kelib chiqqan holda aniq yondashish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasi. –Toshkent. 22.12.2017
2. Hayitboy Abdusodiq. Aslim, Aslim Xo'ja Eli. – Nukus: Qaraqalpaqstan, 2005
3. Begmatov E. Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi. –Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
4. Oxunov N. Til va joy nomlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1988.
5. Ономастика Узбекистана. – Ташкент. 1989.
6. Muhammadjonov Q. Toponimlar – xalq tarixini o'rganish manbai. –T., 1989.

ТОПОНИМЛАР ВОСИТАСИДА МАМЛАКАТИМИЗ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Мамаражаб ХЎЖАМОВ,
ТДПУ доценти

Таникли рус олими Н.И.Надеждин топонимлар тўғрисидаги тасаввурни ойдинлаштиришга ҳаракат қилиб, "Ер – бу топонимлар воситасида инсоният тарихи битилган китобдир", - деган эди.

Топонимларни халқ тили ва тарихи махсули деб айтиш мумкин. Географик номлар топонимиканинг ўрганиш манбаи ҳисобланади.

Ҳозирга вақтда топонимика фақат йирик объекتلарнинг: тоғлар, ўрмонлар, водийлар, воҳалар, шаҳарларнинг номларинигина эмас, балки кичик

объектларнинг – маҳаллалар, даралар, жарликлар, анхорлар ва кўлларнинг номларини ҳам ўрганмоқда.

Антропоним сўзи – латин тилидан олинган бўлиб, *антропо* – одам, *онома* – ном, киши исми, лақаби, фамилияси демакдир; *антропонимика* – киши исмларини ўрганадиган фан тармоғидир.

Гидроним юнонча: *гидро* – сув, онима – ном, сув объектларининг, масалан, канал, арик, анхор, дарё, сой, жилга, ирмоқ, булок, қудук, денгиз, кўл ва кўлтёк, бўғоз, шаршара кабиларнинг номларини ўрганади.

Диминутив – латин тилидан олинган сўз бўлиб, кичрайтирилган шаклдан топоним яшаш демакдир. Ўзбекистонда – *ча* ва – *ак* баъзан – *ик* аффикслари диминутив шаклидаги топонимларни ясайдиган бўлиб, бундай топонимлар отлардан (Хисорак, Хумдонак, Рудак), сифатлардан (Кўкча, Окча, Корача, Сарича), этнонимлардан (Дўрмонча, Найманча) ясалиши мумкин. Баъзи ҳолларда эса (катта топонимга тақлид қилиб) ном қўйилганда ҳам диминутив шаклдан топонимлар ясалади, чунончи Бухороча, Самарқандак, Бағдодик, Регистонак ва бошқалар.

Метатеза – латин тилидан *метатезис* – жой алмаштириш, сўздаги товушларнинг ўрин алмашиши (Бешоғоч – Бечоғош, Сайрам – Сарём).

Метафора – юнонча: кўчириш, сўзининг кўчма маънода ишлатилиши. Масалан, (Туятош – каттақоя, Мингбулок – кўп булок), этак – дарёнинг, тоғнинг, сойнинг ёки одамнинг этаги, Бурун – одамники, қайикники ва бошқалар.

Метонимия – юнонча: қайта ном қўйиш, топонимикада жой номининг кўшни объект номига ўтиши. Масалан, дарё номининг шаҳар номига айланиши (Зарафшон дарёси – Зарафшон шаҳри, Чирчик дарёси – Чирчик шаҳри), дарё номининг тоғ номига кўчиши (Кўксув дарёси – Кўксув тизмаси, Вахш дарёси – Вахш тизмаси). Ўзбекистонда метаномия ҳодисаси жуда кенг тарқалган.

Микротопонимия – юнонча: *микро* – кичкина, *опис* – ном, кичик объектлар: булоқлар, қудуқлар, далалар, ўтлоқлар, жарлар, йўллар, кичик телалар, кўчалар ва ҳатто атоқли отга эга бўлган айрим дарахтларнинг номлари; микротопонимия ва макротопонимия орасида муайян чегара йўқ, масалан, баъзи бир татқиқотчилар кўчаларни микротопонимлар десалар. Бошқа бировлар макротопоним деб ҳисоблайдилар.

Урбанонимия сўзи ҳам латин тилидан олинган бўлиб, *урбанус* – шаҳар, аҳоли пунктлари, хутор, овул, қишлоқ, шаҳарча, станция, шаҳарларнинг номларини ўргатадиган махсус фандир.

Топонимика уч принцинга асосланади: а) топонимларнинг пайдо бўлиш тарихини ўрганиш; б) топонимларнинг жуғрофияга оид маълумотларини аниқлаш; в) асосий кидирилатган топонимларнинг барча номдагиларини илмий асосда алоҳида – алоҳида ўрганиб, улардан хулоса чиқаришдир.

Китъалар ва денгизлар номларидан ҳосил бўлган топонимлар:

Австралия – юнонча: жанубий қуруқлик дегани, Европа – Осиёнинг тилида эреб – қуёқ ботиш, қоронғулик, ғарб деган маъноларни билдиради. Осиё – русча Азия, Хитойча Ясия, японча Адзия дегани.

Болкон – Европадаги ярим орол. Туркий тилларда Балхан – тоғ, тоғли ер,

деган маънони англатади.

Австралия – немисча: Остеррейх: Ост – шарк, рейх – ўлка, яъни шаркий ўлка дегани. Англия – Ғарбий Европадаги Буюк Британия давлатининг номи; V–VI асрларда континентал Европадан шу ерга сузиб ўтган *англ* қабилалари номидан олинган.

Ҳадра – Тошкентдаги ҳозирги Ҳадра майдони бўлиб, Ҳадра – чегара, чекка деган маънони билдиради. *Бўржар* – илгари бу ерда бўри ёки чиябўри кўп бўлгани учун шу ном берилган. *Тахтаул* – бу сўз этимологияси тахта – ёғоч, пул – форс тилида кўприк, яъни тахтакўприк деган маънони билдиради. *Қўйлик* – Тошкент шаҳрининг чегарасидаги жой. Профессор Х.Ҳасанов Қўйликни "қўйлик", "пастлик" деб изоҳлайди.

Сағбон – Қўкча даҳаси маҳаллаларидан бири. Сағбон "ит бокар" сўзидан олинган дейилади. Кейинги вақтда Сағбон арабча сук - "бозор" ва форсча бон - "қаровчи", "боқувчи", яъни сукбон – "бозор қоровули" деб изоҳланмоқда.

Тошкент – ҳаммага тушунарлидек тўйиладиган бу топонимни келиб чиқиши ҳамон узил-кесил ҳал қилинмаган. Тошкент воҳаси (демакки шаҳар) илк бор Чоч (Чочистон) шаклида Эрон шоҳи Шопур I нинг "Зардушт қаъбаси" ёдгорлик битиғида милод бошларида тилга олинган; Хитой манбаларида Ши, Чже-ши, Та-ши-хан, ўрта асрларнинг бошларида Таркан, кейинроқ Бинкат, араб манбаларида Мадинаат аш-Шош шаклларида қайд қилинган.

Тошкент сўзининг этимологияси ҳақида турли фикрлар баён этилган. Шулардан энг кўп тарқалганлари топонимнинг Тош (арабча: фижара, юнонча: петрос) сўзи билан алоқадорлигидир: Тошкент – тошқалъа демакдир. Птоломейнинг "География" китобида у Птитифос литрос "Бурж ул-хижора" ("Тош қалъа") деб аталган (Беруний).

Қашғар – Шайхонтахур туманидаги маҳаллалардан бирининг номи. Бу ерда XIX аср биринчи яримида Қашғардан келган қашғарликлар – уйғурлар яшаган.

Қорамурт (Қорамуртқопка) – Шайхонтахур даҳаси мавзеларидан бирининг номи. Қорамурт ўзбек уруғларидан бирининг номи бўлиб, маъноси: "қора мўйловли" демакдир.

Хуллас, тарихий топонимлар Ўзбек номшунослигининг асосий манбаси ҳисобланиб, ономастик бирликларни бойитишга хизмат қилади.

TURKIYADAGI BA'ZI DARYO VA KO'L NOMLARINING ETIMOLOGIYASI

Sabohat Bozorova
ToshDO'TAU o'qituvchisi
Saodat Ashurova
ToshDO'TAU talabasi

Anadoluning eng uzun daryosi bo'lgan Kızılırmak (*Qizilirmoq*) vizantiyaliklar davrida yunoncha nomi bilan *Halys (Tuzli)* deb atalar edi. Qizilirmoqning suvi qizg'ish tusda bo'lganidan xetlar davrida bu daryo *Nár*(daryo) *dır*(qizil) deb

atalgan. Xetlar davri manlarida *nâr*(daryo). *dir*(qizil) soʻzlarining uchrashi mutaxassislar tomonidan qayd etilgan.¹ Toʻrt ming yil oldin xetlar tomonidan qoʻyilgan nom mazmuni Qizilirmoqning bugungi nomida ham mujassam.

Xetcha *nâr* va akkadcha *nahrû* soʻzlari arab tilidagi *nahr* soʻziga asos boʻlganligini sezish qiyin emas. Kurd tilidagi *nahâl*(daryo) soʻzida *r/l* shaklidagi oʻzgarish yuzaga kelgan deyish mumkin. Xetcha *dir* soʻzi va kurd tilidagi *sur sor* soʻzlari bir oʻzakdan yasalganligi haqida fikrlar bildirilgan. Fors tilida *yurak*, *qalb* maʼnosida ishlatiluvchi *dil* hamda kurd tilidagi *dil* soʻzlari qalbning qizil rangiga nisbat berilgan *dir* soʻziga aloqador boʻlishi mumkin, degan qarashlar mavjud. Bu oʻrinda *r/l* tovush oʻzgarishi yuz bergan. *Qizil* soʻzi, xuddi *ol* soʻzi singari, eski turk tilida ishlatilgan soʻzdir. Eski turklarda insonlarga ham *Qizil* deb ism qoʻyilganligi maʼlum. Hozir ham turkiy xalqlarda shu ismni qoʻyish holatlari uchraydi. *Qirmizi* soʻzi esa Marokashdagi *Qarmas* qishlogʻi nomi bilan bogʻliq. Bu soʻz arab tiliga *qirmizi*(Qarmasga xos) shaklida oʻzlashgan. Arab tilida *qirmizi* maʼnosida *ahmar* soʻzi ishlatiladi. Turkiyadagi *Hilal-i Ahmer* (Qizil Oy) tashkilotining nomida ham shu maʼno aks etgan.

Summerlar tilidagi *su* (qizil) soʻzi kurd tilida *sur*(qizil) shaklini olgan. Akkadchada *sumûsannu qizil* maʼnosida qoʻllangan Tunjelidagi Mazgirt tumanida joylashgan *Kizîkale*, yaʼni *Qizilqalʼa* maʼnosini anglatuvchi *Dirban* qishlogʻi nomidagi *dir* prefiksi xetchadagi *dir* (qizil) soʻzi bilan aloqador boʻlishi mumkinligi haqidagi fikrlar mutaxassislar tomonidan oʻrtaga tashlangan. *Dirban* qishlogʻi nomi kurdchadagi *dir* (togʻ yorigʻi) soʻziga aloqador degan qarashlar ham mavjud. Bu qishloqning oldinroq *Kizîkale* (*Qizilqalʼa*) deb atalgani ham maʼlum. Shu oʻrinda *Dirban* toponimidagi *dir* prefiksining (xetcha *dir*:qizil) bu hudud tuprogʻining rangi qizgʻish tusli ekanligi sababli qoʻshilgani bilan izohlash mumkin. *Dirban* toponimining *dir*: qizil; *ban*: *qalʼa*, *qoya* maʼnolariga aynan mos keluvchi nomi *Kizîkale*(*Qizilqalʼa*) shaklida ham faol ishlatilishi kuzatiladi.

Turkiya sharqidagi bir shahar va Eruh hamda Sivas markazidagi bir qishloqning nomi **Bingöl** (Mingkoʻl)dir. Arzurum janubidagi togʻlar ham shu nom bilan ataladi. Moʻgʻullar XIII asrda Kichik Osiyoga hujum qilgan paytda oldingi Gurjiston hududiga yaqin boʻlgan Childir tumanidagi bir yaylov va togʻga shu nomni bergan. Keyinroq hozirgi Bingöl bilan Arzurum orasidagi sersuv yaylovlari joylashgan mintaqaga ham shu nom bilan atalgan. Moʻgʻulcha *Mingkoʻl* turk tilida *Bingöl* shakliga talaffuz qilinadi. *Bingöl* shahrining oldingi nomi *Chapakchur* boʻlgan. Kurdlar Chapakchur joylashgan hududni *Chewlik* deb ataganligi maʼlum. *Chewlig* *chevlik* soʻzlari, asosan, *daryolar boʻylaridagi joylar*, *yashilliklar* (*vodiy*lar) va *guruch* maʼnolarida ishlatilgan. Guruch daryolar boʻyidagi sersuv joylarda oʻsganligidan *chevlik* *chewlig* nomlarini olgan. Bingöl shahridan oqib oʻtuvchi *Chapakchur* daryosi va boshqa daryolar, ular atrofidagi yashil vohalar sababli bunday joylar *Chevlik* *Chewlig* *Chewlik* shakllaridagi soʻz bilan atalgan. Keyinroq Mingkoʻl yaylovlari nomi bilan bogʻliq holda 1945-yilda Chapakchur shahriga *Bingöl* nomini berish maʼqul koʻrildi. Bunda moʻgʻullarning Childir koʻli

va uning atrofidagi katta-kichik ko'llarga nisbatan ishlatgan *Minğ köl* *Minköl* nomi va shu o'zak bilan bog'liq bo'lgan Arzirum janubidagi tog'lik hududga berilgan *Mingko'i tog'lari* nomining hal qiluvchi omil bo'lgani ma'lum. Ilk va o'rta asrlarda bu tog'lar *Abos/AbusMons* (*Abos Abus tog'lari*) deb nomlanar edi. Qadimgi arman manbalarida bu joy *Srmanch* deb atalgan. Manbalarda 1626-yilda Jonn Speed tomonidan tayyorlangan xaritada hozirgi *Bingöl* hududi yaqinida "*Binguil*" (*Bingöl*) yozuvi borligi qayd etilgan. Bu nomning qo'yilishiga mintaqada ko'llarning ko'pligi sabab bo'lgani ma'lum. Usmonlilar davrida ham bor bo'lgan *Zirni, Muhammisi, Aynal hayot, Manarmik, Harem, Kerkis, Shor, Sebbash, Hatun, Jabbor, Mevadin, Rohmiri va Belam* bu yerdagi asosiy ko'llar nomlaridir.

BUXORO VILOYATI TOPONIMLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

*Madina VAHOBOVA,
BuxDU talabasi*

Mamlakatimiz toponimlari XX asrning 60-yillaridan boshlab ilmiy asosda o'rganila boshlangan. Buxoro viloyati joy nomlari ham tadqiq etilgan, toponimikaga oid bir necha lug'atlar, risola va monografiyalar nashr etildi. Suyum Qorayevning "Toponimika" kitobida joy nomining hayotiy ehtiyoj negizida paydo bo'lgani shunday izohlanadi: "Bir joyni, ikkinchisidan, bir jilg'ani boshqa bir jilg'adan, bir ko'chani yonidagi ko'chadan, tog'adimi, shahar va qishloqlarni bir-biridan farqlash uchun ham kishilar nom o'ylab chiqargan". Joy nomlari toponimlar ham deyiladi. Toponimlarni toponimika o'rganadi. Uning ma'nosida quyidagilar bor: 1) gidronimiya (yunoncha gidro-suv); 2) oronimiya (yunoncha oros-tog'); 3) polinimiya (yunoncha polis-shahar); 4) oykonimiya (yunoncha oykos-uy); 5) etnotoponimiya (yunoncha etnos-xalq); 6) antropotoponimiya (yunoncha antropotopos-odam).

Atoqli otlarni o'rganadigan onomastikaning eng katta qismi va ajralmas bo'lagi toponimika hisoblanadi. Birgina Buxoro viloyatining o'zida 954 ta joy nomi borligi aniqlangan. Ammo bu toponimlar tarkibidagi etnonimlar ham mavjud. Masalan, Sayyod – Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Ba'zi manbalarda *Sayod, Sayat* tarzida bitilgan. *Sayot* talaffuzi ham bor. Qadimgi turkiy urug'lardan biri "Sayot" nomidan olingan. Tuzilishi mang'it, bayovud, tuyod, murkit, market, arlon, bayot, esat, qarayid, burqut, qiro't, uyot kabi qadimgi turkiy-mo'g'ul qabilalari nomiga o'xshash. Eski adabiyotlarda uyg'ur-o'g'uz lahjasida so'zlashuvchi hozirgi tuva xalqi *sayotlar* deb atalgan. Shu jihatdan, bu etnik guruh va tualar o'rtasida etnogenez yaqinlik mavjud bo'lgan. Sayotlar o'zbek, turkman, tojik va boshqa xalqlarning tarkibiga singib ketgan. Bu umumturkiy etnonim bo'lib, aholisining etnik tarkibi qishloqning nomlanishiga omil bo'lgan. Urug' va qishloq nomi "ovchi" ma'nosidagi arabcha *sayyod* so'ziga daxldor deb bo'lmaydi. Bundan tashqari, Buxoroning Qorako'ldan tashqari boshqa hududlarida ham mazkur qabila nomi bilan bog'liq Sayot qishloqlari uchraydi.

Geografik atamalar, shuningdek, o'simlik va hayvon nomlari biror qo'shimchasiz yoki aniqlovchisiz toponimga aylanmaydi. Demak, tasodifiy paydo

bo'lgan joy nomlari kamdan kam uchraydi. Binobarin, aksari qismi tabiat hodisalarini aks ettiradi. Toponimlar yasashida aniq asoslar bo'ladi. Masalan, "Terakli"mi, demak, shu nomdagi urug' nomi, yo terak daraxti ko'p joy ham bo'lgan. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin: Tutzor dedimi, u yerda tut, Olmazor dedimi, u yerda olma, Jiydazor dedimi, u yerda jiyda bo'lgan.

Buxoroda ko'p asrlik tarixiy davr mobaynida turli millat va elat vakillari yashab o'tgan va yashamoqda. Ularning har bir toponimlarda oziga xos iz qoldirgan. Shu sabab Buxoro toponimlarini o'z va o'zlashgan qatlamlarga bo'lib o'rganish lozim. O'zlashgan qatlam toponimlarini ham 4 guruhga ajratish mumkin:

1. Arabcha: Xo'ja, Madaniyat. 2. Forscha: Denov, Sariosiyo. 3. Ruscha: Pushkin(maktab). 4. Aralash tipdagi toponimlar: Arabchaxona, O'zbekiston.

Toponim-geografik obyektning aniq manzildir. Nomlar joyni geografik aniqlash uchun ham, geografik tushunchani aniq izohlash uchun ham zarur. Shuning bilan ular lug'at fondining bir qismi bo'lib, tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchayin farq qiladi. Ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy-etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, tuzilishi, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir. Buxoro viloyati tumanlaridan birining nomi bo'lgan *G'ijduvon* toponimining kelib chiqishi borasida xalq orasida bir necha xil fikrlar mavjud bo'lib, ularning qay biri haqiqatga yaqin-u, qay biri shunchaki o'xshashlik ekaniga yechim topmoqchi bo'ldik. Ilmiy izlanishlarimiz natijasida 4 xil qarashga duch keldik. Bularning orasida bu shaharning *G'ijduvon* deb atalishiga 2 asosiy sabab bo'lgan:

Birinchisi, bu shaharda devdek gavdali, katta-katta qadimgi odamlar yashagan. E'tibor bergan bo'lsangiz, qadimgi qabrlar ham juda katta bo'lganini ko'rasiz. Yetti metrdan o'n to'rt metrgacha bo'lgan sag'analar ham qadimda mavjud bo'lgan. Shu sabab devqomat kishilar makon qurgan bu shaharni boshqalar "*G'ij-devon*" (Devqomat kishilar makoni), keyinchalik esa "*G'ijduvon*" deb ataganlar. *G'ijduvon* so'zi tarkibidagi **-on** tojikcha affiks bo'lib, ko'pincha toponim yasaydi.

Ikkinchisi esa qadimdan bu shaharda ilmiy odamlar yashagan va ko'plab devonlar, katta-katta kitoblar qoldirgan. Devon izlovchi, devon yig'uvchi kishilar bu joyni "*G'ij-gij devon*" deya ataganlar. Bu yerda ko'plab devonlar yozilgan, shu bilan shahar o'z-o'zidan "*G'ijduvon*" nomini olgan. Bu yerda xalq og'zaki ijodi namunalari, dostonlar yozilgan kitoblar ham saqlangan, bu esa u yerda qadim-qadimdan ilmiy insonlar yashaganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, yana bir qarash ham borki, bir joyda atrofini pishiq g'isht bilan o'rab olgan bir to'p aholi paydo bo'ladi. Bu shahar birinchi bo'lib devor bilan o'rab olingan deyiladi. Xalqni dushmandan muhofaza qilish maqsadida tiklangan devor pishiq g'ishdan va juda mustahkam bo'lgan. Bu shahar "*G'isht devor*" birikmasidan kelib chiqqan degan qarash ham mavjud bo'lib, davrlar o'tib "*G'ijduvon*" ga aylangan.

Buxoro viloyatining katta tumanlaridan yana biri – "*G'ijduvon*" nomining qo'yilish tarixiga qiziqdik va shahar nomining bunday atalishiga asosiy sabab bo'lgan eng muhim jihatlarni jamladik. Shu bilan birga ko'zlagan maqsadimizga oz bo'lsa-da erishdik, desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Shu yerda yashovchi har bir insonning

o'zligini, qadr-qimmatini anglashda ko'makchi bo'larmikan degan umidda imkoniyatimiz va aql-idrokimiz yetgan darajada toponimlar haqida ayrim mulohazalarimiz, tarixiy jihatdan, lingvistik tahlil qilgan holda havola qilindi. Bunday tahlil joy nomining kelib chiqishini aniqlashtirishda, bu borada to'g'ri xulosaga kelishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006.
2. Эназаров Т. Туркий содда топонимларнинг этимологик тадқиқи. – Тошкент: Университет, 2002.
3. Ғайбуллаев С. Қорақўл воҳаси топонимлари. – Тошкент, 2015.
4. Нанмов С. Бухоро вилояти ойконимлари. – Тошкент, 1984
5. Анданиязова Д.Р. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. (PHD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017.

JOY NOMLARI – TARIXIMIZ KO'ZGUSI

Nilufar SHODMONOVA,

ToshDO-TAU talabasi

O'zbek nomshunosligi o'zining talabi va tavsiyalari bilan qo'yilgan nomlarga hamda yangidan qo'yilayotgan nomlarga ijobiy ma'noda ta'sir qilib turibdi. Zero, mamlakatimiz va hukumatimizning tinchliksevarlik va hamkorlik siyosatini biz har kuni uchratadigan nomlarimiz mazmuni va shakliga ko'chirsak, nur ustiga nur bo'lardi. Bu esa biz yoshlarni vatanparvarlik, hamkorlik va qadimiy qadriyatlarga ishonch ruhida tarbiyalashga yordam beradi, deb bilaman.

Toponimika joy nomlari, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlari, rivojlanish yoki o'zgarishini tarixiy etimologik manbalar va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'limdir. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi.

Toponimlar yurtimizda azal-azaldan yashab kelayotgan elatlarning joylarini nomlash bilan bog'liq bo'lgan an'analar, urf-odatlarini nomlash mahorati haqida ma'lumot beruvchi manbadir. Yurtdoshlarimiz joy nomlarini berishda istiqomat qilayotgan muhitdan kelib chiqqan holatda nom berishi darkor. Joy nomlari o'sha joyga mos va xos bo'lishi lozim. Bunga misol qilib Samarqand viloyatini olamiz. Samarqand viloyati respublikada birinchi tashkil bo'lgan viloyatlardan hisoblanadi. Samarqand viloyatining bunyod etilgan vaqti va nomi etimologiyasi aniq emas. Turli davlatlardagi tarixiy manbalarda shaharning nomi *Samariana*, *Saramanka*, *Sanmanqin*, *Samaran* shakllarida tilga olingan. *Samarqand* *Semizkent*, ya'ni *Semiz shahar*, *katta shahar* ma'nosini bildiradi. *Suzangar* Samarqand shahridagi mahalla nomi mahalliy o'tmishdagi asosiy kasbi yoki mashg'uloti igna tayyorlash bo'lgan. Tojik tilda *Suzangaron* so'zi igna tayyorlovchilar yoki ingan ustalari degan ma'noni bildiradi. Samarqand viloyatidagi tumanlar soni 16ta. Bular Bulung'ur, Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om, Jonboy, Ishtihon, Narpay, Oqdaryo, G'azalkent, Bulung'ur, Paxtachi, Tayloq,

Payariq, Samarqand, Urgut, Qo'shrabot, Chelak tumanlaridan iborat. Joy nomlarining qo'yilishini o'rganmoqchi bo'lsak, buni Payariq tumanidagi joy nomlari misolida tahlil qilish mumkin.

Payariq Samarqand viloyatidagi tuman bo'lib 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. 1953-yil Payariq tumanining bir qismidan Narimanov tumani tuzilgan. 1959-yilda Narimanov tumani Payariq tumaniga qo'shilgan. 1991-yilda Payariq tumanidan Chelak tumani ajralib chiqqan va 2001-yilda yana qaytib Chelak tumanlari birlashtirilib Payariq tumanini tashkil qiladi. Payariq tumaniga bu nom berilishining sababi bu yerlarda suv yetishmovchiligi bo'lganligi uchun hududda aholi istiqomat qila boshlagach, bu yerlarga Payariq arig'ini qazib, suv olib keladi va bu hududdagi dalalarga suv keladi

Omonqo'ton – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Chaqilqalon tog'larining shimoliy yonbag'ridagi Bulbulzor soyida joylashgan g'or nomi. Bu toponimning kelib chiqishi quyidagicha bo'lgan. O'tmishda pastki qishloqlardagi boylarning qo'yilari tog'da boqilgan. Bir yil qish juda qattiq kelib tog'ni qalin qor qoplaydi. Bir necha kun bo'ron turadi va tog'ga berolmagan boylar qo'yilari nobud bo'ldi, deb o'ylashadi. Sovuqning zahri qaytganda tog'ga kelishsa, qo'tondagi qo'ylar ham, choponlar ham omon qolgan ekan. Shundan keyin bu joyni *Omonqo'ton qishlog'i* deb atashgan.

Sanguzar Nurota tumanidagi qishloq bo'lib *Toshloq, kechoq* ma'nosidagi *Sanguzar* yoki tashloq ma'nosini beruvchi Sangzor qishlog'i. Bulardan tashqari Samarqand viloyatida juda ko'p katta-kichik qishloqlar borki, ularni barchasini sanab sanog'iga yetolmaymiz.

Joy nomlari inson hayotida muhim o'rin tutadi, har bir fuqaro o'zi yashab turgan joy, ko'cha, mahalla, tuman, shahar nomi bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham joy nomlarini o'zgartirishda obyekt bilan bog'liq belgi xususiyatlar va boshqa jihatlari hisobga olinishi, nomning mahalliy aholining turmush tarzi bilan bog'liq tomonlariga ham e'tibor berish darkor. Bizga ba'zi bir joy nomlari xunuk eshinishi mumkin, ammo bir xulosaga kelishdan oldin biz uning mohiyatini anglashimiz darkor. Bunga misol qilib *Do'ngqishloq, Qiyra, Birlashuv* nomlarini olsak bo'ladi. *Do'ngqishloq* yuqorida, tepalikda joylashgan qishloq, Birlashuv shu hududdagiylarning mehr-oqibatligini bildiradi.

Har bir inson o'zi yashayotgan joyning tarixi, tabiiy sharoitini, joy nomining kelib chiqish sababi va mohiyatini o'rganishni xohlaydi. Shuning uchun ham joy nomlarini, unutilgan qadriyatlarmizni qayta tiklash va ona yurtimizning tarixiy-madaniy an'analari e'zozlashdek ulug'vor maqsadlar bilan bevosita bog'langandir.

O'zbekiston FA akademigi A.Muhammadjonov o'zining ilmiy ishlarida toponimlarning izohli, tarixiy va etimologik tahlillariga to'xtalgan.

Biz yashab turgan hududga berilgan nom biz uchun shunchaki joy nomi emas, balki uning zahirida bizning tariximiz, urf-odatlarimiz, qadimdan qolgan an'analarmizning izlari bordin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Enazarov T. O'zbekistondagi ba'zi toponimlarning etimologik talqini. -- Toshkent, 2009.

DAJLA DARYOSINING NOMLANISHI XUSUSIDA

Ibodat BOZOROVA

Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,

Sabohat BOZOROVA

ToshDO'TAU o'qituvchisi

Bundan olti ming yil muqaddam Hind-Yevropa tillarida *stig* so'zi ishlatilgan. Ma'nosi: *o'tkir uchli narsa*. Bu o'tkir uchli narsa cho'p, o'q, qalam, hatto, mix ham bo'lishi mumkin. O'q havoda katta tezlikda uchadi. Tezoqar daryolar ham shunday shitoblik xususiyatiga ega. Ana shu jihatlar *stig* so'zining ma'no taraqqiyotida muhim o'rin tutgan.

Eski fors tilida *stig* o'zagidagi *s* tovushi tushib qolib, *tig* (*tig'*) ga aylangan. So'z oxirida *r* tovushi orttirilgan. *g* tovushi tushib qolgach, *i* cho'ziq tovushga aylangan va *tir* (*tir – o'q*) shakliga kelgan. Mazkur so'z mumtoz adabiyotimizda juda faol qo'llangani, betakror poetik obrazlar yaratish imkonini berganini yaxshi bilamiz. Manbalarda ko'p uchraydigan *urandoz* (*o'qchi, o'qotar*) so'zi ham shu o'zakkdan yasalgan hosiladir.

Usmonli turk tilida *sadoq* (*o'qdon*) ma'nosida qo'llangan. *tirkeç* so'zi ham shunday yasalmalardan biri hisoblanadi.

Stig o'zagi Yevropa tillaridan olingan. Skandinaviyada cho'p uchiga tiqib olovda pishiriladigan go'sht bo'lagi *steak* deyiladi. Inglizchada *beef mol go'shti* demakdir. Ikkala so'z birlashgach, *beefsteak* bo'ladi. Fransuz tiliga o'tgach, *s* tovushi tushib qoladi. *bifteck*. Ingliz tilidagi shakli: *beefsteak*. Biz bu so'zni rus tilidan o'zlashgan shaklida ishlatamiz.

Tilimizdagi *uslub, tarz* ma'nolarini anglatuvchi *stil* so'zi ham shu o'zakka aloqador. Lotinchada *stig* so'zi oxiriga *i* tovushi qo'shilgach, *stil* (*o'tkir uchli yozish asbobi*) so'zi hosil bo'lgan. Fransuz tilidagi shakli: *style*.

Forschadagi singari *g* tovushli tushib qolgach, so'zning ma'nosi yanada kengaygan, *ijodkorming yozish uslub* (*yo'nalishi, tarzi*) ma'nosida ham ishlatila boshlagan. Shuningdek, qoramollarning quloqlarini o'tkir uchli narsa bilan teshib, belgi qo'yish (*stigma*) ham odat bo'lgan.

Agar farqlay olmaslik holati yuzaga kelsa, so'z bo'lishsiz shaklda ishlatilgan. *a-stigmat*. Bu so'z keyinchalik ko'rish faoliyatining buzilishini anglatuvchi atamaga aylangan.

Sotiladigan ashyoning narxini qog'ozga yozib yopishtirib qo'yish an'anasi ham shu so'z bilan bog'liq. Felemenk tilida *stig* so'zidan *sitken* fe'li yasalgan. Bu so'z fransuz tiliga o'tgach, *estike* shakli hosil bo'lgan. Keyinchalik *s* tovushi tushib qolgan. So'z oxiriga *et* kichraytirish qo'shimchasi qo'shilgach, *etiket* (*etiquette*) so'zi yasalgan. Qadimda do'konlarda mevalarning narxi yozilgan qog'oz cho'plarga tiqib qo'yilgan.

O'zini tutish, odob qoidalar ma'nolarida ishlatiluvchi *etiket* so'zi asosida ham shunday tarixiy hodisa bor. Saroylardagi anjumanlarda mehmonlarning o'zini qanday tutishi kerakligi haqidagi ko'rsatmalar qog'ozlarga yozilib, devorlarga yopishtirilgan ekan. Keyinchalik bu mezonlar *jamiyatda insonlarning bir-biriga qanday munosabatda bo'lishi kerakligini bildiruvchi qoidalar majmuasi* ma'nosini ifodalaydigan bo'ldi.

Mutaxassislar tomonidan qadimgi *Tigr, Tigra, Digra, Digla, Dijla* kabi bosqichlardan keyin tezoqar daryo nomi *Dajla* (*O'qdek tez oquvchi*) hosil bo'lgan, degan fikr bildiriladi.¹

Dajla daryosi summerliklar davrida *Idikna*, akkadlar zamonida *Idiklat* deb atalgan. Summerlar tilida *id* so'zi *daryo* ma'nosini bildirgan. Masalan, summerlar

Firət daryosini *Ir-arad* (*Arad daryosi*) deb atar edilar. *Arad* so'zi ba'zi hududlarda *aras* va *araz* tarzida talaffuz qilinganligi sababli hozirda *Aras* daryosining nomiga aylangan bo'lishi mumkin.

Ossuriylar qiroli *Tiglat-Plasarn*ing ismi *Dajla* daryosining akkad tilidagi shakli bo'lgan *Idiklat* so'zidan olingan bo'lishi mumkin, degan taxminlar mavjud. Eski suryoniy tilida *tiglat* so'zi *o'q* ma'nosini bildirgan. Iso Masihning zamondoshi bo'lgan mashhur tarixchi va geograf Strabonning fikricha, *Medve tигра* (*o'q*) so'zi *Tigris* nomiga asos bo'lgan. Strabonning qayd etishicha, elinlar davrida daryo nomi *Tigris* shaklida talaffuz qilingan.²

Summerliklarning bu daryoni *Idigna* deb atashlariga kelsak, uning mustaqil shakli *Id-digna* bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Summer tilidagi *id* (*daryo*) hamda *baland qirg'oq* ma'nosini anglatuvchi *dig* (*dik*) so'zlaridan tashkil topgan daryo nomining ma'nosi *baland qirg'oqli daryodir*.

Akkadlar, ossuriylar va bobilliklar *Idiqlat* yoki *Diqlat*, mediyaliklar *Tigra*, elinlar *Tigris*, armanlar *Diklat* deb nomlagan bu daryoni kurtlar va turklar *Dicle* deyilar. Mazkur daryoning *Tegris* yoki *Tigris* nomlaridagi *tegr tigr* o'zagi arman tilida *tigr* (*o'q*, nayza) ma'nosini bildiradi. Arman tilidagi bunday so'zlar eski shimoli-g'arbiy Eron tillari bilan bo'liqdir. Arman tilidagi kishi nomlaridan bo'lgan *Dikran* ham ana shu o'zakdan yasalgan. Shu hududda Diyorbakimning Silvaniya tumani atrofiga joylashgan mashhur *Tigranokertan*ing nomlanishi ham shu asosda kelib chiqqan. *Tigran* (*Dikran*)ning *qal'a shahar* ma'nosi ham bor. Mazkur nomlar tarixiy jarayonda *Tiglat*, *Diqlat*, *Dijlat* va nihoyat *Dajla* shakliga kelgan. Xuddi o'qdek tez oqqanligidan shunday nomni olgan.

Iroqdagi *Tikrit* shahrining nomi *Dajla* daryosi qirg'og'ida joylashganligi bois daryoning eski nomlari bo'lgan (*Idiklat*-*Tigrat*-*Tigrit*-*Tikrit*) bilan aloqadordir. Bu nom *tigr* (*o'q*) va *id* (*daryo*, oqar suv) so'zlaridan hosil bo'lgan, deyish mumkin. Suryoniy matnlarida uchraydigan *Tikrit* shahri nomi *Tegris* shaklida yozilgan. G'arb tillarida *qoplon* ma'nosida qo'llaniluvchi *tigr* (*o'q*) o'zagi bilan aloqador bo'lgan lotin va mojar tillaridagi *tigris*, yunon tilidagi *tigri*, italyan va ispan tillaridagi *tigre*, nemis va arnavut tillaridagi *tiger* so'zlari ham e'tiborni tortadi. O'qdek tez

¹ Baškan Özcan, // Dil Çalışmalarında "Etimoloji" Ya da Kökenbilgisi Çalışmaları, Dil dergisi, - Ankara: 1994. Ağustos, № 22

² <http://www.bilalaksoy.com>

harakatlangani uchun *qoplon* ma'nosida ishlatilayotgan so'z etimologik jihatdan yuqorida tahlil etilgan so'zlar bilan aloqador bo'lishi tabiiydir.

O'ZBEK TOPONIMIKASI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Kamola TO'RAYEVA,
GulDU talabasi

Toponimika fan sifatida alohida e'tirof etilar ekan, uning o'zbek tilida, xususan, tilshunoslik ilmida o'rganilish darajasi qanday va predmeti hamda vazifalari nimadan iborat degan savol paydo bo'ladi?

Har qanday tilga mansub bo'lgan toponimlarni lingvistik tahlil qilishda dastlab ularni tasnif etish masalasi turadi. Chunki to'g'ri analga oshirilgan tasnifgina kuzatishlar olib borishni osonlashtiradi. tadqiqotlarning samarali bo'lishiga ko'maklashadi.

Jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham bir qancha masalalar turli tadqiqotchilar tomonidan kun tartibida qo'yib kelingan va e'tiborga molik fikrlar o'rta taqashlangan. Ulardan asosiysi Z. Do'simovning "Toponimlar tasnifi masalasiga doir" maqolasi tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi.

Maqola muallifi toponimlarni tasniflashda, asosan, ikki yo'nalish: leksik-semantik va grammatik tuzilishiga ko'ra tasnif qilish yaqqol ko'zga tashlanishini qayd etadi. Jumladan, leksik-semantik tasnif borasida ikki xil qarashning mavjudligini ko'rsatib o'tadi.

Birinchi qarash to'rt guruhni tashkil etadi:

1. Etnonimlardan vujudga kelgan toponimik nomlar.
2. Oromastik nomlar(kishi otlari)dan shakllangan toponimlar.
3. Toifa-guruh nomlaridan paydo bo'lgan toponimlar.
4. Yer tuzilishi, suv va qurilish inshootlari, aholining kasbi, turli xil voqea, yig'inlar va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan toponimlar.

Ikkinchi qarash sakkiz guruhni qamrab oladi:

- 1) qabila nomini bildiruvchi toponimlar;
- 2) millat nomini anglatadigan toponimlar;
- 3) kishilar ismiga qo'yilgan toponimlar;
- 4) kasb-hunarga qarab nomlangan toponimlar ;
- 5) predmet belgisini bildiruvchi ifodalovchi toponimlar;
- 6) o'simliklar nomini anglatadigan toponimlar
- 7) el-yurt, Vatan nomi bilan bog'liq toponimlar;
- 8) geografik relyefni ifodalovchi toponimlar.

Z. Do'simov ushbu maqolasida „...toponimlarni bu tipda sistemalashda guruhlar orasida aniq chegara yo'q"ligini ham tanqid qilgan.

Toponimlarning leksik-semantik ma'nolari. Toponimlarning leksik-semantik ma'nolarini aniqlashda, asosan, etimologizatsiyaga yaqin bo'lganligidan lingvistik birliklarning xususiyatlariga ko'proq to'xtalib o'tiladi.

O'zbek tili toponimikasiga e'tibor berilsa, o'ziga xos semantik va funksional xususiyatlarga egaligini ko'rish mumkin. Bu xususiyat geografik joy nomlarida ham,

xalq shevasida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan *oq* so'zi *Oqqo'rg'on*, *Oqtepa*, *Oqsuv*, *Oqsaroy*; *ko'k* so'zi *Ko'ksaroy*, *Ko'ktepa*, *Ko'ktosh*; *katta* so'zi *Kattaqo'rg'on*, *Kattaqashloq*, *Kattasoy*; *quyi* so'zi *Quyi Chirchiq*, *Quyiguzar*; *yangi* so'zi *Yangiariq*, *Yangiyer*, *Yangiyo'l*, *Yangiobod*, *Yangiqo'rg'on* kabi otlar shular jumlasidandir.

Har bir tilning so'z yasash qonuniyati mavjud. Bu o'ziga xos usulning an'anaviy usullari haqida mulohaza yuritish lozimdir. Ulardan biri toponemizmlardir. Odatda, tub so'zdan va juda ko'p hollarda ikki va undan ortiq bo'g'inli so'zlardan iborat bo'ladi: *Vatak*, *Vatkan*, *Jozmon* kabi so'zlardir.

Toponimlarning yasash tizini so'z yasashidan farq qilmaydi. So'z yasashi usul va vositalari toponim yasashda ham ishtirok etadi. Farqli jihati atoqli otlarning o'ziga xos semantik va grammatik xususiyatlarini e'tiborga olmoq kerak.

O'zbek tilida „...-iston, -obod, -kem(kat)“ tipidagi qo'shimchalar borki, ular doimo joy nomlarini yasaydi. Shuning uchun bunday qo'shimchalarni toponim yasovchi affiks(lar) (topoaffiks(lar)) deyish o'rindir“, – deya aytilgandir.

Toponimika onomastikaning tarkibiy qismi sifatida qaralar ekan, toponimik so'z yasash ham onomastik so'z yasash qoidalarini o'zida mujassam etgandir.

Xorazm so'zining kelib chiqishiga oid tahminlar mavjud. Ulardan biri quvg'in qilingan aholining „xor“ va „razm“ bilan hayot kechirgani va shuning uchun podsho bu yerga Xorazm deb atashni buyurganidan hosil bo'lgan deyishsa, S.P. Tolstoy bu toponim Xorazm hududida yashagan *xvarri* qabilasi nomi bilan bog'lagandir. *Xvarri*-yer, „xvarri qabilasining yeri“ ekanligini aytadi.

Xorazm Amtudaryo bilan Qoraqum o'rtasidagi serhosil, go'zal vohadir. „Xor“ degani qadimgi sug'd tilida „quyosh“, „azm“ esa „o'lka“, ya'ni *quyoshli o'lka* degan ma'noni anglatadi.

Gurlan so'zining kelib chiqishiga oid rivoyatlarga ko'ra, ma'lumotlar mavjud, biroq ular asl ma'nosini ham bermaydi. *Gurlan* so'zining o'zagi „gur“ bo'lib u „ko'r“ degan ma'noni anglatadi deya izoh berilgan. *Ko'r* so'zi *gur* shaklida ishlatilganligi va *Gurlan* shakliga kelganligi vaqtlarning hosilasidir.

Hazorasp so'zining ma'nosi tojik tilida „hazor“ *ming*, „asp“ ot degan ma'nolardan hosil bo'lgan deyilgan, ya'ni *mingta ot* degan ma'noda.

O'zbekiyop Xorazm hududidagi uchinchi tuman bo'lib, shu hududda yashovchi miliatning o'zbekligi va „yop“ so'zi xorazmcha bo'lib, ariq yoki kanal ma'nosini bildiradi. O'zbekiyop qishlog'ining markazi Korovul deyilgan.

Sakbonlar Xiva xonligida qayd qilingan qishloqda bu hududning kelib chiqishiga ko'ra „sakbon“ it boquvchi, it boqish bilan shug'ullanuvchi kishi degan ma'noni anglatadi.

Bog'ot bu nomdagi qishloqlar Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida ham uchraydi. *Bog'ot* bog'lar deganidir.

Dovut toponimi shaxs nomi bilan bog'liqdir. Temirchilar ko'p bo'lgan bu hududning nomi Dovud, ya'ni temirchilarning piri nomi bilan bog'liq. Dovud so'zi „sevikli“, „suyukli“ degan ma'nolarini bildiradi.

Ko'paklar Hazorasp tumanidagi qishloq nomi, bu yerlik aholi o'zlarini urug' nomi bilan bog'laydi, har xil hayvonlarning nomlari, aslida, totem bo'lgandir. Ular o'zlarini ana shu parranda va hayvonlardan tarqalgan deb hisoblashgan.

Toponimlarning nomlanishida urug'-qabilalarning nomi, aholining turmush tarzi, yashash joyining joylashuvi, etnografiyasi bilan ham bo'g'liqligi isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, joy nomlari ham atqoli otlar sanalishi, ularning hosil bo'lishiga onomastik qonuniyatlar deyilishi va ularning toponimik yasallish xususiyati, bu yasallishning o'zbek tili so'z yasallish bilan mushtarakligi va farqli jihatlarni o'rganish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov S., Bo'riyev S. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: Fan, 2006.
2. Yo'ldoshev B. O'zbek onomastikasi masalalari. – Samarqand, 2001.
3. Nuriddinova S. O'zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili. – Toshkent, 2005.
4. Ablakulov I. O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi. – Toshkent, 2012.

SAMARQAND VILOYATIDAGI BA'ZI TOPONIMLARINING KELIB CHIQISHI

*Farizabonu XUDOYBERDIYEVA,
ToshDO'TAU talabasi*

Insoniyat vujudga kelgandan beri borliq, tabiat, umuman atrof muhitni ma'lum nomlar bilan ataydi. Bu nomlarning vujudga kelishida turli sabablar mavjud. Tilshunoslikning onomastika bo'limi aynan mana shunday hodisalarni tadqiq etadi. Biz quyida Samarqand viloyatidagi ayrim tuman va qishloqlarning nomlari va ularning kelib chiqishi haqida xalq orasida mavjud qarashlar va tillarning etimologiyasiga doir tadqiqotlarni tahlil qilamiz.

Joy nomlari paydo bo'lish xususiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

1. Ma'lum hududda yashovchi xalqning etnik kelib chiqishiga ko'ra atalgan joy nomlari

Oytamg'al – bu nom oytamg'ali urug'i nomidan kelib chiqqan. Ushbu urug' nomining kelib chiqishi xususida xalq orasida turli rivoyatlar mavjud. Qadimda shu urug' vakillari o'z yilqi va podalarini boshqalamiki bilan adashtirmasliklari uchun Oy shaklidagi tamg'ani ishlatishgan. Keyinchalik "oy tamg'ali yilqi mollari bor odamlar" degan shakli metonimiyaga uchrab, Oytamg'al shakliga kelgan.

Qozoqxo'ja – bu qishloqda qozoq millatiga mansub bo'lgan aholi yashagan. Ular xo'jalarga xizmat qilgan. Ko'p yillik sadoqatli xizmatlari evaziga ularga ham xo'ja maqomi berilgan va "qozoqlardan chiqqan xo'jalar" ma'nosida Qozoqxo'ja deb nom berilgan.

Ayuchi – Dashti qipchoq urug'laridan biri parchalanib, o'zbek va qirg'izlarning tarkibiga kirgan. Zarafshon qipchoqlarining bir urug'i ayuvchi (ayuchi) deb atalgan. Shundan qishloq urug' nomi bilan nomlangan.

Boyqut – Samarqand viloyati Narpay tumanida yashagan shu urug' nomidan kelib chiqqan.

Po'latchi – Kattaqo'rg'on tumanidagi po'latchi urug'i nomidan kelib chiqqan.

Ko'kqovg'a – Samarqand viloyati Nurota tumanidagi qishloq nomi. Qo'ng'iroq qabilasining bir urug'i *qavqa* deb atalgan. Yana bir taxminga ko'ra esa bu nomning kelib chiqishi *qovg'a* - quruqdan suv tortadigan charm idish nomidan, yoki Osmondagi 12 burjning biri *dahv*ning ikkinchi nomi ham *qovg'a* deyilgan.

Chelak – Samarqand viloyati Payariq tumanidagi joy nomi. Ba'zi manbalarda bu joy nomi *chelakli* degan urug' nomidan kelib chiqqanligi aytiladi. Chunki tarixda *do'rmon* nomli qabilaning bir urug'i nomi *ko'kchelak* deb atalgan ekan. Ammo boshqa bir manbada bu nom kelib chiqishining boshqa bir etnik asosi keltiriladi. Qadimda chuqur bir joy bo'lgan ekan. Odamlar o'sha paytda zambillar bilan emas, chelak bilan qum, tuproq tashib, tepalik yaratishgan ekan. Bu tepalikda esa keyinchalik ushbu shaharcha vujudga kelgan ekan.

Yuqorida keltirgan misollardan joy nomlarining ma'lum urug'elatlari bilan aloqadorligini ko'rishimiz mumkin.

2. Ayrim joy nomlari o'sha hududda ko'p o'sadigan o'simlik yoki daraxt nomlari bilan atalishiga asos bo'lishi mumkin. Masalan:

Badal – Samarqand viloyati Samarqand tumanida joylashgan qishloq nomi. Bu "chakalakzor", "butazor" degan ma'noni anglatadi.

Sebiston – Samarqand viloyati Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. Tojikcha seb-olma, Sebiston – olmazor degani. Toshkentda ham Sebzor toponimi uchraydi.

3. Ma'lum hududda yashagan aholining kundalik mashg'uloti, kasb-kori asosida o'sha joy nomlanadi:

Kamongaron – Samarqand viloyati Urgut tumanidagi qishloq nomi. Kamongaron tojik tilida "Kamon ustalari" degan ma'noni anglatadi. Tadqiqotchi Do'simov "kamongaron" toponimini "kom" –katta ariq, "ango" - angiz so'zlaridan va *-on* affiksidan iborat deb baholaydi.

Pichoqchi – pichoq yasab sotish bilan shug'ullanuvchilar yashaydigan makon. Keyinchalik o'sha hududning nomiga aylangan.

4. Biror bir tarixiy davr, ijtimoiy muhit ta'sirida vujudga kelgan nomlar ham uchraydi. Masalan, Obolim - Payariq tumanidagi qishloq nomi. Bu qishloq nomining kelib chiqishi ruslar bosqini davri bilan bog'liqdir. Ruslashtirish siyosati davrida ruslar o'z aholisini mahalliy aholi orasiga yuborishgan va ular bu joylarda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishgan tarixdan ma'lum. Obolim qishlog'i tarixi ham bevosita ushbu voqealar bilan aloqador. Abalin nomli shaxs nomi keyinchalik Obolim shaklida xalq tilida o'mashgan va bu nom bilan o'sha qishloq atalgan.

Saryak - Payariq tumanidagi qishloq nomidir. Bu qishloq chorvachilik bilan shug'ullangan. Ayollar esa chorvani sog'ib undan sut-qatiq, yog' olishgan. Ayniqsa, ular tayyorlagan saryog' juda totli bo'lgan. Ruslar shundan kelib chiqib ularga "saryog' tayyorlovchilar qishlog'i", ya'ni *Saryog'* deb nom berishgan.

Biz yuqorida keltirib o'tgan toponimlar ichida eng ko'p uchraydigan bu xalqlarning etnik kelib chiqishi, urug'-qabila nomlari bilan atalganligiga guvoh bo'lish mumkin. Xalqimizda "yetti pushti" bilan bog'liq qator ibora va naqlar mavjud. Shu bois xalqimiz a'zolari qadimdan o'z urug'larini bilishgan va ular bilan faxrlanishgan. O'z makonini urug'i nomi bilan atash ular uchun qulay bo'lgan. Vaqt o'tib urug' aholisi soni ko'paygan sari ular yashovchi hudud ham shunga mos ravishda kengaygan. Ma'lum hududlarda esa xalqning turmush tarzi, kasb-kori bilan

bog'liq nomlar, xalqni o'rab turgan fauna va flora nomlari joy nomlariga ko'chirilgan. Bu esa biron hudud nomini faqat urug' nomi bilangina emas, balki boshqa sanab o'tilgan tasniflar bo'yicha ham nomlanishiga sabab bo'lgan.

AMUDARYO VA O'G'UZ ATAMASINING O'ZARO BOG'LIQLIKDA NOMLANISH TARIXI

*Charosxon NORIMBETOVA,
QDU talabasi*

Amudaryo nomi gidronim(yunoncha, "hidro" - suv, "nom" - nom) sifatida professor baron V.V.Rozen, akademiklar V.V.Bartold va Y.G.G'ulomovlarning aniqlashlaricha, adabiyotga ancha kech kirgan bo'lib, Amul (hozirgi Chorjo'y, Turkmanobod) shahri nomi bilan bog'liqdir. Amul shahri IX-X asrlardagi At-Tabariyning "Tarixi ar Rasul va-l mulk", Ibn Xordadbexning "Kitob al-mesalik va-l-memalik", Ibn Rustening "Kitob al-alak an Nafisa" shuningdek, Ibn Ja'far, al Istihriy, al Maqdisiy kabi mualliflar asarlaridan ma'lum [1.14 b.] Masalan, al Istihriy o'zining "Kitob mesalik al memalik" asarida Amul shahrining Xuroson, Movaraunnahr va Xorazmni bog'lovchi yo'llar chorrahasida joylashgan shahar ekanligini qayd qiladi[2.176]. Amul shahri o'rta asrlarda Omul (Omuy, Omuyya) deb ham atalgan. Shahar daryodan nom olgan deya qaraladi. Akademik V.V.Bartold "Bu so'z ariylardan ham oldingi amard xalqi nomidan kelib chiqqan bo'lsa kerak" degan farazni oldinga suradi. Amudaryo Omuy, Omuyya (XV asr) shahri yonida Omuy daryosi deb atalib, qisqarib Amu shakliga kelib qolgan. Zamonlar o'tishi bilan bu nom butun daryoni "egallab" olgan. Buning boisi shuki, Omuyya (Chorjo'y) shahri Eron bilan Turkmaniston o'rtasidagi eng muhim savdo yo'li ustida, daryo kechigi yonida joylashgan muhim manzil bo'lganligi uchun boshqa nomlardan ajralib chiqib, daryoning muqim nomiga aylangan.

Tarixiy manbalarda Amudaryoning Termiz, Kalif, Arang, Raxa, Aranga, Urganch, Jaryob, Jurjoniya va Xorazm daryolari kabi nomlari ham uchraydi.

Amudaryo O'rta Osiyodagi eng yirik daryo hisoblanadi. Bu daryo va uning nomi xususida yunon tarixchisi Gerodot o'zining "Tarix" asarida keltirib o'tadi. Bu kitobda Amudaryo nomi Araks tarzida qo'llanilgan, keyinchalik (miloddan avvalgi I asr-milodiy I asrlar) bu nom Oks(Oksos) tarzida adabiyotlarda qayd etila boshlangan. Olimlar ana shu Oks (Akes) Amudaryoning qadimgi turkiy nomi- O'kuzning aynan o'zginasi deb hisoblashadi. Avesto va boshqa tarixiy manbalarda Amudaryoning Arang, Raxa, Ranxa, Aranxa degan qadimiy nomlari uchraydi. Uning Arang, Aranxa nomlari qadimda, Jayhun nomi o'rta asrlarda mashhur edi.

"Jayhun" nomi esa yahudiylarning muqaddas kitobi Tavrotdagi "Ginhon", "Jixon" daryosi nomining arabchalashgan shakli bo'lib, arablar tomonidan kiritilgan va u tarixda VII-VIII asrlardan ma'lum. Arablar Jayhun nomini Jayxin tarzda ham qo'llaganlar. Bu nom "jo'shqin (daryo)" degani. Amudaryo nomiga beriladigan "O'jar daryo", "Jo'shqin daryo", "Qutirgan daryo" singari izohlar uning lug'aviy ma'nosi emas, balki laqabi, xulqidir [3]. Al Belaruziyning "Kitob Futuxal-Buldan" asarida arab lashkarboshisi al Axnaf ibn Kays-Temimiyning Jayhun daryosidan suv

ichuvchi Xorazmga qarshi yurishi va uning bosh shahrini ishg'ol qila olmaganligi xususida so'z yuritiladi. 724-yili Xuroson hukmdori Muslim ibn Sayid ibn al Aslam, at Tabariyning "Tarix ar-Rasul va-l-muluk" kitobida yozishicha, turklarga qarshi yurishi vaqtida Jayhun daryosini kechib o'tganligi aytiladi. O'rta asr tarixchisi Gardiziy "Jayhun har qanday katta daryoni bildiradigan turdosh ot" deb ta'kidlaydi. Bu to'g'ri fikrga o'xshaydi. Masalan, Zarafshondan tarqalib, Buxoro shahrini suv bilan ta'minlab turgan Shahrud – "rudi shahr Buxoro" ning qisqartirilgan shakli. Aslida Shahrudning quyi qismi Jayhun deb atalgan. Shahrud kanalidagi uchta to'g'on boshining biri ham Jayhun deb atalgan [4.24].

Amudaryoning qadimiy eroniy nomi Vaxsh (Vaxshob), Vaxrud, Vaxshu deb ham yuritilgan. Vaxsh so'zi "suv xudosi", "suv malikasi" ma'nosini ifodalagan. Uning yirik irmoqlaridan biri Vaxsh deb nomlanadi. Abu Rayhon Beruniy Vaxsh xorazmliklarda suv parisi – Malak nomi deb yozgan. H.Hasanov ma'lumotlariga ko'ra, Pokistonda hozirda ham Amudaryoni Vaxshu-nada deb atashar ekan. O'rta Osiyoda Vaxsh, Vaxshivar, Vaxshivardara degan bir nechta joylar mavjud.

Y.G.G'ulomning aniqlashicha, Amudaryoni qadim mahalliy sak-massaget qavmlari "O'quz" deb atashgan. O'quz atamasi, O'kuz, Okuz, Oquz tarzida ham tarixiy manbalarda uchrab, "suv, daryo" degan ma'nolarni ifodalaydi. *Oks* atamasi mazkur "O'quz" atamasining o'zgarib, iste'molga kirgan shakli hisoblanadi. Ibn Xavkal tomonidan ta'kidlanishicha, Amudaryoning quyi havzasida Chaqir – O'quz degan tog' bo'lib, uning yaqinidagi suv yozgacha muzlab yotgan. Bundan "O'quz" nomining X asrda ham ishlatilganligini ko'ramiz. Mahmud Koshg'ariyning lug'atida "O'quz" atamasi "daryo" so'zini anglatadi.

Professor S.P.Tolstov Sirdaryoning quyi havzasida IX-X asrlardagi Sirdaryo o'g'uzlarining siyosiy o'rdasi joylashganligi va ularning etnik atamasi qadim zamon massaget qavmlariga borib taqalishini ko'rsatgan. O'g'uz atamasi turk tillarida "daryo", "ho'kiz" ma'nosida qo'llanilgan. Amudaryo O'rta Osiyo turkiy xalqlari o'rtasida XVII asrgacha "o'g'uz" atalib kelgan.

"Avesto" kitobida olandagi birinchi ho'kiz va birinchi odam - Gayomardning oliy xudo Axuramazda tomonidan yaratilganligi haqidagi afsona aytiladi. O'sha afsonada aytilishicha, ezgulik va bunyodkorlik, zulm va yovuz kuchlar o'rtasida katta kurash yurgan. Beayov kurashda yovuzlik xudosi Axrimanning inkoniyatlariga xos ho'kiz va Gayomard nobud bo'ladi. Ho'kiz jasadidan 55 xil don, 12 xil shifobaxsh o'simlik, ular tanasida esa sigir va ho'kiz, ulardan 272 xil foydali hayvonlar tug'ilgan. Gayomard odamzot nasliga asos soladi. Zardushtiylik kalendari bo'yicha, har oyning 14-kuni ho'kizga sig'inish kuni belgilangan. XX asr boshlarigacha har yili bahorda, agar Amudaryoda suv hajmi kam bo'lishi kutilsa, daryoga sadaqa sifatida ho'kiz tashlangan. Bundan maqsad daryo-kanallarda suv mo'l bo'lib, dalalarda hosildorlik ortishini ta'minlash, suv stixiyasi xudosi Anaxitaga ho'kizni sadaqa qilish Avesto matnlarida uchraydi [1.13].

Janubiy Orolbo'ylarida ho'kiz karomati, suv stixiyasi, nabotot olami, serhosillik singari sig'inish odatlarining keng tarqalganligi to'g'risida arxeologiya va etnografiya boy materiallar beradi. Ho'kizning hosildorlikni o'rnatishdagi ahamiyati Hindiston, Old Osiyo va O'rta Yer dengizi sohillaridagi xalqlarda miloddan avvalgi VI minginchi yillardan ma'lum bo'lgan.

Amudaryo, o'g'uz nomlarining atalish tarixi bizga qadim zamondan ushbu daryo hududida yashagan aholining turmush tarzida, madaniyati, qadriyati va tilida aks etgan. O'zbek adabiy tilining o'g'uz lahjasida so'zlashuvchi aholining asosiy qismi Amudaryo (tuman emas, daryo)ga yaqin hududlarda istiqomat qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurjanov K., Xo'janiyozov G'. Amudaryo. -T.: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2004.
2. Материал по истории туркмен и Туркменистана. -Т., 1978.
3. *Ziyo.net* materiali asosida.

QISHLOQ NOMLARINING KELIB CHIQISHI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

Munisa A'ZAMOVA.

O'zDTU xalqaro jurnalistika fakulteti 1-kurs talabasi

Dunyoda har bir til tarixida o'z ichki qonuniyatlari asosida shakllanish kuzatiladi. Shu bilan birga tilning rivojlanish bosqichida ma'lum darajada boshqa tillar ta'sirini ham ko'rish mumkin. Xalqlar orasida asrlardan buyon iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar mavjud bo'lgan. Bu aloqalar tilda ham o'z aksini topgan.

Ona tilimizda, xususan uning toponimikasida ham o'z ichki imkoniyatlar, tarixiy davr, boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalarga oid muhim ahamiyatga ega bo'lgan lingvistik faktlarni topish mumkin. Chunki odamlarning qanday hududda, qanaqa sharoitda yashab kelganlari, qanday yumushlar bilan shug'ullanganliklari va yana bir qator jihatlar aynan toponimiya orqali yaqqol ko'zga tashlanadi.

Toponimiya atamasi haqida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf darsligida shunday ta'rif beriladi. "Toponimika yunoncha (*topos-joy, onoma-nom*) so'zidan olingan bo'lib, morfologiyaning joy nomlarini o'rganuvchi bo'limidir."¹ Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda joy nomlariga e'tiborni yoshlarda juda erta shakllantirishga katta ahamiyat berilgan. Shu o'rinda boshqa bir manba orqali toponim lotincha so'z bo'lib, *topos* - qishloq, shahar, maydon, ko'cha; *onuma* - nom degan ma'nolarni anglatgan holda geografik obyektlar va ularning nomlariga nisbatan qo'llaniladigan ilmiy atama hisoblanishi ifodalanadi.

Joy nomlari xususida Birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday fikr bildirgan edilar: "Holbuki, ajdodlarimiz o'zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog'-xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e'tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o'n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma'noli, go'zal nomlarni olaylik. Samarqand, Beshyog'och, Kukcha, Chig'atoy, Sag'bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar darvoza degan nomlar avvalombor o'zining aniq arixiy-jug'rofiy ma'nosi bilan ajralib turadi".²

Navoiy viloyatidagi toponimlar bo'yicha juda kam tadqiqotlar olib borilgan. Suyun Qorayevning "Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?", professor Hamidulla

¹ Ona til. Umumta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik. -Toshkent: "Tasvir" nashriyoti, 2009. 110-bet

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - ying'i mas'uliyat. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 92-bet.

Hasanovning "Geografik nomlar imlosi", "Geografiya terminlari lug'ati", "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan"¹ kabi asarlarida ushbu viloyat toponimlarining kelib chiqish tarixi bir qadar yoritilgan.

Navoiy viloyatida joylashgan hududlar, jumladan, qishloq nomlari ichida turkiy atamalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular orasida o'zbek tiliga oid nomlar talaygina. Qizilsoy, Yangiyo'l, O'rtaqishloq, Quvray, Toshbuloq, Suviqbuloq, Xannansoy, Chinor, Gillisoy, Olmazor, Qumtepa, Bo'shto'la, Qirqto'la, Tosariq, Toshquloq, Choshtepa, Oqoltin, Otchopar, Chovliariq, Tepaqishloq, Junnati, Tangi, Dorilisoy, G'alcha, Qahramonariq, Ko'pinqishloq, Yangiravot, Oqtosh, Qizilaskar, Oqsaqolota, Chuqirsoy, Ko'ktosh, Nog'arako'l, Cho'ponota, Paxtakor Oqtovuq, Bolg'ali, Qo'tirbuloq, Tariqpoya, Qarg'atepa, Qoramachit, Tutli, Mingqamish, Oqjangal, Oyquduq, Kiygiztelpak, Ko'ksaroy, Beshkal, Tomchi, Kattabog', Zovtosh va shu kabi ko'plab joy nomlari shular jumlasidan.

Har bir qishloq nomi kelib chiqishining alohida tarixi bor. O'sha hudud o'tmishi, tabiati, aholisi, ko'p hollarda rivoyatlarga bog'liq ravishda nomlangan. Masalan, Keskantarak qishlog'ida qadimda juda katta terakzor bo'lgan, qaysidir zamonda barcha teraklar kesilib, olib ketilgan. Natijada xalq bu hududga Keskantarak nomini bergan. Qiziloy qishlog'i hududidan oy doim qizarib botgandek ko'rinar ekan va bu tabiat hodisasi qishloq nomiga ko'chgan. Bu kabi o'ziga xos nomlanish yo'llarini deyarli har bir hududda uchratish mumkin.

"Ikkinchi", "Uchinchi" kabi raqamlar, mazkur tuzum fidoyilarining ismlari bilan ataladigan hududlar shular jumlasidan. Qamov uchun mo'ljallangan avtobus va yengil mashinalarda ham shu nomlardan foydalanish ommlashgan. Qishloq, mahallalarning bugungi nomlarini faqat rasmiy hujjatlar, qog'ozlardagina qoldirmay, uni xalq tiliga ham ko'chirish maqsadida qator targ'ibet ishlari olib borish lozim.

Har bir hududning joy nomi katta tarixiy qarashlarga ega. Bu nom yana necha asrlar shu hudud, uning aholisi bilan birga bo'ladi. Shuning uchun ham bu toponimlarni doimiy o'rganish, tadqiq qilish va ularga e'tiborli bo'lishga mas'ulmiz.

TOSHKENT SHAHRIDAGI AYRIM JOY NOMLARINING KELIB CHIQISHI HAQIDA

Dilbar ISMATULLAYEVA,

O'zDTU talabasi

Respublika statistika qo'mitasi berib boradigan ma'lumotlarda asosanib O'zbekistonda 2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 168 ta tuman, 119 ta shahar (respublika bo'ysunuvida – 2 ta, viloyatlar bo'ysunuvida – 24 ta va tumanlar bo'ysunuvida – 93 ta), 1081 ta shaharcha, 1468 ta qishloq fuqarolar yig'inlari, 10998 ta qishloq aholi punkti hamda 8207 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud.

Bu ma'muriy birliklarning har biri o'z nomiga ega. Mamlakatimiz birinchi prezidenti tomonidan 2011-yil 12-oktyabrda "Geografik ob'ektlarning nomlari

¹ <https://uz.wikipedia.org>

to'g'ristda"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun O'zbekistondagi geografik nomlarni normallashtirish, standartlashtirish (qat'iylashtirish), geografik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish, geografik nomlarning davlat reestrini tuzish, nomlardan foydalanish, to'g'ri yozish va, nihoyat, geografik nomlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun asosiy me'yoriy hujjat hisoblanadi. Toshkent shahrida joylashgan ma'muriy obyektlar statistikasini o'rganib chiqadigan bo'lsak, shaharda 11ta tuman (Bektemir, Chilonzor, Yashnobod, Mirobod, Mirzo Ulug'bek, Sirg'ali, Shayxontohur, Olmazor, Uchtepa, Yakkasaroy, Yunusobod) mavjud bo'lib, shulardan Uchtepa tumanida 50ta, Bektemir tumanida 12ta, Mirzo Ulug'bek tumanida 49ta, Mirobod tumanida 39ta, Sirg'ali tumanida 33ta, Olmazor tumanida 58ta, Chilonzor tumanida 45ta, Shayxontohur tumanida 48ta, Yunusobod tumanida 50ta, Yakkasaroy tumanida 17ta va Yashnobod tumanida 50ta mahalla, yuzlab ko'chalar mavjud. Shaharda joylashgan geografik obyektlarning nomlanish tarixi turlicha, ba'zilarining nomlanishi qandaydir tarixiy shaxs ismi bilan bog'lansa, boshqasining nomi allaqanday voqea-hodisaga ishora sifatida nomlangan.

Shulardan Yunusobod dahasi o'zining ko'p yillik tarixiga ega. Daha aslida "Yunusrabot" nomi bilan yuritilgan bo'lib, xalq orasida "Yunsavat" shaklida ham talaffuz qilingan. Bu nom 3ta so'z birkishidan hosil bo'lgan bo'lib, "Yunus" (shaxs nomi), "ra" (fors-tojikcha "roh", ya'ni "yo'l") va sug'diycha "vot" yoki "bot" (ya'ni "qo'noq") so'zlarining birkmasi daha nomini keltirib chiqargan. Demak, Yunusobod dahasining nomi Yunus ismli shaxsning yo'l ustidagi qo'nog'i yoki karvonsaroyi degan ma'noni anglatadi.

Chilonzor tumanida joylashgan Do'mbiraobod mahallasi oqsoqollarining so'zlariga qaraganda, dastlab mavze guzarida Mirsoat nomli qassob do'kon ochib ish boshlagan. Har mol so'ygani uning aqli zaif o'g'li do'mbira chalib turgan. Do'mbira ovozi eshitgan odamlar go'sht olish taradudida guzarga o'tlanishgan. Mirsoat nihoyatda semiz bo'lgan va shunga yarasha laqabi ham Do'mbira bo'lgan.

Beshyog'och dahasining nomlanish tarixiga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Beshyog'och (besh og'och turkiy so'z) — beshta daraxt ma'nosini anglatadi. U qo'lyozmalarda Zangi ota dahasi deb ham yuritilgan. XIX asrning 70-yillarigacha bu hududdan shaharning mudofaa devori o'tgan. Mudofaa devori buzib tashlangach, ochilib qolgan joy Beshyog'och maydoni deb atalgan.

Sirg'ali tumani avliyo Sirg'ali ota nomi bilan, Cho'pon ota mahallasi avliyo Cho'pon ota nomi bilan, Zangiota tumani (Toshkent viloyatida joylashgan) avliyo Zangiota nomi bilan atalgan.

U vaqtda Toshkent ikkita shahardan iborat bo'lib, birini Eski shahar, ikkinchisini Yangi shahar deyishardi. Ikkalasi o'z davrining o'zgacha ikki dunyosi hisoblanib, ularning chegarasi Anhor edi. Uning o'ng qirg'og'i Qo'qon xoni qurgan O'rda choyxonasidan bosilansa, chap qirg'og'i Eski shaharga qaratilgan Tuproqqo'rg'on harbiy qal'asidan boshlanardi, deb yozadi Ibrohim Rahim.¹

Xulosa qilib aytganda, Respublikamizda mavjud ma'muriy obyektlarning har biri o'z tarixiga ega va, albatta, ularning nomlari ham ma'lum bir ma'no anglatmay qolmaydi. O'zi tug'ilib o'sgan yer tarixini bilish har bir insonning vazifasi.

¹ Ona tili. Ummat'lar maktablarining 6-sinfi uchun darslik. "Tasvir" nashriyot uyi Toshkent 2009. 110-bet

ZARAFSHON NOMI HAQIDA

*Xudayberdi ABDULLAYEV,
O'zMU talabasi*

Nomdarga tilshunoslik va tarix fanlari nuqtai nazaridan e'tibor berish kerak. Manbalarda "Zarafshon" nomi XVIII asrning boshidan boshlab tilga olinsada, biroq ushbu toponim haqidagi yozma ma'lumotlar juda qadim zamonga borib taqaladi. Dastavval "Politimet" nomi bilan antik davr tarixchilari Arrian, Kvint Kursiy Ruf va Strabonlarning asarlarida qayd etib o'tilgan. Politimet Zarafshon daryosining qadimgi mahalliy nomi emas, balki u yunonlar tomonidan berilgan nomdir. Masalan, Strabon: "Sug'ddan oqib o'tadigan daryoni Aristobul Politimet deb ataydi. Boshqa ko'pgina [joylarning] nomlarini o'zgartirib, yangidan qo'yganiidek, makedoniyaliklar unda [Zarafshon] ham bu nomni bergan edilar"¹. "Politimet" so'zi qadimgi yunon tilida "hurmatli", "ulug'", "azim" degan ma'nolarni anglatadi².

Zarafshon vohasining nomi Tojikiston va O'zbekiston hududidan o'tuvchi shu nomdagi daryoning nomidan olingan. Bu hududlarni o'tlashtirilishida va taraqqiyotida Zarafshon daryosining o'rni katta. "Zarafshon" daryosi XVIII asrdan boshlab tilga olingan bo'lib, qadimda bu daryo yunonlar tomonidan "Politimet" (hurmatli, ulug', azim), o'rta asrlarda arab muarrixlari asarlarida "Mosaf" yoki "Mosif", "Vodiy us-Sug'd", "Naxr ul-Buxoro", va "Ko'hak" nomlari bilan ham atalib ketgan³.

"Zarafsho" toponimi fors tilida "zar"- "oltin", "afshon"- "sotuvchi" degan ma'nolarni bildiradi. Daryoning Zarafshon deb atalishi yuzasidan quyidagi afsona bor: "Qadim zamonlarda hozirgi Buxoro shahri joylashgan hudud va uning atroflari Zarafshon daryosining toshqin suvlari qoplangan ko'l va botqoqliklardan iborat bo'lgan. Makedoniyalik Iskandar bu hududlarni quritish maqsadida daryoning bosh olgan qismiga oltindan to'g'on qurdirib, suvni bog'lagan. Natijada daryoning oqimida katta ko'l hosil bo'lib, uni quyi oqimidagi botqoqliklar qurigan. Ammo oltin qo'rg'ondan oqib o'tgan suv, uni yuvib mayda oltin zarrachalarini o'zi bilan quyiga olib ketgan. Shuning uchun daryo "Zarafshon" – "oltin keltiruvchi" nomini olgan.

Zarafshon haqiqatdan "Zar sochuvchi" daryo. Daryo o'zanidagi qumda oltin zarralari bo'lganidan daryo shunday nom olgan. Po'stak yoki uzun patli gilam ustiga qum to'kib, bosim bilan yuvganda, oltin zarralari jun oralarida qolgan. Shu yo'l bilan qumdan oltin ajratib olishgan. Lekin Zarafshon daryoning keyingi asrlarda paydo bo'lgan nomi. Miloddan oldingi yunon tarixchilari asarlarida Politimet, o'rta asrlarda Obi Ko'hak-Ko'hak suvi deb atalgan⁴.

Ba'zi manbalarda Zarafshon daryosining qadimgi nomi- Namik bo'lgani, bu nom islom dinining kirib kelishi bilan sedan chiqarilgani haqida ma'lumot berishadi. Hozirgi nomi esa adabiyotlarda XVIII asrdan keyin paydo bo'lgan. Qadimgi yunon

¹ Muhammadjanov A. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi, 56-57 betlar. O'zSSR "Fan" nashriyoti, T., 1972

² И. Х. Дворецкий Древнегреческо-русский словарь. 1958 стр 1351

³ Umulov Mirzohid Zokirjonovich O'zbekiston Shaharlari toponimikasi, Bitiruv malakaviyishi 19 bet.

⁴ Qorayev S. Toponimika. –Toshkent, 2006. 60-bet.

asarlarida daryoning nomi "Politimet" shaklida keltirilgan bo'lib, "ko'p ulug'langan", "izzat qilingan" degan ma'noni bildiradi (Strabon, 1994)¹.

Chunki, Bukantov, Uru darasidagi mavjud petrogliflarning ayrimlari eramizdan avvalgi XIII asrlarga oidligi olimlar tomonidan isbotlangan. Qizilqum bag'ridan topilgan dinosavr suyagi, umurtqalari parchalari, qariyb million yillik toshbaqa kosasi ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan. Bukantovda eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikda qoyaga chizilgan Shamon ayoli sur'ati. Taohat qudug'li yonidagi qoyalarga bitilgan tuyular kompozitsiyasi hozirgi Zarafshon shahri atroflarida va unga yaqin joylarda inson istiqomat qila boshlaganiga bir necha ming yillar bo'lganligini ko'rsatib turibdi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Zarafshon vohasi yurtimizning ko'hna madaniyat va madaniyat beshiklaridan biridir. O'tmishda asrlar mobaynida Sharq va G'arbni bog'lab kelgan Buyuk Ipak yo'li shu hududdan o'tganligi bu yerda savdo-sotiq, hunarmandchilik va boshqa sohalarining rivojida muhim o'rin tutgan. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, bizgacha yetib kelgan o'nlab tarixiy osori-atiqalar, bebaho yodgorliklar vohaning naqadar qadimiy ekanligini ko'rsatadi.

Zarafshon (fors. zar-oltin, afshon-sotuvchi) – Tojikiston va O'zbekistondagi daryo. Avesto yodgorliklarida "Daytiya" – "Ezgu suv" deb yuritilgan; yunonlar hukmronligi davrida "Daytiya" so'zi yunonchaga aynan tarjima qilinib, Politimet-"Ko'p ezgu suv" deb atalgan; daryoning Sug'd, Jirt, Jon, Somjan shaklidagi nomlari ham ma'lum; pahlaviy (qad.forscha) tilida "Nomiq" ("Mashhur", "Ezgu"), fors tilidagi manbalarda Rudi Mosaf, Rudi Sharg' deyilgan; arabcha manbalarda esa Harankom- "Muqadas daryo". Vodiy us Sug'd, Nahr ul Buxoro kabi nomlari qayd etilgan; "Bobumoma" da Obi Ko'hak deb tilga olingan².

Abulxasan Nishopuriyning "Xazoyin ul-ulum" asari bo'yicha Narshaxiyning keltirgan ma'lumotiga ko'ra, Zarafshon qadimida "Masaf" yoki "Mosif" deb ham atalgan³. Zarafshonning yuqorida qayd qilingan qadimgi nomlari unga chetdan berilgan bo'lib, uning qadimgi mahalliy ismi hali aniqlanmagan.

XVI asrdan so'ng Zarafshon deyarlik "Kohak" nomi bilan yuritilgan. Masalan, XVIII asr boshlaridan ba'zi bir manbalarda ushbu toponim Ko'hak nomi bilan bir qatorda, Zarafshon deb ham yozila boshlagan. Uning keying nomi birinchi marta "Tarixi Roqimiy" asarida tilga olinadi. Shuningdek, boshqa bir manbalarda Zarafshon toponimi "Komi Zar", "Komi Akka" kabi nomlarda uchraydi.

XVIII asr boshlariga oid tarixiy manbalardan "Tarixi Roqimiy" asarining muallifi Said Roqim o'z asarida Karmana yaqinida Zarafshon ustiga qurilgan ko'priklar tarixini bayon etar ekan, asarning shu qismiga "Karmanada Ko'hak daryosi ustiga qurilgan ko'priklar tarixi"⁴ deb sarlavha beradi.

¹ Usturshona toponimlari.

² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 35-bet

³ Narshaxiy Buxoro tarixi. 15-bet

⁴ Said Roqimiy. Tarixi Roqimiy. Qo'lyozma O'zFA Sharqshunoslik inst. 200-202 betlar.

ГИДРОНИМЛАР – ХАЛҚ БОЙЛИГИ

*Нидофар МУРОДИНОВА,
Гулдў 2-курс талабаси*

Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 6 майда қабул қилинган “Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонунининг 3-моддасида “Сув Ўзбекистон Республикасининг давлат мулки-умумий бойлик ҳисобланади, сувдан оқилона фойдаланиш лозим бўлиб, у давлат томонидан қўриқланади”. -деб кўрсатилган. Сув умуммиллий бойлик экан, сув объекти ва иншоотларининг атоқли отлари-гидронимлар ҳам ўзбек халқи маданий, маънавий хазинаси ва миллий меросининг узвий бир қисмидир.

Топонимларнинг бир тури –гидронимлар халқ тарихи билан узвий боғлиқ бўлиб, миллий гилнинг, халқ ижтимоий ҳаёти, маданияти ва маънвиятининг ўзига хос қирраларини ифода этувчи лисоний қатлам ҳамда хазинадир. Жой номлари, хусусан, гидронимлар ҳам аждоқларимиздан ҳозирга қадар етиб келган миллий қадриятларнинг бебаҳо намунаси.

Гидронимлар сув объектларининг аниқ адреси, уларни бир-биридан фарқловчи атоқли отдир. Улар ўзининг жойлашаш ўрни, маъно моҳияти билан географик хариталарнинг “жони” ҳисобланади. Шу бонс гидронимика географиянинг табиатдаги барча сув, яъни океан ва денгизлар, дарё ва қўллар, қор ва музликлар, сув омбори, ботқоқлик ва ер ости сувларини, уларнинг жойлашishi, хусусиятлари, ўзаро ва атроф, табиий муҳит (атмосфера, литосфера, биосфера) билан таъсири натижасида рўй берадиган ҳодисалар ҳамда жараёнлар қонуниятларини ўрганадиган гидрология, географик хариталар тузиш билан шуғулланувчи хариташунослик соҳалари билан ҳам узвий боғлиқ бўлиб. Улар учун лисоний манба ҳамда асосдир. Шунингдек, гидронимиканинг назарий ва амалий ҳулосалари амалий география соҳаси, география таълими учун ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Гидронимлар сув объектларининг аниқ адреси, уларни бир-биридан фарқловчи атоқли отдир. Улар ўзининг жойлашаш ўрни, маъно моҳияти билан географик хариталарнинг “жони” ҳисобланади. Гидронимика географиянинг табиатдаги барча сув, яъни океан ва денгизлар, дарё ва қўллар, қор ва музликлар, сув омборлари, ботқоқликлар ва ер ости сувларини, уларнинг жойлашishi, хусусиятлари, ўзаро ва атроф, табиий муҳит (атмосфера, литосфера, биосфера) билан таъсири натижасида рўй берадиган ҳодисалар ҳамда жараёнларнинг қонуниятларини ўрганадиган гидрология, географик хариталар тузиш билан шуғулланувчи хариташунослик (харитография) соҳалари билан ҳам узвий боғлиқ бўлиб. Улар учун лисоний манба ҳамда асосдир. Шунингдек, гидронимиканинг назарий ва амалий ҳулосалари амалий география соҳаси, география таълими учун ҳам муҳим аҳамиятга эга (1).

Топонимик тизимда ўзининг табиийлиги, қадимийлиги ва турғунлиги билан характерланувчи гидронимлар, айрим илмий ишларни ва топонимияга оид тадқиқотлар доирасидаги изланишларни ҳисобга олмаганда, ўзбек топонимикасида ҳозирга қадар тўла тўпланмаган ва ҳудудлар бўйича тўлиқ

тадқиқ этилмаган. Натажада, ўзбек ономастикасида гидронимика соҳасининг илмий-назарий масалалари, гидронимларнинг топонимик тизимдаги ўрни, лисоний табиати, номланиш тамойиллари лексик-семантик, лағжавий хусусиятлари ҳам ўрганилмаган.

Ўзбек терминологиясини тартибга солиш ҳақида фикр юритар экан, тилшунос олим И.Йўлдошев бир мақоласида шундай ёзади: "... тилимизда айни бир терминни бирдан ортиқ тушунча учун қўллаш, бир тушунчани турли терминлар билан аташ, вариантлилиқнинг мавжудлиги, рус тили ва у орқали Европа тилларидан ўзлаштирилган терминларнинг тушунча моҳиятини тўғри акс эттира олмаслиги, бир тушунчани ифодаловчи терминларнинг ноқулайлигига сабаб бўлувчи кўп компонентлилиқ ҳолатининг мавжудлиги, хорижий терминларнинг керагидан ортиқ даражада қўлланиши, айрим терминларнинг ёзилишидаги ҳар хиллик каби терминологиянинг етакчи тенденциясига зид келувчи ҳолатлар кўплаб учрайди (2).

Сув иншоотлари терминологияси ҳам узок ўтмишнинг маҳсули. Ҳақиқатдан ҳам шундай. Ҳозирги ўзбек тили сув иншоотлари терминологиясининг шаклланиши, қарор топиши, адабий тил доирасида қўлланишининг тарихий илдиэлари жуда чуқур. Эндиликда гидронимик терминология барқарорлашган бир терминологик тизим даражасига кўтарилди. Бу олижаноб ишга тилшунос олимлар ҳам, терминолог ёхуд луғат тузувчилар ҳам, ёзувчи журналистлар ҳам муносиб хисса қўшиб келишмоқда.

Сув объекти ва иншооти номларини илмий-назарий ҳамда амалий жиҳаддан ўрганувчи соҳа **гидрономика** деб аталади. Гидрономика термини таркибан грекча *hydor* –сув, ошма – ном ва –ика – оид каби маъноли қисмлардан иборат бўлиб, “**сув объектиларининг номларига оид**” деган луғавий маънога эга. Табиий ва сунъий сув объекти ҳамда иншоотларининг махсус номлари **гидронимлар**, деб юритилади.

Гидронимлар тилшуносликда қандай сув объекти ёки иншоотини англатишига кўра қуйидаги турларга бўлинади:

Океаноним (юнонча *okeanos+onuma*) – океан, океан қисмларининг атокли номлари. Масалан, Тинч(ёки Улуғ) океан, Дунё океани каби.

Пелагоним (грек *pelagos*-денгиз + *onuma* –ном) –денгиз ва унинг қисмлари номи. Масалан, Орол, Қора, Азов денгизлари.

Лимноним – кўл номлари. Масалан, Чуқуркўл, Ойдинкўл каби. Кўл номлари мажмуи **лимнонимия** деб юритилади.

Лимноним термини А. Стрижак, А.Суперанская, Э. Мурзаевларнинг тадқиқотарида фаол қўлланган.

Потамоним – дарёларнинг номлари. Масалан, Норин, Қорадарё, Сирдарё каби.

Гелоним - боткок ва боткокликларнинг атокли номлари. Дамкўл (Наманган вилояти) каби

Хулоса қилиб айтганда, гидронимлар ўзбек халқининг тили, тарихи,урф-одатлари, Ўзбекистоннинг табиати, географияси, қадимий, замонавий гидротехникаси ва бошқалар ҳақида қимматбаҳо маълумот берувчи хазина. Шу сабабли ўзбек тилидаги гидронимларни илмий талқик қилиш нафакат

тилушунослик, балки табиатушунослик, тарих, этнография, археология, география каби фанлар учун ҳам қимматли.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. НДА. -Тошкент, 2010. 11-б.

2. Йўлдошев И. Тилушуносликнинг долзарб масалалари. ЎЗМУ. Тўплам, 2006. 155-бет.

ТОПОНИМЛАРНИНГ ГУРУҲГА АЖРАТИБ ЎРГАНИЛИШИ

Ш.А. ЗОИТОВА

ЎзДЖТУ Ўзбек тили кафедраси катта ўқитувчиси

Давлатимизнинг олиб борилаётган сиёсати туфайли географик жой номларига бўлган муносабат ҳам тубдан ўзгарди. Уларга миллий маънавиятимиз ва маданиятимизнинг бир қисми сифатида қараладиган бўлди. 1996 йилнинг 31 майида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасидаги маъмурий-ҳудудий бирликлар, аҳоли пунктлари, ташкилотлар ва бошқа топонимик объектларнинг номларини тартибга солиш тўғрисида” қабул қилинган қарор ва 1996 йил 30 августда Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида маъмурий-ҳудудий тuzилиш, топонимик объектларга ном бериш ва уларнинг номларини ўзгартириш масалаларини ҳал этиш тартибн тўғрисида”ги Қонун ҳақидаги ҳужжатлар уларини қайта кўриб, номлаш қои вазибаларни юзага келтирди.

Истиқлол давридаги Ўзбекистон давлати олиб бораётган топонимик сиёсат томонидан жойларга ном бериш, улар номини ўзгартиришнинг илмий-объектив тамойилларини яратишга қаратилди ва ушбу тамойилда қуйидагилар кўрсатиб ўтилади:

1. Эски тузум махсули бўлган номларга муносабат тамойили.

2. Жойларни номлаш, улар номини ўзгартиришда мафкуравий қарашлар тамойили.

3. Шахс атоқли отлари (антропоним)нинг топонимия тизимида ўтиш тамойили.

4. Топонимларни муҳофаза қилиш ва асраш тамойили ва ҳоказо¹.

Топонимика географик номларни ўрганиш билан шуғулланувчи; тил тарихи, диалектология, этимология, лексикология соҳалари билан узвий алоқадорликда бўлган тилушуносликнинг алоҳида бўлиминдир².

Топонимлар муайян бир ҳудудда яшайдиган халқларнинг тарихини, этнографиясини, уларнинг тили ва маданиятини ўзида мужассам қилади.

Жой номлари атоқли отлар сирасига киритилади. Ономастика эса атоқли отлар назарияси ва амалиёти билан шуғулланади. Тадқиқотчилар таъкидлаганидек, жой номлари мазмун жиҳатидан айнан унга мос келишива

¹ Бегматов О. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати. Ўзбек тили ва адабиёти. 1997 й., № 3. 5-9-б.

² Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. 163-б.

факат объекти нуктаи назардан фаркланадиган топонимиканинг бу соҳа доирасида қаралиши табиийдир. Топонимлар атоқли отларнинг бир қисми сифатида маълумотларни тилнинг бошқа бирор ҳодисасидан олишга кодир эмас¹. Улар атоқли от саналиши нуктаи назаридан онамастика доирасига киритилса-да, ўзига хос хусусиятларга эга.

Социолингвистик нуктаи назардан қараганда, номланиш лингвистик ҳодиса саналади. Топонимларнинг пайдо бўлиши, турғунлашиши, алмашилиши, маъносиди турлича ўзгаришлар содир бўлиши жамият тақдири билан боғлиқ бўлади. Ҳар қандай топонимик ўзгаришлар жамиятда амалда бўлган тил қонуниятлари доирасида содир бўлади.²

Жой номларининг асосий қисмини эса тарихий номлар ташкил қилади. Бу номларнинг пайдо бўлиши, яратилиши, атаб қўйилиш ҳақида халқ орасида кўпгина афсоналар, ривоятлар, ҳикоятлар, содда ва муболағали, ҳаққоний ва ҳаёлий талқинлар яратилган.

Ўзбек тилидаги топонимларни икки гуруҳга ажратиб ўрганилган.

1. Табиий, яъни халқона топонимлар.

2. Расмий топонимлар.

Табиий анъанавий номлар, яъни халқона топонимлар тил топонимия тизимидаги расмий аралашувларсиз табиий ҳолда йўл-йўлакай пайдо бўлган топонимлардир. Халқона топонимлар кўп даврлар давомида тарих синовларидан ўтган, табиий ҳолда юзага келган номлар бўлиб, уларнинг ижодкори, яратувчиси халқдир. Бу номларни ким, қачон қўйган, нима сабабдан шундай аталганини ҳозирги кунда унутилган бўлиб, уларни аниқлаш махсус тадқиқотларни талаб қилади.

Тилда шундай номлар ҳам мавжудки, уларнинг юзага келиши табиий ҳолда пайдо бўлмаган, расмий аралашув махсус ижод маҳсули бўлган ном. Уларнинг юзага келиши алоҳида шахснинг хоҳиш - иродасига, махсус қарорлар ва кўрсатмаларга боғлиқ бўлади.

Топонимларнинг асосий вазифалари: бир хил, бир типли жуғрофий ўринларни, объектларни, ҳудудларни алоҳида, яқка ҳолда ажратиб аташ ва шу орқали уларни бир-биридан фарқлашга хизмат қилишдир.

Булар *экслезониимлар* – урбономика, шаҳар ичидаги жой номларининг бир тури (типи) бўлиб, диний маросимлар ало этиш учун тўпланадиган жойнинг, жумладан, бунга ибодат қилувчи, сигинувчи объектларнинг атоқли оглари қиради³. Ибодат қилувчи, сигинувчи объектлар, албатта, масжидлар, черков, монастыр ва бошқа атоқли отини киритиш мумкин.

Мустақиллик даврига қадар шаҳримизда Хазрати Умар масжиди, Шайх Зайниддин масжиди, Рақат масжиди, Яққасарой масжиди ва Кўкча масжидлари бўлган. устакиллик шарофати билан барча соҳаларда ўзгариш бўлгани каби, диний эътиқод ва диний ишларни йўлга қўйиш натижасида шаҳримиздаги масжидлар сони бир неча юздан ошди.

Масжидларнинг кўпгина қисмининг оти масжидни қурган шахслар

¹ Т. И. Смирнов. Топонимический арет и вопросы реконструкции лексической системы языка. 1953. 5-6.

² Каримов С., Ёриёв С. Ўзбек топонимикаси тармаклили босяиёида. –Тошкент: Фан илериети, 2006.16-6.

номига қўйилган. Булар Абдували Хожи, Маҳкамбой Хожи, Муҳаммад ўғли Зокир, Маҳаммад Носир Хожи, Мулла Қосим домла, Тўра бува, Валихўжа ўғли Норхўжа, Обидхон Маҳмуд, Тўхтабой, Иброҳим, Орифбой, Маъриф ота, Собитхон Хожи, Олтинхон тўра, Бўта бува каби масжидлар.

Масжидлар жойлашиб ҳудудига қараб туман, маҳалла, жой номларига ҳам айланган. Масалан, Юнусобод, Яққасарой масжидлари номига туманлар номи қўйилган. Булардан ташқари, Бешқайрағоч, Кўкча, Октепа, Чўпон ота, Ҳасанбой, Мирза Юсуф, Юнусобод, Октепа, Кулолқўрғон, Доруломон, Олтинтепа, Тепа, Окқўрғон, Авайхон, Ал-Бадр, Хуфтон Алибек, Оклон, Сузук ота, Баланд, Эшонгузар, Ғолиб, Ок тунуқали, Хувайдо, Олмазор, Мирзағолиб, Иброҳим ота, Мевазор, Дўстжонбой, Нўғай қўрғон, Қуддуси Шариф, Қўшқўрғон, Пул емас ота, Охун гузар, Исламобод, Чимир ота, Новза, Ҳасанхон қори, Тинчлик, Чоштепа, Катортал каби жой номлари билан аталган масжидлар мавжуд.

Абдулло ибн Маъсуд, Ҳазрати Али, Абу-Хурайра, Умар ибн Хаттоб, Абдулло ибн Хузофа, Фотиман Заҳро, Омина, Усмон ибн Маъзун, Хомид ибн Волид, Имоми Аъзам, Али ибн Абу Талб Саҳобий Иқром қабилар диний номлар билан аталган масжидлардир.

Юқорида номлари зикр этилган масжидларнинг номлаш тарихи илмий тадқиқотларни талаб этади. Уларни илмий жиҳатдан таҳлил этиш бугунги кунда муҳим аҳамиятга эга. Чунки ёшлар масжидларининг тарихий этимологиясини билишлари, ўрганишлари зарурдир. Бундай топонимик жой номларининг этимология тарихини ўрганиш ва билиш уларнинг ўзлигини аниқлашга, миллий қадриятларимизни тиклашга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сисмати Ўзбек тили ва адабиёти. 1997. № 3.5-9-б.
2. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. С.165.
3. Каримов С., Бўриев С. Ўзбек топонимикаси тараққиёти босқичида. -- Тошкент: Фан, 2006. 16-б.

БАЛАНДЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ ОРОНИМИК ИНДИКАТОРЛАР (Жанубий Ўзбекистон оронимлари мисолида)

Одил БЕГИМОВ,

Қарши МИИ, филология фанлари номзоди, доцент

Баландлик тушунчаси билан боғлиқ ҳар қандай орографик термин оронимик индикатор бўлолмайди. Бу мақолада оронимлар ва улардан келиб чиққан бошқа турдаги жой номлари таркибида индикатор вазифасида қўлланилган, келиб чиқишига қўра умумтуркий тилларга тегишли атамалар устида тўхталамиз.

Байир//бойир. Бу сўз орографик атама сифатида бир қанча туркий тилларда учрайди. Бу сўз байир -- бойир -- байыр ~ байр шаклларида козок, қирғиз, қорақалпоқ, турк, туркман, озарбайжон, нўғай, гагауз, қирим-татар

тилларида турли фонетик вариантларда қўлланилади. У бу тилларда турли маъно хусусиятларига эга: тепа; дўнглик; баландлик; тоғ ёнбағри, киялик; текислик, яланглик; хайдашмаган ер. Жумладан, туркман тилида байыр – дўнглик, баландлик; козок тилида байыр – қумли чўлларда шамол натижасида ҳосил бўлган ботик жой [6,47]. Эски ўзбек тилида бойыр – кичик тепа, текисликдаги ҳажми кичик баландлик маъноларига эга бўлган. Бу сўз орографик индикатор сифатида оронимлар ясалишига хизмат қилган: Қорабайир (Шс.,тепа) – унчалик баланд бўлмаган тепа. Туркменистонда Қизилбойир, Қизилжабойир, Қорабайир, Биринбойир, Елбойир, Етимбойир, Дарвозабойир деган баландликлар бор.

Бўрлик. XII - XIII асрлар туркий тилида – тепалик, кир; чакалак, тўкай. “Ҳибатул-ҳақойиқда ҳам шу маънода қўлланган [12, 260]. Бўрлик (Чирокчи, адир, баландлик) ороними шу индикатор асосида келиб чиққан

Сирт. Бу сўз туркий тилларга тегишли бўлиб, М. Кошғарий асарида келтиришича, XI асрларда кипчоқча “кичик тепа, кичик водий” маъноларини билдирган [7, I, 328]. Орографик характердаги термин сифатида оронимлар ва бошқа турдаги объектлар номлари таркибида учрайди: Белассирт (Дехқонобод, баландлик), Корасирт (Дехқонобод, тоғ).

Тепа//тува. Бу сўз термин сифатида усти гумбаз шаклидаги, ёнбағирлари кия, дўнг, баланд бўлган орографик объект турини ифодалайди. Баландлиги 200 м дан ошмайди. Жанубий Ўзбекистон айрим шеваларида тева, тўба, тува; хоразм шевасида тоба, дапа шаклларида қўлланади. Бу индикатор бошқа туркий тилларда ҳам шу маънода қўлланади. Жумладан, оятой тилида тобе, бошқирд тилида туба, туркман тилида тепе, қорақалпоқ тилида тобе шаклларига эга. Жой номлари таркибида кўп учрайди: Баринтепа, Барсагонтепа, Бозортепа, Етимтепа, Бағиштўба, Теват ва ҳ.к.

Ува. Бу сўз орографик характердаги термин бўлиб, Қуйи Қашқадарё шевасида ува - “текис жойдаги, чўлдаги кичик дўнглик, ясси баландлик” маъноларини беради. Ува - уба ~ ўба – келиб чиқишига кўра туркий тилларга хос сўз. Татар тилида уба – “кичик баландлик, баланд жой, бошқирдларда -- “тепа; карача-балкар, қараим, нўғай тилларида оба – “тош уюми”; “тепа, тепалик” маъноларига эга [13,114]. Генезиси мўғул ва тунгус-маньжур тилларидаги обо ~ ово (тепа, дўнглик, баландлик, ёлғиз тепалик; тош уюми, тош тўда) сўзи билан боғлиқ. Бу термин орнимик индикатор сифатида Увалик (Муборак, лйлов) оронимида сақланган. Шунингдек, бу индикаторни Увада (Чирокчи, кишлок) топонимида ҳам кўриш мумкин. Таркибий тузилишига кўра ува+да шаклида бўлган бу номнинг иккинчи компонентини Т. Нафасов -- да<о-та-ода (дўнглик, баландлик; сув ичидаги баланд жой, орол) шаклида ўзгариб борганлигини кўрсатади [9,186].

Қашқа. Бу сўз ясама бўлиб, таркибий жиҳатдан каш+қа қисимларига бўлинади. У умумтуркий тилларга тегишли қадимги сўз ҳисобланади. Қадимги туркий тилида каш – тепа, баландлик [9,412]; XI аср туркий тилида ҳар нарсанинг чети, ёқаси, ёни, қирғок маъносига эга бўлган [7, III, 166; 70,431]. XIII аср ёдгорликларида – тоғ чўққиси, баландлик, тизма тоғ [8,160] маъноларини билдирган. Л.З. Будагов лугатида чигатой тилида каш --

“баландлик, тепа, тоғ тизмаси, дўнглик” [1, II, 15]; В.В. Радлов луғатида каш – “ўсимта, каварик жой; баландлик, тепа, кўтарма; баланд кирғоқ, ен, чет” [10, II, 386] каби маъналарга эга эканлиги кўрсатилган. Шунингдек, Олтой тилларида каш – кирғоқ, бирон нарсани чети; тепа, баландлик; уч. этак [2, 133, 136]; тоғ чўккиси [4, 194]; хакас тилида хас – кирғоқ; баландлик, дўнглик; бирон нарсанинг чети, кирғоғи [14, 278] маъноларини билдиради. Юқорида келтирилган мисоллардан кўринадики, бу сўз умумий жиҳатдан икки хил маънога эга: 1) баландлик (тепа, чўкки, тоғ тизмаси); 2) кирғоқ (бирон нарса ёки баландликнинг чети, ёни). Бу сўзнинг маъноларидан кўриш мумкинки, у орографик характердаги термин ҳисобланади. У шу маъно хусусиятлари асосида оронимлар яслишига хизмат қилган. Масалан, Кашкатепа (Ғузор, тепа), Кашқақум (Дехқонобод, жой), Кашкатау (Қозоғистон, тоғ), Кашқаашу (Қирғизистон, доғон) каби.

Кир. Бу сўз орографик термин ҳисобланиб, усти ясси ёки салгина гумбазсимон баландликлар, тепаликлар, платолар, ясси паст тоғлар тушунчасини ифодалайди. Масалан, Ўрта Россия қирлари, Волгабўйи қирлари. Қорақум ва Қизилқумдаги қолдик плоталар, уста ясси паст тоғлар ҳам “кир” дейилади. Қирлар баланд текисликлар, тоғларнинг оқар сувлар, шамол емирилишидан, тектоник кўтарилишидан ҳосил бўлади [1, 149]. Махмуд Қошғарий бу сўзни икки хил маънода изоҳлайди: кир - 1) “тўғон, сув тўпланадиган жой; 2) “кир, ясси тоғ” [7, I, 314]. У оронимик индикатор сифатида орографик ва бошқа турдаги объектлар номларини яслишига хизмат қилган. Масалан, у Аскарқир (Яккабоғ, кир), Бўлакқир (Қосон, кир), Дарвозақир (Муборак, баландлик), Окқир (Қосон, кир) каби оронимлар таркибида учрайди. Хоразм топонимиясида бу индикатор “текис майдон, экин қилмайдиган катта дала, қўй боқиладиган текислик, ўтлоқ” маъноларини беради [5, 66].

Ўзбекистон, жумладан унинг жанубий ҳудуди ҳисобланмиш Қашқадарё ва Сурхандарё оронимлари таркибида баландлик тушунчаси билан боғлиқ сўз ва атамаларнинг қўлланиши характерли. Улар номлар таркибида оронимик индикатор вазифасини бажариб келган. Улар тарихий-этимологик жиҳатидан ўзига хос луғавий-маъновий хусусиятларни намоён этади. Бу ном ижодкори бўлган маҳаллий халқнинг лисоний мансублиги ва нолисоний хусусиятлари билан боғлиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Будагов Б. А. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. I-II, СПб, 1869, 1871.
2. Вербицкий В. Словарь алтайского и аладагского наречия тюркского языка. Казань, 1884.
3. Географик терминлар ва тушунчалар изоҳли луғати. –Тошкент, 1979.
4. Грамматика алтайского языка. –Казань, 1869.
5. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. –Т.: Фан, 1985. -104 б.
6. Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. -Алма-Ата, 1974.

7. Кошгарий М. Девону луғатит турк. ЎзССР фан. Акад. –Т.: Фан, –Т. I, 1960, - 449 б.; –Т. II, 1961, - 427 б.; –Т. III, 1963, - 466 б.
8. Курышжанов А. К. Исследование по лексике “тюркско-арабского словаря». Алма-Ата, 1970.
9. Малов С. Е. Памятнике древнетюркской письменности. – Л., 1951
10. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимияларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1988.-290 б.
11. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I – IV, СПб. 1893–1911.
12. Махмудов К. А. А. Югнакийнинг “Ҳиббатул ҳақойик” асари ҳақида. Т., 1972.
13. Саттаров Г.Ф. Монголизмы в топонимии Татарии // В кн.: Тюркская ономастика. Алма-Ата, 1984 с. 111-120.
14. Хакасско-русский словарь. М., 1953.

VODIL QISHLOG'I SHEVASIDA TOPONIM VA ANTROPONIMLAR

*Raximova DILSHODABEGIM,
ToshDO‘STU 2-kurs talabasi*

O‘zbek onomastikasi asosan mavjud nomlarni o‘rganadi. Bu nomlar hilma-xil ko‘rinishda bo‘lib, ularning kishi nomlari bilan yuritiladigan antroponim deyilsa, antroponim bilan atalgan joy nomlari antroponimlar deyilgan (Kishi nomlari bilan atalgan toponimlar).

Demak, qishloq, mahalla, guzar, ko‘cha, qabriston, bozor, ekinzor, bog‘, yo‘l, tog‘, qoya, soy, ariq, daryo, ko‘l, g‘or, yer osti yo‘lagi kabilarning nomlari onomastikaning o‘rganish obektidir. Bu haqida ilmiy manbalarda mukammal ma‘lumotlar bor.

Biz Vodil qishlog‘i shevasida uchraydigan nomlarni quyidagi ikki turga bo‘lib o‘rganildi:

1. Toponimlar (Joy nomlari). Antropotoponimlar ham toponimlar guruhiga o‘ddir.

2. Antroponimlar (Kishi ismi, nisbasi, taxallusi, laqabi).

Vodil qishlog‘i hududidagi toponimlari:

1. Vodil (*Aytuvchi Xoldorali Qulfiddinov*) - “Voh - dil “so‘zidan olingan bo‘lib, “Dil oluvchi joy” degan ma‘noni bildiradi. Vodil deb atalishiga kelsak, birgina Shohimardon darvosi Vodilga kelganda oltita irmoqqa bo‘linib, qishloqning qon tomiri kabi uni bag‘ridan oqib o‘tib qishloqqa hayot baxsh etadi. Havosini musaffo qilib tabiatini go‘zal va tarovatli qiladi. Qishloqning so‘lim tabiati, musaffo havosi, toshdan-toshga urilib oquvchi zilol suvlari kishini maftun qilmay qolmaydi.

2. Ko‘kdala (*Axborotchi Husanboy Raximov*) - turkiy tilda ko‘k so‘zi osmonni, tog‘ni anglatadi. Bizningcha, Ko‘kdala toqqa birashib ketgan dala demakdir.

3. Qorayantoq (*Aytuvchi Husanboy Raximov*) - deb ataluvchi bu hudud, O‘zbekiston va Qirg‘iziston chegarasida joylashgan qishloq bo‘lib, qadimdan

qorayantoq o'simligiga boy hudud sanaladi. Bu choy nomining kelib chiqish etimologiyasi shundan.

4. Kon (*Axborotchi Muzaffar Raximov*)- deb atalgan bu qishloq qadimda Rossiya imperiyasi davrida Farg'ona vodiysida yetishtiriladigan paxtani shu qishloq orqali Rossiyaga olib ketilgan. Aravada yetib borgan neft qoldig'ini ko'rgan ruslar, paxtani olib borganlarga aravani qaysi chuqurga tushganini so'rashgan va bu hududni qishirib topishgan. Neft konlari shundan keyin ommaga bildirilib, Chimyon-Kon, ya'ni neft koni topilgan. Bu yerlarda ruslar, belorus, ukrainlar kelib o'mashib mahalliy aholiga singishib ketishgan.

5. Qadamjoy (*Aytuvchi Husanboy Raximov*) - Qadamjoy – Bu yerda Hazrat Alining meborak qadam izlari bo'libgan va nurli qadam degan ma'nolarni ham anglatadi. Bu hudud Shohimardon qishlog'ining qo'shnisi bo'lib, qadimda simob va neftga boyligi bilan mashhur.

6. Langar (*Axborotchi Muzaffar Raximov*) - Langar – Ikki qishloqning o'rtasida, Chimyon va Mindon qishlog'i teng hududda joylashgan qishloq;

7. Qizilbuloq (*Aytuvchi Husanboy Raximov*) - Qizilbuloq – buloq atrofi, shuningdek hudud, qishloq tuprog'i qizil rangda bo'lgani uchun shu yaqin orada buloq joylashgan va buloq Qizilbuloq deb nomlangan.

8. Tomosha (*Aytuvchi Husanboy Raximov*) - Tomosha – Ikki tomoni archazor, manzarali joy bo'lgan maskan. Bu hudud Shohimardon va Yordon o'rtasida joylashgan.

9. Yambaraq (*Axborotchi Muzaffar Raximov*) - Yambaraq – Pomir – Oloy tog' tizmalari yonbag'rida paydo bo'lib, qishloq holida shakllangan mahalliy aholisi asosan chorvachilik bilan shug'ullanadigan qishloq.

10. Mindon (*Aytuvchi Husanboy Raximov*) - Mindon – Qadimda qurg'oqchilik yillarida xalning ahvoli nechor bo'lib qiynalgan paytda qishloqqa bir avliyo kelib ehtiyoji uchun non so'raganida qishloq aholisi unga yordam bergan. Bu avliyo unga yordam bergan kishiga "Topgan bir donining mingdon bo'lishini" aytdan ekan va qishloq mahalliy aholisi moddiy ahvoli yanada yaxshilangan. Shundan keyin qishloq nomi ham Mindon deb atala boshlangan. Mashhur Shayx Abdulaziz Mansur ham mana shu Mindon qishlog'idan kelib chiqqan.

2. Shevamizda uchraydigan kishi nomlarni, ya'ni antroponimlar:

2.1. Anorxon – (*Axborotchi Mahfiratxon Raximova*) Qizil xolli tug'ilgan qizlarga qo'yiladigan ism.

2.2. Bahodir – (*Aytuvchi Hurshida Sobirova*) Oilada yettinchi farzandga qo'yiladigan ism.

2.3. Omadbek – (*Axborotchi Mahfiratxon Raximova*) Quvevch keltirsin degan niyat bilan qo'yiladigan ismi.

2.4. Dilshoda – (*Axborotchi Mahfiratxon Raximova*) Dilning shodligi, hursandchilik keltiruvchi, shaddod, kichik farzandga qo'yiladigan ism.

3. Shevamizda kam qo'llaniladigan toponim va antroponimlar:

3.1. Jahonbibi; Dorinsa; Bukoch.

3.2. Sharbonoy; Popoch; Ulfatxon.

3.3. Jimjima xola; Qorasoch; Muqonjon.

3.4. Qorasoch; Mamalatif; Abdulsaf.

- 3.5. To'paxon; Ho'jamberdi; Shirmonoy.
- 3.6. Jambil; Nishobi; Toshxon.
- 3.7. Sabriniso; Tojibasari. Shodmonoy.
- 3.8. Norinsa; G'aznaxon; Patila.
- 3.9. Holchabonu; Sochbi.
- 3.10. Xoltoji; Oylarxon.

Bulardan ko'rinib turibdiki, Vodil qishlog'i toponimlari va antroponimlari sheva vakillari nutqida faol qo'llanilayotgani uchun aholi vakillarining e'tiboriga tushgan. Bu qishloqdagi toponim va antroponimlarni ham bema'lol o'zbek onomastikasining ma'lum bir tarkibiy qismi hisoblanadi, deyish o'rinni.

IBROYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA JOY NOMLARINING QO'LLANILISHI

*Sevara JUMAMURATOVA,
Nukus DPI 2-kurs talabasi*

XXI asr boshlaridagi qoraqalpoq adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan shoirlardan biri Ibroyim Yusupov 1929-yili 5-may kuni Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy qa'lasida tavallud topgan. Uning bizgacha "Baxt lirikasi", "O'ylar", "Ko'ngil ko'ngildan suv ichar", "To'maris", kabi she'riy to'plamlari, "Vatan tuprog'i", "Farishta oy", "Bulbul uyasi" kabi dostonlari va "Qirg' qiz" pyesasi, "O'mirbek laqqi" komediyasi, "Iskandar podshoning tushi" dramasi, "Ajiniyoz" operasi librettosini yaratdi.

Ibroyim Yusupov mustaqillik yillarida ayniqsa jo'shib ijod qildi. O'zining qator she'r va dostonlari, publitsistik maqolalari bilan ozod va erkin hayotimizni, yurtimizda ro'y berayotgan ukan o'zgarishlarni g'urur va iftixor bilan tarannum etdi. Ibroyim Yusupovning adabiy va ijtimoiy faoliyati davlatimiz tomonidan munosib baholanib, u "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvonlari, "El-yurt hurmati", "Do'stlik" ordenlari bilan taqdirlangan edi.

Ibroyim Yusupov she'riyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning she'rlarida vatanga muhabbat, yor ishq, sadoqat, do'stlik, ulug' ajdodlar madhi va shaharlar-u davlatlarni mohirona tasvirlashini uchratishimiz mumkin. Ibroyim Yusupov she'riyatida joy nomlarining ko'p ishlatilishining guvohi bo'ldik.

Toponimika – nomshunoslikning joy nomlarini o'rganuvchi sohasi. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deyiladi. Joy nomlari ya'ni toponimiya bir necha turga bo'linadi. Bular gidronimiya (yunoncha gidro-suv), oronimiya (yunoncha oros-tog'), oykonimiya (yunoncha oykos-uy), polinimiya (yunoncha polis-shahar), urbanonimiya (lotincha urbos-shahar), mikrotoponimiya (yunoncha mikros-kichik), etnotoponimtar (yunoncha etnos-xalq) kabi turlarga ajratiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antrotoponimlar deb atash mumkin. [1.33].

Ibroyim Yusupov she'riyatida davlatlar, shaharlar, daryolar, tog'lar kabi joy nomlari keng o'rin egallagan. Shahar nomlarining chiroyli tarzda qo'llanganligini quyidagi misollar orqali bilib olamiz.

Saleh sag'an, turg'an jerim!

*Kyrsem shac'lag'iddi senic,
Balah'gim tutar menic,
Erkeletken el-jaymsac,
Lawazimli Shumbaymsac* [2.67]

Ushbu she'rda shoir o'zi tug'ilib o'sgan diyori Chimboy shahrini ta'riflamog'da. Chimboy qalasi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. Bu tuman 1927-yili 3-iyulda tashkil etilgan. Ibroyim Yusupov she'riyatida yana bir Qoraqalpog'iston Respublikasi tumani Kegeyli shahri nomi keltirilgan she'ni ham uchratishimiz mumkin:

*Ishqmc bōhōri jetip ma'gān da,
Jigitlik hāseri gez-gende qanda
Balah'gim oynap qaldi jag'acda,
Omīr ōz jolman aqtī Kegeyli* [2.31].

Ushbu she'rda shoir o'z hislarini Kegeyli shahriga murojaat tarzida to'kib solganligi bilan ajoyib chiqqan. Shoir o'z bolah'gini Kegeyli yoqasida o'yinab-kulib o'tkazganligini va bu davrlar birpasda o'tib ketganligini chuqur iztirob ifa esga olayotgandek go'yo.

Eng mashhur she'rlaridan biri "Mening yigit vaqtim, sening qiz vaqting" she'rda a'zim shaharlardan bo'lmish Nukus va Toshkent tilga olinadi:

*Nykiste ekenicde sen meni kōnde,
Hātte saat sayın sa'gmar edic
Bul saparı kōrip meni Tashkentte,
Salqın mıyınq tartıp "senbisec" dedic* [2.60]

Ushbu she'rda Nukusda yugan yorining Toshkentga lirik qahramonni ko'rib ketishga kelganligi tasvirlangan. Lekin she'rda ikki sevishtan birdan ko'rishib qolgandek qilib tasvirlangan.

Yana bir she'rda O'zbekiston viloyatlaridan biri Farg'ona tasviri ham ajoyib tarzda yoritilgan:

*Alin topiraq Ferganadim,
Qayıp shıqpas bargan adam,
Hār tıp paxta, hār xanadan,
Yner eldic nesibesi,
Paxtakeshuc kōsıp, isi* [2.59].

Farg'ona viloyatiga borgan odam bu shahardan chiqib ketolmasligi, go'zal tabiatiga naftun bo'lib qolishi tasvirlangan.

*Yisec Kitab, Alin kōlden,
Andijan ya Mirzashōlden,
"Paxta hayramma" kel'gen
Misli "Bāhār" ansambli
Qulpnar aq alin guli.*

Ushbu parchada yurtimizdagi Kitob shahri, Oltin ko'l, Andijon viloyati, Mirzacho'l kabi go'zal joy nomlari tilga olinadi. Bu she'rda ko'l, cho'l, shahar, viloyat nomlari parallel tarzda ishlatilganligi she'ning jozibasini yanada oshiradi.

Xulosa o'mida shuni aytish joizki, Ibroyim Yusupovning ko'plab she'rlarida joy nomlaridan shahar, suv havzalari, viloyatlar, cho'l nomlarini uchratishimiz va bu she'rlarning mohirona yozilganligining guvohi bo'lamiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ajiniyoz nomidagi NukusDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasi. Onomastika va toponimika fanidan ma'ruzalar to'plami. -Nukus, 2012.

2. Yusupov I. "Ömir sagan ashiqpan..." (internet ma'lumot)

“ZUBDATU-T-TAVORIX”DA XORAZM HUDUDIDAGI AYRIM TOPONIMLAR

*Guli QODIROVA,
URDU 3-bosqich talabasi*

Toponimlar onomastikaning muhim bo'lagi bo'lib, tilshunoslik, tarix va geografiya kabi uchta katta soha oralig'idagi fan desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki joy nomlari tilning leksik boyligi bo'lib, til qonunlatiga bo'y sunadi, geografik zona sifatida ma'lum bir hududni ifodalaydi, shu bilan birga toponimlar jamiyat tarixi bilan chambarchas bog'liq ekanligi yuqoridagi fikr isboti bo'la oladi.

O'zbek tili tadqiqida onomastika alohida o'rin egallaydi. Bu borada qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, toponimlarni hududiy o'rganish sohasida K.Abdimurotov, A.Aslonov, Z.Do'simov, N.Mingboyev, S.Naimov, T.Nafasov, A.Turobov, SH.Qodirova, A.Otajonovalar samarali mehnat qilganlar.

Shu bilan birga toponimlarni umumlashtirib, ularning ayrim lisoniy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar ham majud bo'lib, ular jumlasiga E.Begmatov, Z.Do'simov, L.Karimova, J.Latipov, T.Enazarov, E.Qilichev, S.Qorayevlarning ilmiy izlanishlarini kiritishimiz mumkin.

Joy nomlari shu qadar ko'pki, hammasining ham ma'nosi tushunarli emas. Nom qancha ko'hna bo'lsa, uning etimologiyasini bilish shuncha qiyin bo'ladi. Davr o'tishi bilan nomlar o'zgaradi. Bu o'zgarish asosan ularning nomi bilan bog'liq. Ba'zan bu nomlarning noaniq ma'noli bo'lishiga olib keladi. Ma'nosidan qat'iy nazar, barcha toponimlar manzil vazifasini bajaradi.

Profressor S.Qorayevning ta'kidlashicha, toponimlar manzulgina emas, balki ko'pdan-ko'p axborot, tarixiy, geografik, lingvistik ma'lumot tashiydi. Har qanday geografik nom muayyan mazmunga ega, ma'nosiz nom bo'lmaydi. Lekin ko'pgina joy nomlarining ma'nosi yo'qolgan, aniqrog'i hozirgi kishilar uchun tushunarsiz bo'lib qolgan.

Munis va Ogahiyning tarixiy asarlari haqida akademik V.V.Bartold quyidagicha fikr bildirgan edi: "Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy-tarixiy asarlar qanchalik kamchilikka ega bo'lmasinlar, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixi bo'yicha yozilgan hamma asarlarni ozidan ancha orqada qoldiradi" ¹Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub "Zubdatu-t-tavorix"

¹Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Л., 1927 стр.113

asari ham tarixiy faktlarga boy. Shu boisdan asarda ko'plab onomastik birliklarni uchratishimiz mumkin. Xususan, asardagi toponimlar bilan tanishish jarayonida Xorazm hududidagi toponimlarni bir qancha o'rinlarda ko'rib o'tamiz.

Xivaqki, zebbaxsh bilodi jahon erur,

Lut'fu safoda rashki riyozu jinon erur.¹

Ushbu toponim lingvistik jihatdan tub deb qaraladi, lekin uning etimologiyasiga nazar tashlasak "hi" va "vahi" kabi so'zlardan kelib chiqqanligi haqidagi "Qudug" afsonasi ham mavjud. Xiva Xorazm viloyatidagi qadimiy shahar bo'lib bugungi kungacha saqlanib qolgan shahar nomi.

Hazoraspni xusravi dinpanoh,

Chu davlat bila qildi oromgoh [Z.T.b-50].

Hazorasp ikkita komponentdan tashkil topgan "hazor" – ming va "asp" – ot(otliq) ya'ni ming otliq degan ma'noni bildiradi. Toponim dastlab Istahrit va Ibn Havqal asarlarida keltiriladi. Uning nomlanishi bilan bog'liq turli afsonalar mavjud. Ba'zi manbalarda bu toponim xalq nomi bilan ham bog'lanadi. "Hazorasp turkiy xazar xalqi nomi bilan yoki ikkinchi tarkibiy qismi – os qavmi nomi bilan atalgan bo'lishi mumkin."²

... **Xorazm** katig'a ozam bo'ldi. Va kechrak **Gulhovuz** otlig' mavzeg'a yaqin qum aqabalaridin bir baland aqaba ustiga nuzul qilib, qudumi saodatluzum sharafigidin aning farqi faxomatini farqadayn avjidin o'tkardi [Z.T.b-60].

Xorazm nomining etimologiyasi miloddan oldingi davrlarga borib taqaladi. Bu nom "Avesto"da *Xvarizam*, yunon manbalarida *Xorasmiya*, erta manbalarida *Xuvarazmi* ko'rinishida uchraydi. Uning etimologiyasi hozirgacha muammoli holat bo'lib kelmoqda, negaki toponim qanchalik tarixiy bo'lsa uning etimologiyasi ham shunchalik noaniq bo'lib boradi. Bu toponimni ikki qism "xvar" va "azm" yoki "xor" va "zim" kabi qarashlar va turli xil afsonalar mavjud. Lekin bu borada hali bir to'xtamga kelish mushkul. Gulhovuz toponimiga to'xtalsak, bu nom toponimikadagi an'anaviy komponent "gul"ning ishtirokida yasalgan. Bu nom hozirda Xorazm hududida mavjud emas, ammo Jarqo'rg'on tumanidagi qishloqlardan birining nomi.

...quyosh yanlig' g'amxo'rlik bila Hazorasp jonibig'a ozim bo'ldi va **Pichoqchi** hududig'a yetkanda ..., istiqbol sharafig'a foyiz bo'ldi [Z.T.b-100].

Ushbu toponim "ot+chi" shaklida yasalgan bo'lib, hunarmandlik sohasiga ko'ra nomlangan toponimlar qatoriga kiradi. Pichoqchi hozirgi kunda Hazorasp tumaniga qarashli hudud hisoblanadi.

...dabdabai hayratname bila **Gurlan** qal'asi ichidin davlati bodpoyin surub, Moyli jangal mavzeidag'i rabofi foyizu-n-nishotig'a tashrifi qudumibila sarbalandlig' yetkurdi [Z.T.b-107].

Gurlan tuzilish jihatdan tub deb qaraladi, ammo ba'zi afsonalarda bu hudud nomi "go'i" va "lang" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lganligi ta'kidlanadi. Tarixan esa Xorazm hududida gurlan degan urug' bo'lganligi ham ma'lum. Bu toponim hozirda Xorazm viloyatidagi tuman nomi hisoblanadi.

¹ "Zuhdatu-t-tavorix". Nashrga tayyorlovchi: N.Jabborov. – Toshkent: "O'zbekiston" NXB, 2009. 43-bet. Bundan keyingi misollar shu asardan olingan uchun keying misollar [Z.T.b.] shaklida matnda beriladi.

²Suxun Qoriyev. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. T.:2005. Bet:177.

Va hamul kecha Hazoraspda mutavaqqif bo'lib, tonglasi seshanba kuni tali'ai subhdin so'ng mulozamatidagi hozir sipoh bila o'tlanib, **Fitnak** tarafig'a yurish qildi[Z.T.b-113].

Fitnak qadimgi Xorazmiy tilida "pita-yer, taqir, nak- kichik" ya'ni "kichik joy" degan ma'nosida ishlatilgan. Pitnak hozirda Hazorasp hududidagi shahar nomi hisoblanadi. Hamul kun amir qo'shuni bila kelib, qal'aning yovuqida **Muxomon** kentining qiblasida sangar qilib nuzul etdi[Z.T.b-114].

Bu toponim ko'p uchraydigan toponimik komponent "omon" yordamida yasalgan. Hozirgi kunda Hazorasp tumanidagi qishloqlardan birining nomi hisoblanadi

Dushanba kuni andin a'lomi nusratpaykani jilvagar qilib, junudi noma'mud va juyishi selxurush bila **Yangiori**q havlig'a vorid bo'lib nuzul etdi[Z.T.b-117].

Ushbu toponim "yangi" so'ziga "aniq" (ayriq-ikkiga ajralgan joy) so'zining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Hozirda Yangiori q tumanlardan birining nomidir.

Yuqoridagi misollarda hozirgi kunda ham saqlanib qolgan toponimlarni ko'rib o'tdik. Asrda bundan ashqari bugungi kunda nomlari kuztilmaydigan quyidagi toponimlarni ham kuzatishimiz mumkin:

Inoqbek Soriqamish to'g'onida shanba kuni tavaqquf qilib, yakshanba kuni andin a'lomi nusratfarjomni jilvag'a kirguzub, masofat qat'ida sur'at ko'rguzib, **Bozargon** beshasig'a nuzul etdi[Z.T.b-173].

...asr vaqti **Yontoqli** manzilida jilvagar qilib, ul mavze'ni asokiri zafarmaosig'a mustaqar etdi[Z.T.b-61].

Va ma'lum bo'lsinkin, **Taxtreg** Xorazm ichida besh-olti baland qizil pushta qumning otidurkim, hamul regzor arosida anga monand bir mavze' yoqdurur [Z.T.b-60].

...Xivaqdin sipohi sangin va lashkari nusratogin bila o'tlanib, **Gulbinbog'** qaryasidagi bog'i behishtsurog'g'akim, ul janobning mulki xolisi erdi, iqboli rahnamonlig'i bila borub nuzul etdi[Z.T.b-117].

...turtik tamoshodin g'oyatsiz bahralar olib, **Sho'raxonda**, yuqori havlidakim, anhorxona uchun mushriflar bino qilmish erdi, nuzul qilib, shara'fi vusuli bila zirvai iftixorin falak hisori burujidin oshurdi[Z.T.b-103].

Bulardagi Bozargon, Yantoqli, Taxtreg, Gulbinbog' va Sho'raxon kabi nomlar o'z hududida bugungi kungacha saqlanib qolmagan. Bu kabi toponimlarni kuzatar ekanmiz "Zubdatu-t-tavorix" asari nafaqat badiiy, balki tarixiy va geografik jihatdan ham naqadar ahamiyatli ekanligini kuzatishimiz mumkin. Asarda bundan tashqari boshqa hududlarga oib toponimlar, antroponim va etnonimlar ham salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Bular asar qimmatini oshirish bilan bir qatorda Muhammad Rizo Ogahiyning naqadar buyuk iste'dod sohibi ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zubdatu-t-tavorix. Nashrga tayyorlovchi N.Jabborov. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2009.

2. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. –T., 2005.

3. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. T.: "Fan" 1985.

4. www.urdu.uz.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIGI NEKRONIMLARNI O'RGANISH MASALALARI

Gulandom EGAMBERGANOVA,

Nukus DPI talabasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqimiz uchun milliy, madaniy, adabiy va diniy qadriyatlarini tiklash, asriy an'analarga qayta hayot bag'ishlash imkoniyati yaratildi. Shu bilan bir qatorda muqaddas qadamlar, masjid, madrasalar, madaniy yodgorliklar qayta ta'mirlanib, qadimiy shaharlarning asl tarixi, uning barpo etilishi borasida tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo'ldik. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi» - degan so'zlari fikrimizning dalilidir [1.71]. Xalq xotirasi, madaniyati va ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan o'zbek onomastikasi sohasining ilmiy yo'nalish sifatida rivojlana boshlaganiga unchalik ko'p vaqt bo'lmadi. Shunday bo'lsada o'zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar ko'lamining kengayib borishi, zamonaviy ilmiy soha sifatida shakllanishi, bu sohaning o'ziga xos terminologiyasining yaratilishi hamda uning rivojlanishi, takomillashishiga sabab bo'lmoqda. Shu paytgacha respublikamizda o'zbek onomastikasining antroponimika, toponimika, kosmonimika, etnonimika tarmoqlari bo'yicha ko'pgina ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. O'zbek tili toponim tizimida nekronimlar salmoqli o'rin tutadi. "Muqaddas qadamlar, inson dafn qilingan-qabrlar, qabristonlar va boshqa xil ana shu tipdagi o'rinlar nomshunoslikda nekronimlar, millat, urug', qabila nomlari bilan atalgan bunday obyektlar etnonekronimlar deb yuritiladi" [2.11]. Qoraqalpog'iston hududi nekronimlari doirasiga Xo'jaylidagi Mizdakxon, Mazlumxon suluv, Sulton Oxun, Ketmonchi bobo qabristonlari, Pirim eshon bobo ziyoratgohi, Qorao'zadagi Murat Shayx, Qalaobodidagi Shayx Shibbiy qabristonlari, Ellikqal'adagi Norinjon Vali qabristoni, Kechirmas buva ziyoratgohi, Qo'ng'irotdagi Dovud ota, Payg'ambar qizi, Hakim ota, Nukus shahridagi Shorcha bobo, Qushxona bobo qabristonlari, Amudaryo tumanidagi Shayx Jalil bobo ziyoratgohi, Beruniy tumanidagi Xayrli bobo, Shabbob bobo qabristonlari, Sulton Uvays bobo ziyoratgohlarini kiritishimiz mumkin. Quyida ulardan bir qanchasiga misollar keltirib o'tamiz:

"Amudaryodan o'tib, Sulton Uvays bobomiz maqbarasiga boraverishda o'ng tomonga bir yo'l ketgan. Ellikqal'a tumaniga eltadigan bu yo'l atrofida Abdullai Norinjon Vali qabristoni joylashgan. Bu yerga keluvchilar, avvalo, Norinjon Vali maqbarasini ziyorat etib, so'ngra Sulton Uvays bobomiz ziyoratgohiga yo'l oladilar. Xo'sh hazrati Norinjon Vali kim? Nima uchun xalqimiz bu zotni shunchalik hurmat qiladi? El orasida Norinjon Vali Sulton Uvaysning ustoz bo'lgan degan fikr bor. Shu bilan birga kitoblarning ba'zilarida hikoya etilishicha, Norinjon Vali to'g'risi o'z inson, mohir voiz sifatida yurtaro kata e'tiborga ega bo'lgan va "Vali" - arabcha so'z

bo'lib, ega, sohib, avliyo, aziz degan ma'nolarni bildiradi. Buyuk Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida shunday misralarni uchratamiz:

Budur ulki, tarixlar noqili,

Ham oni nabiy deb durur, ham valiy.

Abdulla Norinjon valilikdan tashqari "Shayx" unvoni – mansabiga ham ega bo'lgan. Ana shu jihatdan bo'lsa kerak, hazrat Sulton Uvays bobomiz Shayx Abdulla Norinjon Valini o'zining ustezi deb bilgan, desak xato bo'lmaydi [3.6-7].

Tarixda shunday mashhur insonlar o'tganki, ular ta'rif va tavsifga unchalik muhtoj emaslar. Anas shunday zotlardan biri Sulton Uvays Qoraynindir. U halol va poklikda, parhez-u taqvoda benazir shaxs bo'lib, islom olamida Mag'ribdan Mashriqqa qadar yuksak e'tiborga ega bo'lgan. Qardosh qoraqalpoq elining Beruniy tumanidagi tog'da Sulton Uvays bobo qabrstoni bor. "Uvays", "Vays" degan tasavvufiy atama VII asrda Yamanda tug'ilib, Xorazmda yashagan mashhur Sulton Uvays Qorayn – Qoran nomidan olingan. Alisher Navoiy o'zining mashhur "Nasoyim ul-muhabbat" asarida "Uvaysiy" istilohi to'g'risida shunday ma'lumot keltiradi: "Rasul-ulloh uni: "Ma'ni va ruxoniyat yuzidan tarbiyat" qilib erdilar. Bu jihatdin har kishiningki, bu toifadan zohir yuzidin piri ma'lum bo'lmasa va mashhoyixlardan birining ruhi oni tarbiyat qilgan bo'lsa, oni uvaysiy derlar". Navoiyning mazkur asarida Sulton Uvays nomi tilga olinadiki, bu ulug' insonga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat va hurmat ramzidir".⁵

Xalq orasida Shayx Jalil boboning dunyoga kelishi bilan bog'liq shunday bir rivoyat yuradi: "Emishki, Shayx Jalil bobo inson nutfasidan paydo bo'lgan bo'lsada, pari qizning vujudidan dunyoga kelmish ekanlar. Ul kishinning otasi dong'i ketgan shayxlardan bo'lib, ne sababdankim podshoning qahriga uchraydi. Shuning uchun ham uni kimsasiz Qoratovga surgun qiladilar. Bu tog'ni sehrli parilar makon tutgan bo'lib, shayx ulardan biriga eng go'zaliga oshiq bo'lib qoladi. Shayx uning vasti ilinjida aqlini yo'qatadi va u pariga turmush qurish niyatini aytadi. Lekin pari unga uchta shart qo'yadi. Bular:

Taraganimda sochimga qaramaysan.

Yuvganimda oyog'imga qaramaysan.

Uxlaganimda badanimga qaramaysan.

Agar shartlar buzilsa, u bilan yashamasligini aytib ogohlantiradi ham. Lekin inson zotida qiziquvchanlik doimo ustun turganligi sababli Shayx shartlarni buzib qo'yadi. Farzandi tug'ilishi kerak bo'lgan vaqt yetib kelganda, pari qiz g'oyib bo'ladi. Shayx o'zini ta'natlay boshlaydi. U bir kuni nahorda qarasa, tol shoxida osilib turgan beshikdagi chaqaloqqa ko'zi tushadi. Odamlardan ayro yashayotgan shayx bu bola o'ziniki ekanligiga, uni parilar tashlab ketganiga amin bo'ladi va o'g'liga Jalil ismini qo'yadi. Zehnli ilm-u shariatda tengsiz bo'lib kamolga erishgan shayxning o'g'li keyinchalik xalq orasida Shayx Jalil nomi bilan shuhrat qozonadi".

Nekronimlar shunday lingvoekologik vazifani bajaradiki, o'zi nomlayotgan hududning muqaddasligini ifodalash barobarida, uni e'zozlanishi va qadrlanishi, keyingi avlodlarga yetkazilishini ta'minlaydi. Sobiq tuzum davrida qabrston, ziyoratgoh va boshqa bir qator muqaddas deb hisoblanuvchi joy nomlari to'planmadi, nomshunoslik nuqtayi nazarida o'rganilmadi. Hozirgi davrda esa dinga bo'lgan hurmat va e'tibor o'zgacha ruhda aks etmoqda. "Muqaddas dinimizga bo'lgan yuksak

e'tiborning yana bir muhim omili qadimdan ona diyorimizda diniy qadriyatlar ulug'langani, buyuk aziz-avliyolar, din-u diyonat sohasidagi ulkan piri komillarga nisbatan hurmat-ehtirom buyuk e'tiqod darajasiga ko'tarilgani bilan bog'liq [4.11]. Fikrimizning dalili sifatida hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirzayoyev tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi "Muqaddas qadamlar, ziyoratgo'lar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi 120-sonli qarori qabul qilinganligini keltirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, nekronimlar mahalliy aholi tarixini, yashash tarzini, etnografiyasini, etnik tarkibi va madaniyatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham nekronimlarni to'plash, tarixini, lisoniy xususiyatlarini, nomlanish motivlari, imlosi va variantlarini o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992. -B.71.
2. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. - Namangan, 2006. -B.11.
3. Davlariyor Rahim. Sulton Uvays. Ilmiy-badiiy lavhalar. -T.:G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. - B 6-7.
4. Imom Buxoriy Xalqaro markazi. Muqaddas dinimizga yuksak e'tibor va ehtirom. -T.: Toshkent islom universiteti, 2010. -B.11.

“UFQ” TRILOGIYASIDA TOPONIMIK MODELLAR

Shiringul NURGENOVA.

GulDU talabasi

Onomastikadagi toponimlar guruhini Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi asosida mashohada qilishga harakat qilamiz.

Trilogiyada muqaddas kalom vositasida suratga chizilgan voqealar *Farg'ona va Andijon* viloyatlarining shahar, qishloqlarida bo'lib o'tadi. Bular: **Kuyganyor, Zarkent, Yakkatut, Qoratepa. Uchqo'rg'on, Tolquduq, Chortarak** shahar va qishloqlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Ushbu romanda hudud nomlarida geografik landshaftning o'ziga xos qirralarini ham ko'rishimiz mumkin: tepa, ko'l, ariq, quduq jar yoki (yor) tiplar yordamida hosil bo'lgan geografik modellar mavjud.

Qoratepa. Bu toponimning etimologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, qadimda ushbu tepaliklarda "qora" nomi bilan ataluvchi urug' vakillari istiqomat qilgan. Ana shu davrdan buyon bu joylar Qoratepa nomi bilan ataladi.

Zarkent toponimi esa zar – oltin, **kent** esa shahar, ya'ni Oltin shahar ma'nosini bildiradi.

Toponimlarda bundan tashqari oykonimlardan ham foydalanilgan. Oykonimlar gidrooykonimlar, orooykonimlar, fitooykonimlarning paydo bo'lishida ham yetakchilik qiladi. Gidrooykonimlar, ya'ni suv obyektlariga, asosan, atalgan aholi punktlari nomlari tarkibida ko'l, quduq, ariq, buloq kabi atamalarning ishtirok etishi natijasida hosil bo'ladi: Tolquduq, Qipchoqariq, To'rtko'l.

Orooykonimlar deganda relyef shakllari nomlarini bildiradigan nomlar tushuniladi. Ular tarkibida: adir, tepa, jar-yor komponentlari ishtirok etadi: Qoratepa, Kuyganjar yoki Kuyganyor, Eshontepa. Shunisi qiziqarlilik, S Qorayevning "Toponimika" qo'llanmasida berib o'tgan ma'lumotlarga qaraganda, eng ko'p uchraydigan orooykonimlarni hosil qilishda ishtirok etuvchi unsur tosh, tepa, jar unsurlaridir. Ulardan eng sermahsuli esa tepa toponimik aniqlagichidir. "Ushbu atamaning etimologiyasi urug'-aymoq ma'nosida to'p-to'pa-to'b atamasi jonli tilda tepa bo'lib ketgan"¹ (Eshonto'pa-Eshontepa bo'lgan)

Adibimizning roman trilogiyasining birinchi qismi, ya'ni "Qirq besh kun" deb nomlangan kitobida ajoyib afsonaning guvohi bo'lamiz. Ushbu toponimik afsona Andijonning ajoyib maskanlaridan biri bo'lmish "Kuyganyor" misolidadir. Afsonada hikoya qilinishicha: "Bir Qipchoq yigiti Oqyorlik Oyjamol degan Qizga oshiq bo'lib, ishqida kuyib-yonadi. Yigit qipchoq urug'idan bo'lganligi sabab, qizning ota-onalari rozilik berishmaydi. Yigit Oyjamol ishqida o'zini yondiradi. Ana shuning uchun ham bu yerning nomi o'sha yigit tufayli Kuyganyor deb atalgan"².

Bundan tashqari yana boshqa sabab borligi to'g'risida ham aytib o'tadi adib: "Kuyganyor qishlog'idan Qoradaryo o'tadi. Daryo qirg'oqlar sonsiz jarliklar hosil qilgan. Unda ot mingan kishini ham ko'rsatmaydigan qamishlar o'sadi. Har yili bahorda sholikor dehqonlar jarliklardagi qamishlarni kuydirib sholipoya ochadilar. Ana shundan qishloqning nomi "Kuygan jar" deb atalgan. Turkiy tillarda jar so'zi ko'pincha yor so'zi bilan almashadi. Andijon atroflaridagi Yorboshi, Oqyor qishloqlarining nomlari ham aslida jar boshi, oq jar ma'nosini anglatadi". Asar sujetini yagona markazda birlashtiruvchi obraz Ikromjonning aziz qishlog'i etnotoponimga misol bo'la oladi. Bu ovul bejizga "Nayman" ovuli deyilmagan. "Nayman" o'zbeklar tarkibiga kirgan qabila. Mo'g'ulcha "nayma-sakkiz" urug' degan so'z, qabila urug'laridan biri "sagizuruv" nomi bilan ataladi. Qadimda Farg'onaning ushbu hududida nayman urug'lari istiqomat qilgan. Ana shu sababli ham bu yerlar Nayman ovul deyiladi. Toponimlarning yuksalishi va taraqqiyotida millat tarixi, shuningdek, u bosib o'tgan yillar, qadimda aytilgan afsona-yu rivoyatlar muhim o'rin tutar ekan. Biz o'z tariximizni qanchalik o'rgansak, ana shunda biz o'zligimizni anglagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qorayev S. Toponimika. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti, 2006.
2. Ahmad S. Ufq. –Toshkent: Sano-standart, 2015.

¹ Qorayev S. Toponimika. –Toshkent, 2006. 137-bet

² Ahmad S. "Ufq" trilogiyasi. Qirq besh kun. I kitob. 46-bet

BA'ZI TOPONIMLARNING ETIMOLOGIYASI HAQIDA

*Maftuna NASULLOYEVA,
GulDU talabasi*

Har bir kishining o'z nomi – ismi bor. Bir xil ismli kishilar ya'ni adashlar ko'p bo'lgan holda, ularni laqab bilan farq qilganlar. Familiyalar ham aslida kishilarni bir-biridan farq qilishga xizmat qilgan. Faqatgina kishilarga emas, balki joy, tog', suv havzalari, qishloqlarni bir-biridan farqlash ularni nomlar bilan atash orqali ularga ham nomlar qo'yiladi. Bu nomlarning barchasi tilshunoslikning onomastika bo'limida o'rganiladi.

Joy nomlari, ya'ni toponimiya bir necha turga bo'linadi. Bular, gidronimiya, ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari; oronimiya, ya'ni yer yuzasining relef shakllari – tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomi; oykonimiya, polinimiya, urbanomiya, ya'ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, mikrotoponimiya, ya'ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo'llar ko'priklar va hatto atoqli otga ega bo'lgan daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar deyildi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, ushbu nomlar, ismlar o'z-o'zidan o'ylab topilmaydi, nomlanmaydi. Har bir nomning o'z tarixi, o'tmishi mavjud. Aksariyat, atoqli otlar esa, hattoki dastlab talaffuzda hozirgiga qaraganda tubdan farq qilgan. Hozirga kelib esa, boshqacha talaffuz, boshqacha ma'no anglatadi. Har bir so'zning kelib chiqish tarixini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi etimologiya deyiladi.

Etimologiya (yun. – haqiqat; so'zning haqiqiy ma'nosi):

- 1) so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi bo'limi;
- 2) so'zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullar majmui;
- 3) so'zning kelib chiqishi. XIX asr tilshunosligida "Etimologiya" termini "grammatika" ma'nosida ham qo'llangan. Ushbu tushunchalardan kelib chiqqan holda, quyida viloyat nomlarining izohlarini keltirsak

Andjon – IX asrdan Andukon nomi bilan bog'liq. Ushbu so'zning kelib chiqishi haqida turli taxminlar mavjud bo'lib, ba'zi manbalarga ko'ra karvon yo'lida ketayotgan qaroqchilar o'n kishini o'ldirishadi, Andjon "o'n jon" degan ma'noni anglatadi. Yana bir taxmin, Andi kishining ismi bo'lib, u aynan shu shaharga, ya'ni Andijon shahriga asos solgan degan qarashlar mavjud.

Buxoro – qadimda Vixara, Sanskritcha ibodatxona degan ma'noni anglatadi. Boshqa manbalarda esa, bu shahar juda issiq bo'lganligi sababli, qo'lansa, sassiq ma'nolarni anglatgan.

Farg'ona – Parixona shaklida bo'lgan bu so'z asrlar davomida, vaqtlar ta'sirida Farg'on ashaklini olgan. Gerodotning yozishicha, O'rta Osiyo hududida parikan deb atalgan qabila istiqomat qilgan. Farg'ona nomi ham qabila nomidan kelib chiqqan, degan taxminlar ham mavjud.

Namangan – Boburnomada Namangan qishlog'i tuz koniga yaqinligi sababli, namak kon keyinchalik Namangon hozirgi kunda Namangan nomi bilan ataladi.

Qashqadaryo – V.V. Bartold asariga qarab Qashqadaryo nomi, evolutsiyasini quyidagicha tasavvur etishi mumkin: Keshrud – Keshirud – Xashqarud – Xashqadaryo – Qashqadaryo.

Surxondaryo – tojikcha Qizil suv ma'nosida bo'lsa, surxob deyilishi kerak edi. Surx yoki surxi degan turkman urug'i ham bor.

Jizzax – ba'zi manbalarda Jizzax so'zi "issiq" degan ma'noni anglatadi degan fikrlar mavjud, lekin bizning nazarimizda, bu fikrlar haqiqatga yaqin emas. Jizzax so'zi dastlab Dizax shaklida bo'lib, *diz* so'zi sug'd tilida *qo'rg'on* degan ma'noni anglatgan.

Samarqand – Muhammad an-Nasafiy "Al qand fiy zikri ulamoi Samarqand", As-Samarqandiy "qandiyai Xurd", Abu Tohirjon Samarqandiy "Samarriya" asarlarida ushbu asar haqida yozib o'tiladi. Samarqand so'zining birinchi qismi ya'ni, samar so'zi shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha sun'iy ta'riflar keltiriladi. Biroq tarixda bunday ismi kishi to'g'risida ma'lumot aniqlanmagan. So'zning ikkinchi qismi kent - qishloq, shahar degan ma'nolarni anglatadi. Mahmud Qoshg'ariy shahar nomining kelib chiqishini Semizkent, ya'ni semiz qishloq so'zining buzilib talaffuz qilinishi deb tushuntirdi.

Xorazm – rivoyatlarga qaraganda, Xor – go'sht, razm – o'tin cho'pi ma'nolarini anglatgan. Klippert va Lerx Xorazm nomini "pasttekslik yer" deb, Geyger "unumdor yer" deya, Yusti va Shpigel esa, aksincha "yomon unumsiz yer" deb talqin qilishgan.

Toshkent – Toshkent so'zi ikki qismdan tarkib topgan: ularning biri tosh, ikkinchisi kentdir. Kent komponenti haqida fikrlar nihoyatda ko'p va rang-barangdir. Bulardan biri tosh komponentining tosh so'zi bilan bir xil fonetik strukturaga egaligidir. Bir qator etimologlarning diqqatini faqat Toshkent toponimi tortgan. Bu toponim dastlab qayd etilgan ikki manba (M.Koshg'ariyning va Beruniyning asarlari)da uning tosh komponenti tog' jinsi ma'no- li tosh so'ziga bog'lab ko'rsatildi.

Yuqorida sanab o'tilgan viloyat nomlarining birortasining etimologiyasi haqida hali yakdil qarorga kelinmagan. Olimlarning turli qarashlari, farazlari, turli rivoyatlarga asoslangan holda taxminiy xulosalar chiqarilgan. Buning asosiy sababi esa – tarixiylik. Yurtimiz juda qadim va uzoq tarixga ega. Necha asrlar ilgari bunyod bo'lgan va nomlanib ketgan ushbu shaharlar haqida qat'iy xulosaga kela olmaslik, tabiiy holdir. Lekin taxminiy xulosalar berib kelayotgan olimlarning uzoq yillik mashaqqatli izlanishlari besamar ketmayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ensiklopedik lug'at. –Toshkent, 1999.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –Toshkent, 2000.
3. Qorayev S. Toponimika. –Toshkent, 2006.
4. Madrahimov Z. Tarixiy toponomika. –Namangan, 2010.

BA'ZI TOPONIMLARNING YASALISHI

(Ishtixon tumani misolida)

Subohat SAIDMURODOVA,

GulDU talabasi

Bizga ma'lumki, o'zbek tilshunosligi ham jahon tilshunosligi kabi rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Buning uchun tilimizning, o'ziga xos xususiyatlariga, alohida jihatlariga ega ekanligi to'g'risidagi tilshunos olimlarimizning chuqur izlanishlari natijasidan ma'lum. Tilning tarixiy shakllarini, undagi so'zlarning qaysi davrga tegishli ekanligi, kelib chiqishini yoki tilimizdagi yangiliklarni aniq faktlar bilan tadbiq etib kelinmoqda. Bunda tilimizdagi so'zlarning morfologik, leksik, fonetik kabi xususiyatlarini iloji boricha bizga tushunarli so'zlar bilan yoritilishi muhimdir. Adabiy tilda ko'plab katta va kichik muammolarni uchratamiz. Masalan, tilimizdagi toponimlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ayrim joy nomlarining kelib chiqish etimologiyasi, qaysi so'z turkumidan qanday qo'shimchalar orqali qaysi usul bilan yasalganiga e'tibor berish kerak.

"Hozirgi zamon o'zbek tilida so'z yasashning keng qo'llanadigan, unumli yetakchi tiplari affiksali yo'l va kompozitsiya-so'z qo'shish yo'lidir".¹ Quyida biz ham affiksatsiya ham kompozitsiya usulda yasalgan va asli so'z birikmasi bo'lib konversiyaga uchrashi natijasida joy nomiga aylangan ayrim toponimlarga e'tibor qaratamiz. Bunda Samarqand viloyati Ishtixon tumaniga qarashli bir qator qishloqlarning nomlarini tahlil qilamiz. Masalan, quyidagi toponimlarga e'tibor beraylik: Shayislom, Xalqobod, Damqariq, Qoracha, Tangitepa, Xolajon, Qoraqishloq, Kutarma, Xonaqa, Yo'g'ontepa, Qoraxoni, Minglar, Toytuyoq.

Tangitepa. Bu toponim Tong+i+tepa kabi morfemalarga ajraladi. Tong ot so'z turkumiga "i" affiksi qo'shilib, xoslik ma'nosini bildiradi. Tepa sifat so'z turkumiga oiddir. Ikki xil so'z turkumidagi so'zlar qo'shilib, "tongitepa" hosil bo'ladi. Ammo birinchi bo'g'indagi "o" tovushi "a" tovushiga almashishi natijasida Tangitepa yangi toponimi hosil qilingan.

Xalqobod. Ma'lumki, "Xalq" so'zi ot turkumiga, "obod" so'zi esa sifat turkumiga oid (obod joy.) leksimalar. Ikki xil so'z turkumiga oid so'zlarning o'zaro qo'shilishi natijasida yangi Xalqobod toponimi yuzaga kelgan.

Damariq. Dam — suv ravon oqmasdan, to'planib qoladigan joy. Suv yaxshi oqmaydigan, damlanib turadigan ariq *damariq* deyiladi. **Dam** so'zining "to'g'on", "ko'l", "ariq" ma'nolari ham bor.² Bu so'z ot turkumiga tegishli bo'lib, suvning oquvchi yo'lidir. So'zlarning o'zaro qo'shilishidan Damariq toponimi tashkil topgan. Ko'rinadiki, har ikki so'z ham suv bilan bog'liq bo'lib, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud.

Morfologik usulda yasalgan toponimlarning ayrimlarini keltiramiz:

Qoracha. "Qoracha-etnonim. O'zbeklarda qirg, laqay, saroy qabilalar tarkibida, qozoqlarning jetiruv, qirg'izlarning munduz, qabilalari tarkibida qoracha

¹ O'zbek tili grammatikasi. I tom. 1975. 23-bet.

² Qorayev S. Toponimika. —Toshkent, 2006. 180-bet.

(qaracha) urug'i qayd qilingan. Lekin toponimi quyidagicha morfemalarga ajraladi: *qora-cha*. Qora so'zi sifat turkumiga mansub bo'lib ranglarning bir turidir. -*cha* affiksi esa sinonim qo'shimcha bo'lib so'z ham (arabcha o'yin), shakl ham (qizcha) yasaydi.

Xonaqa. Toponimni asl ma'nosi: xona+qa. Xona so'zi ot turkumiga mansub leksimadir -qa affiksini esa so'z yasovchi (loyqa, qisqa) va shakl yasovchi (chayqa) qo'shimcha sifatida yaxshi bilamiz. Xona so'ziga -ga jo'nalish kelishigi qo'shilganda, "xonaga" so'zi hosil bo'ladi va ma'lum ma'no bildiradi. Ammo "xona" so'ziga -qa so'z yasovchi affiksi qo'shilganda, hech qanday yangi ma'no hosil bo'lmayapti. Xona+qa=xonaqa. Ushbu toponimdagi -qa affiksini jo'nalish kelishigi qo'shimchasi deyish mumkin. Bu kelishikni SSSR hukumati mamlakatimizda mustamlakachilik siyosatini yuritganlarida, ularning ta'alfuzida -ga jo'nalish kelishigi -qa shakliga o'zgarigan bo'lishi ham mumkin. Asli bu toponim Xonaga tarzida bo'lib, -qa shakliga o'zgartirilib, "Xonaqa" shakliga aylangandir.

Toytuyog. Bu toponim *Toy-tuyog* shaklidagi qo'shma so'z bo'lib, semantik, grammatik o'zgarishi asosida *konversiya* usulida Toytuyog toponimi hosil bo'lgan. Tuyog esa, albata, toyga tegishli. Ular qo'shilganda, "toyning tuyogi" so'z birikmasi hosil bo'ladi. Ko'rinadiki, Toy so'zidagi -ning qarashlilik qo'shimchasi va "tuyog'i" so'zidagi -q affiksi o'z holiga qaytib -i egalik affiksi tushib qolyapti, ya'ni so'z birikmasi konversiya hodisasiga uchrab, maxsuslashib, asl so'z birikmasi holatidan butunlay yiroqlashib, ketmagan holda yangi bir Toytuyog deb nomlangan joy nomini hosil qilmoqda.

Qozoqovul. Ushbu toponim ham yuqoridagilar kabi asli so'z birikmasi bo'lib, qozoqlarning ovuli yoki qozoq xalqiga tegishli bo'lgan ovul degan ma'noni anglatadi. Bizga ma'lumki, ovul qozoq va qirg'iz xalqlariga tegishli bo'lib, ularning yashash joyi, uyi shunday ataladi. Ushbu toponim ham maxsuslashib, konversiya hodisasiga uchrab, so'zlardagi qarashlilik, egalik affikslari tusharib qoldirilgan va **Qozoqovul** toponimini hosil qilgandir.

Bunday toponimlarni yurtimizda ko'plab uchraydi. Xullas, toponimlarning ko'pchiligi nafaqat affiksatsiya yoki kompozitsiya usulida yasalgan bo'ladi, balki ular asl so'z birikmasi bo'lib konversiya hodisasiga uchrab, maxsuslashib joy nomining paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тили грамматикаси. I том. -Тошкент: Фан, 1975.
2. Қорайев С. Топонимика. -Ташкент, 2006.

АППЕЛЯТИВ ВА ТОПОНИМЛАРНИНГ ДЕРИВАЦИОН ИМКОНияТЛАРИ

Н. ҚУРБОНОВ,

ТАТУ Фаргона филиали катта ўқитувчиси

Барча тилларда бўлганидек, ўзбек ва инглиз тилларида ҳам апеллативларнинг топонимлашув ҳодисаси ва топонимларнинг апеллативга ўтиш ҳодисаси мавжуд. Деривация асосан икки кўринишда бўлиб, улар тилдаги

аппелятивларнинг топонимлашуви ҳамда топонимларнинг туб сўзларга айланиш ходисалари ҳисобланади. Туб сўзларнинг топонимларга айланиш деривацияси топонимлашув жараёни ҳисобланади. Аксинча топонимларнинг апеллятивларга ўтиши детопонимизациялашув жараёни, деб айтиш мумкин бўлади. Образли номлар билан объектларни инглиз ва ўзбек тилларида номланиши барча тиллардагидек бўлиб, умумий хусусиятга эга. Ҳар икки тилда деривация жараёнида асосан барчага маълум бўлган топонимлар қўлланилиб келади.

Аппелятивларнинг топонимлашув ҳодисаси. Аппелятивларнинг топонимлашувида борор сўз туркумидаги сўз топонимик сатҳга калкиб чиқади ва топоним вазифасини ўтай бошлайди. Бунга мисол қилиб **Болалик** кишлоғини (Фар. в. Кува т.) кўрсатиш мумкин, **болалик**, **қайрағоч** апеллатив сўзларининг топонимлашуви жараёнида жой номи сифатида юзага келган. **болалик** сўзи сифат бўлиб, от сўз туркумига оид **қайрағоч** сўздан олдин ишлатилган, **болалик қайрағоч**. Бу апеллятивлар деривация натижасида апеллативдан топонимга ўтган, яъни **болалик қайрағоч** → **Болалик қайрағоч**. Кейинчалик **қайрағоч** сўзи истеъмолдан тушиб қолган, сифат сўз туркумига оид **болалик** сўзи халқ назарида биринчи ўринга чиққан, яъни **болалик қайрағоч** → **Болалик қайрағоч** → **Болалик**. Чунки кишлоқ номида **боли** образи ҳар доим халқнинг диққат марказида бўлган.

Хотинқуми (Фар. в. Тошлоқ т.) маҳалласи номи иккита от сўз туркумига оид сўзлардан иборат, **хотин** ва **қум**. Нутқда жой номи айнан **хотин** ва **қум** билан боғлиқ бўлганлиги сабабли топонимик сатҳга кўтарилган ҳамда иккала сўз бириккан ҳолда топонимлашув ҳодисаси сабабли жой номига айланган, яъни **хотин қуми** → **хотинқуми** → **Хотинқуми**.

Куйганёр (Анд. в. Анд. т.) шаҳарчаси номи сифатдош ва от сўз туркумлардан келиб чиққан, яъни **қуйган** ва **йор**. Йор сўзи ўзбек тилидаги **ж** ва **й** товушлари ҳамда **а** ва **о** товушларининг ўзаро алмашилиши жараёнида **жар** сўзи **йор** шаклига ўтган. Объектнинг тупроғи рангига нисбат берилган ҳолда **қуйган йор**, дея аталган ва топонимлашган, яъни **қуйган йор** → **қуйганйор** → **қуйганёр** → **Куйганёр** [1].

Топонимларнинг туб сўзларга айланиш ҳодисаси. Топонимларнинг детопонимизациялашувида икки хил ҳолатни кузатиш мумкин. Биринчи ҳолат топоним ўзининг топонимик хоссасини йўқотади, лекин от сўз туркумига ўтади. Бу топонимнинг детопонимизациялашувиди. Иккинчи ҳолатда топоним ўзининг онимик хоссасини йўқотади ва бу деонимик деривация дейилади.

Топонимларнинг детопонимизациялашуви. Н. Подольскаяга кўра, янги номланишлар топонимларнинг турдош сўзлар каторига ўтишида юзага келади. Бунда топоним ўзининг топонимик бошланишидан ажралади. Онимнинг апеллативга ўтиши аффиксациясиз юз бериши мумкин, у деонимизация дейилади. Агар топоним шаклини ўзгартирмасдан апеллативга ўтса, унда шунга мувофиқ равишда детопонимизация дейилади. [Н. Подольская 1988]. Қиёслаймиз: **Nokia** (шаҳар, Финляндия) → **Nokia** (буюм), **Emirates** (давлат) → **“Emirates”** (кафе, Фарғона ш.), **Хоразм** (вилоят) → **Хоразм** (фитоним – гуруч).

Топонимларнинг деонимик деривацияси. Топонимларнинг деривация

жараёнида турдош отларга ўтиши формасини кенгайтириш билан параллел ҳолда юз бериши мумкин, бундай ҳолатда бу деонимик деривация дейилади. Деонимик деривация асосан ўзбек тилида яхши ривожланган бўлиб, бундай ҳодисани инглиз тилида кам кузатилади. Деонимик деривация географик номлар ва кишилар номлари соҳасида ривожланишини ўзбек ва инглиз тиллари тили билан қиёслаймиз:

Инглиз тилида

London → Londoner
New York → New Yorker
Moscow → Muscovite
America → American
Puerto Rico → Puerto Rican
Canada → Canadian
New Zealand → New Zealander

Ўзбек тилида

Ўзбекистон → ўзбекистонлик
Фарғона → фарғоналик
Шоҳимардон →
шоҳимардонлик
Водил → водиллик
Янги Араб → янги араблик

Мисоллардан кўриниб турибдики, деривация жараёнида атокли отнинг турдош отга айланишида топоним ва турдош от ўртасида боғлиқликни кўриш мумкин, яъни топоним ва оттопонимик дериват ўртасидаги алоқа барибир сакланиб қолади.

Инглиз тилида жой номларига *-er, -an, -ian* қўшимчаларини қўшиш билан ёки умуман қўшимчасиз сўз ясалиши қизиқ муаммони кўрсатади: 1) Londoner (от) "лондонлик, онтариолик (Канада)"; 2) The Londoner (от) Лондондаги собик газета; 3) Londoner (сифат) "Лондонга оид" (масалан: Londoner Pub "Лондондаги кафе номи"); New Zealand "Янги Зеландияга оид" (масалан: New Zealand Geographic); New York "Нью Йоркка оид" (масалан: The New York Times) каби бундай ҳолатлардан келиб чиқадиغان бўлсак, янги сўзлар ҳосил бўлиш имконияти мавжуд ва бундай усул жуда махсусдор ҳисобланади. Бу каби ҳолат ўзбек тилида ҳам учрайди, ҳатто турдош отлар билан қўшилиб, қўшма сўзлар ҳосил қилиш ҳолати ҳам учрайди. 1) фарғоналик (от) Фарғона шаҳрида яшовчи шахс; 2) Ўзбекистон (от) - телеканал; 3) Фарғона (сифат) – Фарғона ҳақиқати (газета); Наманган (сифат) – наманган шашлик; Хоразм (сифат) – хоразм шакар; Шоҳимардон (от) – Шоҳимардонсўт (фирма номи); Марказий Фарғона (от) – Марказий Фарғона (Фарғона в. Ёзёвон туман газетаси). Бундай тип бўйича тилдаги сўзлар турли жой номларидан турли мамлакатларда ясалиши мумкин.

Оттопонимик сўз ясалиши. Топонимлар тилнинг луғат бойлигини бойитишда сезиларли роль ўйнайди. Топонимлардан турдош лексиканинг бой қатламини шакллантириб, жуда кўплаб сўзлар ҳосил қилинади [2]. Оттопонимик апеллативлар янги предметлар, тушунчалар ва ҳодисаларни ифодалашда жамият талабининг ақс эттирувчиси ҳисобланади. Бу дериватларнинг семантикасини ўрганиш жараёнида иккиламчи маъно денотатларнинг маълум гуруҳини ўз ичига олади, яъни тематик сферага бўлинади. Улар ягона бўлган сфералар ҳам мавжуд, лекин шундай тематик соҳалар ҳам учрайдики, улар ўрганилаётган моделни реализациялаб, лексикага системали кириб келишини тавсифлайди. Биз оттопонимик ясалишларни

куйидагича гурухларга бўлиб чиқамиз:

1. Ишлаб чиқарилган товарлар номлари. Озик-овқат ва ичимликлар. Топонимлар бўйича кўшаб озик-овқат маҳсулотлари номларини кўрсатиб ўтиш мумкин. Озик-овқат маҳсулотларининг номлари ҳар икки тилда географик номларни акс эттирувчи савдо маркалари билан танилган ёки халқ орасида маҳсулотнинг сифати сабабли ишлаб чиқарилган жой номи билан номланган. Масалан, **Фарғона (шаҳар)** – ферганка, фарғонасув (**Фарғона** минерал суви номи), **Хўканд, Ҳавоканд (Кўкон шаҳар тарихий номи)** – Ҳавоканд (ичимлик номи), **Омонхона (жой номи)** – Омонхона (минерал сув номи), **Кўкон (шаҳар)** – кўконпатир (нон тури), **Самарканд (шаҳар)** – самарканднон (нон тури), **Тошкент (шаҳар)** – Тошкент тўй оши, Тошкент томчи сомсаси, **Жиззах (шаҳар)** – жиззахсомса, **Хонобод (қишлоқ, Фарғона в. Ёзёвон т.)** – хонобод (гуруч нави), **Чўнғара (қишлоқ, Фарғона в. Риштон т.)** – чўнғара (гуруч нави).

Кийим, пойафзал. Кийим, мато, пойафзаллар ҳам баъзида географик номлар билан ҳам номланадилар. Масалан, **Марғилон дўппи**, **Андижон дўппи**, **Наманган дўппи**, **Ироқи дўппи**, **Марғилон атласи**.

Идиш-товоклар ва бошқа саноат товарлари. **Чин (Хитой)** – чинни, **Дамашк (шаҳар)** – Дамашк пўлати, **Исфара (шаҳар)** – Исфара алебастери.

2. Ҳайвон зотлари. Машҳур ҳайвон зотлари: **Ҳисор (тоғ тизмалари)** – хисори (кўй зоти), **Қирғизистон (респу́блика)** – қирғиз (ит зоти), **Туркменистон (респу́блика)** – туркман (ит зоти), **Арабистон (давлат)** – араб (от зоти).

3. Фирмалар, корхоналар, ташкилотлар. Ўзбек тилида қисқарттириш орқали ташкилот номлари шаклланади, ташкилотлар номларида, қисқартмалар асосан топонимлардан келиб чиқади. Масалан, ўзбек тилида **ФарДУ, НамДУ, ФарПИ**. Ўзбек тилида ташкилот номи жой номини тўлиқ қўллаш орқали ҳам шаклланади. Ўзбек тилида ташкилот, фирма, кафе ва меҳмонхоналарга ном беришда ҳам маҳаллий жой номлари, ҳам хорижий жой номлари қўлланилади, объектнинг номи янада обрўли, эътиборни ўзига тортадиган ва ёзда қоларли бўлиши мақсадига ҳаммага маълум бўлган хорижий жарангли топонимлардан фойдаланиш урф бўлган. Масалан, **Scandnavia** кафеси, **Asia** меҳмонхонаси, **Paris** модалар дўкони (**Фарғона ш.**). Объектларнинг номланишига эътибор қаратадиган бўлинса, объект жойлашган ҳудуд ҳам ном берилишга сабаб бўлади, кўп ҳолларда ўзбек тилида ташкилот жойлашган ҳудуд номи билан номланади: “**Беи́бола**” гузари, “**Беи́бола**” супермаркети, “**Фарғона**” чойхонаси, “**Фарғона**” меҳмонхонаси, “**Водий**” тўйхонаси. Инглиз тилида университет номларини айтганда шаҳар номи айтилиши билан ифодаланиши мумкин, бу ҳолатда университет номи олдида асосан *at* предлоги ишлатилади ва *university* сўзи тушиб қолади: *London, Oxford, Cambridge, Newcastle, Harvard*. Шунингдек, инглиз тилида баъзи компания ва фирма номларини ҳам мисол келтиришимиз мумкин: *Adobe* (*Adobe Creek* дарёси), *KFC* (*Kentucky Fried Chicken*), *Nokia* (*Nokia* шаҳри, *Финляндия*).

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Эназаров Т. Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғазий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Док. дис. –Тошкент, 2005.

SAMARQAND VILOYATI TOPONIMLARI HAQIDA

*Doston RO'ZIQULOV,
GulDU talabasi*

Har bir davlat, shahar, tumanlarning o'ziga xos joy nomlari bor. Bu nomlar kelib chiqishiga ko'ra turli xil predmetlarga bog'liq bo'lgan holda qo'yilgan va o'ziga xos tarixiy etimologiyasiga ega. Bular – tog', kanal, tepalik, qirlar, daryo, ko'llarning borligi, tabiiy iqlimi, relyfi, yo biron bir tarixiy shaxslar, qahramonlar, buyuk allomalar, shayxslarning nomida olingan, shu joy aholisining turish-turmushi, shug'ullangan kasbiga qarab va urug'-qabila nomlaridan ham olib qo'yilgan. Urug'lardan olingan joy nomlari: Mang'it mahallasi, Ming qishloq, Arabboy qishlog'i, Jugi qishloq. Mashhur shaxslarning nomidan olingan nomlar: Alisher Navoiy, Yusupov, Qosim Rahmat, Oybek, Islom Shoir, Ko'k ota, Bobur, qishloq nomlari. Daryolardan: Oqdaryo tumani, suv havzalaridan: Pastdarg'om tuman nomi (pastdagi darg'om), Vadaxiranich shaharchasi (Kattaqo'rg'on tumanidagi) kabi joy nomlari mavjud. Bunday nomlarning atalishiga sabab bir hududning boshqa hududdan ajratib turishi uchun va shu yerdagi qishloq aholisining qanday kasb bilan shug'ullanganiga qarab ham nom qo'yilgan. Masalan, Kosagaron – sopol kosa yasaydigan ustalarning mahallasi bo'lgan. Shuning uchun toponimlar, ya'ni geografik joy nomlari yozuv paydo bo'lmadan ilgari ham oddiy, sodda ko'rinishda bo'lgan. Buning natijasida ibtidoiy zamonlardagi geografik joy nomlari bizgacha yetib kelmagan. Bu ishimizda Samarqand viloyatidagi geografik joy nomlari va boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar bilan nomlangan inshootlarning nomlariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Narpay – tuman nomi bo'lib, 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Bu nomning ayrim manbalarda aytib o'tilgani taxmin qilinadi. Narpay nomi kanal bilan bo'g'liq, chunki bu hududdan katta Narpay kanali oqib o'tadi. Ma'nosiga to'xtaladegan bo'lsak, ikkita ma'lumot bor: Biri "nor"- nar tuya "poy" - iz, tuya izi, ya'ni suv o'sha tuya izidan oqqan degan ma'noda. Ikkinchisi "Nahr"- daryo, dengiz, "Poy"- qadam, boshlan g'ich qadam, ya'ni daryoning boshlan g'ich irmo g'iidan oqib keladi degan ma'nolarni mujassamlashtiradi.

Ishtixon - tuman nomi bo'lib, bu nomning ma'nosi ham tarixda ko'p taxminlar asosida bayon etilgan. Ishtixon X asrda arablardan bo'lgan "ishixitlar" bosib olgan va ishtihon nomi bilan asta-sekin o'zgarib ketgan ekan. Ishtixon nomi bilan esa 1943-yil 18-maydan atala boshlangan. Boshqa manbalarda bu hududdan xon saroyiga sopol quvurlarda sut yuborilib turilgan ekan. Shunda xonga sut yetib borganligini bilish maqsadida xon ichdimi deganda? Ha "xon ichdi" ichdi xon, ishtixon deb talaffuz qilinib aytilib ketilgan. Bu xalq etimologiyasi hisoblanadi.

Mirbozor – bu yerda bozor joylashgani uchun shunday nomlangan. 1992-yil shu nom bilan atala boshlangan. Mir – ruscha "мир" dunyo, jahon so'zidan olinib, jahon bozori degan ma'noda.

Kritrenka – ruscha asli (краткий рынок) -- kichkina, qisqa bozorcha, talaffuzda oʻzgarib ketgan holda kelgan.

Oqtosh - shahar nomi, bu joydan boksit va oq togʻning toshiga oʻxshash madanlar topilgan va shu nom bilan Oqtosh deb qoʻyilgan. Bu nom bilan 1967-yil 31-sentabrdan boshlab atalib kelingan Oqtosh shahri “Zirabuloq” nomi bilan ham mashhur boʻlgan. Uning qadimgi nomi Arbinjon boʻlib, Arabnajn, Rabinjon, Arbinaj nomlari bilan ham yuritilgan ekan. Bu joy nom ismdan kelib chiqqan boʻlib Abu Muslim ibn Oʻmr Abrinjoniyan olingan. U hadisshunos, roviy boʻlgan. Bundan tashqari Rustamxon dostonida ham Oqtosh deb nomlangan shunga oʻxshash shahar tilga olinadi. Bu kabi geografik joy nomlarimizning tarixini, maʼnolarini bilishimiz bizga iftixor tuygʻusini va qiziqishimizni oshiradi. Shunday allomalarimizning nomlaridan olingan joy nomlarining maʼnosini bilishimiz bizning vazifamizdir.

Har qanday til ham biron bir chetdan oʻzlashgan soʻzlarni qabul qilmasdan, oʻz lugʻat boyligini oshira olmasa kerak. Bizning Oʻzbek tilimiz ham bundan mustasno emas Masalan: Kompyuter inglizcha (turdosh ot) unga biz “-chi” qoʻshimchasini qoʻshib, Kompyuterchi deb shaxs oti yasaymiz. Bunday oʻzlashma soʻzlar bilan nomlangan Oʻzbekiston hududidagi inshoot nomlarini aholining oʻrta qatlami vakillari va koʻpchilik uchun uning maʼnolariga tushunish qiyinchilik tugʻdiradi.

Chetdan oʻzlashgan soʻzlar bilan nomlangan inshoot nomlari odamlarni oʻziga jalb qilish, qiziqtirish, shu binolarga kiruvchilar sonining oshishiga va chet elga taqlid qilish oqibatida bunga oʻxshash soʻzlarning koʻpayishiga olib kelyapti deb oʻylaymiz. Bizning fikrimizcha, chetdan oʻzlashgan soʻzlar bilan nomlangan bunday inshootlarni oʻzimizning ona tilimizdagi oʻzbekcha soʻzlar bilan nomlasak, maqsadga muvofiq boʻladi. Sababi, oʻsha inshootlarni oʻzbekcha soʻzlar bilan nomlasak, omma bu soʻzlarni koʻradi, eshitadi va jonli tilda koʻproq ishlata boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qorayev S. Toponimika --Toshkent: Oʻzbekiston falsafalari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
2. Doʻsimov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha lugʻati. --Toshkent: Oʻqituvchi, 1977.
3. Enazarov T. Turkiy sodda toponimlarining etimologik tadqiqi. --Toshkent: Universitet, 2002.

ТОПОНИМЛАРНИНГ ЯСАЛИШИ ХУСУСИДА

*Мехроб РАҲИМОВ,
ЎзДН талабаси*

Ватанимиз қадимий ва жуда бой тарихга эга. Биринчи Президентимиз И.А. Каримов тўғри таъкидлаганларидек, “Албатта, ҳар қайси халқ ёки миллатнинг маънавиятини унинг тарихи, ўзига хос урф-одат ва анъаналари, ҳаётий қадриятларидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Бу борада маънавий мерос, маданий бойликлар, кўҳна тарихий ёдгорликлар энг муҳим

омиллардан бири бўлиб хизмат қилади”.¹ Бу фикрлар халқимизнинг маънавий-маърифий, маданий, фалсафий мушоҳадаси ва қарашлари махсули бўлган жой номлари – топонимик меросга ҳам тааллуқли.

Топонимларнинг ясалishi тўғрисида дессиртациялар жуда кўп. Уларнинг жуда кўпчилигида уларни асосан аффиксация усулида ясалadi дейди-да, қатор аффиксларни санайди. Мана шу аффикслар топонимларнинг ясалishiда қатнашadi дейди. -чи дан тўртиб ҳамма аффиксларни келтиради: -ли, -лик, -лок, -ма - лан в.х. Масалан, **Тойли, Бўзчи, Уялик**. Қўшма топонимларнинг ясалishi ҳам бор. Уларда ҳам икки сўзнинг қўшилишидан топоним ясалishини айтишadi. Асосан шу иккита усули борлигини кўрсатилади. Аммо бизнинг фикримизча, топонимлар **аффиксация** усулида ҳам, **композиция** яъни **синтактик** усулда ҳам ясалмайдиган. Масалан, Сирдарё вилоятидаги Янгйер топоним эмас еди, у, аввало, сўз бирикмаси бўлиб, янги очиладиган, ўзлаштириладиган ер деган маънони билдиради. Аниқ бир жойни билдирган эмас. Аммо ҳозир Янгйер топонимни билдиради.

Янгйер топоним, аммо у сўз, сўз бирикмаси ёки қўшма сўз бўлган, ана шу қўшма сўз конверсияга учраб, махсуслашиб, жой номини билдирадиган бўлган. *Гирокчи*. Бу топоним ҳам апеллятив лексикага оид сўз бўлиб, конверсияга учраб, махсуслашиб ёки жой номини англатадиган бўлиб, ўзини оддий сўзligидан чиқиб, топонимга айланган. Яна Пахтачи топоним ҳам -чи топоформанти билан ясалган дейилади. Уларни аффиксация усулида ясалган топоним деб бўлмайди. Улар конверсия усулида ясалган топонимлар дейилади. Демак, деярли барча топонимлар **конверсия** усулида ясалadi. *Масалан, найман ва найманча уруг номи, оддий сўз. Лекин ҳозир Найман деган жой бор*. Демак, бу топоним ёки унга қўшилган -ча тилимизда бор, сўзга қўшилиб ўзининг вазифасида қўлланган. Кейинчалик бу сўз аста-секинлик билан жой номига айланган.

Қўшма топонимларнинг вужудга келиши ҳақида фикр билдиришдан олдин, аввало, қўшма сўзларнинг ўзи қайси усулда ҳосил бўлиши ҳақида қисқача тўхталиш жоиз. Янгйер топоними ҳам конверсия усулида топонимга айланган.

С. Қораев “қўшма топонимлар икки ва ундан таркибий қисмлардан иборат. Бундай отлар ҳам грамматик жиҳатдан бир неча турга бўлинади»,² - дея қуйидаги турларни келтиради: от+от, сифат+от, от+сифат, сон+от, феъл+от ва от+феъл. Биз бу фикрда ноаниқлик бор деб белдик ва фикримизнинг тасдиғи ўларок сон+от турига тўхтадик. Бу турга олим *Бешариқ ва Олтиариқ* топонимларини киритади. Бешариқ ва Олтиариқ сон+от эмас. У аслида “Бешариқ топоними *олди ариқ* маъносига *Пешариқ* топонимининг фонетик ўзгарган шакли: *п-б*. Олтиариқ топонимининг этимони *олди ариқ* ёки *орт ариқ* шаклидаги бирикма”³ эканлигига эътибор берсак, уларнинг **конверсия** усулида ҳосил бўлганлигига гувоҳ бўламиз.

¹ Каримов И. “Юксак маънавият – энгилмас куч” – Тошкент: Маънавият, 2008. 29-30 – бет.

² Қораев С. Топонимика, -Тошкент, 2006. 95-бет.

³ Аназаров Т. Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик таълиқи. -Тошкент. 2004. 49-бет.

Шундай қилиб, топонимлар аффиксация ва композиция усулида ҳам ясалмайди. Улар сўз, сўз бирикмаси ёки қўшма сўз бўлиб, ана шу қўшма сўз конверсияга учраб, махсуслашиб, жой номини билдирадиган бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Эназаров Т. Туркий содда топонимларнинг этимологик тадқиқи (2-китоб). -Тошкент: Университет, 2002.
2. Қораев С. Топонимика. -Тошкент, 2006.
3. Эназаров Т. Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик тадқиқи. -Тошкент, 2004.

IV SHO'BA. O'ZBEK ANTROPONIMIYASI VA ANTROPOTOPONIMIYA

ЎЗБЕК АНТРОПОНИМЛАРИНИ ТАРИХАН ВА ҲОЗИРГИ ДАВР АСОСИДА ТАСНИФЛАШ

Нишонбой ХУСАНОВ

*ТМИ "Ўзбек ва рус тиллари" кафедраси
муоҳири, филология фанлари доктори*

Ўзбек антропонимлари тарихан қуйидаги гуруҳлар асосида тасниф қилинади: нем, таҳаллус, насаб, кунья.

Исм сўзи арабча, ном форсча, от сўзи эса туркийча. Халқимиз қадимий тарихга эга бўлганлиги учун ҳам исм қўйишда ва танлашда ўзига хос урф-одатларга, анъаналарга эга. Туғилган чақалокни соғ-саломат вояга етгазиш мақсадида чақалок чилласи чиқмагунча бегоналарга кўрсатилмайди; бешикка солинади ва бешигига ёвуз кучлар яқинлашмайдиган нарсалар қуръон, нон, пичок қўйилади; ёмон ва фарзандсиз одамлардан эҳтиёт қилинади; оллоҳдан азиз авлиёлардан мадад сўралади; садақа, амру-маъруф қилинади; унга муносиб исм танланади. Исм танлангандан сўнг унинг қулоғига азон айтиб, исми қўйилади. Ўзбек исмлари асосан туркийча, арабча, форсча сўзлардан ташкил топган. Арслон, Бектош, Барчин, Отабек, Темур, Улугбек каби туркий исмлар ҳозир ҳам фаол ишлатилади.

Арабча исмларнинг асосий қисми ислом динига боғлиқ исмлардир: Асмой хусна, пайғамбарлар исмлари, авлиё ва диний алломаларнинг исмлари.

Аббос исми ёмон кўзлардан ва ёвуз кучлардан ҳимоя қилувчи исmdir, чунки бу исм асровчи исм сифатида ислом динидан олинган яъни Мухаммад пайғамбарнинг тоғисининг исмидир. Исм арабча бўлиб "жаҳлдор, довжорак" маъноларини англатади.

Адҳам арабча сўз бўлиб "қора", "қимматли", баданида қора белги, хол билан туғилган бола маъноларини англатади. Ўзбек тилидаги **Ахтам** (тишсиз) ва **Ақтам** исмлари қўйиш масаласини ўйлаб қўриш керак. Чунки бу исмлар **Адҳам** исмининг фонетик ўзгариши натижасида ҳамда **Ўқтам** (гайратли), **Истам** (турсин, умри узок бўлсин) исмларига қофиядош сифатида юзага келган.

Форсча исмлар сиёсий ва қўшничилик муносабатлари натижасида кириб келган. **Дил** сўзи форсча бўлиб, ўзбекча юрак, арабча қалб кўринишларига эга. Исм сифатида келганда, саховатли қалб эгаси, мард, жасур маъноларида қўлланилади. **Дилафрўз** - дилни қувонтирувчи, **Дилбар** - дилни олувчи, **Дилдор** - дилдан севилган, дилни ром қилувчи, **Дилноз** - нозик қалб эгаси. Дил сўзи билан ўғил болаларга ҳам исм қўйилади: **Диловар** - жасур, қўркмас, пахлавон; **Дилшод** - дилни қувончи бўлган фарзанд; Динмурод - динга илтижо қилиб, эришилган бола.

Жамшид - Бу исмнинг юзага келиши ва тарқалишида эроний ҳукмдорларнинг - Пешлодийларнинг ўрни катта бўлган. Давлат ва мулкни

адолат билан бошқарганлиги учун Жамшид катта маънига ва обрўга эга бўлган. У қадимий эронийча Йимахшейта – “ёркин Йима” сўзининг ўзгаришидан юзага келган. Ушбу исм “буюк, ақили” маъноларини билдиради.

Фаррух форсча бўлиб, баъзи адабиётларда “ғўзал”, “бахтли”, “чиройли” маъноларида берилган. Фикримизча, “Фаррух” сўзи “фар” ва “рух” сўзларидан ясалган кўшма сўздир. “Фар”нинг биринчи маъноси нур бўлиб, кўчма маънода шон-шавкатни ҳам билдиради. “Рух” деб юзнинг ёнок қисмига айтилади ва бу сўз “юз”нинг маънодоши сифатида ҳам ишлатилади. Демак, “Фаррух” сўзининг луғавий маъноси “нурли юз”, “очик юз” ёки “юзи нурли, ёкимли”дир.

Шоҳрух исмининг кенг тарқалишига темурийлар сабабчи: Амир Темурнинг тўртинчи ўғли, Улуғбекнинг отаси Шоҳрух форсча исм бўлиб, унинг маъносини икки хил талқин қилиш мумкин: 1) “ғолиб”. Ривоятларга қараганда ўғил туғилганлиги ҳақида хабар келтирилганда Темур шахмат ўйнаётган бўлади. Ўйин гали Темурда бўлгани учун у рух орқали шох беради ва рақибини енгади. Бундан хурсанд бўлиб, ўғлини Шоҳрух деб атайдн. Бошқа бир манбаларга кўра Темур от орқали ҳам шохга ва рухга хужум қилиб ғолиб келади ва ўғлини ШОХРУХ деб атаради (ФЗТ, 2, 578). Ҳар икки ҳолатда ҳам исм гарчи шахмат ўйинидан келиб чиққан бўлса-да, у ғолиб деган маънони англатади; 2) “шоҳона қиёфа (юз)”. РУХ сўзи форс тилида “чехра, кўриниш” маъноларини англатади. Демак, Шоҳрух-шоҳона кўринишли деган маънога эга.

Тахаллус (араб – қутулиш, халос бўлиш) – бирор ижодкор (шоир, ёзувчи, олим) ёки сиёсий арбобнинг ўзи учун танлаб олган иккинчи номи. Муаллиф тахаллусни муайян максадларни кўзда тутган ҳолда қўллашган. Масалан, омма ўртасида ўз ижодини таъкидлаб кўрсатиш, ўз исм-фамилиясидан қоникмаслик, муйян қавф-хатар, таҳдиддан қочиниш, яшириниш ва б.

Шарқ санъати ва адабиёти намояндалари, сифат ва хусусиятларга ишора тарзида (Улуғбек – Муҳаммад Тарағай, Навоий, Лутфий, Бобур, Мажрим-Обид, Мунис, Завкий), машғулоти, касбига нисбатан (Гулханий, Чархий), туғилган ёки яшаган жойига нисбатан (Бухорий, Қошғарий, Марғилоний, Насафий, Тарозий, Ҳоразмий, Хўжандий, Чустий, Шоший, Югнакий, Яссавий), яшаш тарзи ёки қисматига ишора сифатида (Ғадоний, Ғарибий, Узлат, Муқимий, Фуркат) ва б. омилларга қараб тахаллус олганлар ёки танлаганлар. Шарқда ҳам, Ғарбда ҳам кўпчилик ижодкорлар фақат тахаллуси билан машхур бўлишган. Масалан, Беруний – Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад, Навоий – Ғиёсиддин ўғли Алишер, Муқимий – Муҳаммад Амнхўжа ўғли, Ойбек – Мусо Тошмуҳаммад ўғли, Яшин – Комил Нуъмонов, Чустий – Набиҳон Хўжаев. Баъзи шоирлар бирдан ортиқ тахаллус билан (Навоий – Фоний; Мужрим – Обид, Нодир – Узлат – Махжур; Нодира – Макнуна – Комила қабл), баъзан бир неча шоир бир тахаллус билан (“Навоий” тахаллусли 10 га яқин шоир бўлган) ижод қилганлар.

Шарқ мумтоз адабиётининг деярли барча намояндалари, кўпчилик олимлар ва баъзи сиёсий арбоблар маълум тахаллусга эга бўлишган. Ҳозирги кунда тахаллуснинг шоир ёки ёзувчи ўз исми ва фамилиясини қўшимчасиз

қўллаган кўриниши учрайди: Ғафур Ғулом, Абдулла Қаҳҳор, Иззат Султон, Жамол Комил, Усмон Азим ва бошқалар.

Насаб арабча сўз бўлиб, “маълум авлоддан келиб чиқиш; келиб чиқиши боғлиқ бўлмоқ” каби маъноларни англатади. Маълумки, жамиятнинг биринчи ячейкаси – оила қадимдан ўз номига эга бўлган. Бу ном шу кунгача фамилия, ота номи – отчество деб юритилади. Фамилия сўзи ҳам латинча бўлиб, “оила” деган маънони англатади. Кейинги пайтларда яратилган ономастик адабиётларда фамилия ва отчество “патроним” атамаси билан берилган.

Жаҳондаги ҳар бир тил ўз патронимик тузилишига ва хусусиятига эга. Жумладан, русларда отчество – ич (вич), виа, фамилия – ов (ов) аффикслари орқали ясалса, шотландларда – Ман (Ман Коннел), французларда – Дю (дюруа), грузинларда – швли (Зеделашвили), арманларда – ян (Миртичан) орқали патронимик модел ясалади. Масалан, француз тилидаги – дю бир вақтни ўзида фамилия ва отчество вазифасини бажариб келади: ДУРУА – Королёв – Хонов (Хон ўғли).

Антропонимларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, патронимлар қадимги даврда кўп ва кенг қўлланилган. VII асрдан бошлаб араб тилининг таъсири натижасида туркий тиллар патронимик системасида маълум ўзгаришлар рўй берган бўлса-да, ёдномаларда араб ономастикасига хос аташ системаси – насаб кўпроқ ишлатила бошлаган.

Туркий тилда яратилган баъзи насрий асарларда насабнинг 12 авлодига бўлган кўринишлари акс этган (Рабғузий) Назмий асарларда эса насаб учтагача аждодни акс эттиради ва ўзининг шаклланиш хусусиятига кўра қуйидаги гуруҳларга бўлинади:

1. Ўғил ва ота исми ўртасида арабча ибн (ўғил) сўзини келтириш орқали: Ардашер ибн Хурмуз, Бадиуззамон ибн Султон Хусайн, Музаффар Хусайн ибн Султон Хусайн, Маллу ибн Мабок, Ардашон ибни Ашғон, Ардашер ибни Бабок, Хусрав ибни Ялош, Ялош ибни Баҳром, Хурмуз ибни Ануширвон, Хурмуз ибни Ялош, Бойқаро ибн Мансур, Султон Вайс ибн Бойқаро;

2. Ўғил ва ота исми ўртасида бин, бинни (ўғил) сўзини келтириш орқали: Али бинни Хусайн, Феруз бин Яздигирд, Шопур бин Ардашер, Хусайн бин Мансур, Хусайн бинни Ҳасан, Али бин Доро, Ҳасан ибн Рабиъ;

3. Ибн (ўғил)ни исмидан олдин қўллаш орқали: Ибн Аҳдам шох Иброҳим, Ибни Салом, Ибни Фориз, Ибни Муборак;

4. Ўғил ва ота исми ўртасида форсий изофа (-и, йи)ни қўллаш орқали: Ардавори Ялош, Ажнн Ашкон, Ашки Доро, Баҳроми Баҳром, Баҳроми Хурмуз, Гударзи Ашкон, Доройи Баҳман, Доройи Дор, Иброҳими Адхам, Искандари Файлакус, Кисри Аристон, Мусан Имрон, Парвези Баҳром, Парвози Хурмуз, Тийри Гударз, Шопури Шопур, Шопури Хурмуз, Ялоши Ялош, Хурмузи Нарси, Исойи Маръям, Гули Мушкин, Хисрави Парвез, Масиҳи Маръям, Рустами Зол, Рустами Достон;

5. Ота ва фарзанд исмлари ўртасида кизи сўзини қўллаш орқали: Маллу кизи Нозмаҳр, Доройи Даврон кизи Равшанак;

6. Исмлар ўртасида отаси сўзини қўллаш орқали: Ўзи Наврўз отаси оти Фаррух;

7. Сулолани бошлаб берган кишининг исмига - ий кўшимчасини кўшиш орқали ҳам насаб ифодаланган: Ашконий, Кай, Қаёший, Сосоний, Бахманий, Кайкубодий, Лухросбий, Хошимий.

Қадимги ёдномаларда бир катор куньялар ҳам учрайди. Кунья араб антропонимиясига хос хусусият бўлиб одамнинг фарзанди исми билан аталишидир. Жумладан, тўртинчи халифа Алининг куньяси Абул Ҳасан бўлган, яъни “Ҳасаннинг отаси”. Тарихий фактлар Алининг энг катта ўғли Ҳасан бўлганлиги тасдиқлайди. Арабий лугатларда аба – ота, абух – унинг отаси маъноларини англатади.

Кунья дасглабки пайгларда маълум содда қонда асосида қўйилган, яъни одам фарзанд кўргандан сўнг унга куньяни беришган.

Кейинчалик исм билан боғлиқ ҳолда куньялар қўйилган, яъни таниқли тарихий ёки мифик шахсни исми ёки ўглининг исми назарда тутилган. Иброҳимнинг куньян Абу Исҳоқ ёки абу Исмоил бўлган ҳамда аксинча: Абёкуф (Юсуф).

Куньялар қўйилиш ва маъно аниқлаш хусусиятига кўра қуйидаги 3 гуруҳга бўлинади:

1. Фарзанд (ўглининг) номи орқали вужудга келган кунья: Абулқосим. Маълумки, Абулқосим Муҳаммаднинг куньяси ҳисобланади. Қупчилик исломшунослар олимлар Муҳаммаднинг Қосим номи ўғли бўлганлигини айтишса-да, баъзи номшунос олимлар “бу фикрни тасдиқловчи ишончли манбалар йўқ” деб ҳисоблашади.

Бизнингча, Қосим Муҳаммаднинг ёшлиқда вафот этган катта ўғли бўлган ва буни туркий ёдномалар материаллари ҳам тасдиқлайди; шунингдан, Муҳаммад Абулқосимни исм сифатида қўйилишига қарши тургани ҳам маълум асосга эга, яъни исм Муҳаммадга тенглаштирилган.

Қосим арабча сўз бўлиб “қўшилиувчи, шерик бўлувчи” маъноларини англатади.

Булбашар – Одамнинг куньяси. Башар арабча сўз бўлиб “инсоният” маъносини англатади. Булбашар (Абулбашар) – инсониятнинг отаси.

2. Тарихий ёки мифик шахслар номи асосида вужудга келган куньялар: Абобакр, Муҳаммаддан кейинги халифанинг куньяси. Исломдан олдин унинг номи Абдулло (”Лоғ” худосининг бандаси) бўлган. Мусулмон бўлгандан кейин Абдулло деб атала бошлаган. Унинг куньяси ҳақида олимлар ва исломшунослар турлича фикр билдиришади. Баъзилар Абу Бакрни араб тилида Бакр исмига (ёш туя) боғлашади ва “ёш туяни отаси” деб талқин қилишса, бошқалар уни “бикр”дан келиб чиққан деб ҳисоблашади.

Маълумки, араб ёзувида киска унли акс этмаганлиги учун ҳам бу сўзни бакр ёки бикр деб ўқиш мумкин. Бикр арабча сўз бўлиб “боқира, қиз” маъноларини англатади. Ойша Муҳаммадга турмушга чиққанда жуда ёш қиз бўлганлиги назарда тутиб Абдуллога Абу бикр куньяси берилган деган фикр шундан келиб чиққан. А. Гафуров Абубакр (Абубикр)ни “иффатлилик соҳиби” маъносини аниқлаши мумкин ва бошқа кўча маъноларга эга деб ҳисоблайди.

Абу Бакр Нишопурийнинг тўлиқ исми Абдулло ибн Муҳаммад бўлган. Машҳур қонуншунос ва ҳадисшунос бу шайхнинг қуңъяси ҳам халиф Абдулло қуңъяси ҳам Халиф Абдулло қуңъяси асосида яратилган.

Ёдномалардаги Бу Али Абул Аббос, Абу Саид, Бу Туроб каби қуңъялар ҳам юқоридаги сингари тарихий ёки мифик шахсларнинг исмларидан келиб чиккан. Масалан, Бу Туроб Нахшабий машҳур шайхнинг қуңъяси бўлиб, Алининг қуңъясидан олинган. Тарихий асарларда ёзилишича, Алининг чаңг-тупрокда ғамгин ўтиргангани кўриб Муҳаммад унга “Абу Тураб” яъни “тупрок (ҳок)нинг отаси” деб ҳазил қилган ва бу кейинчалик Алининг қуңъясига айланган.

Бу Али таникли олим Ибн Синонинг қуңъяси. Маълумки, унинг исми Хусайн бўлган. Демак Хусайнга қуңъя берилган тўртинчи халиф Али ва унинг ўғли Хусайн исмлари эътиборга олинган.

3. Унвонга айланган қуңъялар.

XV аср ёдномаларидаги бир қатор қуңъялар таркибидаги абу (або) ўғил маъносини аңлатмайди, балки эгаллик ва формал кўрсаткичларни ифодалаб келади: Абулворис “жасорат отаси” эмас “жасоратли”, Абу Наср “ғалабакинг отаси” эмас “ғолиб”, Абулғози “уруш қаҳрамоннинг отаси” эмас “ғолиб”, Абулмуҳсин “мурувватнинг отаси” эмас “ҳимматли” маъноларини аңлатиб келади.

Абу Жаҳл Муҳаммаднинг ракиби Амр ибн Хишомнинг қуңъясидир: “Абу Жаҳл бошлиқ қурайш қофирлари Расулга қофирлик қила бошладилар”. Бу қуңъя Муҳаммад тарафдорлари томонидан қўйилган бўлиб “аҳмоқлик; бемаънилик” каби маъноларни аңлатади.

Абулаҳаб Муҳаммаднинг амакиси бўлиб исломнинг бошида унга қарши турган. Лаҳаб арабча сўз бўлиб “аланга” маъносини аңлатади. Абу – лакаб кейинчалик “ғўзал”, “ажойиб” маъноларини аңлата бошлаган.

Умуман, ўзбек антропонимларини юқоридаги тасниф асосида алоҳида илмий тадқиқи этиш, исмлар, таҳаллуслар, насаблар, қуңъялар ва лакабларнинг номинатив ва услубий хусусиятларини тадқиқ этиш ўзбек антропонимикаси олднда турган муҳим вазифадир.

TOPISHMOQLARIDA KISHI ISMLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

*J. Abdullayev,
GulDU dostenti*

Topishmoq xalqning aqliy takomilini, hozirjavobligini, kuzatuvchanligi va sezgirligini majassamlashtirgan badiiy – estetik janrlardan biri sifatida uzoq davrlardan buyon yashab, takomilashib kelmoqda. U ushbu xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodida salmoqli o'rin tutadi.

Topishmoq tilning lug'aviy rang-barangligi, grammatik ko'lamining o'ziga xosligi bilan ham ilmiy tadqiqotlar uchun muhimdir. Lekin topishmoqlar tili o'zbek filologiyasida, xususan, lingvistik yo'nalishda kam o'rganilgan. Bu borada barmoq

bilan sanarli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, xolos. Ularda ham asosan topishmoqlar sintaktik xususiyatlarining ayrim jihatlari tadqiq qilingan. Topishmoqlar tili-ning asosiy tomoni - leksik-semantik xususiyatlari deyarli tadqiq qilinmagan. Qayd etilgan holatlar bizni ushbu mavzuni o'rganishga da'vat qildi. Ikkinchidan, xalq og'zaki ijodi asarlari tilida tilimizning qadimiy tarixi va hozirgi holatini uyg'unlashtiruvchi nuqtalar, uni isbot qiluvchi lisoniy dalillar ko'p. Uchinchidan, nutqiy topqirlik, badiiy mahorat, so'zlash san'ati nuqtayi nazaridan topishmoqlar juda ibratli manbadir. To'rtinchidan, hozirgi tilda uchramaydigan bir qancha lug'aviy vositalar topishmoqlar tilida saqlanib qolgan. Beshinchidan, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan bir paytda adabiy tili demokratlashtirish muhimdir. Xalq tili boyligining tarkibiy qismi bo'lmish topishmoqlar tili bu ishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mana shu kabi lisoniy va ilmiy-nazariy omillar mavzuning dolzarbligini isbotlaydi.

Xalq topishmoqlari tilining o'ziga xos tomonlardan biri ularda kishi ismlarining qo'llanilishidir. Bu quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

1. Kishi ismlarining xalq topishmoqlari tilida bunday so'zlar uchun odatiy va asosiy ma'no - konkret shaxs tushunchasi bilan bog'liq ma'noda faollasha olmasligida. Kishi ismlari topishmoq ma'no mundarijasida konkret shaxs tushunchasi bilan bog'liq ma'noda butunlay qatnashmaydi. Chunki ular orqali konkret shaxs emas, butunlay boshqa narsalar nazarda tutiladi. Binobarin, ular shakl-gagina atqil ot -- kishi nomidir. Masalan, Yer tagida Abdurahmon ignachi (Tipratikon). Bu yerdagi kishi ismi Abdurahmon ismli qandaydir bir shaxsning emas, ignachi epizodi bilan birga tipratikonning obrazli metoforik atamasidir .

2. Aksariyat bu tipdagi so'zlar uchun deyarli xos bo'lmagan ma'no - vazifada topilishi lozim bo'lgan predmet yoki yashirin, nazarda tutilgan denotatlarning shartli metaforik o'rinbosari, topishmoq nuqtayi nazaridan berilgan, odatdagidan boshqacha, obrazli atamasi bo'lib kelganida. Bunda ikki farqli holat kuzatiladi: 1)motivlangan holat; 2)motivlanmagan holat.

Motivlangan holatda kishi ismlari yashirin denotatlarning belgi-xususiyati, xossasi (keng ma'noda)dan kelib chiqib tanlangan va qo'llangan bo'ladi. Shuning uchun ham ular metafora yoki obrazli atamasi sifatida yashirin denotatlarning ayrim tipik belgi - xususiyati xossasiga ishora qiladi. Biroq bu turdosh otlarning metafora holatidagi ishora xususiyatlaridan farq qiladi. Bunda ism uchun asos bo'lgan so'zlarning asl ma'nolari, ismning qo'yilish ma'nolari muhim ro'l o'ynaydi. Ishora ana shu ma'nolar asosida amalga oshiriladi. Masalan, a) ismga asos bo'lgan so'zlarning ma'nolari asosida yashirin denotatlaning:

-rangiga ishora qillnadi : Qorovoy akam otdan tushdi,Bolalari yugurishdi (qozon, kosa,tovoq);

-xarakterli harakat-xususiyatiga ishora qillnadi:

Ertu ketar Laylixon,

Kechda kelar Laylixon.

Turli- numan ipakdan

Yig'ib kelar Laylixon (sigir).

Laylixon sigirming yaylovlarda erkin o'tlab yurishiga ishoradir. Bu yerda "laylimoq" fe'lining lug'aviy ma'nosi inobatga olingan. **Layli** komponenti shundan dalolat beradi.

-qo'yilish ma'nolari asosida yashirin denotatning **juft qismidan iboratligiga** ishora qilinadi: Fotma – Zuhra urishadi, Merosini bo'lishadi (qaychi).

Shunisi xarakterliki, kishi ismlari tovush qiyofasi bilan ham motivlangan bo'lishi mumkin. Binobarin, ular yashirin denotatlarning tovush bilan bog'liq belgi-xususiyatlariga ishora qiladi:

-o'ziga xos tovush chiqarish xususiyatiga ishora qilinadi.

- *Zuv boradi Zulayxo,*

- *Zuv keladi Zulayxo,*

- *nurli tuman ipakdan*

- *ingmalaydi Zulayxo.*

Kishi nomiga uyqash -o'xshash tovush qiyofali nom bilan atalishiga ishora qilinadi:

Qizil yulg'unning tagida

Qizlargul opam yotibdi. (Qirg'ovul)

"Qizlargul -----qirg'ovul".

Qizlarjonning boshida qizil baxmal taqiya. (Qizg'aldoq)

"Qizlarjon -----Qizg'aldoq".

II. Motivlanmagan holatda kishi ismlari sof stilistik maqsadlar: tasvirga o'ziga xoslik, obrazlilik, ohangdorlik (qofiya, alliteratsiya, ritm baxsh etish), diqqatni asosiy mazmundan chalg'itish, chalkashtirish uchun qo'llanadi. Bunday hollarda ular semantik jihatdan yuqori darajada mavhumlashadi – "narsa" ma'nosidagi so'zga aylanadi. Elamon akamning ikki o'gli elakiyib kelayotir. To'tagan boyning to'rt o'g'li, To'balashib kelayotir. (Otning qulog'i. oyoqlar). Osmonu resmon, Mulla Abdurahmon, Beustixon (Burga).

Demak, xalq topishmoqlarida kishi ismlari shakliy tomoni, yuzaki ma'novazifasi bilangina kishi ismidir, mohiyatan esa fikrning o'ziga xos obrazli, ohangdor, ta'sirchan, shu bilan birga mavhum, yashirin fodalalanishini ta'minlovchi lingvistik vositadir.

“ХИБАТУЛ ҲАҚОЙИҚ”ДАГИ БАЪЗИ АНТРОПОНИМ ВА ТОПОНИМЛАР ҲАҚИДА

Душфулла СИНДОРОВ,

Жиззах ДПИ докторанти (PhD)

Атоқти от турлари, кишилар исми, тахаллус, лақаб, нисба, уларнинг тарқалиши, келиб чикиши, жамиятда қўлланиши, тузилиши ва ривожланиши антропонимиканинг ўрганиш объекти ҳисобланади¹. Топонимика эса жой

¹ Бегматов Ҳ. Антропонимика ўзбекского языка. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Т., 1965; Хусанов Н. XV аср Ғибек алабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри дис. –Т., 2000. 243 б.; Эназарова Т. Ўзбекистон топонимлари: дуставий асослари ва этимологик тадқиқи

номларининг пайдо бўлиши, ривожланиши, тарихий-этимологик манбалари, грамматик хусусиятларини ва тарқалиш ҳудудлари ҳамда аталиш сабабларини ўрганади¹. Шу нуқтаи назардан, айтиш мумкинки, ўз даврининг истеъдодли адиби Аҳмад Югнакийнинг ўзбек мумтоз адабиётини ноёб дурдонаси ҳисобланган “Ҳибатул ҳақойик” асарида келтирилган 12-13-асрга оид антропонимик ва топонимик маълумотлар ҳаққимиз ва унинг тили тарихини ўрганишда ўзига хос ўрин тутadi.

Ўрта Осиёда яшовчи барча туркий халқлар, жумладан, ўзбек халқи учун ҳам бирдек қимматли бўлган, 15-16-асрларгача туркий элатлар орасида кенг тарқалган дostonда **Дод Сипоҳсолорбек** антропоними қўлланилган:

Дад синахсалар бёк учун бу китаб,

Чықартым ачунда аты қалсу(в) тэб². Маълумки, шоир “Ҳибатул ҳақойик”ни 12-аср охири-13 аср бошларида ёзиб, уни ҳукмдор Амир Мухаммад Додсипоҳсолорбекка тақдим этади. Тарихнинг гувоҳлик беришича, у турк ва аҷам мамлакатларининг ҳукмдори деб улуғланган, арабларда эсга олинмаган. Бунда арабча **амир** – ҳукмдорлик даражаси; арабча **Мухаммад** – шахснинг хос исми; арабча **дод** – инсоф, адолат; форс-тожикча **сипоҳсолор** – қорахонийлар даврида “бош қўмондон, саркарда” маъносиди ишлатилган; туркий **бек** – амирнинг синоними.

Асарда **Хўжа Арноб Арслонхўжа Тархон** антропоними учрайди. Дoston сўнгида теуурий амалдорлардан 15 аср биринчи ярмида яшаган давлат арбоби, шоир, “Ҳибатул ҳақойик” асарини ўйгур ёзувида қўчиртирган Арслонхўжа Тархон томонидан 10 байтли маснавий илова қилинган. Мазкур антропонимда форс-тожикча **хўжа** – соҳиб, жаноб; муаллим, устоз, арабча **арноб** “қуён”; **туркий** арслон – шер; қучли, қудратли; мўғулча **тархон** – озол, хур; тархонлар авлодига мансуб бола. Шунингдек, айни маснавийда адибнинг исми, туғилган ери, отасининг исми хусусида қуйидагиларни ўқиймиз:

Адибның йёри аты **Йггнэк** ёрур,

Сафалык ажаб йёр көнуллёр йарур.

Атасы аты **Махмудий Йггнэкний**,

Адиб Аҳмад оғлы йок ол хич шаки.

Унда таъкидланишича, **Адиб Аҳмад Югнак** деган сўлим ва баҳаво жойда туғилган. Отасининг оти **Махмуд Югнакий** бўлган. Китоби адабдан иборат бўлиб, номи – “Ҳибатул ҳақойик”. Тарихий манбаларда, жумладан, Ибн Хавқал асарида **Югнак** Самарқанд атрофида жойлашган дейилади. Шунингдек, 12-асрда яшаган машҳур тарихчи Абулқарим ас - Самъений “Ал-Ансоб” (“Насабнома”) китобида шундай ёзди: “Бу нисба (тахаллус) “Юғанак”дан ва бу (жой) Самарқанд қишлоқларидан. Бу нисба билан Абуҳомид Аҳмад ибн Абу

¹ Ёллар. Филол. фан. д-ри. дис. –Т.: 2006.; Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2005. –240 б.

² Бу ҳақда қаринг. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2005. –240 б.; Ўлгарев Т. Ўзбекистон топонимлари, дунавий асослари ва этимологик таъқиқи ёллар. Филол. фан. д-ри. дис. –Т.: 2006.

³ Мисоллар Қўлоқбой Махмудовнинг “Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибатул ҳақойик” асари ҳақида” китобида келтирилган маънадан олинди (Тошкент: Фан, 1972).

Ахмад ал Юғнакий машхурдирлар”. Умуман олганда, кўпчилик изланишларда мазкур шаҳар Самарқанд вилояти ҳудудида эканлиги эътироф қилинади.

Ахмад Югнакий номига арабча **адиб** сўзи кўшиб айтилиши маълум сабабга эга. У ўзини шоир эмас, балки адаб илми намоянчаси деб билади. Унинг достони ҳам туркий элатларга исломий одоб қоидалари, маънавий-ахлоқий камолот сирларидан таълим беришга мўлжалланган.

Адиб ёшлигидан жуда қобилиятли ва зийрак бўлган. Кўзи ожизлиги сабабли, Қуръони каримни ёд олиб, Расулulloҳ (с.а.в.) ҳадисларини ўзлаштиришга жидду жаҳд кўрсатган. Адиб Ахмад исломий билимларни пухта эгаллаб, ўша даврнинг етук олимларидан бирига, салоҳиятли шоир ва ахлоқ муаллимига айланди. Туркий тилда битилган шеърий матн орасида қатор оятлар, 20 дан ортиқ ҳадисларнинг асл арабий матни келтирилган, улар туркийда шеър воситасида шарҳ этилган. Шу боис достонда диний атамалар билан бирга пайгамбаримиз Мухаммад алайҳиссалом арабча **Расул** (элчи), арабча **Ҳабиб** (севикли, дўст) сифатлари тилга олинади:

Билик бил усанма бил ол ҳақ **расул**,

Билик кимдә эрсә сиз арқаң дэд.

Эшит эмди қач байт **хабиб** фазлитын,

Укуш ҳуш йўғитиб сөзумни ана.

“Ҳиба тул ҳақойиқ» асарида исломда “хулафо ар-рошидин” – тўғри йўлдан борган халифалар, диний жамоада “юрёрлар» деб аталган халифалар тўғрисида ҳам маълумотлар учрайди. Жумладан, иккинчи халифа – **Умар** (барҳаёт), учинчи халифа – арабча **Усмон** (оғир, босиқ; мард, жасур), тўртинчи халифа – арабча **Али** (энг юксак, энг улуғ, юқори мартабали) антропонимлари ифодаланган, биринчи халифа саналган Абубакрнинг эса арабча **Сиддик** (ростгўй, тўғри сўзловчи) нисбаси келтирилган:

Салабат ичинде **Умар** тэк жуван,

Сахават, самакат тутар **Усмани**.

Сиддик бирдә **Фарук** гчгч **Зайн-нурин**,

Али тәртиләнч ол эриксик тоңа.

Шунингдек, қайд этилган мисралардан халифа Умарнинг арабча **Фарук** (адолатли, ҳақ билан ноҳақни ажратувчи), халифа Усмоннинг арабча **Зайн-нурин** (ғўзал хулқли) сифатлари кўлланишда бўлганлигини билиб олиш мумкин. Ахмад Югнакий “Ҳиба тул ҳақойиқ» достонида Шарқда одил подшоҳ сифатида эътироф этилган форс-тожикча **Ануширвон** номини ҳам зикр этади:

Тэтикликдә кэндү(в) айазтын озук.

Дад инсаф тутар чин **ануширвани**.

Бундан ташқари, қорахонийлар даври адабий ёдгорликлари тилига яқин турадиган асарда **Қошғар** топоними қайд этилган:

Тамамы эргр Қашғарый тил билә,

Айытмыш адыб риккати тил билә.

Өгәр биләс Қашғар тилин ар киши,

Билгр ол адибның нэким аймышы.

Маҳмуд Қошғарий томонидан “туркий ёзув” (кейинчалик уйғур ёзуви номи билан машхур бўлган) алифбо Ахмад Югнакий даврида Шарқий

Туркистон, Мавароуннахрда қўлланилар эди. Шунинг учун ҳам адиб ўз асарини Қошғар тилида, яъни қорахонийлар даврида амал қилган адабий тилда, туркий ёзувда битилганлигини таъкидлайди. Буни шоир тилидан айтилган куйидаги мисралар ҳам тасдиқлайди

Аниш уш чиқартим бу туркча китоб,
Керак қил теб эй дўст керак қил итоб.

Хуллас, антропоним ва топонимлар ўзбек тили лексикасининг таркибий қисми сифатида бошқа сўзлар сингари тил қонуниятларига бўйсунди. Улар пайдо бўлишига кўра фарқланади. Антропоним ва топонимларда миллий тилимизга доир қадимий фонетик, лексик ва морфологик унсурлар акс этади. Зеро, киши исмлари ҳамда жой номларининг юзага келишида табиий географик шароит, аҳолининг этник таркиби, кишиларнинг касби-кори, тарихий шахслар ва воқеалар асосий манбалар ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Махмудов Қ. Аҳмад Юғнакийнинг “Ҳибатул-ҳақойиқ” асари ҳақида: кириш, фонетика, морфология, матн, транскрипция, шарҳ, луғат. –Т: Фан, 1972.
2. Бегмагов Э. Ўзбек исмлари. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

“ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИКАСИ”НИ ЎРГАНИШ ТАРИХИДАН

Л. ДЕҲҚОНОВА,

Гулистон ДУ ўқитувчиси

Ўзбек антропонимикасининг ўрганилиш тарихи анча қадимги даврларга бориб тақалади. Бунда тарихий тараққиётни эътироф қилган ҳолда қадимги туркий, туркий ва ўзбек антропонимларидаги фарқли хусусиятларни эътиборга олинган ҳолда эътироф этиш керак. Чунки ҳар бир даврга хос киши исм-шарифи, тахаллуси, нисбаси, лақаблари бўлган. Антропонимлар *Махмуд Қошғарий* томонидан XI асрда “*Девону лугатит турк*” асарида амалий жиҳатдан ўрганила бошланган бўлса¹, *Алишер Навоий* ўз асарларида киши исмларининг ўзига хос жиҳатларига эътиборни тортиб, талқинга торланган. Масалан, “*Фарҳод ва Ширин*» достонига *Фарҳод* исмининг хусусиятларини “ғазал мулкнинг султони» бўлган шоир бу тарзда таърифлайди:

“Шедлиги ичига сиймаган подшоҳ фарзандига яхши бир исм қўймоқчи бўлди. Чақалоқнинг юзида “фарри шохий”, яъни шохлик нури порлаб турарди. Бу нур сояси остида эса химмат, иқбол ҳамда давлат ўрин олган эди. Шох “фар” сўзига химмат, иқбол ва давлат сўзларининг бош ҳарфларини қўшган эди, фарҳод исми ҳосил бўлди.”²

XX асрнинг 60-йилларидан бошлаб Э.Бегмаговнинг киши исмларининг илмий таҳлил қилишга бағишланган тадқиқотлари билан илмий-назарий ва амалий йўналишлардаги тадқиқотларни бошлаб худди шу йўналишдаги

¹ Махмуд Қошғарий. Девону лугатит турк. 1-т. –Т: Фан, 1960. 306-б.; II т. –Т: Фан, 1967. 428-б.; III том. –Т: Фан, 1963. 464-б. Ридеке дугат. –Т: Фан, 1967. 544-б.

² Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин (Достоннинг ихтам назрий баёни). –Т: Yangi asr avlodi, 2009. 6-бет.

тадқиқотларга раҳбар бўлиб, мазкур соҳадаги ишларни кучайтирган. Н.Нафасов, Н.Охунов, З.Дўсимов, С.Қораев, С.Найимов сингари бошқа олимлар ҳам бу соҳада илмий тадқиқот ишларини олиб боришган.

Одатда, “Ўзбек антропонимикаси”нинг тарихий босқичлари¹ деб қуйидагиларни кўрсатиб ўтиш мумкин:

1) ислом дини шаклланингача бўлган даврда қўлланилган энг қадимий туркий антропонимлар – улар Урхун-Енесей ёлгорликларида ва қисман УШ-Х асрларга оид тарихий ҳамда бадийий ёзма манбаларда учрайди;

2) XI-XIV асрлардаги туркий антропонимлар – диний, тарихий ва қисман бадийий ёзма манбаларда қўлланилган;

3) XV-XVII асрлардаги ўзбекча антропонимлар – диний, тарихий ва бадийий ёзма манбаларда учрайди;

4) XVIII-XX асрлардаги ўзбекча антропонимлар – илмий, диний, тарихий ҳамда бадийий ёзма манбаларда ишлатилган;

5) XX-XXI асрлардаги ўзбекча антропонимлар – илмий, тарихий, диний, телерадио ва бадийий ёзма манбаларда, шунингдек, кундалик матбуот саҳифаларида учрайди.

Ўзбек антропонимларининг таркиби, статистикаси ҳамда таркибий, маъновий ўзгаришларидаги ўзига хосликларини эътиборга олган ҳолда қуйидагича гуруҳларга бўлиш мумкин: а) X асргача бўлган даврдаги энг қадимий туркий эркакларнинг исми, шарифи, лақаблари; б) X асргача бўлган вақтдаги энг қадимий туркий аёллар исм, шарифлари; в) XX асргача бўлган вақт мобайнида туркий ва ўзбек эркаклари исм, шарифи (фамилияси), лақаблари; г) XX асргача бўлган вақт ичида туркий ва ўзбек хотин-қизларининг исми, шариф(фамилия)лари; д) XXI аср бошларидаги ўзбек эркаклари исм, шариф(фамилияси), лақаблари; е) XXI аср бошларидаги ўзбек хотин-қизларининг исми, шариф(фамилия)лари.

Исмлар қўлланиши, фонетик ўзгаришларга учрашига қуйидаги гуруҳларга бўлиб таснифланди: а) энг кам қўлланадиган исмлар; б) кам қўлланадиган исмлар; в) ўртача даражада қўлланадиган исмлар; г) кўп қўлланадиган исмлар; д) энг кўп қўлланадиган исмлар; е) турли фонетик ўзгаришларга учраган исмлар; ё) фонетик ўзгаришларга учрамаган исмлар.

Халқимиз исмлари низоҳатда ранг-баранг бўлиб, сермаъно ҳамда тарихий ҳамдир. Одамлар исм танлашда таниш-билишларининг, қариндошларининг исмлари ичидан ёқтирганларининг номларини фарзанларига исм сифатида танлаб, қўйишади. Баъзан маъносини тушунмай ҳам исмларни танлашади. Ота-боболаримиз чақалокка исм беришдан олдин унинг бирор белги, хусусиятига, белги билан туғилган ҳолатига, туғилган кунига, туғилган фаслига наслигача суриштиришади. Кейинги пайтларда тақвдий исмлар қўйиш анъанаси кучайди. Бундай ҳолларга эътибор бериб, ватандошларимизга болалари учун ўринли исмлар танлашларига қўмаклашиш лозим бўлади.

Эркаклар ва аёлларга алоҳида фарқланадиган исмларни бериб, шу исмлар билан аташ одати халқимизда, хусусан, туркий халқларда қадим-қадимдан

¹ Бу тарихий босқичларнинг ҳар бири алоҳида тадқиқот ишлари ва маъму бўла олади.

мавжуд. Ушбу ишда улар гуруҳларга бўлиб кўрсатилди. Юқорида айтиб ўтилган “Ўзбек антропонимикаси» нинг тарихий боскичлари ва ўзбек антропонимларининг таркиби, статистик тузилиши ҳамда ўзгаришлардаги ўзига хосликларини эътиборга олган ҳолда гуруҳларга бўлиниши назарий жиҳатдан амалга оширилган. Ўзбекларнинг исм, фамилияларини йиғиш, жамлаш ҳам амалий аҳамиятга эга бўлгани каби назарий аҳамиятга эга.

ИСМ, ФАМИЛИЯ, ЛАҚАБ, ТАХАЛЛУС ТЎҒРИСИДА

О. МУРОДҚУЛОВ, У. ЭҒАМОВ,
Ўқитувчи ДУ ўқитувчилари

Исмларнинг келиб чиқиши, тарихий этимологияси, диний маънолари жуда кизик ва ибратли. Исмда халкнинг рухияти, урф-одатлари, миллий хусусиятлари ҳамда маънавий олами акс этади. Ўзни англаш ўз исмининг маъносини билишдан бошланади. Ҳа, ҳар бир исмда ўзгача маъно ва мазмун бор, у(лар)ни англашда эса халкнинг рухияти, урф-одатлари, миллий хусусиятлари ҳамда маънавий оламини билиш лозим бўлади.

Бахтиёр Карим: “Аждодларимиз отанинг бурчи деганда уч шартни келтиришган. Болага яхши исм қўйиш, унинг кўлини ҳалоллаш, уйлантириш.

Исмлар – бутун тарихни акс эттиради. Исмлар – халкнинг урф-одатлари, дунёқарашини ўзида мужассамлаштирган. Исмлар – миллат тарихи. Исмларда ҳар кимнинг насл-насаби кўринади. Ота-боболари қайси донрадан экани, қайси табақага мансублиги исмлар рўйхатида жонланади. Исмлар – халкнинг бу кунги ҳаёти. Юртимизда жойлар номи ва одамлар исми – юртимиз, халкимизга муносиб, гўзал бўлиши керак”, – дея бу соҳага тегишли хис-туйғуларини ҳам баён этган¹.

Антропонимлар бу – киши номлари, яъни уларнинг исми, фамилияси, отасининг исми, тахаллуси, нисбаси кабилар ҳисобланади. Киши исми, фамилияси, тахаллуси кабилар кенг миқёсда, жаҳон тилшунослиги даражасида анча вақтдан буён ўрганилаётгани каби ўзбек тилшунослигида ҳам тадқиқот объектлари сифатида XX асрнинг 60-йилларидан бошлаб то бугунги кунгача илмий ва амалий жиҳатлардан тадқиқ этилмоқда.

“*Фамилия*” сўзи латинчада, яъни қадимги римликлар тилида “*оила*” маъносини англатади. Дастлаб фамилиялар, яъни авлодлар номи бўлмаган. Чунки қадимда одамлар кичик-кичик тўда, овул бўлиб яшаган. Бир хил исмлар бўлса, уларнинг исмининг ёнига лақаб қўйиб чакиришган. Одамларнинг узоқ-узоқларга сафар қилиши кийинлаша боргани учун фақат исм ёки лақабга эга бўлиш кифоя қилмасди. Натижада, фамилия пайдо бўлган. Дастлаб фамилиялар фақат бой кишиларда бўлган. Қадимда арабларда фамилия шахснинг юқори табақага мансублигини, задагонлигини билдирувчи, оддий, меҳнаткаш халқ вакилларидан юқори турганлигини кўрсатувчи белги сифатида қўлланилган².

¹ Бахтиёр Карим. Исм-шарифиниз. – Шарк тоҳути. 2004 йил. Учинчи ва тўртинчи фасллар. 3-4-бетлар.

² Фамилия ва қай пай то бўлган? // Даракчи. Танганинг янги томони. 22.07.2010. 43-бет.

Лақаб (а) 1. Бирор хусусиятига кўра, кишига ҳазил қилиб ёки масхаралаб бериладиган қўшимча ном. Унга *“Митти” лақабини қайси ҳазилдон қўйган бўлсаям жониб қўйибди*. (Х.Назир. Сўнмас чакмоқлар). Бирор мақсад, зарурият билан ўзгартириб олинган бошқа ном. *Мен амир одамлари қўлидан қочиб, тигирма беи ишдан бери ўз жойини ўзгартириб “хатирчилик” лақаби билан юрмоқда эдим, шунинг учун сенлар мени ўлган деб ўйлагансизлар*. (Айний. Қўллар)

2. Эск. айн. тахаллус – *Мухаммад Аминхўжани энди халқ Муқимий деб таниш бошлади. Сени ҳам халққа бир лақаб билан таништиришини истаيمان! Сенинг лақабинг Мавлозий бўлсин! – деди устоз*. С. Абдулла. Мавлоно Муқимий.

3. Эск. айн. фамилия¹.

Лақаблар киши исми билан бирга қўлланади. Уларнинг пайдо бўлиши ва яшовчи лисоний муҳит халқ сўзлашув тили, шева ва лаҳжакараридир.

Лақаблар юзасидан Т. Айдаров, М. С. Андреев, Н. В. Андреева, Г. А. Архипов, А. Балов, А. Шустиков, И. З. Гаджиев, Т. Жонузов, А. Пашаев сингари бир қанча олимлар илмий ишлар олиб боришган. Мавлуда Рашидованинг *“Ўзбек тилидаги лақабларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари”* номли иш бор². Унда мингдан ортиқ лақаблар ҳақида фикр юритилган. *қалла, қозоқ, тоғжик, урис, этакдўз, отарчи, чўлоқ, пучуқ, пакаш, сариқ, қора ишлонир, чакқон, вангир, вайсақи, илқим, варақи, танги, чалқаш, алқаш, уриниқоқ, жарчи, этакчи, кароқчи, куруқ, тирноқ, заргар, аравақаш, тўртқўз, билжи-билжи, чатоқ-чатоқ, шақ-шақ, эзма-чўрук, шайтон, гилий, ўқилон, сувилон, битқўз, кўзойнақ, ходоаютган, ола-қарға, қалтақесак, ичиқора, шумқамтир, кўккўз, хумкаси, учбўрчак, кавуидўз, дўқондор, беғам, бетайин, бебахт, сулурги, чалқаш-алқаш, илқилиш, танчик, қизик, чийилдоқ, новча, дурдоқ, маймоқ, бўқоқ, чўлтоқ, билазон, бўзгар, бўтунбой, фирибгар, синчи, ямоқчи, қайиқчи, бедачи, қўнмачи, найчи, тақачи, жомли, томли, ақли, шоиқалоқ, нонбой, қўрболои, қашқир, аравачи, халвачи, Карим хўжа, Карим домла, Карим қассоб, Карим мажнун, Абдулла араб, Қамил раис, Олим тепакал, Турди вос-вос, Жўра кофир, Қўлмат қори* ва бошқалар. Лақаблар ҳам ўзбек тили луғавий бойлигининг таркибий қисми.

Тахаллус (а). Ёзувчи, рассом ёки артистлар традицияга кўра ўзига ўзи қўйиб олган бошқа ном. *Мен – Юсуфийман, тахаллусим Ўткир*. (Ш. Рашидов. Бўрондан кучли). *Мухаммад Раҳим, табиатдан музика ва адабиётга ҳаваскор бўлиб, Феруз тахаллусида шёърлар ёзган*. Ж. Шарипов. Хоразм³.

Т. Қораев ва Р. Вохидовларнинг *“Адабий тахаллуслар ҳақида”* номли асарида 85га тахаллуснинг маънолари изоҳланган бўлиб, унда қуйидагилар ҳам баён этилган: *“Тахаллус” арабча сўз бўлиб, у икки маънода – халос бўлиш, қутулиш ва ўз номидан бошқа бир номни қабул қилиш маъноларида талқин этилади. Уларни ёзувчи, шоир, рассом, артист, олим, журналист ва давлат*

¹ ЎТДИМ. -М., Рус тили. 1981. 1-том. 429-бет.

² Рашидова Ш. Ўзбек тилидаги лақабларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. -Т.: Iqtisod-Moliya. 2008. 72 бет.

³ ЎТДИМ. -М., Рус тили. 1981. 2-том. 134-бет.

хамда жамоат арбоблари иккинчи ном ёки фамилия сифатида қабул қилишди. Адабиётда "тахаллус" термини билан параллел равишда "лакаб" сўзи ҳам ишлатилади. Айрим ўрин(манба)ларда бу икки сўз тенг маънода қўлланилади. Аслида "лакаб" термини "тахаллус"дан фарк қилади. "Лакаб" инсоннинг турли-туман белгиси, хусусиятларига қараб қўйилади. Шунга қўра "лакаб"лар кишиларнинг қайси уруғ ёки қабилага мансублигини, улардаги жисмоний камчиликларни, қайси уруғ, қабилага, ижтимоий гуруҳга мансублигини, улардаги жисмоний камчиликларни, характер, феъл-атвор, гапириш услуби, кийинишдаги бирор камчилиги ёки ўзгачаликни, касбини, миллатини, шу кишлоқда биринчи қилган ишини, қаердан келганлигини ва кишилардаги шу қаби яқини ҳамда ёмон хислатларни, белги-хусусиятларни кўрсатади¹. В.Г.Дмитриевнинг "Ўз исмини яширганлар" номли монографияси бу жиҳатдан эътиборга лойиқ². Шу билан бирга кишиларни лакаб билан чақириш ёмон одатлиги илмий манбаларда баён этилган³.

ИСМЛАР ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНУВЧИ ТАГМАЪНОЛАР

О.МУРОДҚУЛОВ, А.БОЛИБЕКОВ,

Гулистон ДУ ўқитувчилари

Кишиларга қўйилган исмлар ҳам тилимиз бойлигининг таркибий қисми ҳисобланади. Ўзбек тили турли тарихий даврларда юзага келган хилма-хил исмларга жуда бой бўлиб, бу номлар ўзбек халқининг узок маданӣй ва маънавий қадриятининг ажойиб дурдоналаридан биридир. Чунки бу номларда халқимиз босиб ўтган зиддиятли тарихий йўл, кенг омманинг турли-туман орзу-умидлари, армонлари, фалсафий, диний маънавий-ахлоқий, тарбиявий-эстетик қарашлари, қадимий ўтмишидан гувоҳлик берувчи эътиқодлари, ўзига ҳос расм-русумлари, инсонларга бўлган ҳурмат-эҳтиромни, фарзандига қаратилган меҳр-муҳаббати ўз ифодасини топган.¹ Шунинг учун исмларда тарих яширинган десак хато бўлмайди.

Тилшуносликда исмларни ўрганувчи соҳа ономастика деб номланади. Ономастика ҳозирги кунда ўзининг ривожланиш босқичига кўтарилмоқда ва дунё тилшуносларини турли қирраларига жалб қилмоқда. Шунинг учун ономастика билан боғлиқ бўлган турли ҳодисалар талқин этилмоқда. Лекин ономастика билан тағбилим – тағмаъно боғлиқлиги ҳамда айримлиги, хусусан, ўзбек тилшунослигида ҳали ўрганилмаган соҳалардан биридир.

В.К.Кёке тағмаънони "инсон – олам" умумий қурилма (модель) орқали изохлаб, бундай умумий системада тилнинг фалсафий, руҳий, ижтимоий томонлари бирлашишини айтди[2]. Худди шу умумий системада ономастика ва тағмаъно бирлашади. Унда исмларнинг ишора маънолари бирлаштирувчи

¹ Коряев Т., Вохидов Р. Адабий таҳаллуслар ҳақида. Т. Ўқитувчи, 1978. 5-бет.

² Карани: Коряев Т., Вохидов Р. Адабий таҳаллуслар ҳақида. Т. Ўқитувчи, 1978. 4-бет.

³ Раҳим Зиёвуддин. Исм қўйиш одоблари. Т. Тошкент ислоҳ университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2009. 43-48-бетлар.

Реферативный сборник. Проблемы теории текста. Москва, 1973 год, с. 105

восита бўлади. Лекин ҳар қандай исм ҳам тағмаъно ифодалайвермайди. Тағмаъно ифодаловчи исмлар халқнинг турли урф-одатлари, ижтимоий келиб чиқиши билан боғлиқ бўлади ва матн ичида қўшимча маънога ишора қилади. Яъни “Коса тағида ним коса”ни ифодалаб, ўзи иштирок этган гапларнинг мазмуний тузилишини мураккаблаштиради. Гап яширинган фикрга ишора этади. Шунинг учун бундай исмлар иштирок этган гапларнинг мантикий тузилишида икки ҳукм мавжуд бўлади.

Ўзбекларда Тўхтасин, Турғунбой, Эргашхон, Бўрихон, Машрабхон, Тўхтаҳон, Тўхтаҳон, Тўхташбой, Суннатилла, Сония, Тождидин, Тождимирза, Тождиниса, Тождихон, Одина, Одинахон, Одилжон, Ойдин, Ойтожи, Холдор, Холдорхон, Холбиби, Холисхон, Холбек, Холмирза каби исмлар борки, улар халқимизнинг турли урф-одатларини, эътиқодларини, расм-русумларини ифодалайди. Шунинг учун улар иштирок этган гапларда турлича тағмаънолар англашилади. Масалан: Тўхтасин, Турғунбой, Турсунбой, Турғуной, Турсуной каби исмлар фарзандлари нобуд бўлаверган оилаларда қўйилади. Шу исм иштирок этган гапдан оиланинг юрак олдириб қўйган фожеаси ҳам акс этади. Турғуной сабаб унинг бошқа фарзандлари ҳам чекилмай қатта бўлди, ганида Турғунойдан аввалги фарзандлари турмаган эканлиги англашилади.

Бўрибой, Бўрихон исмлари тиш билан туғилган чакалоқларга қўйилади. Бу исмлар иштирок этган гапларда ҳам халқимиз урф-одатларига ишора мавжуд бўлади.

Машрабжон ва Машрабхон исмлари она қорнида йиғлаган фарзандларга қўйилади. Аслида чакалоқлар она қорнида йиғламайди. Оналарнинг ҳомиладорлик вақтида йиғлаганга ўхшаб туйилади. Шунинг учун бундай исмлар остида ҳам ишоравий маъно мавжуд.

Сония исми арабча бўлиб, “иккинчи” тартиб сонини билдиради. Шунинг учун оилада иккинчи кизга қўйилади. Тождидин, Тождихон исмлари баданида қизил доғлари бор чакалоқларга қўйилади. Баъзан бу доғлар бола вояга етган сари йўқолиб кетиши ҳам мумкин. Лекин бу ном қизил доғ билан туғилганини билдириб туради. Холдор, Холисхон, Холбуви, Холбек каби исмлар эса баданида хол билан туғилган болаларга қўйилади. Кейинги даврларда “Қатта хол” – “менг” билан туғилган чакалоқларга қўйиш расм бўлмай қолди. Одина, Ойдин, Одилжон исмлари жума куни туғилган фарзандларга қўйилади. Қўриниб турибдики, ўзбек исмларида халқимизнинг турли урф-одатлари, расм-русумлари, ижтимоий хусусияти акс этади. Шунинг учун бу исмлар иштирок этган гапларда юқоридагича урф-одатларга ижтимоий хусусиятларга ишора маънолар яширин тарзда англашилиб туради. Бу эса исмларнинг тағмаънолари ҳисобланади. Тағмаъноларни англаш учун халқимизнинг турлича ижтимоий, диний, рухий хусусиятларини, урф-одатларини тушуниш, билиш керак. Ана шундагина биз исмларга яширинган халқимиз тарихини англаб етамиз.

Ҳар қандай исм остида, у қайси тилда қўйилган бўлса, ўша тилда сўзлашувчиларнинг ўзига хос хусусиятлари акс этади. Бундан ташқари шу ном матн ичида ўзи яққа ҳолда бир қанча синтактик бутунлиқлар ифодалайдиган мазмунни англатади ёки бутун мазмунини белгилаши ҳам мумкин. Шунинг

учун шоир ва ёзувчиларимиз асарлари қаҳрамонларига қўйилган исмларни ўта зукколик билан танлашади.

Айниқса, исм қўйиш борасида А.Қаххор ўзига хос усулга эга бўлган сўз санъаткори ҳисобланади. Унинг танлаган исмлари шу исм остидаги қаҳрамонларнинг бутун асар бошидан охиригача бўлган хатти-ҳаракатларини, хусусиятини белгилайди. Масалан: “Ўғри” ҳикоясининг бош қаҳрамонига Қобил бобо исмини танлайди. Шу исм бу қаҳрамоннинг барча хусусиятини акс эттиради. Асарнинг мазмуни ҳам шу исм маъносига йўғрилгандай кўринади. Ёки унинг яна бир қаҳрамони Асрор бобо исми билан юритилади. Асар мазмуни ҳам шу исмга мос тарзда, шу исмни шарҳлаш учун хизмат қилган десак муболаға бўлмайди. Бу исмларни “гапирувчи исмлар” деса ҳам бўлади. Чунки асар қаҳрамонининг хусусиятини, ҳулқини, хатти-ҳаракатларини яширин тарзда исм англатиб туради. Шунинг учун қаҳрамонларга исм танлашда ҳам шу исмнинг маъносига, ишора хусусиятига эътибор берилш ниятда зарурдир.

Акс ҳолда, асар мазмуни билан қаҳрамон исми ўртасида номутаносиблик вужудга келади. Бу эса асарнинг муваффақиятли чиқишига тўсқинлик қилади.

Исмлар нуткий жараёнда муайян нуткий шароит учунгина ахборот воситаси бўлиши мумкин. Ахборот воситаси бўлиши учун сўзловчи ва тингловчи ўртасида шартномавий муносабат мавжуд бўлиши зарур. Агар шартномавий муносабат мавжуд бўлмаса, исмнинг ахборот бериш қўламини тораёди. Масалан: Аҳмад келди. Бу гапдаги “Аҳмад” исми сўзловчи ва тингловчига таниш бўлсагина ахборот беради. Таниш бўлмаса, Аҳмад исми одам келганлиги тушунилади ҳолос. Шунинг учун муайян нуткий шароитда бу исм тағмаёно ифодаланиш учун сўзловчи ва тингловчига таниш бўлиши, каерга кетганлиги, қачон келиши маълум бўлиши мумкин. Баъзи исмлар муайян нуткий шароитда салбий маъно англатиб, башка нуткий шароитда ижобий маъно ифодаланиш ҳам мумкин. Бундай ҳолат исм эгасининг ахлоқи, хусусиятига боғлиқ тарзда юзага чиқади. Шунинг учун маълум кишлоқ ва маҳаллаларда ижобий маъно билдиради. Бундай исмлар шу жиҳати билан матн ичида турлича тағмаёнолар англатиб келади. Матн ичида шундай исмлар борки, улар лақаб деб юритилиб, баъзан киши номларига қўшиб айтилади. Уларга кассоб, ошпаз, муаллим, қўшиқчи, хофиз, тракторчи, пичокчи қабиладарни киритиш мумкин. Бу лақаблар касбига, ахлоқига, хусусиятига кўра қўйилади. Матнда лақаб эгаларини касбининг, юриш-туришининг, хатти-ҳаракатининг ифодалаб, турлича тағмаёноларга ишора қилади.

Муайян нуткий шароитда кишилар ўз исми билан эмас, қариндошлик исми билан аталади. Бунда ҳам сўзловчи ва тингловчи ўртасида шартномавий муносабат бўлсагина тушунарли бўлади. Бундай муносабат мавжуд бўлмаса, ахборот қўламини тораёди. Ёки қўшимча шарҳлар зарурати юзага келади.

Баъзи ҳолларда мутлақо қариндошлиги бўлмаган кишилар учун ҳам ота, она, опа, ака, ука, тоға, почча атамалари ишлатилади. Бу ҳурмат юзасидан, ёши улуглиги нуқтаи назаридан қўлланилади. Бундай ҳолатларда ҳам хилма-хил тағмаёнолар юзага келади. Бунинг учун муайян нуткий шароит ва ўзаро шартномавий муносабатлар мажмуаси бўлиши зарурдир. Чунки тилдаги

исмлар, оливошлар, ёрдамчи сўзлар, муайян нуткий шароитда маъно англатади. Уларнинг маънолари “Коса тагида ним коса” тарзида юзага чиқади. Шунинг учун таъмаъно билан ономастика ўзаро алоқадорликда таҳлил этилишни талаб қилади. Айниқса, топонимлар (жой номлари), гидронимлар (сув хавзалари номлари)нинг ўзига хос қирралари юқоридагича алоқадорликда очилади.

ФОЛЬКЛОРЛЫҚ ШЫҒАРМАЛАРДА ПАРСЫША АДАМ АТЛАРЫНЫҢ ҚОЛЛАНЫЛЫҒЫ

Замира ДАНИЯРОВА,

*ӨзР Илимлер Академиясы Қарақалпақстан бөлими Қарақалпақ
гуманитар илимлер илим изертлеу институтының докторанты*

Қарақалпақ халық аўызеки дәретпелери тили халқымыздын даналығын, оның тарийхый раўажланғыў дәўирлерин өзінде сәўлелендириўши бийбаха мийрас есапланады. Бизге белгили карақалпақ фольклорының лексикалық курамында араб тил катламлары менен парсы тилинин сөзлери де көплек ушырасады. Парсы тилинин түркий тиллерине хәм түркий тилинин бир шақабы болған карақалпақ тилине тәсири туўралы көплеген тияли илимпазлар өзлериниң бахалы пикирлерин билдирген [Баскаков Н, 1962:37].

Ҳақыйкатында да парсы тилинин катламлары әййемги дәўирлерден басланып, түркий хәм иран кәўимлеринин өз ара тығыз байланысы нәтийжесинде хәм араблар менен парсылардын Орта Азия, Қазақстан аймақларында үстемлик етип илим хәм мәдениятин, динин кең көлемде енгизиўине байланыслы түркий тиллес халықлардын айырым орынларында согди тилинде де, түркий тилинде де сөйлесетуғынлығын айтқан еди. [Бердимуратов Е, 1968: 163-167]. Бул жағдай парсы тиллеринен гейпара түркий тиллер менен менен бер катарда карақалпақ тилинде хәм фольклорында айырам сөзлер менен терминлердин хәм адам атларының келип кириўине тәсирин тийгизген [Сайымбетов О, 2000:54].

Атап айтқанда, парсы тилиндеги -жан, -дос, -дана, -пир, -зада, -таза, -дурыс, -гүл, -пахта х.т.б. сөзлер карақалпақша адам атларын жасаўда антропокомпонентлик хызметте келип парсыша сөзлер менен бирге адам атларын жасайды. Мысалы:

Жандос -

Жаскеленнин жаксы көрген,

Бир ғана досты бар еди,

Атын оның Жандос дер еди [Жаскелен, 44-том, 220-бет]

Перижан-

Диларам, Перижан, шүл екки дилбар,

Шамлыбелге алып қалты бир сүнне

[Бәзирген, 34-т, 227-б]

Бул мысалда келтирилген Диларам, Перижан атлары мәнисинен белгили болып турғанындай сүйкимли қызықтыратуғын деген мағаналарды билдиреди.

Улжан-

Гүлбазар қызымның сиңлиси Улжан,
Бұларды жақсы дейіп айтпайды бир жан
[Бекимбет бақсының баязы. 65-т, 439-б].

Құрбангүл-

Өтеш Құрбангүлге деді: апай сен,
Саған айтар мәсләхәтим қабыл ал
[Өтеш батыр. 62-т, 340-б]

Адам атларын жасауда қолданылуы өзгешеліктеріне қарай парсыша атлар жоқарыда көрсетілген компонентсіз тиккелей түбір түрінде қолланылатуын топарлар да ұшырасады.

Парсыша атлардың бұл топарындағы адам атлары тийкарынан, әйемги түркий хәм Иран қауымлери арасындағы мәдени байланыстар арқалы, екіншиден, тәжик тилинен, өзбек, түркмен тиле арқалы өзлескен хәм мәниси көпшиликке түсиниксиз адам атлары киреди.

Фархад-

-Бурыннан Алпамыс пенен Каракөз үәделес екен ғой, бирин-бири таба алмай жүр екен ғой. Ләйли-Мәжнүн киби сырласып, Фархад киби жыласып, буындай бир-бирине кеули апқан ашықты мен бул жәхәнде көрмедим [Алпамыс, 3-т, 369-б].

Бул мысалдағы Фархад аты жеңімпаз деген мәниси билдиреди.

Зийұар-

Әне, патша он мың түйеге ғәллени, Құршид, Зийұар, Хәмрени жолға салмақшы болды. Хәмре менен тууысқан қарындасы Гүлжәмиyllа Хәмирге тарыққанда керек болар деп, атасының ғәзийнесинен урлап, еки ғәұхары шамшырақ берди [Хұрлиха-Хәмре, 55-т, 398-б].

Бундағы Зийұар аты нағыс, безеу деген мәниси аңлатады. Бул ат қарақалпақ тилинин сөзлик қурамында жоқ парсы тилинен алынған бирак соған карамастан, қарақалпақ тилинде хәм фольклорлық шығармалардың тилинде өнимли қолланылып келмекте.

Бул изертлеулердин илимий жуўмақлары қарақалпақ антропонимиясы системасының, соның ишинде қарақалпақ тили лексикалық фондының раўажланыуы хәм байыу нызамлықларын ашыуға мүмкиншилик береди. Сондай-ак жумыстың илимий анализлери, теориялық жуўмақлары қарақалпақ ономастикасы, қарақалпақ тили лексикологиясы хәм семасеологиясының адам атларына байланыслы базыбир шешилмеген мәселелерди анықлауға, бул мәседедеги кемшиликлерди болдырмауға аядағы ўақытта адам атларынын баска түрлерин де изертлеуге жол ашып береди.

Пайдаланылған әдебиятлар

1. Баскаков Н. Состав лексики каракалпакского языка и структура слов. - В кн: Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков IV. Лексика. -Москва. 1962.
2. Бердимуратов Е. Хәзирги заман қарақалпақ лексикологиясы. -Нөкис, 1968.-Б. 163-167.
3. Гафуров А. Имя и история. -Москва: Наука. 1987

ЎЗБЕК ТИЛИДА ИДЕОНИМ ВА ДИГНИТОНИМЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТАРКИБИ

Махсуда ХУСАНОВА,

ТМИ Молия журнали мухаррири

Ҳар қандай халқ ўтмишида муайян тарихий қимматга эга бўлган бадий, илмий, санъат асарлари яратилади, ҳужжатлар қабул қилинади. Бу баъзи яққа олинган нодир қуроллар, асбоб-ускуналар учун ҳам тегишлидир. Келтирилган нарсалар, воқеа-ҳодисалар, асарларга махсус номлар берилади. Мана шу номлар ономастикада *идеонимлар* деб юритилади. "Идеоним (юн. *idea* – ғоя – оюма – атоқли от) – тарихий асарлар, ҳужжатлар атоқли оти"⁴⁶. Демак, идеоним инсоннинг аклий, ғоявий ва бадий фаолияти махсули бўлган нарсалар бир донасининг атоқли отидир.

Идеонимларга кирувчи атоқли от турлари қуйидагилар:
Ктематионим асар номларини атоқли отини ўргатадиган бўлим саналади.

1) наشريёт атоқли оти: "Ўзбекистон", "Ғофур Ғулом", "Янги авлод", "Наврўз", "Шарқ", "Чашма прини", "Иқтисод-Молия", "Ўқитувчи" наشريётлари. Бу атоқли отларни бирикувида икки компаниялар мавжуд:

2) мусика санъати асарлари номи: а) қўллар номи: "Муножом", "Ушшоқ", реквием (М.Бурхонов), "Қаҳрамонлик" симфонияси (М.Тожиёв) ва б.; "Талқин", "Хоразм таронаси", "Насри ораз", "Дугоҳ Хусайний", "Беёкча", "Фигон", "Чой моми", "Тўлқинчи, Қорадарё".

3) газета ва журналларнинг атоқли оти: "Халқ сўзи", "Ўзбекистон овози", "Маърифат", "Шарқ зисси", "Даракчи", "Сугдиёна", "Ишонч", "Тошкент окшоми", "Хукук"(газеталар) "Саодат", "Хукук ва бурч", "Молия", "Иқтисодиёт ва таълим", "Ўзбек тили ва адабиёт" (журналлар).

Номишуносликда кишиларни рағбатлантириш учун халқ томонидан берилган ва давлат томонидан махсус таъсис этилган унвон, орден ва медалларнинг умумий номи дигнидонимлар дейилади. Улар тўғрисида ном(название) термини билан умумий изох берилган ишлар бор¹. Н.В. Подолскаянинг "Словар русской ономастической терминологии" номли ономастик терминларнинг лугатида бу тушунчага (унвон, фахрли ном ва унвон) қисқа таъриф берилган².

Маъзур термин ва тушунча ХХИ асрнинг бошларидан тадиқотчилар томонидан жиддий ўрганила бошланган. Масалан, дигнидонимлар (давлат ва халқаро ташкилотлар томонидан таъсис қилинган унвон (фахрий, диний ва илмий унвон), орден ва медаллар номи) Авлакулов Яшнаербек

¹ Супранская А. В., Сталтманс В. Д., Подольская Н. В., Султанов А. Х. Теория и методика ономастических исследований. М.: Наука, 1986. 16-, 21-, 40-, 48-, 66-, 211-, 217-, 232-, 233-, 237-бетлар.

² Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1978. 56-, 115-б.

Ибрагимовичнинг “Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи” номли илмий тадқиқотида баён этилган¹.

Айни вақтда ҳам кишиларни қилган ишларини маънавий ва рухий жиҳатлардан рағбатлантириш учун таъсис этилган унвон (фахрий, диний ва илмий унвон), орден, медал ва мукофотларнинг номларини, яъни дигнитопонимларни ўрганиш зарурияти сезилмоқда². Улар бугунги кундан туриб, ўтмишнинг танланган, сараланган воқеа-ҳодисаларини унвон, орден, медал ва мукофотларнинг номлари)лар мисоли билан таништиради. Халқ тарихида муаян тарихий қимматга эга бўлган унвон (фахрий, диний ва илмий унвон), орден, медал ва мукофотларнинг номлари)лар таъсис этилган ва улар маълум даврда фаол қўлланган. Унвон (фахрий, диний ва илмий унвон), орден, медал ва мукофотларнинг номларига нарсалар, воқеа-ҳодисаларнинг мазмунидан келиб чиқиб, махсус номлар берилган.

Қадимдан то бугунги кунгача қабилаларда, давлат(лар)да ҳамда жамиятда меҳнат қилган фидойиларга, ўз соҳасининг усталарига унвон, орден ва медаллар берилган. Уларнинг сўзлардан ташкил топиши, сўзларнинг эса ҳам синхрон, ҳам диахрон жиҳатлардан ўрганилганлиги тилимиз бойлиги катталигини асослайди. Шу билан бирга дигнитопоним шаклидаги номларнинг шаклланиши ва маъноларининг талқини ҳамда таҳлилига эътибор қаратиш лозим.

Унвон, ном ва унвон сўзларининг маъноларига тўхталмоқчимиз. “Унвон” (*арабча.* — адрес; сарлавҳа, ном; белги, рамз). “Унвон” дейилганда, диахрон аспектда ҳукмдорлар томонидан алоҳида хизмат кўрсатган кишиларга бериладиган ва мерос бўлиб ўтадиган ном тушунилади. Давлатни бошқариш тизимига оид унвонларни биддирувчи бир лексимали сўзлар эски ўзбек тилида ҳам мавжуд. Масалан, шайхулислом, шаҳаншоҳ каби. Синхрон аспектда “унвон” дастлаб давлат томонидан кўрсатган хизматлари, фидокорлиги учун берилган, аммо мерос тариқасида кейинги авлодга ўтмайдиган ном тушунилади. Ҳозирги ўзбек тилидаги унвон номлари маъносига кўра қуйидаги гуруҳларга бўлинади:

1. Эск. Мактуб устига ёзилган ном, каерга, кимга жўнатилганлик ҳақидаги ёзув. *Қумуш хатни хотинининг қўлидан олиб, раҳмат айтди ва хатнинг унвонига кўз ташлади: «Марғилон шаҳрида сокин Мирзакарим қўтидор ҳокимсига».* А. Қодирӣ, Ўтган кунлар.

2. Бирор иш-фаолият соҳасидаги алоҳида хизматни ёки мутахассислик даражасини расман эътироф этадиган, ваколатли органлар томонидан белгиланадиган ва бериладиган ном. *Профессорлик унвон* *Халқ артисти унвон*. *Эртасига.. келиб, уни лейтенант унвон* *ва вазод командир* *вазифаси билан таъриқлади.* Шўҳрат, Шинелли йиллар.

3. Эск. Мерос бўлиб келадиган ёки иш-вазифа даражасини кўрсатувчи, шунингдек, инъом қилинган ҳурматли, фахрий ном. *Қорилик унвонини олди*

¹ Авлақуллов Яшнарбек Ибрагимович. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи. — 10.02.01 — Ўзбек тили. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун таъсис этилган диссертация автореферати. — Тошкент 2012. 21-бет.

²Юқорида кўрсатилган иш. 17-бет.

учун мен ҳам бел боғлаган эдим. М. Муҳаммаджонов. Турмуш уринишлари. Подшоҳ онласи Қосимбекка алоҳида эҳтиром билдирганда, унинг номига «амирлар амири» деган унвон қўшиб айтир эди. П. Қодиров. Юлдузли тунлар» (ЎТИЛ-4. 304-305-б.).

Дигнитонимлар унвон сўзининг иккинчи ва учинчи маъноларини ифодалар экан. Унвон сўзининг биринчи маъноси эса ҳаг - мактуб устига ёзилган ном, қаерга, кимга жўнатилганлик ҳақидаги ёзув маъносини англатади, яъни унвон сўзи бу ерда кенг маънода қўлланилган.

Эски ўзбек тилида ҳам ҳозир ҳам фаол қўлланадиган вазир лексимаси XIX асрда Хивада бош вазир “вазири жумлат ул –мулук” (бутун мамлакат вазири) деган унвон берилган.¹ Шунингдек ҳарбий соҳада унвонлар ўзига хос тарзда ифодаланган. Қўрбоши – ҳарбий унвон бўлиб, у хонлар, амирлар даврида қурол-аслаҳа омбори, қўрхона бошлиғи маъносини ифодалаган. Генерал, подполковник, майор, капитан, лейтенант, полковник, саршина каби ҳарбий унвонлар бўлиб, ҳозирги ўзбек тилига рус тили орқали ўзлашган. Буларга ўзгартиришсиз ўзгартирилган кўшма сўзларни қўшиш мумкин: генерал-майор, генерал-подполковник ва ҳ.

Олий ўқув юртларида ишловчиларга берилувчи ассистент, катта ўқитувчи, доцент, профессор каби унвон номлари ўзбек тилида алоҳида ўрин тутади. Илмий-текшириш институларида кичик илмий ходим, катта илмий ходим, профессор каби унвон мавжуд. Унвонларни билдирувчи бирикмалар икки ва ундан ортиқ компанентга эга бўлиши мумкин: Ўзбекистон ифтихори, Ўзбекистон Қаҳрамони, Ўзбекистон халқ шоири, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби каби.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, идеоним ва дигнитоним номлари ўзбек тилидаги мавжуд сўз ясам воситалари ва усуллари ёрдамида ҳосил килинган. Айниқса, композиция усулида ясалган номлар кўпчиликини ташкил қилади. Ҳозирги вақтда аввалги тарихий номлар янги маънода қўлланмоқда. Турли тилларга мансуб номлар ўзгаришсиз ўзлаштирилмоқда. Ўзбек тилининг ўзида янги номлар яратилмоқда. Бу мавзунини янада чуқурроқ тадқиқ этишни англатади.

ДОИМИЙ ВА МАВСУМИЙ ТАҲАЛЛУСЛАР ХУСУСИДА

Шахноза НИЗАМОВА,

*Қўғон давлат педагогика институти
мустақил тадқиқотчиси*

Таҳаллуслар антропонимик бирликларга киради. Улар шахс исми – асосий номга нисбатан ҳудди лакаб каби кўшимча ном. Бирор халқ адабий тилидаги таҳаллуслар ижтимоий-сиёсий, адабиётшунослик, тилшунослик соҳалари аспектида тадқиқ этиш учун тўлланиши ва ўрганилиши мумкин.

¹Басий Мухаммад Юсуф. Шажарая харажшоҳий Қўлётма ЎзФА Шарқшунослик ин-ти, 484б-485 б

Тахаллусни ономастик аспектда ўрганиш ҳам лингвистик, ҳам бадиий-эстетик ҳулосалар чиқаришга имкон беради¹.

Тахаллуслар мотивацион-номинацион, луғавий, услубий, ясашиш ва қўлланиш хусусиятларига кўра таснифланади ҳамда тавсифланади. Улар қўлланиш ҳолатининг мунтазамлигига кўра, илмий адабиётларда қуйидаги икки турга бўлинади: 1) доимий тахаллуслар; 2) мавсумий тахаллуслар.

Баъзи ёзувчилар ижоди бошида битта тахаллусни қабул қилади ва барча асарига ўша тахаллус билан имзо чекишади. Масалан, Муҳаммад Раҳимхон **Феруз**, Муҳаммад Ризо **Огаҳий**, Маҳмуд **Махмур**, Ғулом Алимов **Шухрат** тахаллуси билан ижод қилишган. Мана шундай маълум шоир ёки ёзувчининг ижодини бошидан охирига қадар қўлланган тахаллус **доимий тахаллусдир**. Вактинча, маълум муддатгина қўлланилган тахаллуслар **мавсумий тахаллуслардир**.

Битта адиб бирдан ортик тахаллусни қабул қилса, асосий тахаллусдан ташқарилари вақтинча қабул қилингани мавсумий тахаллус. Чунки бундай тахаллуснинг баъзилари айрим асарларга қўйилади, кейинчалик бу тахаллусдан фойдаланилмайди. Масалан, Раҳимбобо Валибобо ўғли **Машираб**, **Маҳди**, **Умид**, **Ринди**, **Зинда** тахаллуслари билан ижод қилган. У халқ орасида **Шоҳ Машираб**, **Қаландар**, **Машираб**, **Девочка Машираб**, **Эшон Шох Машираб Намангоний** номлари билан шуҳрат қозongan.²

Маҳди // **Маҳдий** тахаллуси *бошловчи*, *тузри йўли* кўрсатувчи маъноларини англатади.³

Зинда тахаллуси *тирик*, *барҳайт*, *жонли* маъноларини англатади.⁴

Ринди тахаллуси *маътараст*, *бепарво*, *инжиқ*, *нозиктаъб*, *эрка* маъноларини англатади.

Умид тахаллуси *уммининг бирлиги* маъноларини англатади. Демак, Раҳимбобо Валибобо ўғли доимий ва мавсумий тахаллуслар билан ижод қилган. **Машираб** унинг асосий, яъни доимий тахаллуси бўлса, қолганлари мавсумий вақтинчалик тахаллусларидир.

Мавсумий тахаллуслар сатирик асарлар ёзувчи адиблар, журналистлар, сиёсий арбобларнинг тахаллуслари орасида кўп учрайди. Масалан, ёзувчи **Абдулла Қодирий** "**Шош**", **Алимов**, **Жулқунбой**, **Бойқул**, **Думбулбой**, **Думбул** *жияни*, **Думбулдөвона**, **Думбул ўғли**, **Казак Маҳсумнинг жияни**, **Овсар**, **Жиртақи**, **Шигой**, **Йўловчи**" каби⁵.

Доимий тахаллуслар ёзувчи ва шоирнинг айнан бир тахаллусга содиқ қолганлигини кўрсатади. Доимий тахаллуслар ўзининг юксак бадиийлик, манتيкийлик асосида яратилганлиги, шоир ёки ёзувчининг ижодий концепциясини ўзида мукамал ифодалаши билан характерланади.

Мавсумий тахаллуслар ҳажвий асарларда шоир ва ёзувчилар томонидан асл исмини ва асосий тахаллусини яшириш учун қўлланган. Масалан, машҳур

¹ Бағматов Ў. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.77.

² Абдулла Жаббор **Машираб** асарлари ўқув лугат ва изоҳлар. – Наманган: "Фарғона" нашриёти, 2010. – Б.103.

³ Абдулла Жаббор **Машираб** асарлари ўқув лугат ва изоҳлар. – Наманган: "Фарғона" нашриёти, 2010. – Б.110.

⁴ Абдулла Жаббор. Ўша асар. 75-бет.

⁵ Турдиев П. Абдулла Қодирий асарлари библиографияси. – Тошкент, 1990. 298-220-бетлар.

адиб Абдулла Қаххор асосий, доимий тахаллусидан ташкари ҳажвий асарларида *Е-бой, Эркабой, Гулёр, Нини, Норин Шилтиқ, Саримсоқ* каби тахаллусларни қўллаган.

Аксарият мавсумий тахаллуслар юмористик, ҳажвий, ирония маъно-моҳиятга эга бўлиб, ўзи қўлланган асарнинг мавзусига, жанр хусусияти ва ғоявий мазмунига мос. Бошқача қилиб айтганда, тахаллуслар ҳам образ-лилик, бадиийлик ифодалайди. Масалан, **Абдулҳамид Сулаймон ўғли** *Ўлтон* (тонг юлдузи), *Анонжонлик, Қ, Қаландар, Мирзо қаландар* каби, **Абдулла Авлоний Аб**, *Ҳижрон, Индамас, Нобил, Сурайё, Шатлоқ, Шўҳрат, Ўл* каби тахаллуслар билан ижод қилишган.

Мавсумий тахаллуслар ўз моҳиятига кўра, ҳажвий, юмористик, киноявий семага эга бўлган луғавий бирликлар асосида шакллантирилган ҳамда ўзи қўлланган матн мазмунига хос образлилик, ирония ифодалаган. Муаллиф ва бадиий матн ўртасидаги мазмуний, ғоявий мутаносибликни таъминлашга хизмат қилган. Ушбу тахаллуслар шоир ва ёзувчининг асосий тахаллусдан кейинги, яъни иккиламчи номга қўшимча училамчи ном сифатида муаллифнинг номи, асл тахаллусини яшириш, жанрга мазмун-моҳиятга мутаносибликни таъминлаш каби қўшимча вазифаларни ҳам бажарган.

Доимий ва мавсумий тахаллусларни тўплаш ҳамда уларнинг мотиватив-номинатив, луғавий асоси, қўлланиш доираси нуктаи назаридан лисоний тадқиқи куйидагиларга имкон беради: 1) шоир ёки ёзувчининг барча тур ва жанрлардаги асарларини тўплаш; 2) шоир ёки ёзувчининг ижод позициясини, тамойиллари ва бадиий қарашларини ўрганиш; 3) тахаллусларнинг бадиий ва ономастик вазифаларини тўлиқроқ тадқиқ этиш; 4) шоир ёки ёзувчи ижодининг бадиий, ғоявий тақомиллиги тахаллуслар воситасида кузатиш.

НОМЛАРНИНГ ЭТНОГРАФИЯГА БОҒЛИКЛИГИ МАСАЛАСИ

Гуляё ПИРНАЗАРОВА.

Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети Тиллар кафедраси ўқитувчиси

Этнографизмлар халқ ҳаёти, турмуш тарзи, анъанаси ва қадриятлари билан боғлиқ жараёнларнинг номидир. Улар қадим-қадимдан бор бўлиб, бир халқ, қабилани иккинчи бир халқ ҳамда қабиладан фарқланиб турган.

Этнографизмларга куйидаги фанлардан муносабат билдирилади: 1) уларга тарихшунослик нуктаи назаридан қаралади; 2) уларга тилшунослик нуктаи назаридан баҳо берилади; 3) фольклоршунослик нуктаи назаридан эътиборга олинади; 4) фалсафийлик нуктаи назаридан уларга муносабат билдирилади. Ушбу фикрни асослаш учун И. Жабборовнинг “Ўзбек халқи этнографияси” номи китобни мавзума-мавзу ҳолатида кузатилса¹, мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки унга халқимизга хос бўлган этнографик жараёнлар таҳлили тадқиқ этилганлигини кузатиш мумкин. Н. Мирзаевнинг “Ўзбек тили

¹ Жаббаров И. Ўзбек халқи этнографияси. —Тошкент: Ўқитувчи, 1994.

этнографизмларининг изохли лугати” номли махсус илмий тадқиқот иши бор¹. Унда олим этнографизмларга тилшунослик нутқи назаридан иккита гуруҳга бўлиб ўрганган: а) адабий тилга мос этнографизмлар; б) шеваларга хос этнографизмлар ёки этнографик диалектизмлар.

Халқнинг кундалик ҳаёти билан боғлиқ урф-одатлари, анъаналари ва яна номлари мажмуи шу халққа оид этнографик диалектизмлар тизимини ифодалайди. Мана шу этнографик жараёнларнинг ҳар бирининг алоҳида-алоҳида номлари бор. Ана шу сўз-номлар ҳам илм-фанда этнографизмлар саналади. Бундай жараёнлар тарих фанининг ўрганиш ва ўргатиш объект бўлса, уларнинг номи ва номланиши эса Ўзбек номшуносликнинг тадқиқ объектидир. Чунки этнографизмлар ҳам аслида сўз, сўз бирикмаси ва қўшма сўзлардан ташкил топади. Улар номланиш, яъни номнация қонуниятига туфайли оддий сўзликдан чиқиб, номга, аниқроғи, этнографизмларнинг номларига айлангандир.

Бу ерда ономастик этнографизмлар² тўғрисида, аниқроғи, уларнинг бир кўриниши бўлган хотин-қизлар номларининг этнографик ҳолатлари тўғрисида фикр юритишни ўринли биламиз. Ном қўйишнинг ҳам ўзига хос масъулияти ва одоби бор³. Уларни илмий назарий ва илмий амалий асосларда тадқиқ этиш эса ономастик этнографизмларнинг бир тури бўлган антропонимларнинг мазмун ва маъносини тушунтиришга имконият яратади.

Шу ўринда Э.Бегматов ўзбек антропонимлари билан, хусусан, ўзбек хотин-қизлари исмлари билан шугулланганлигини эътиборга олиш лозим⁴. Ўғил болаларга қўйилган баъзи номлар этнографизмлар бўлгани қаби хотин-қизлар исмларининг маълум қисми ҳам ономастик этнографизмларга оиддир. Зеро, ўғил болалар исми қанча кўп бўлса, хотин-қизлар номлари ҳам улардан миқдор ҳамда сифат жиҳатдан ранг-баранглиги билан қолишмайди.

Ном шаклидаги этнографизмларга хотин-қизлар исмларидан қуйидагиларни мисол сифатида келтирсак бўлади: *Холдорой, Холтигул, Холтой, Эшигул, Эшибиби, Эшикка, Эшибўрихон, Ойдин, Очилой, Ачилой, Баҳор, Баҳора, Бўритон, Бўриой, Бўригул, Жандарой, Жаннатгул, Айдин, Айдиной, Айсулув, Анор, Аноргул, Айибиби, Қунсулув, Сулув, Сулувой, Қунсулув, Ўлмасой, Ўлмасхон, Йўлдошой, Ўлжон, Ўлбўлсин, Ўлмув, Ўлбозор, Пардагул, Пардаой, Пахтаой, Гулсавар, Ҳосила, Ҳосилой, Гулганой, Тошой, Тошибиби, Тошибуви, Турошибиби, Тўхтасиной, Қўзигул, Бутай, Бутайиби, Баҳорой, Наврўз, Наврўзой* ва бошқалар.

Булардан кўриниб турибдики, ном — исм қўйиш ҳам маълум маънода масъулиятлилиқ ҳамда одоб ва одоблилиқни ҳам кўрсатади⁵. Ономастик

¹ Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изохли лугати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

² Ономастика Ўзбекистана. — Тошкент: Ўқитувчи, 1987.

³ Ўназаров Т. Ном қўйиш ҳам санъат. Ўзбек кутки маданияти масалалари. Илмий тўплам. — Тошкент, 1993. 17-18-бетлар.

⁴ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1991. Бегматов Э. Исм чироғи. — Тошкент: Ўқитувчи, 1992. Бегматов Э. Ўзбек исмлари 14600 исмлар атоҳи. 2-нашр. — Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2007. 587-594-бетлар.

⁵ Ўназаров Т. Номни тўғри қўйиш — бу одоб, одоблилиқ рағби. География, тарих, назария метод, амалиёт. Тошкент, 2010. 94-96-бетлар.

этнографизмлар тузилишига кўра содда, кўшма ва бирикмали кўринишларда бўлишлиги юқоридаги мисоллардан кўриниб турибди. Уларнинг маъно-мазмунини билиш мақсадида лексик-семантик жиҳатдан қуйидаги гуруҳларга бўлиш ҳам мумкин:

а) оидинда туғилган хотин кизлар номи; б) чиройли бўлишлилик билан боғлиқ хотин кизлар номи; в) чорвачилик билан боғлиқ хотин кизлар номи; г) овчилик билан боғлиқ хотин кизлар номи; д) кетма-кет қиз туғилгандан кейин ўғил туғилсин деган маънода қўйилган хотин кизлар номи; е) туғилган боланинг ўниб-ўсиб кетиши билан боғлиқ хотин кизлар номи; ё) туғилган чақалоқнинг ҳолати билан боғлиқ хотин кизлар номи; ж) гўдақнинг бақувват бўлиши тилаб шаклланган хотин кизлар номи; и) байрам ва тўй билан боғлиқ хотин кизлар номи ва бошқалар.

Хуллас, ономастик этнографизмларнинг бир тури бўлган исмлар бу -- инсонларнинг юзи, борлиги, бирлигини билдирувчи энг азиз ва муқаддас сўзлардан бири. У ҳар қандай тилда ҳам ўзгармаслиги лозим. Халқ ичида "Исмларда инсон тақдири, ҳаёти ўз ифодасини топади", деган фикр юради. Бу бор гап. синовдан ўтган гап Исми-шарифи билан чакириладиган киши ўз исмини авайлабгина қолмайди, шу билан бирга ўзгаларнинг исм(ном)ларини ҳам эъзозлаб кўллайди. Исмларимизни эъзозлаш ҳамда қадрлашга ҳаракат қилиш мақсадида уларни илмий асосларда тадқиқ этиш инсоний қадриятларни улуғлашнинг бир кўринишидир.

CHAQALOQQA NOM BERISHNING AN'ANAVIYLIGI HAQIDA

Maftuna FAYZULLAYEVA,

ToshDO'TAU talabasi

Onomastikaning terminlari qatonga laqab, tahallus kabilarni ham kiritishimiz mumkin. Ismlarning etnografik ma'nosi bir ismning paydo bo'lishi, tanlanish jarayoni, go'dakga ismning berilish asosini ifodalashdan iboratdir. Ismning yuzaga kelishida amaliy tadbirlarni ham xizmati katta Bunga misol qilib "Sotiboldi" ismini olishimiz mumkin. Qadimda farzand nobud bo'lishi ko'p uchraydigan holat bo'lganligi uchun ona va doya o'rtasida farzandni hududan so'rash, qaysidir ma'noda sotib olish udumi olib borilgan. Unda chaqaloq xoh o'g'il, xoh qiz bo'lishidan qat'iy nazar tarozi pallasiga qo'yilgan.

Tarozining bir pallasida noz-ne'mat va qimmatbaho buyumlar, ikkinchi pallasiga esa go'dakni qo'yib ular og'irligi tenglashtirilgan. Doya xola va ona o'rtasida ushbu udum bilan aloqador dialogik tarzda so'zlar aytilgach, chaqaloq sotib olingan hisoblangan. Tarozi pallasidagi noz ne'matlar, qimmatbaho buyumlar doya xotinga berilgan. Farzandlar nobud bo'lishini o'timish ajdodlarimiz turli xil talqin qilishgan. Uni ma'lum yovuz kuchlarning ishi deb hisoblashgan. Go'dakning dushmani har hil tasavvur qilingan. Ulardan asosiylari quyidagilar: pari, azroil, chilton, ajina, dev, insu jins, o'tgan ajdodlar ruhi, hosiylatsiz joylarda uxlab qolish, farzandsiz ayolning suqi, ko'z tegishi, bolaga qo'yilgan ismning behosiylatligi va og'irlik qilishi kabilardir.

Qadim-qadimdan farzandlarni turli bale qazolardan asrash uchun turli xil usullar o'ylab topilgan. Serfarzand ayolni doya qilish, tug'gan ayol qirq kun chilla saqlashi, ya'ni begonalarga nazarini tushurmaslik, go'dakni yomon xulqli insonlar suqidan asrash, bolani bepusht, farzandsiz kishilar qo'lga bermaslik kabi irmlarning barchasi bolani asrab avaylashga qaratilgan harakatlardir.

Chaqaloqqa qo'yilgan ism uning taqdiriga, kelajagiga ta'sir qiladi degan tushuncha orqali "Asrovchi" ismlar yuzaga kelgan. Bolaga xunak ismlarni qo'yish ortida ham ma'no yashiringan. Go'dakni asrash, shaytonlarni shu yo'l bilan chalg'itish maqsadi bilan bog'liq. O'zbek ismlari orasida anchagina asrovchi ismlar mavjud: Tursun, O'lmas, Uzoqjon, Umrbek, Ergash. Yuldosh ismlari otalarning o'z farzandlariga sog'lik, uzoq umr tilashni ifoda etadi.

Ota-ona o'z farzandlarining turli kasalliklarni yengishi, irodali, chidamli, mustahkam bo'lib ulg'ayishini orzu qilib qo'yilgan ismlar ham mavjud. Ular odatda mustahkam buyumlar nomidan yasalgan bo'ladi. Shuning uchun bunday ismlar mustahkamlik ramzi bo'lib kelgan. Toshboy, Metinboy, Po'lat ismlari bunga misol bo'la oladi.

Ismlar guruhiga mansub mahalliy, mintaqaviy ismlar ham mavjud bo'lib, bu ismlar ma'lum bir hudud uchun tushunarli bo'lgan ismlar hisoblanadi. Ro'zmat va Ro'zmatmat ismlari Xorazm viloyati hududlari uchun tushunarli bo'lgan ismlar sanaladi. Yana shuni aytib o'tish joizki, bola tug'ilganda uning tanasida dog', xol, nor yoki ortiqcha barmoq bilan tug'ilgan go'daklarga o'z imkoniyatidan kelib chiqib ism qo'yish lozim.

Agar shu tarzga mos ism qo'yilmasa bu ham bola salomatligiga ta'sir tug'dirishi mumkin. Chunki bunday ismlar yuzaga kelishiga ham ushbu holat, ya'ni nor bilan tug'ilish asos bo'lgan. Bunday ismlarga Anora, Xolida, Xolmo'min, Ziyoda, Ortiq, Ziyodulla ismlari misoldir. O'zbek tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli xavflardan asrash g'oyasi, niyati mujassamlashgan. Shu bois bunday ismlarning vujudga kelishida qadimiy totemistik tasavvurlarga sig'inishning boshqa turlari, udumlar, islom dini bilan aloqador bo'lgan diniy, falsafiy qarashlar asosiy rol o'ynagan. Bunday ismlar insonni go'zalik, nafosat kabi hislatlarga ega bo'lishi uchun qo'yiladi. Kuzatishlarga qaraganda bunday ismlar 200dan ortiq. Ba'zi hayvonlarning nomlaridan yasalgan ismlarni ham uchraydi. Masalan, Qunduzoy, Olmaxon, Qaldirg'och, Qumriqiz.

Har bir ota-ona farzandini yaxshi va munosib inson bo'lib yetishishini xohlaydi. Shuning uchun Yaxshiboy, Munsoba, A'loxon, Yaxshigul kabi ismlar qo'yishadi. Farzandi bosiq vazmin, kamtarin inson bo'lib ulg'ayishi uchun Sokin, Kamtar ismlarini tanlashadi. Demak, ism inson hayoti uchun asosiy kerakli bo'ladigan xarakteri, qobiliyati va hayoti qay tarzda kechishini belgilaydigan muhim manbadir. Qanday ism qo'yishdan qat'iy nazar ota-ona o'z farzandiga cheksiz mehrini, orzu-istaklarini shu yo'l bilan ham namoyon qiladi. Ismlar ezgulikka talpinish, yashnatuvchanlik, buyuklik ramzidir. Inson hayotida ism katta ahamiyatga ega. Zero, elimizning farzandlari yurtimiz kelajagidir.

Axborotchilar ro'yxati:

1. Sultonova Bibijon - 1948-yilda tug'ilgan, nafaqaxo'r.
2. Fayzullaeva Qunduz - 1933-yilda tug'ilgan, nafaqaxo'r.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E. O'zbek ismlari. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991.
2. Begmatov E.A. O'zbek ismlar imlosi. –T.: Fan, 1972.

“OTAMDAN QOLGAN DALALAR”DA TO'G'AY MURODNING ANTROPONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

*Mohigul AHMADALIYEVA,
FarDU 2-kurs talabasi*

Onomastik birliklar nomlanuvchi obyekt turiga kora turli guruhlarga bo'linadi. Ular:

- antropnimlar (shaxs va ularga qo'yilgan nomlar): Muhammad, Akbar;
- toponimlar (joy nomlari): Farg'ona, Beshariq;
- zoonimlar (hayvon nomlari): Qorako'z, To'rtko'z;
- gidronimlar (suv havzalari va daryo nomlari): Sirdaryo, Orol dengizi.

Antropnimlar ham onomastik birliklar tarkibida katta qismini tashkil e'tadi. Shu o'rinda antropnimlar aynan ma'lum bir belgiga ko'ra shakllanishi va uning tub ildizi inson tafakkuriga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin. Insonlarga qo'yiladigan nomlar turlicha ma'noga ega bo'ladi. O'zbek onomastikasining rivojlanishida prof. Ernest Begmatov katta hissa qo'shgan. Uning “Kishi nomlari imlosi”, “O'zbek ismlar lug'ati” 14600 ismlarning izohini o'z ichiga olgan.

Antropnimlar nafaqat tilshunoslik, balki, adabiyotshunoslik fani uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, badiiy asar qahramonlari ismlari ularning xarakter-xususiyatlarini, asar g'oyasini ochib berishda ustuvorlik kasb etadi. Bu borada adibimiz To'g'ay Murodning adabiy mahorati tahsinga sazovor. Ushbu yozuvchining “Otamdanda qolgan dalalar” asarida qo'llanilgan kishi ismlari tadqiqiyoy yuqoridagi fikrlarning yorqin isboti bo'la oladi. Asar uch avlod vakillari hayotidan hikoya qilinadi. Ular Farg'ona dalalarida javlon urib mehnat qilgan, o'z yeriga butun umrini baxshida etgan inson, ammo ruslar iste'dodidan so'ng qadrdon dalalardan ayrilgan, a'zamada Jamoliddin Ketmon, qizil hukumat hukmiga chiday olmay ularga qarshi bosh ko'targan Aqrab qo'rboshi va hukumron mafkura ta'siri ostida ezilgan Dehqonqul obrazlaridir. Asarni oqiganimiz sari ularning har biri badiiy asar g'oyasi, adabiy qahramon xarakteriga mos ravishda tarlanganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, katta avlod vakili Jamoliddin Ketmonning ham ismi uning asradagi o'rniga aloqador. Bu holatni asardagi Jamoliddin Ketmon va Salohiddin bo'yirchilarning suhbatlari orqali izohlash o'rinni:

“-E-e, Ketmon, Ketmon. Senga ketmon bo'lsa bo'lsa bo'ldi. Sen ham odamday bo'lib, ketmondan bosh ko'tarsang ekan, dunyodan xabardor bo'lsang.

- Mana, ketmondan boshinni olib o'tinbrian.

-Qorning ochgandir-da. Bo'lmasa, ketmondan bosh ko'taramiding?” [1:2]

Ushbu parchadan ko'rinadiki, To'g'ay Murod xalq jonli nutqini badiiy asarga ko'chirib, jamiyat orasidagi muloqot jarayonida kishilarga ularning kasb-kori, tashqi ko'rinishi, xarakter – xususiyatlaridan kelib chiqib, o'rinni nom bera olgan. Keyingi avlod vakili Aqrab esa o'z ismiga mos ravishda o'z shajarasi avlodlarining orasida

o'zining bo'ysunmas va qat'iyatli ruhi bilan ajralib turadi. Aqrab so'zining ma'nosi arabcha "chayon" degani bo'lib, bu nom qahramon shaxsiyatini ochib berishda ustuvorlik kasb etadi. Asarni mutola qilish davomida xuddi shunday holatlarga guvoh bo'lishimiz mumkin:

"Chanishev! — deydi otamiz. Bir kun bo'lmasa, bir kun sen sulloh kelishingni bilib edim. Aynan sen sullohn keladi, deb o'ylab edim. O'ylaganim bo'ldi, Chanishev!

— Ha, nima deysan, nima? — zahrini sochdi Chanishev [1:21].

Shu o'rinda aytish joizki, chayon cho'l, dasht hududlarda eng xatarli jonzodlardan biri hisoblansa-da, o'ziga zarar yetkazmagan kishiga u ham ozor bermaydi. Tabiatdagi shu biologik hodisani Tog'ay Murod o'z asariga mahorat bilan olib kirgan. Asar kompozitsion qurilishida ustuvorlik kasb etuvchi eng muhim obraz bu, shubhasiz, Dehqonqul obrazidir. Ushbu adabiy qahramon yuqorida sarab o'tilgan ajdodlaridan farqli ravishda hukumron mafkura tazyiqi ostida ularning irodasiga bo'ysunishga majbur bo'ladi. U ham ota-bobolarining azaliy kasbi bo'lmish dehqonchilikning mashaqqatli, og'ir mehnati bilan shug'ullanadi va o'z taqdirini mana shu kasbda ko'ra oladi. Adib aynan nega mana shu ismni tanlaydi? Ushbu savollarga biz asarda keltirilgan quyidagi dialog orqali aniqlik kiritamiz:

"— O'rtoq Dehqoniy! — deb qoldi bir mahal. Men sergak bo'ldim. Men alang-jalang bo'ldim. Men o'z — o'zimdanda uyaldim.

- Unday demang-e, domla, unday demang-e, — dedim.

- Iya, nega demayman? Dehqonni Dehqoniy deydi-da!

- Men shoir bo'lsam ekan- shundaychikin desangiz. Men bir dehqon odam bo'lsam. Shunday ekan, Dehqonqul deya bering.

- Qul? Sho'ro zamonida qul yo'q!.. [1:99]

Ko'rinadiki, asarda keltirilgan obrazlar nomining har biri asar mazmuni va g'oyaviy, badiiy tuzilishiga monand ravishda tanlangan. Bundan tashqari asarda keltiriladigan epizodik obrazlar Saidazimboy, Ibodin soqov, Qurbon qoraqirg'iz, Abil jarchi, Rashid, Normurod, Boloxon terimchi (Aqrabning rafiqasi), Ziyod kabi obrazlarning nomi ham asar kompozitsion qurilishida muhim o'rinni ega

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, badiiy asarlarda shaxs nomlari shunchaki tanlanmasdan, balki qahramon xarakterini yoritishda asar strukturasida birlamchi vazifa bajaradi. Bu esa adibning so'z qo'llay olish mahoratini qay darajada ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Bu jihat o'zbek adabiyotining noyob vakili Tog'ay Murod ijodida ham ustuvorlik kasb etadi. Yozuvchi "Otamdan qolgan dalalar" asarida o'zbek ismlarining ma'no va mohiyati orqali ularning betakrorligini asoslay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murod T. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent: Sharq, 1994.
2. Ономастика Узбекистана. — Тошкент: Ўқитувчи, 1987.

BOLALARGA NOM QO'YISH AN'ANASI HAQIDA

*Kamola HAKIMBOYEVA,
BuxDU 2-bosqich talabasi*

Shaxslarga qo'yilgan nomlar tilshunoslikda antroponimlar deb yuritiladi. Antroponimlarga kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi kiradi. Antroponimlar har doim bosh harf bilan yoziladi: Shuhrat, Odil Yoqubov, Muqimiy kabi. Antroponimlar orasida kichik harf bilan ham yoziladigan qismlar mavjud bo'lib, bular arabcha ibn, o'zbekcha o'g'li, qizi so'zlari va arab tilidan kirgan al artiklidir. Masalan, Abu Ali ibn Sino, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, Al-Xorazmiy, At-Termiziy, Oysha binni Mansur kabilar.

Yorug' olamda go'dakka ataladigan ilk nasiba ona ozuqasi bo'lsa, keyingi tuhfa unga qo'yilgan munosib, umri davomida doimiy hamrohi bo'ladigan ismidir. Yangi chaqaloqqa yaqinlari ism tanlayotganda quyidagilarga e'tibor qaratadilar: 1) murg'ak chaqaloqning o'g'il yoki qiz ekanligi, jinsi; 2) ota-onalarning farzandiga bo'lgan barcha ezgu tilaklari, orzu-umidlari mujassami; 3) bolaga munosib, xosiyatli ism tanlashda sidqidildan kirishishi; 4) ota-ona yoki bobo-buvining cheksiz mehr-muhabbatini ismda ifodalashiga intilishi; 5) bolaga qo'yilayotgan ismning betakror yoki kamchil bo'lishiga erishish va h.k.

Shaxsga qo'yilgan nomlarda ota-onaning orzu-urnidi (Baxtiyor, Umid, Go'zal), bolaning tashqi belgisi (Xoldor, Anor, Qovoqvoy), xalqning urf-odati (O'roqvoy, Teshavoy), tug'ilgan kuni (Odina, Jumavoy) kabilar o'z aksini topadi. Antroponimlar urdosh otlar asosida (Muhabbat, Lola, Juma, Sulton, Bahri), sifatlar asosida (Go'zal, Muqaddas, Ozoda, Botir, Jasur), sonlar asosida (Oltinshvoy, Yetmishvoy, Chori, Panji, Robiya), fe'llar asosida (Tursunoy, Turdi, To'xtasin) paydo bo'lgan. O'zbek ismlari qo'shma so'zlardan ham iborat bo'lishi mumkin. Masalan, Sotiboldi, Gulchehra, Otamurod, Gulbahor, Muhammadyusuf kabi. O'zbekcha ismlar tarkibida nomning oxiriga yoki oldiga qo'shilib keluvchi lug'aviy unsurlar ham mavjud. Bular bek, boy, bobo, buva, mir, mirza, xo'ja, qul, beka, bibi, begim, bonu, gul, oyim, poshsha, momo, sho kabilar: Qodirbek, Mirzakarimboy, Karim bobo, Ochil buva, Mirahmad, Aminxo'ja, Ostonaqul, Kumushbib, Gulchehrabonu.

Antroponimlarni o'rganigan olim Ernest Begmatov bo'lib, "Kishi nomlari imlosi", "O'zbek ismlari imlosi" kitoblari bu sohada qimmatli manba hisoblanadi. 1999-yil nashr etilgan "O'zbek ismlari" kitobida 14600 ta ismga izoh berilgan.

Ruhshunoslarning ta'kidlashicha, insonning qulog'iga eng yoqimli eshitiluvchi so'z uning ismi. Ism ham kishi ko'rkiga ko'rk qo'shuvchi harada uning hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilohiy so'zdir. Uni ko'pchilik, inson kelajagiga ta'sir etuvchi, ulkan zafarlarga chorlovchi kuch sifatida e'tirof etishadi.

Haqiqatan ham, farzandlarimiz yaxshi xulqli, tarbiyali bo'lib voyaga yetishida, uning kishilar tomonidan qanday chaqirilishida unga qo'yilgan nom muhim o'rin egallaydi. Shu bois ko'pni ko'rgan xalqimiz ism tanlashga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, ism chuqur mazmuni ifodalashi bilan bir qatorda, unda ota-onalarning farzandlarida qanday inson timsolini ko'rish istagi ham namoyon bo'ladi.

Xalqimizda qadimiy urf-odatlariga

ko'ra, oilada ilk farzand tug'ilganda uning ismini go'dakning ota tomondan bobosi yoki buvisi tanlaydi. Ism qo'yish jarayoni chaqaloqning qulog'iga azon aytish vaqtida amalga oshiriladi va chap quloqqa takbir aytilgandan so'ng chaqaloq qo'yilgan ismi bilan bir necha marta chaqiriladi. Aytish kerakki, azaldan bolaning sog' bo'lishi, kelgusi baxti unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblashgan. Ismda taqdirga ishorat bor degan g'oya hanuzgacha yashab kelmoqda. Binobarin, xalq orasida chaqaloqqa muvaffaqiyatli tanlangan va berilgan nom uning taqdirini o'zida mujassam etadi. Shuning uchun ham ba'zi ota-onalar qanday ism qo'yish haqida farzandi dunyoga kelishidan oldinroq o'ylab qo'yadilar. Biror ajdodi xotirasi uchun, fazilatli tanish-bilishlaridan biriga havas qilib, bolam ham shu insondek bo'lsin, deya ularning ismini qo'yadilar. Hadislarda ham farzandga yaxshi ism qo'yish ota-ona oldidagi farzlardan biri ekanligi ko'p bora ta'kidlanadi. Bundan tashqari, mavsum va sanalarga bog'liq ismlar ham mavjud bo'lib, ularni ham o'z o'rnida qo'yish farzand kelajagiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb ishonilgan.

Chaqaloqqa ism tanlash ham qadriyat, urf-odatlarimiz, milliyligimizning bir bo'lagi sanaladi. Xalq orasida "Ismi jismiga monand" naqlining mavjudligi ham bejiz emas. Farzandlarimizga ism tanlashda uning kelajagi, kamoli, umr yo'lida barcha yaxshiliklarni istab, ish ko'ramiz. Shuning uchun Bahodir, Dono, Mashhura, Muqaddas, Sadoqat, Botir, Jasur va hokazo ismlarni tanlaydimiz. Toki ismini aytib chaqirganda, farzandlarimiz o'zining ismidan xijolat bo'lmasin, uyalmasin, aksincha, faxrlanib yurishsin.

Biroq bugungi kunda ism tanlash borasida ko'pgina xato va kamchiliklar ham uchrab turayotgani hech birimizga sir emas. Ayrim ota-onalar hattoki, chet el seriallaridagi qahramonlar, mashhur kino yulduzlariga taqlid qilib yoki boshqa bir sababga ko'ra, farzandiga noo'rin ism berayotgani milliy ma'naviyatimizga yot bo'lgan hodisadir. Hayotimizda Gopal, Telman va shunga o'xshash boshqa ismlarga duch kelarniz. Ammo bu insonlar o'z ismini yaxshi ko'radi, hech qanday noqulay holatlarga duch kelmaydi, deb ayto olmaymiz. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'ziga munosib nom qo'yilmagan bola aqlini taniganidan keyin bir umr o'z yaqinlaridan norozi bo'ladi. Ko'pincha ismini o'zgartirishga harakat qila boshlaydi. Binobarin, "Davlat tili haqida"gi qonunning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'iy nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga ega" ekanini belgilab qo'yilgan.

Farzandga ism berish har bir ota-onaning vazifasi. Ism qo'yishda chaqaloq tug'ilgan xonadondan va oila a'zolarining kelib chiqishi, qaysi avlodga mansub ekanligi, e'tiqodi, dunyoqarashi, orzu-istaklari inobatga olinadi. Ayrim xalqlarda bola dunyoga kelgach, ota birinchi bo'lib nimaga duch kelsa, bolasiga o'sha buyum yoki hodisa nomidan kelib chiqib ism berish odati bor. Sharqda ism qo'yishda uning ma'nosiga, jarangdorligiga va albatta, farzand ulg'aygach, uni uyatga qo'ymasligiga alohida ahamiyat beriladi. Ishlatilayotgan ismlarning ko'pchiligi arab, fors tili lug'at qatlamidan o'zlashgan. Shuning uchun ularning ma'nosini har doim ham tushunavermaymiz. Bunda bizga izohli lug'atlar yordamga keladi. Oramizda ismlar ma'nosini to'liq anglamay, uning jarangdorligiga uchiib, ba'zi ajnabiy (Esmiralda, Nensi, Amaliya, Emran va b.) ismlarni farzandlarga qo'yish ham uchrab turibdi. Aslida ism yuqorida ta'kidlaganimizdek, ma'naviyatimizning bir bo'lagidir.

O'zimizning lug'atimizdagi ismlar ham ma'nodorligi hamda jarangdorligi bilan hech qaysi xalq ismlaridan qolishmaydi. Masalan, Zuhra ismi shu nom ostidagi sayyora (Venera)ga nisbatan qo'yiladi. Agar qizaloq qoracha tusli bo'lsa, "Laylo" deb ism qo'yiladi. Laylo so'zining ma'nosi "qoracha", tun rangidagi qiz degani. Oilada to'rtinchi qiz tug'lsa, Robiya deb ism qo'yilgan. Robiya to'rtinchi qiz degani. Soniya deb esa ikkinchi qizga ism qo'yilgan. Oilada bitta qiz bo'lsa, Nodira deb ism qo'yilgan. To'rtinchi o'g'ilga Chori, beshinchisiga Beshim deb ism qo'yilishi bizning hududimizda, umuman, Sharq xalqlarida urf bo'lgan. Roviyy Abu Dardo roziyallohu anhudning rivoyatida: "Sizlar qiyomatda o'z ismingiz va otangiz ismi bilan chaqirilasisizlar. Ismlaringizni go'zal qilinglar", deyiladi. Diniy rivoyatlarga ko'ra, qiyomat kunida payg'ambarimiz o'z mo'minlarini ismlari bilan yoki otalarining nomlari bilan chaqiradilar. Shu bois ismlar go'zal va ma'nodor bo'lishi zarur. Hatto yangi tug'ilgan chaqaloq olamdan o'tsa ham unga chiroyli ism qo'yib dafn etish, ya'ni bandasi ismsiz bo'lmasligi kerakligi uqtiriladi. Ijtimoiy hayotimizning o'zida ham farzandga qo'yilgan nom o'sha bola tug'ilgan oilaning ma'naviyati, madaniyati, e'tiqodi, did-farosati kabi jihatlardan darak berib turadi. Masalan, Abdulloh, Shukrulloh, Xudoyberdi, Oliborgan, Abdurahmon, Anbar, Fotima, Oyshabibi kabi ismlarni Islom diniga e'tiqodi baland bo'lgan oilalar farzandlariga qo'yadilar. O'g'iloy, Ulbo'sin, Ulbuvish, Uldona, Basanda ismlari oilada o'g'il farzand tug'ilishini juda istaganda, ammo ketma-ket qiz tug'lsa, qizlarga shunaqa ism qo'yiladi. Yodgor, Yodgora, Xotira, Izbosgan ismlari farzand tug'ilayotganda otasi yoki onasi olamdan o'tganda qo'yiladi. To'xta, To'xtagul, To'xtasin, Tursun, Tursunali, Tursunoy, Turg'un, Turg'unoy kabi ismlar oilada shu tug'ilgan chaqaloqdan oldingisi yashamagan bo'lsa yoki tug'ilgan chaqaloq o'ta nimjon bo'lsa va yashab ketishiga, deyarli, ishonch bo'lmagan holatlardagina qo'yiladi.

O'zbek xalqida bola o'z ismida ifodalangan orzu-istaklarga erishadi, ismiga mos bo'lib ulg'ayadi, degan ma'naviy e'tiqod mavjud. Bu ezgu e'tiqodning ijobiy jihatlari ko'pligi asrlar davomida o'z isbotini topib kelmoqda. Darhaqiqat, ism, avvalo, muayyan shaxsni oilada, jamiyatta boshqalardan farqlash, ajratish, alohida atash uchun xizmat qiladi. Nomshunos olim Ernest Begmatovning ta'kidlaganlaridek, "...tilimizdagi deyarli barcha antroponim (ism, laqab yoki taxallus) larning yaratilish motivida insonning, ya'ni bolaga ism qo'yuvchilar (nominatorlar) ning istagi, umid va orzulari o'z ifodasini topgan bo'ladi".

Xullas bolaga nom qo'yish ota-ona, bobo-buvilarimiz uchun o'ziga xos an'ana bo'lib, yosh ota-onalarimiz bunga e'tiborli bo'lishlari, milliyatimiz, qadriyatlarimizga zid, o'zbekona qarashlarga yot ismlarni tanlamasalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Enazarov T., Abdullayev X.T. Dialektologik amaliyot so'roqligi. Toshkent, 2018.
2. Берматов Э. Ўзбек исмлари. –Тошкент: Ўзбек Миллий Энциклопедияси, 1999.
3. Равшанов М. Исмларнинг маънолари. –Тошкент: Ворис, 2008.

ISMLARDAGI LAHJAVIY VA ERKALASH-KICHRAYTISH SHAKLLARINING O'RGANILISHI

Dilrabo YUSUFOVA,

QDU talabasi

Ismlar variantdoshligi, avvalo, o'zbek antroponimiyasi tizimidagi an'anaviy-tarixiy hamda yangi nomlar orasida yuzaga keladi. Ismlar variantdoshligini tadqiq qilish adabiy ism va dialektal ism kabi tushunchalar mohiyatini anglab yetishga imkon beradi. Ayniqsa, ismlar variantdorligini tadqiq qilish o'zbek ismlari va familiyalari imlosining ba'zi murakkab amaliy muammolarini ilmiy jihatdan to'g'ri hal qilishga imkon beradi.

Tilning antroponimiva tizimi nihoyatda murakkab hodisalardan bo'lib, unga adabiy-normativ nuqtayi nazaridan yondashib bo'lmaydi. Chunki u turli ijtimoiy-ma'naviy, kommunikativ-lisomy omillar ta'sirida o'zgarib, yangilanadi.

Ma'lumki, har qanday til doirasida u yoki bu darajada xalq sheva va lahjalari mavjud. Tilning ushbu ijtimoiy ko'rinishlari, odatda, adabiy tilga qarama-qarshi qo'yiladi, chunki adabiy tilning meyorlari shuni talab qiladi. Ammo antroponimik tizimni, uning onomastik birliklarini tamoman adabiy lashtirish, uni og'zaki til, xalq sheva va lahjalari ta'siridan tamoman xolos qilib bo'lmaydi. Bunga sabab ismlar oilalarda, til jihatdan ushbu oilalar mansub bo'lgan lahja va shevalar muhitida yaratiladi va bolaga beriladi. Ism uchun asos bo'ladigan apellyativ va undan yasalgan ismning o'zi ham nomni yaratgan shaxslarning mahalliy tili xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Mana shu bog'liqlik ismlarning, ular shaklining nafaqat adabiy til va lahjalararo farqini, balki sheva va lahjalararo o'zgachiliklarini yuzaga keltiradi. Bu, asosan, ikki holatda ko'rinadi: 1) ismlarning qisqargan (toraygan) shakllarining mavjudligi; 2) antroponimik tizimda turli lahjalarga oid nomlarning mavjudligi.

Ko'p hollarda milliy tilardagi ismlar fondi «**o'zbek ismlari**», «**tojik ismlari**», «**qozoq ismlari**» kabi umumiy tarzda tavsiflanadi. Bunda nomlarga umuman milliy til fondi sifatida yondashiladi, antroponimiya materialiga ham adabiy til materiali (ismlarning adabiy til meyoriga mos tushuvchi shakllari) ko'zda tutiladi va ham xalq tili – sheva hamda lahjalar materiali sifatida qoraladi.

Keyingi paytda antroponimik fondagi ismlarning adabiy va noadabiy ko'rinishlarini farqlashga intilish yuzaga keldi, antroponimlarning lahjaviy tiplari, qatlamlarni **regional (mintaqaviy) antroponimlar** deb yuritiladigan bo'ldi hamda bunga doir ba'zi kuzatishlar yuzaga keldi va ularda mintaqaviy antroponimlar tushunchasi, mintaqaviy nomlarning asosiy xususiyatlari tavsiflanadi.

Lahjaviy antroponimlarni umuman olganda uch xususiyat xarakterlaydi:

1. Ismning adabiy tildagidan farqlanuvchi lahjaviy shakli mavjud bo'ladi; *Jamanbola* (**ad. Yomonbola**), *Qolbuvi* (**ad. Xolbuvi**) kabi.

2. Biror sheva yoki lahjagagina xos, ya'ni mintaqaviy ism uchrashi mumkin: *G'uchchi* – *G'o'chchi* (qipchoq shevasiga xos), *Mengh* (qipchoq shevasiga xos), *To'ti*, *To'tixon* (o'g'uz shevasiga xos), *So'na*, *So'naxon* (o'g'uz lahjasiga xos) va b.

3. Lahja va shevalarda ismlar aksariyat holda qisqargan shaklda qo'llaniladi.

Ismlarning erkalash-qisqarish shakllari (variantlari) asosan xalq tili shevalarida yuzaga keladi. Bu ikki holatda koʻrinadi: a) mana shunday shakllarning shevaviy fonetika qonuniyatlariga talaffuzda moslashganida; b) qisqargan shakllarning shevalararo farq qilishida: (*Jumash* – *qipchoq shevasida: Jumini oʻgʻuz lahjasi*); *Sherna* (*Shernazar*), *Shepp* (*Sharifa*), *Rejap* (*Rajab, Rajabali*), *Jummi*, *Jumaq*, *Jumash* (*Jumaniyoz, Jumanazar*) kabi.

E.Begmatov «Oʻzbek antroponimiyasi shuni koʻrsatadiki, ismlarning qisqarishi ikki obyektiv ehtiyoj tufayli yuzaga keladi: 1) kishini erkalab munosabatda boʻlish va buni uning ismi orqali ifodalash; 2) talaffuzi qiyin (ayniqsa oʻzlashma qoʻshma ismlar)ning talaffuzini osonlashtirish maqsadida. Masalan: *Sarviniso, Tojmisso, Muhammad* ismlarini **Sarvi, Toji, Mamad** tarzida qisqartiriladi», deb yozgan.

Xullas, yuqorida keltirilgan ishlarning aksariyatida antroponimlarning qisqargan va erkalash shakllari nomlarning yasalishi, antroponimlarning fonetik va yasalish xususiyatlari, lahjaviy belgilari, qolaversa, imloviy normalash imkoniyatlari nuqtai nazaridan oʻrganilgan, ammo variantdorlik nuqtai nazaridan tahlil qilingan emas. Antroponimik variantlarni yuzaga keltiruvchi omillardan yana biri ismlarning turli lahja va shevalarda mahalliy shakllarga ega boʻlishidir. Ismning lahjaviy shakli nomning adabiy shakliga nisbatan yoki bitta ismning shevalararo shakllari oʻzaro antroponimik variantni tugʻdiradi.

OʻZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

*Madina SABUROVA,
Nukus DPI talabasi*

Til lugʻat boyligining kattagina qismini insonlarga qoʻyiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Ismlar ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlib, ularda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan boʻladi. Unda maʼlum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan oʻrni haqida ham xabar beriladi. Ismlarni tadqiq qilish, oʻrganish orqali xalqning til tarixini, urf-odatini va koʻplab ijtimoiy sohaga oid boʻlgan maʼlumotlarni bilib olishimiz mumkin. Bu toʻgʻrisida V.A.Nikanov: “Adam atlari jamiyette ham jamiyet ushın oǵada zárúr. Olardı jamiyette itibarsız qaldırwǵa bolmaydı. Sonlıqtan adam atlarına degen mápdarlıqtıń keshli ekenligi tósınikli” [1.33] degan edi.

Turkiy xalqlar orasida ism qoʻyishga, uning maʼnosiga katta eʼtibor qaratiladi. Ismlarning lingvokulturologik xususiyatlariga eʼtibor qaratar ekanmiz, unda madaniyat, xalq koʻz-qarashi yaqqol namoyon boʻlganligining guvohi boʻlamiz. Biz urf-odatlarining, madaniyatning ismlarda aks etishini oʻzbek va qoraqalpoq antroponimlari misolida koʻrib chiqishimiz mumkin. Ism qoʻyishdagi urf-odatlardan biri bu chaqaloqning tugʻilgan vaqtini uning ismi orqali belgilash hisoblanadi. Masalan, kun bilan bogʻliq boʻlgan *Jumagul*, *Sörsengul*; xalq bayramlari bilan bogʻliq *Nawrızbiyke*, *Jecisgul* (9-may), *Tazagul* (1-yanvar); oy nomi va mavsum bilan bogʻliq boʻlgan *Orazgul* (Roʻza oyi), *Gulböhör*, *Böhgörgul* kabi ismlarda koʻrishimiz mumkin. Bu nomlar oʻzbek tilida Navroʻzoy, *Jumagul*, *Bahoroy*,

Gulbahor tarzida aks etgan. Ko'rishimiz mumkinki, ikki tilning ham lug'at boylini to'ldiruvchi bunday ismlar, o'zbek va qoraqalpoq madaniyatining chambarchas bog'liqligidan darak beradi.

Umuman olganda, har bir qo'yilgan ism xalqning milliy o'zgachaliklarini ko'rsatib, tarbiyaviy ahamiyatini ochib berishda ham katta xizmat qiladi. Ismlar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda ma'lum bir maqsad, xalqning istak va orzulari namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Xalqning orzu-istaklari aks etgan ismlar: Baxtigul, Zuxra, Nadira, Rawshan, Jamiyla, Aliyma, Shiyrin, Aziz, Umit, Intizar.

O'zbek tilida: Baxtigul, Zuhra, Nodira, Ravshan, Jamila, Olima, Shirin, Aziz, Umid, Intizor.

Chaqaloqqa uzoq umr, salomatlik tilab qo'yilgan ismlar: Omirbek, Tursinay, Baxtiyar, Azamat, Batur, Taspolat.

O'zbek tilida: Umrbek, Tursinoy, Baxtiyer, Azamat, Botir, Toshpo'lat.

Keyingi farzand o'g'il bo'lsin deya niyat qilib qo'yilgan ismlar: Uldawlet, Ulbosin, Ugljan, Ulxan.

O'zbek tilida: Ulbo'sin, O'g'iljon, O'g'ilxon.

Animizm va totemizm bilan bog'liq bo'lgan ismlar: Qarlagash, Toti, Burkit, Arislan, Boribay.

O'zbek tilida: Qaldirg'och, To'ti, Burgut, Arslon, Bo'riboy.

Chaqaloqdagi biror belgiga bog'liq tarzda qo'yilgan ismlar: Qalbiyke, Qarakoz, Qaraqash, Qarashash, Qalbazar.

O'zbek tilida: Xolbeka, Xolbek, Qorako'z, Qoraoqosh, Qorasoch.

Tug'ilgan vaqti va joyiga nisbat berib qo'yilgan ismlar: Aytoldi, Jumagul, Jumabay, Bazargul.

O'zbek tilida: Ayto'ldi, Jumagul, Jumaboy, Bozorgul.

Diniy tushuncha va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan ismlar: Allambergen, Qudaybergen, Sulayman, Ibrayim, Abubakir, Womar, Fatiyma, Ayscha.

O'zbek tilida: Xudoyberdi, Xudoybergen, Sulaymon, Ibrohim, Abubakr, Umar, Fotima, Oysha.

Ko'rinadiki, ikki xalq vakillari ham chaqaloqqa berilgan nom uning hayotiga, taqdiri va baxtiga katta ta'sir ko'rsatadi deb ishonganlar va shunga muvofiq tarzda chaqaloqqa ism tanlaganlar. Bu esa ismning madaniyatga, madaniyatning ismga bo'lgan ta'siri kuchli ekanligini ko'rsatadi. Bolaga ism qo'yishdagi erkinlik nomlarning milliy boyligidan muayyan ismni ixtiyoriy tanlashda namoyon bo'ladi. Lekin hech bir ota-ona o'zi yashayotgan muhit, davr, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniyat, ma'naviy turmush talablaridan tamoman chetga chiqib keta olmaydi. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, o'zbek va qoraqalpoq tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli xavflardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashgan. Shu sababli bunday ismlarning yuzaga kelishida qadimiy totemistik, animistik tasavvurlar, ko'hna diniy aqidalar, udumlar, keyinchalik esa islom dini ta'limoti bilan aloqador bo'lgan diniy, falsafiy qarashlar, e'tiqod va ishonchlar asosiy rol o'ynagan. O'zbek va qoraqalpoq tilidagi ismlar bu xalqlarning yuksak madaniyati va ma'naviyati, nozik didi, go'zallik va nafosatga boyligidan darak beradi. Xulosa qilib aytish mumkinki, ismlarning bunday bir-biriga o'xshash

tarzda aks etishi, o'zbek va qoraqalpoq madaniyatining chambarchas bog'liqligini, bu xalqlarning azaldan bir-biriga yaqinligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Никонов В. А. Методы антропонимики. Личные имена в прошлом, настоящем, будущем. –М., 1970.

2. Jumanazarova G. Qaraqalpaq hayal-qizlar atlari'. - No'kis, 2013

ГУЛ ЛЕКСЕМАСИ БИЛАН БОШЛАНУВЧИ ИСМЛАР

Гулбахор ДУШАЕВА,

ГулДУ ўқитувчиси

Аброр АБДУХАМИТОВ, Гулжаҳон РОЗНҚОВА,

ГулДУ талабалари

Ўзбек тилида форс-тожикча гул лексемаси замирида ясалган исмларнинг кўпчилиги аёллар ва кизлар исмидир. Йигитларимизда бундай исмлар анча камдир.

Тил бирликлари сифатида **фонема, лексема, морфема ва колиплар** ҳам тан олинган, улар нутқимизда хилма-хил кўринишларда намоён бўлаверади. Тил бирликларини кизлар исмига жорий қилганда, шу нарса маълум бўлдики, Норгул исми н, о, р, – г, у, л фонемаларидан таркиб топган, бу фонемаларнинг иккитаси унди: о, у тўрттаси ундош: н, р, г, л. Ҳар қандай исм маълум бир фонемаларнинг йигиндисидан иборатдир. Араб, форс, тожик тиллардан ўзлашган исмлар ҳам, ўзбекча исмлар ҳам мазлум.

Хотин-кизлар исмларининг танланishiдаги этнографик, рухий-маънавий ва бошқа ҳолатларини қайд этиш фойдадан холи бўлмайди. “Туғилган чакалоққа бундай исм нима учун бундай қўйилган?”, деган саволга жавоб бўлади. Гул сингари гўзал нафис бўлсин деган истак учун номлаш: **Гуллола, Гулкора, Гулсин, Гулойим, Гуландон** ва б.

Хотин-кизларга исм бериш анъаналари, тамойиллари ниҳоятда ранг-баранг ва кўп қиррали. Уларнинг ҳаммасини санаб ўтиш, тасниф қилиш анча мураккаб ва катта меҳнат талаб қиладиган иш. Ҳар бир исм бир тамойил асосида берилadi. Исм асосида бирор сабаб мавжуд бўлади. Ана шу сабабни ўйлаб топиш ва танлаш нозик ва қийин маъсулиятли ишлардан ҳисобланади. Оилада вафот этган момоларнинг бир ёки икки авлод илгари ўтган кишиси исмини такрорлаш ва уларнинг қўйиш урфи, одати мавжуд. Гул, бону, жон, хон, нисо, биби, буви, ой ва шу каби сўзларни исм охирида такрорлаб ҳам анъанавий исмлар яралади: **Шаҳрибону, Асалбону, Мехрибону** ва б.

Гуландон, Гулбахор, Гуласал, Гулбарчин, Гулнора каби исмлар анъанавий исмлар саналиши мумкин. Бундай исмлар бир оила мисолида эмас, ака-ука, опа-сингил, қариндошлар оиласида қўйилиши мумкин. Кўпинча номловчи кишиларга нисбатан айтадиган бўлсак, улар бир манбага мансуб бўлса шундай исмлар пайдо бўлади.

Гул сўзли исмлар ўзбек тожик ва умуман, Ўрта Осиё халқларида энг кўп тарқалган, такрорланадиган исмлар сирасига киради. Гул ўзбек исмларининг

хам бош қисмида, ҳам сўзнинг охирги қисмида учрайди. Бу ҳодисанинг лисоний ва этнографик, рухий-психик омиллари бор. Бошқа биронта сўз гул сўзи сингари кўп такрорланмайди. Айниқса, гул сўзи тугалланма қисмда миқдоран чексиз тарзда бўлиши мумкин, аммо сўз бошида гул сўзининг қўшилишида маълум бир чекланишлар бор. Масалан, ўзбекларда **Бўригул**, **Кўзигул** исмлари бор. Чорвадор ва кинилок аҳолиси ўртасида бу хил исмлар учраб туради. Бу исмларнинг **Гулбуви**, **Гулқўзи** нусхалари йўқ. Бундай исм кўйиш қулғили, албатта. Лекин **Гулнор**, **Норгул**, **Пошшогул**, **Гулпошшо** исмлари бор. Бундай исмларда сўзнинг бошида ва охирида ўзгаришлар ҳам эриш туюлмайди. Бу тур исмларнинг ном сифатида яратилишида кўзда тутилган тамойиллар вомловчиларга таниш, шунинг учун гул сўзини исм бошида, исм охирида ҳам қўядилар. **Норгул**, **Гулнор** ёхуд **Гулнора** исмлари бола тутилганда кизил нори бўлганлиги сабабидандир. **Пошшогул** ва **Гулпошшо** исмларининг яратилишида ота она ёки қариндошлари кўпинча (бобоси ва момоси), яъни исм кўювчилари хоҳиши, истаги кўзда тутилади. Яъни “Кизимиз улуг, мартабали, буюк бўлсин!”, деган ниятда шундай исмларни танилашади.

Бўригул, **Кўзигул** исмларини танлаганда қандай сабаблар мавжуд. Уларнинг тамойиллари ва омиллари нималардан иборат? Ахир бўри, кўзи ва гул сўзлари англаган тушунчалар бир бирига қовушмайди. Мантик илмида бир бирига дахли йўқдай туюлади. Айтиш ўринлики, бу исмларнинг яратилишида ҳам ўзига хос лисоний, нолисоний омиллар инobatта олинади. Нолисоний омил деганда, бўри сўзи англаган тушунчанинг кишилар онги ва хотирасига, урф одатларида, диний ва маънавий қарашларида, хайвонлар оламига муносабатида намоён бўладиган тасаввурлар кўзда тутилади. Ана шу каби тасаввурлар **Бўритош**, **Бўринисо** сингари исм, яъни хотин кизлар исмларининг қўйилишида ҳам сабабчи бўлади. Хатто **Бўри**, **Бўривой**, **Бўрикул**, **Бўрихон**, **Эшбўри**, **Жовбўри**, **Бўриқора** сингари эркаклар исмининг юзага келишида ҳам бир хил тамойиллар кўзда тутилади.

Э Бегматовнинг ёзишича чакалокка касаллик ва бевақт ўлимдан сакланиш учун хайвонлар номига таяниш, шу хайвонларга касалликни ҳайдаш одатлари халқ орасида ханузгача сақланади. Ана шундай хайвонларнинг улуғи бўри. Муаллифнинг 1991 йилда нашр этилган “Ўзбек исмлари” китобида гул сўзи билан боғлиқ 200 дан ортиқ исмлар берилган. Гул сўзнинг исм охирида келиши миқдоран анча кўпдир. Э. Бегматовнинг¹ ўша китобида 175 та гул сўзи сўзининг охирги қисмида келган. Шунинг учун бу сўзга исмларда кўп такрорланган “Ўзбек исмлари” китобида 400 га яқин исмда гул сўзи мавжуд. 200 дан ортиқ исм бошида, 175 дан ортиқ исм охирида гул сўзи иштирок этган.

Гул сўзи тожик тилидан ўзлашган. Бу ҳодиса тилнинг анча узок ўтмишида юз берган. Шунинг учун гул сўзли исмлар эски ўзбек тили ёдгорликлари учрайди. Гул сўзи исмларнинг бош қисмида келганида унга ўзбекча, арабча, форсча тожикча сўзлар қўшилган. Гул сўзига қўшилиб

¹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. -Тошкент, 1991.

ўзбекча исм ясашга хизмат қиладиган ўзбекча сўзлар: бека, буви, биби, ой, хон, момо, севар, чирой, хоним, чечак, бегим, ойим, юз, киз, бувиш.

Гул сўзи қўшилиб исм ясашда иштирок этадиган тожикча сўзлар куйидагича: *андоз, андом, афшон, банот, бадан, бар, барг, баҳор, бодом, даста, доно, диёр, ёри, жамол, жура, жаҳон, жон, замон, замин, зебо, зод, зода, нисо, пора, нор, анор, райҳон, ҳол, шайдо, меҳр, лаъла, пошшо, ранг, сафсар, тожи, тож, чаман, чипор, шод*, шода ва бошқалар.

Ушбу сўзга қўшилиб келувчи арабча сўзлар: *санам, шаҳноза, асал, шайнаб, ҳумор, раъно, рух, шаҳноз* ва бошқалар.

Араб тилидан ўзлашган узор (маъноси инсоннинг юзи) сўзи маъносини тушунмасдан хужжатларда ва китобларда айрим қизлар ўз исмларини Гулзор тарзида ёзиб ва айтиб юришгани маълум. Шакл жиҳатидан бу арабий сўз фор-тожик тилларидан ўзлашган ўрин жой оти ясончи зор қўшимчасига ўхшаб қолмоқда ва тилдаги ясама гулзор (гул қўл ўсган жой) сўзи билан бир хил бўлиб қолмоқда. Шунинг учун бу исмни тўзрилаб ёзиш ва айтишни метёраштириш ва одатлантириш зарурати бор. Шунда исмнинг яратиш сабабини ва нолисоний омилни белгилаш имконияти туғилади. Гулзор исмини гул юзли деб изоҳлаш мумкин.

Гул сўзи исм бошида келганда тожикча “-и”, ўзбекчада “-ли”, “-им” қўшимчаларининг қўшилиш ҳолати бор. “-им” қўшимчасидан сўнг ой, хон, жон сўзлари қўшилади ва исм ясалади: Гулойим, Гулжаҳон, Гулираъно каби.

Бу сўздан сўнг қўшилиб исм ясаш учун хизмат қиладиган сўзлар анча чекланган. Улар таркиб жиҳатдан, маъно жиҳатидан гул сўзи исм охирида келадиган исмлар мажмуининг бол қисмидаги сўзлар билан тенг эмас. Шунга айтиш керакки, шундай сўзлар ҳам борки, бемалол ўрин алмашаверди. Ойгул, Гулол, Гулойим Ойимгул, Норгул Гулнор, Меҳригул Гулмеҳри. Бундай исмлар анча кам. Исмнинг бошида ва охирида келиши исмнинг танланишидаги қатор лисоний ва нолисоний омиллар билан боғлиқ бўлади.

Тозагул дейиш мумкин, лекин Гултоза деб бўлмайди. Чиннигул деган исмлар бор, Гулчинни исми йўқ. Шодигул исми бор, Гулшоди исми йўқ. Онагул исми Хоразмда учрайди, Гулэна исми Ўзбекистонда топилмайди.

Гул сўзининг исм сўнгида келиши ўзбек исмлари мажмуида кенг тарқалган ҳодиса эмас. Гарчи, Э.Бегматов 175 та исм сўнгида гул сўзли келишини аниқтаган ва бундай исмларни ўзининг лугатида киритган. Хонимгул, Яхшигул, Чамангул, Чиннигул, Ширингул, Шамсигул, Тозагул, Моҳигул, Ойгул, Норгул, Аноргул, Ойнагул, Нозигул, Онагул, Оразгул, Зебогул сингари исмлар кенгрок тарқалган.

Аммо кўрсатилган лугатда қайд қилинган исмлар халқ орасида кам оммалашган: Жумагул, Жўрагул, Каттагул, Кенжагул, Кумушгул, Майдагул, Маржонгул, Кўркамгул ва бошқалар. Гул сингари гўзал нафис бўлсин деган истак учун номлаш: **Гуллола, Гулнора, Гулсин, Гулойим, Гуландон** ва б.

Хотин-қизларга исм бериш анъаналарини, тамойиллари ниҳоятда ранг-баранг ва кўп қиррали. Бу сўзли исмларда инсоннинг чиройи, гўзаллиги бошқа тур ўсимликлардан маданийлиги, хўшбўйлиги билан ажралиб турувчи гулнинг фазилатлари ҳисобга олинади. Гулдаги яхши хусусиятлар инсон исмига кўчган.

Гул сўзидан кейин келадиган тушунчаларнинг, белгиларнинг, номнинг танланишида ўзига хос қонуниятлар, қоидалар борки, уларни фақат лисоний тадқиқотлар билан аниқлаб ва маълум хулосага келиб бўлмайди.

BADIIY ADABIYOTDA ANTROPONIMYA

(*Erkin A'zam ijodi misolida*)

Oybek NORMURODOV,

Guliston DU talabasi

Badiiy adabiyot san'atining boshqa turlaridan o'zining ko'pqirraligi bilan ajralib turuvchi adabiy-estetik hodisadir. Badiiy adabiyotda hayotning quvonch va tashvishlari, halovat-u azoblari aralash tarzda ifodalanadi. Bu kabi jarayonlarni o'quvchi ko'z o'ngida yanada jonli ko'rsatish muallifning obraz yaratish mahorati bilan ham bog'liq. Aksariyat yozuvchi va shoirlarimiz, hatto, asar qahramonlarining "antroponimlari – ism"lga ham katta e'tibor qaratadi.

Adabiyotimizda adabiy qahramonlarining ismi boshqa asar personajlarining ismiga mutloq o'xshash bo'lmagan ijodkorlardan biri – Erkin A'zamdir. Yozuvchining "Guli-guli" qissasining bosh qahramoni **Maymun** – Mo'min ismli bezori, ma'naviy buzuk, o'taketgan jirkanchli bir yigit sifatida tasvirlangan. Yozuvchi asarda Maymunni "... Mo'min kalni aslida maymunligini hali hech kim bilmas edi..."² – deydi va uning jirkanchli inson ekanligiga ishora qilib shu ismni tanlaydi. Yana shunday ismlardan biri **Vahshiy** Orziqulov. Vahshiy asarda aytilishicha bolalar qo'ygan laqab. Qissada Vahshiyning qilgan vahshiyligi Maymunni rossa qorniga tepgan, Katiyaning "xizmatidan" bahramand bo'lgani kabi voqealarda aks etgan. Ayni shu qissada Yusufjon antroponimi qo'llangan. Bu asar hikoyachisi – muallifning rejissor do'sti. U rasmiy odam bo'lganligi uchun ismi hech qanday o'zgarishsiz an'anaviy ismlardan foydalanib qo'llanga.

Personajlarning nutqiy holatini aniq jonlantirish uchu muallif ba'zan dialoglarda va qahramon tilida hikoya qilingan monologlarda ham ismlarni turli tovush o'zgarishlariga uchragan holatda qo'llaydi. Masalan, "Chapdast" hikoyasida quyidagi nutqqa e'tibor beraylik:

– Tuzuk turing-e, chol, – deydi yangamiz hushi uchib. – Ajab-ajab so'zlar qilyapsiz?

– Bo'lmasa, gap bunday, **Mayramoy** – bizni endi bizni endi bir uylantirib qo'ysangiz!

– Ibi, sizni bir balo urama? Falon yoshga kirib-a! [283]

Bu dialogda Maryam ismining nutqda qo'llangan shakli yaqqol ko'zga tashlanadi. Yoki: – Keling, keling, **Marinaoy**!

– Bormisiz, **Lenaxon**, bormisiz? [264]

Bu rus ayyolarining ismi. Yozuchi ayyollar ismiga *-oy*, *-xon* kabi o'zbekcha munosabat bildiruvchi qo'shimchalar qo'shish orqali yurtimizda yashayotgan rus

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik tomonlarining izohli lug'ati – T., "O'zMEP" 2002, 16-bet.

² A'zam E. Shevqin, Roman, qissa, hikoyalar, – T., "O'zbekiston" 2011, 203-bet [Bundan keying o'rinlarda asardan olingan sahifa keltiriladi].

millatiga mansub insonlar ham o'zbek ma'naviyatini o'ziga singdirishganiga ishora qiladi. E. A'zam ijodida ismlar bilan birga laqablar ham talaygina. Misol uchun, Sobir to'pponcha, O'rmon kalta, Soli baqiroq kabi.

Xuddi shu kabi asardagi har bir qahramonning ismi ularning xarakterini ochishda muhim o'rin egallaydi. Yozuvchining qahraonlariga tanlangan antroponimlar qay usulda yaratilishiga ko'ra quyidagi jadvalda keltiramiz:

An'anaviy antroponimlar	Tovush o'zgarishiga uchragan ruscha va an'anaviy antroponimlar	Yozuvchi tomonidan yasalgan individual antroponimlar	Laqablar bilan birga qo'llaniladigan antroponimlar
Farhod Mahmud Mo'min Qodir Ismatboy Hamroboy Akmal Iskandar Arslon Musabek Oftob	Mayram Rayma Fedika Aniska Guliya Sabo	Maymun Vahshiy Sho'ro Dodo Kalamush Falonchi Falonchiyev Lenaxon Marinaoy Platon Sokratovich	Sobir to'pponcha O'rmon kalta Soli baqiroq Rahmon Bolta Sayfiddin Kulolov Xasancha Safar nosfurush Papay Salom tog'a Ma'mura gajak Dagar ovchi

E. A'zam asarlarida qo'llangan antroponimlar 4 guruhdan tarkib topgan. Antroponimlarni bu uslubda qo'llash muallifning ijodiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishda muhim omil hisoblanadi. Muallif qo'llagan individual antroponimlar, odatda, turdosh otlar bilan bog'liq. Ruscha ismlar esa o'zbekcha talaffuzga moslashtirilgan va ko'pincha dialogik nutqlarda qo'llangan. Hikoyachi qahramon tilidagi o'rinlarda esa antroponimlar adabiy til meyorlariga ro'ya qilgan. Yozuvchi asarlaridagi ismlar qanday usulda qo'llanilishidan qat'iy nazar qahramon ichki dunyosi, uning xarakteri, ijtimoiy hayotdagi o'rnini ochib berishga va kitobxonlar ko'nglidan chuqur joy olishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zam E. Shovqin. Roman, qissa, hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2011.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: 2002.

ЎЗБЕКИСТОН ЭТНОНИМИКАСИ

О. МУРОДҚУЛОВ, А. БОЛИБЕКОВ,

Гу.ИТЎ ўқитувчилари

Ўзбек номшунослигининг этнонимларни ўрганувчи бўлими Ўзбекистон этнонимикаси дейилади. Этноним – кабила, уруғ, халқ номи¹. Буни сал мукаммаллаштирсак, – этнонимлар бу кабила, уруғ, аймоқ, эл, элат ва халқ(лар) номи ҳисобланади дейилса, тадқиқотчиларнинг эътиборидан қолиб бораётган эл, элат, аймоқ терминлари ҳам эътиборга олинади.

Аймоқ сўзи илмий ишларда маъноси архаиклашган терминлардан бири сифатида негандир қўлланилмайди. Мана энди қўлланмоқда: “Тилимизда “Уруғингдир-аймоғингдир ёки бирорта маймоғингдир”, “Фалончи серуруғ, уруғ-аймоқлари кўп” деган иборалар тез-тез учраб туради. Бунда бир ҳудудда яшовчи қариндош оилалар тушунилади, уруғ ва аймоқ сўзлари бир хил маънода қўлланилади. Аймоқ атамаси қашмоқ, бармоқ, тармоқ, маймоқ каби қадим туркий сўزلардан бўлиб, бугунги кунда Бурятия ва Олтой ўлкаларида кичик маъмурий ҳудудлар – туман маъносига ишлатилади. Бу сўз мўғул тилида ҳам бўлиб, маъмурий-ҳудудий бирлиكنи билдиради. Аймоқ атамаси туркий кабилалардан бирини билдиришдан ташқари бир қанча кабила ва уруғлар иттифоқи маъносига ҳам эга.

Хар бир сўзнинг бир неча маъноси бўлгани каби эл сўзининг ҳам қуйидаги маъно нозикликлари мавжуд: “Эл энг қадимги туб туркий сўزلардандир. Аввало бир жойнинг одамлари маъносини билдиради. Хоразм эли, Қошғар эли. Бир кабилага мансуб кишиларга қўлланадиган: кипчоқ эли, манғит эли. Эл сўзи миллат, халқ маъноларини ҳам ифодалайди. Илгари “Эл байроғи” газетаси ҳам чиққан. Юрт, мамлакат маъноларида ҳам қўлланади. Масалан, қозоқ эли деганда қозоқ халқини ҳам, Қозоғистонни ҳам тушуниш мумкин. Ёки бўлмаса, чет эллар деганда хорижий халқларни ҳам, хорижий мамлакатларни ҳам англаш ва англатиш мумкин.

Эл иборасида, шунингдек, иттифок, қотувлик, ахиллик маънолари ҳам бор. Эл ёвнинг зидидир. “Эл бўлди” деганда дўстлашди, бирлашди маъноси англашилади. Элнинг ана шу мазмунидан элат атамаси келиб чиққан”.

Этнонимлар, уларнинг келиб чиқиши ва таракқиёти масалалари бўйича Н.Н.Миклухо-Маклая номи этнография институти ходимлари махсус тадқиқотлар олиб боришган. Масалан, В.А.Никонов масъул муҳаррирлигида 1970 йилда нашр этилган “Этнонимы” номи мақолалар тўпламининг мисол сифатида келтириш мумкин². Унда Е.В.Ухмылинининг мақоласида макро ва микроэтнонимлар тўғрисида фикр юритилган³.

¹ Қорасев С. Этнонимика. –Т.: Ўзбекистон, 1979. 23 б.; Зайтов Зойир. Турон қавмлари. Т.: Ўзбекистон, 2008. 230 б.

² Этнонимы. М.: Наука, 1970. 268 с.

³ Ухмылина. Е.В. Названия и прозвища русского населения горчковой области. – Этнонимы. М.: Наука, 1970. с. 254-265.

Бу соҳада профессор Х.Дониёров тадқиқот олиб бориб, 99 уруғ-қабила бирлашмасидан шаклланишини кўрсатиб, ўзбек уруғларининг тарқалиши ва сонини тарихий манбалар билан талкин қилган. Улар этнотопонимлар учун асос вазифасини ўтайди. А.Отажонова мамлакатимиздаги этнотопонимларни ўрганган¹. Н.Охунов эса Фарғона этноойконимларини тўхталган². А.Туропов эса Самарқанд вилоятидаги этноойконим, топонимик аниқлагичли этноойконимларга эътибор қаратган³. Ўзбек этноними хусусий этнонимнинг бир шакли сифатида⁴ қуйидаги тараккиёт босқичларини босиб ўтган:

1) Ўзбек этноними тарихи⁵; 2) ўзбек этнонимининг бугунги ҳолати.

Мамлакатимиздаги этнонимларни иккита катта гуруҳга бўлиши мумкин:

1. Умумтуркий ва ўзбек халқига тегишли этнонимлар⁶.

2. Умумтуркий бўлмаган этнонимлар.

Мамлакатимиздаги кўп топонимлар этнотопонимлар саналади. Масалан, *Қорақалтоқ* (қ.), *Қитчоқ* (шаҳар номи), *Сариқ* (шаҳар номи), *Бойсун* (туман номи), *Косон* (туман номи), *Қирғиз* (қ.), *Найман* (қ.), *Чироқчи* (қ.), *Аёқчи* (қ.), *Бешқозоқ* (қ.), *Бойқозоқ* (қ.), *Авоқли* (қ.), *Қорахитой* (қ.) ва бошқалар.

Шу ўринда ўзбек этнонимига махсус тўхталишни лозим деб биламиз: “Бизнингча, ўзбек атамаси худди турк сўзининг эквиваленти – маънодоши бўлиб, ўзини ишонувчи, мустақил фикрловчи ва иш тутувчи, ботир (Абдурауф Фитрат ҳам “Абулфайзхон” трагедиясида мана шу сўзни ишлатиб, “Ўзбек ўғлонлари ботир бўлурлар” дейди), мард, ёвқур, чекинмас сингари фазилатларни англатган. Шундай фазилатли кишиларга нисбатан ўзбек ибораси ишлатилган. Бора-бора ота-оналар орасида ўғлим шундай фазилатларга эга бўлиб, камол топсин деган ният билан фарзандига Ўзбек деб исм қўйганлар. Ўзбекхонга Ўзбек деб исм қўйилибдими, демак, бундай одаг го у туғилгунча ҳам расм бўлган”⁷.

Турк сўзи тарихий ва замонавий маъноларга эга. Турк деган сўз, энг аввало олис ўтмишда Турон мамлакатига гаваллуд топган ва яшаган халқнинг номини билдиради. Турк эли дейилганда Турон мамлакати тушунилган – бу биринчидан. Иккинчидан, турк деган сўз сифатни ҳам англатган. Турк эли дейилганда эса мард, ёвқур, кўрмас, баходир, мустақил халқ маъноси англашилаган. Мажозий маънода сифат вазифасини ўтаб, кўркам, комати келишган, соғлом, жисмонан бақувват, чидамли, чиниккан, сабрли, бош тушганин Тангрининг буйруғи деб билиб, шукур қиладиган одам тушунилган. Турк ўғлон дегани шундай маънавий ва жисмоний фазилатларга эга йигитдир.

¹ Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. Т.: Фан, 1997. ; Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг дугавий асослари. ИИА. Т.: 1997.

² Охунов Н. Фарғона vodiysi этноойконимлари / ЎТА. Т.: Фан, 2000. 1-сон. Б. 20-23.; Охунов Н. Этноойконимларнинг ясаллиги // Тил ва адабиёт таълими. Т.: 2010. 4-сон. Б. 38-43.

³ Туропов А. Самарқанд вилояти этноойконимларининг таҳлили. ФФНД. Т.: 1999.

⁴ Шонисов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. -Т.:Шарк, 2001. –464 б.

⁵ Ахмедов Б. Ўзбек улуси. Т.: А.Қодирий номидagi халқ мероси ваъриёти 1992.152б.

⁶ Туропов А. Топонимик аниқлагичли этноойконимлар - ЎТА.Т.:Фан, 2000. 2-сон. Б. 30-32.

⁷ Иброҳимов А. Бруглик. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий ваъриёти. 2006. 34-бет.

Турк сўзи “гўзал” сўзи ўрнида ҳам ишлатилиб, кўрганининг суки, хис этганининг икки тушадиган даражада гўзалликка нисбатан ишлатилган ва шундай фазилятлар соҳибаси бўлмиш мафтун этувчи сулувни билдирган. Шоир Ҳофиз Шерозий турк иборасини икки хил маънода – *ҳам туркий миллатга мансублик, ҳам мафтункорлик маъноларида* қўлланган, буни бадиий адабиётда сўз ўйини – сўз санъатининг бир кўриниши дейилади. Мушоҳада қилиб кўринг:

Агар кўнглимни олса ушш турки жонон,

Қаро холига бахш этгум Самарқанду Бухорони”.

Юкоридаги мисоллардан ҳам кўриниб турибдики, этнонимлар ҳам сўзлардан, аниқроғи, танланган сўзлар саналади: “Этноним – слово и, как все слова, подчиняется законам языка”¹. Хуллас, этнонимлар орфографияси² масаласини жиддий ўйлаб кўриш вақти келди: *уйғур, ўзбек, қozoқ, татар* шаклида эмас, балки *Уйғур, Ўзбек, Қozoқ, Татар* шаклида ёзиш уларнинг ономастик тизимдаги мавқеини кўрсатиб ҳам турадида.

Ахмадали Аскарлов ўзининг “Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи” номли китобида халқимизнинг келиб чиқиш тарихи, уларнинг ўз давридаги аҳамияти, бугунги кундаги ҳолатига эътибор қаратган³. Тарихчи олимлардан яна бири бўлган Исо Жабборовнинг “Ўзбеклар” номли монографиясида ўзбекларнинг турли уруғ, қабилалардан келиб чиққанлиги, анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданиятига жиддий тўхталинган⁴.

ЗОМИН ВОҲАСИДАГИ АЙРИМ ЭТНОНИМЛАРНИНГ НОМЛАНИШИ ХУСУСИДА

Гулноза РАИМЖОНОВА,

Гулдўсталабаси

Этник номлар тилдаги энг қадимги сўзлар ҳисобланади, улар халқ ўтмиши ва тил тарихини ўрганишнинг муҳим манбаларидан биридир. Этник гуруҳларни номлаш мезонлари ранг-баранг бўлган.

Тотемлар асосида юзага келган этнонимлар. Ибтидоий уруғчилик тузуми даврида яшаган одамлар муайян жониворлар, ўсимлик, предмет ёки ходисаларни тотем ҳисоблаб, эътикод қилишган. “Тотем” термини шимолний америкада яшаган хиндуларнинг **ожибве** қабиласи тилидан олинган бўлиб, “унинг уруғи” деган маънони билдирган [1]. Тотем кишилар гуруҳи (одатда уруғлар) билан тотемлар – **хайвон ва ўсимлик** турлари ўртасида қонқариношлик бор, деган тушунча билан боғлиқ. Ҳар бир уруғ ўз тотемининг номи билан аталган. Тотемчи ўлдириш ва ейиш тақиқланган. Кўплаб қabila ва уруғ номлари тотем атамалари билан юзага келган. Туркманларда тотем асосида шаклланган “ак колонду”, “қара колонду” (яъни оқ қўйли ва қора

¹ Никонов В. А. Этнонимия. – Этноисусы. М.: Наука, 1970. с.25. (с.5-33).

² Қодиров М. Номларимиз қандай ёзилиши керак. – ЎТ. 1971.4.№1. Дошеров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шеваляри. –Т.: 1968. 98-б.

³ Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. (Ўқув қўлланма). –Т.: Университет, 2007. 340-бет.

⁴ Жабборов И. Ўзбеклар. –Т.: Парк ва приёт матбаа-акция-эртик компанияси бош таҳририяти, 2008. 238-бет.

қўйли), “теке” (така), турк уруғ-кабилаларида “ак сыуырлы” (ок сигирли), “кара отли” (кора отли) кабилаларида “сары кечили” (сарик эчкили), “кара текели” (кора такали) каби уруғ номлари бор [2,139].

Зоминда туякаш, уяс каби этнонимлар мавжуд бўлиб, улар ҳам тотем асосида юзага келган. Воҳада учрайдиган баъзи этнонимларнинг маъноларини кузатсак, уларга у ёки бу жонивор номи асос бўлганлиги маълум бўлади. Масалан, қадимий тилишунос олимлардан Абу Ҳаййон ал-Андалусий ва Жамолиддин Тусий асарларида “уяс” термини “пашша”, “чивин” деб изоҳланган. Тотем асосида уруғ номланиши қадимдан туркий ва мўғул халқлари орасида анъана ҳисобланган. Абулғозий Баҳодирхон ҳам “Шажараи тарокима” асарида Ўғузхоннинг неваралари, авлоди учун тотем ҳисобланган бургут, шункор, укки, карчигай, турумтой, лочин, хумой, туйгун, қарға каби қуш номларини ҳам келтиради [3,22-23].

Маълум уруғ ва кабила учун тотем ҳисобланган жониворлар номи кейинчалик шу кабила ёки уруғ атамасига – этнонимига айланган.

Тамға ва белги асосида юзага келган этнонимлар. Кўпгина этнонимлар уруғ ёки аймоқ тамғаси номи билан аталган. Ҳар бир уруғ ёки кабиланинг ўз махсус тамғаси бўлган. Маҳмуд Қошғарий 22 ўғуз кабиласи ҳақида тўхталиб, шундай деган эди: “...уларнинг ҳар бирининг махсус белгилари, молларига ҳос тамғалари бордирким, уруғларни шу тамғаларига қараб айирадилар” [4,89].

Аждодларимиз молларини, отларини бошқалариникидан фарқ қилиш учун тамғалаб қўйишган. Кейинчалик ана шу тамға белгилари кўп ҳолларда маъжур этник гурӯҳ учун ном бўлиб қолаверган. Зомин воҳасида учрайдиган **боймоқли, сирғали, белғали, сўлоқли** каби этнонимлар тамға белгиси асосида пайдо бўлган.

Ранг-сифат билдирувчи сўзлардан ясалган этнонимлар. Зоминда мавжуд бўлган оқар, қорапчи (қора қипчоқ), қорасийрак каби этнонимлар ранг билдирувчи сўзлар асосида юзага келган.

Текширишларимиз шуни кўрсатдики, топонимлар ва этнонимлар таркибидаги ранг билдирувчи сўзларнинг маънолари ўртасида маълум миқдорда фарқ мавжуд. Шунинг учун ҳам биз фақат этнонимларгагина ҳос бўлган ранг ифодаловчи сўзлар ҳақида фикр юритамиз.

Н. А. Аристовнинг ёзишича, этнонимни ифодаловчи сарик ранг шарқда подшоҳлар оиласига мансуб оқсуяк, юқори табақа кишиларига нисбатан қўлланилган[5]. Н.А.Баскаков эса “киргиз” этнонимининг этимонини “кизил ўғизлар”, яъни жануб ўғизлари деб изоҳлайди[6,92-93].

Лекин айрим олимларнинг фикрича, ранг билдирувчи сўзларнинг баъзилари ўз маъносида ишлатилади. Масалан, қорамаң “қорачадан келган одам” ёки “қора сочли киши”, юрюк кабилаларидан бири сочи қорали, яъни “қора сочли” кабилар шулар жумласидандир. Шунингдек, **сарик** этнонимини **сары** сўзидан келиб чиққан. У половец, яъни қипчоқ этнонимининг калькаси.

Тилишунос К. Шониезов ҳам, қора, кизил, қўқ, сарик, оқ каби этник номларнинг тасодифан юзага келмаганини айтиб, қуйидагиларни ёзади: “Қадим даврларда Олтой ва жанубий Сибирда яшаган туркий кабилалар шимол, жануб,

шарк, ғарбни ранглар номи билан атаганлар Қора ранг шимолни, кизил ранг жанубни, кўк ранг шаркни, оқ ранг ғарбни, сарик ранг марказни ифодалаган. Маълум бир қабила иттифоқида бўлган кишиларнинг томонларга қараб жойлашиши одат тусига кириб, вақт ўтиши билан томонларнинг номлари (ранг номлари) этноним бўлиб қолган”[7, 145-146].

Демак, ҳозирги вақтда ранг билдирувчи сўзларнинг уруғ-қабила номи билан қўлланиши, яъни уруғ номи олдида сифат бўлиб келиши уларнинг ўтмишда дунё томонларига нисбатан олинган жойлар номини билдирганлигидан далолат беради.

Микдор билдирувчи сўзларга асосланган этнонимлар. Этнонимларнинг пайдо бўлиш олимлардан яна бири этник гуруҳларни ташкил қилувчи кишиларнинг сон (микдор) жиҳатидан фарқланишидир. Манбаларнинг хабар беришича, қадимда ўзининг микдори катта ёки кичик гуруҳни ташкил қилиши, бошқа қавмлар орасида тутган ўрни ва ўз мавқеига эга бўлган қабила ва уруғлар ана шу хусусиятлари билан жамиятда катта роль ўйнаган. Шунинг учун этник номларнинг айримлари микдор билдирувчи сўзлардан ташкил топган. Зомин ҳудудида мавжуд бўлган қуйидаги этнонимлар ана шундай ясалган: найман, парчаюз (парчажуз), бешюз (бетжуз), қирқ, минг ва б. Масалан, манғит этноними мўғулча бўлиб, “миянгаад”, яъни минглар демакдир [8, 65]. Этнонимлар ҳам маълум даражада ўзининг келиб чиқиш қонуниятлари ва мезонларига эга. Юқорида қайд этилган этнонимларнинг деярли барчаси Зомин воҳасида топонимга айланган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Энциклопедик лугат. 2-том. Тошкент, 1990.
2. Еремеев Д. Е. К семантике тюркской этнонимии // Этнонимы, Москва, 1970, с 139.
3. Абулғозий Баходирхон. Шажаран тарокима. Тошкент, 1995, 22-23- б.
4. Девони луготит турк. 1-том. Тошкент, 1960. 89-бет.
5. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племён и народностей и сведения об их численности // Живая старина, 1996.
6. Баскаков М.А. К вопросу о происхождение этноним киргиз. Этнография, 1964. №2, С 92-93.
7. Шониёзов К. Канг давлати ва канглилар. Тошкент, 1990. 145-146 бет.
8. Ишаев А. Манғит сўзининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1958. 2-сон, 65-бет.

QORAQOLPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI ETNONIMLARIDAN KELIB CHIQQAN AYRIM TOPONIMLAR

*Asalxon YULDASHEVA,
NukusDPI talabasi*

Dunyoda hamuna narsaning nomi bor. “Tog” deganda balandmi-pastmi, kattami-kichikmi umuman tog’ tushuniladi. Ko‘l ham shunday umumiy atama, turdosh or. Atoqli ot esa qandaydir bir predmetni, narsani, obyektini bildiradi va

odatda tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, *Toshkent* deganda davlatimiz poytaxtini tushunsak, *Buxoro* deyish bilan O'zbekistonning ko'hana shahri, shu nomli viloyat markazi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Joy nomlari shu qadar ko'pki, hammasining ham ma'nosi tushunarli emas. Nom qancha ko'hana bo'lsa, uning etimologiyasini bilish ham shuncha qiyin bo'ladi. Hamma nomlardan ma'no qidirib, mazmuni anglashilmagan nomlarni o'zgartirib, boshqacha atash ming yillarning mahsuli bo'lgan ma'naviy yodgorlikdiziga bolta urish demakdir.

Prof. S.Qorayevni ta'kidlashicha, "Toponimlar turli asrlar mevasi bo'lib, uzoq davrlar yashaydi. Qadimiy tillarda qo'yilgan nom keying xalqlar uchun oddiy toponimdan boshqa narsa emas,uning qanday ma'noni anglatishi haqida har doim ham o'ylab o'tirishmaydi.

Geografik nomlarga qarab o'tmishda qanday xalqlar yashaganini,turli millat xalqlarining o'zaro aloqalarini, ularning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishini bilib olish mumkin" [1.19]. Turli davrlarlarda yashagan va turli tillarda gaplashgan xalqlar O'rta Osiyo, jumladan o'zbek, qoraqolpoq va boshqa qardosh xalqlarning etnogenezida muayyan darajada ishtirok etgan va o'lkaning tarixiy toponomiyasida iz qoldirgan. Buni O'rta Osiyoning o'tmishida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lgan aholisining hozirga qadar saqlanib qolgan urug'-qabila nomlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Haqiqatdan ham, bunga misol qilib Qoraqolpog'iston Respublikasi hududidagi urug'i nomi bilan yuritiladigan bir talay etnooykonimlarga misol keltirishimiz mumkin.

Leksik jihatdan Qoraqolpoq toponimlarining 1/5qismi etnotoponimlardan iborat. Qoraqolpog'istonning asosiy aholisi qoraqolpoqlar bo'lsa ham, o'zbeklar bilan qozoqlar son jihatdan qoraqolpoqlardan salgina kamroq. Turkmanlar ham bu yerda ko'p sonli

Jaloyir, qo'ng'iro't, kareyit, kenagas, qiyot, mang'it, qipchoq, qatag'on, nayman, kabi urug' qabilalar bilan bir qatorda oykonimlar tarkibida qoraqolpoq urug' nomlaridan tashqari o'zbek, qozoq va turkmanlarning urug'-aymoq nomlari oykonimlar shaklida Respublika xaritasida kata o'rin olgan [2.38]. Bu esa xalqlar vakillarining mamlakat hududida yonma-yon yashayotganligini ko'rsatadi.

Qoraqolpoq urug'lari nomi bilan atalgan etnooykonimlarga misollar keltirishim mumkin. Qipchoq qabilasidan bo'lgan *jaman* urug'i nomidan bir nechta toponimlarga duch kelamiz. Bular masalan, Kegayli tumanidagi **Jaman**, **Jamansha**, **Jamanshaq**, Chimoy, Nukus tumanlarida ham **Jamansha** oykonimlarini borligiga guvoh bo'lamiz. Yana bunga misol qilib qipchoq *saltir* urug'ini aytishimiz mumkin. Uning Kegayli tumanida **Saltir**, Qanliko'l tumanida esa **Saltirovul** nomli qishloq, ovular borligi ma'lum.

Bundan tashqari, Qoraqolpog'iston hududida, nafaqat qoraqolpoq urug'lari nomi bilan bog'liq bo'lgan, balki Qoraqolpog'iston hududida qadimdan yashaydigan qozoq, o'zbek, turkman urug'lari nomlari bilan ataladigan ko'plab oykonimlar borligiga guvoh bo'lamiz. Misol uchun, Jalayir qabilasidan bo'lgan *o'tegen* urug'i Kegayli tumanidagi **O'tegen**, Qorao'zak tumanidagi **O'tegenovul**, **O'tegenqo'rjin**

nomli oykonimlarni hosil qilgan. Qozoq urug'laridan yana *alay* urug'i nomi Shumanay, Qanliko'l tumanlarida **Adayovul**, Nukus tumanida **Adayko'l** manzillarida saqlanib qolgan.

Maraziy Osiyodagi turkiy xalqlarning qon-qarindoshligini shundan ham bilsa bo'ladiki, o'zbek, qozoq, qoraqolpoq va qirg'izlarning tarkibida uchraydigan bir qancha urug', qabilalar ular uchun ham mushtarakdir. Bu xalqlar uchun umumiy bo'lgan *qangli* qabilasi nomi Qoraqalpog'iston xaritasida, Kegayli, Qo'ngrot, Amudaryo tumanlarida **Qangli** shaklida, Chimboy tumanida **Qangliovul**, **Qanglijapovul** oykonimlari tarzida uchraydi. *Tama* qabilasi qozoqlar, o'zbeklar, qirg'izlar orasida uchraydi. Bu Amudaryo, Ellikqal'a tumanlarida **Tama** ovuli nomida saqlangan. *Nayman* urug'i ham bunga misol bo'loladi. Bu Qoraqalpog'iston oykonimlarining orasida **Nayman**, **Naymanovul**, **Naymanto'ba**, **Naymanjap** shaklida qishloq va ovul nomlarida uchraydi [3 191,193].

Beruniy tumanidagi **Nayman** oykonimi haqida boshqacha ma'lumotlar ham uchratishimiz mumkin. O'sha joyda qadimda Nayman ona ismli bir ayol o'tganligini, u o'z yeridagilarga juda kata yordam berganligi haqida hozirgi **Nayman** qishlog'i aholisi o'rtasida rivoyat va afsonalar yuradi.

Toponimlar qadimiy so'zlar bo'lganidan ularning kelib chiqishi haqida fikr bildirish murakkab yumushdir. Shu boisdan ham yuqoridagi etnooykonimlarning nisbiy ekanligini aytmoq'im darkor. Xalqdagi gapga qarshi, aytilgan so'z – otilgan o'q emas. Lekin shunday bo'lsada, jonajon o'lkamizni o'rganish, uning har bir shahar-u qishlog'ining qanday nomlanganligini bilish va uni tadqiq qilishga harakat qilish har birmizning ma'suliyatli burchimiz deb bilaman.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Qorayev S. Toponomika. –Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti, 2006.
2. Onomastika va toponomika. Ma'ruzalar matni. –Nukus, 2012.
3. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.

ZOMIN TUMANIDAGI ETNONIM VA TOPONIMLAR

Nuriddin ESHBEKOV,
GulDU 3-kurs talabasi

Har bir inson o'zining ota makoni, tug'ilib o'sgan joyining tushunchasiga befarq emas. Shu boisdan ham "Zomin" atamasi birona zominlik uchun ham shunchaki bir so'z emas. "Zomin" deganda, avvalo, viqorli tog'lar, ko'm-ko'k yastanib yotgan adirlar, iqlimi va toza havosi ko'z oldimizga keladi. Har bir joyga qo'yilgan nomlar aholining tarixiy ildizi, asosiy yumushi, turmush tarzi va madaniyatini o'zida ifoda etadi.

"So'loqli" – yuz qabilasining urug'laridan biri. So'loqliklar Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlarida qayd qilingan. Bulang'ur, Zomin, Jizzax tumanlarida So'loqli qishloqlari bor. So'loq – qo'y-echki quloqlarining bir joyini

kesib en solish, ya'ni tamg'lash usuli. Quloqning oldingi tomoni o'yib kesilsa, oldingi so'loq, keyingi tomoni o'yib kesilsa, keyingi so'loq deyilgan.¹

Hozirgi kunda yoshi ulug' ota-bobolarimizning aytishlaricha, O'rol, Kultepa, O'rta qishloq, Hayitkultepa qishloqlarida yashaydigan aholi shu urug'ga mansub. So'loqli elida hozirda sofdil, oqko'ngil, mehnatkash, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi odamlar yashaydi. Ularga boshqa qabila va elat aholisi alohida hurmat-ehtirom qaraydi. Bu yerda yashovchilar "So'loq" so'zini quyidagi ma'nolarini keltirishadi: 1) gurzi; 2) taloq; 3) chorva mollari qulog'iga en solish usuli; 4) arava shotisining uchiga kiydiriladigan temir moslama.

So'loqli urug'ini tashkil qiluvchi nomlarni yerli aholining yoshi ulug'lari bilan bo'lgan suhbatimiz chog'ida quyidagilarni aniqladik.

"O'rol" – bu qishloqning nomi bo'lib, zominliklar boshdagi soch aylana hosil qilgan joyni "o'rol" deyishadi. Qishloqning nomi shunga o'xshashlikdan olingan deb taxmin qilinadi. Bundan tashqari, qishloqning yoshi ulug' insonlari esa bu nom shu joyga dastlabki ko'chib kelgan odanning ismi bilan atalgan deydi. Ya'ni bu qishloq taxminan, 1858-1860-yillarda tashkil topgan bo'lib, hozirgi Chaparashli qishlog'ining o'rtidagi tarixiy Oycha (Urg'ul) qishlog'idan O'rolboy ismli shaxsning ko'chib kelib o'troqlashuridan paydo bo'lgan.

"Kultepa" – Zomindan Sovet tomonga borish yo'li yoqasidagi qishloq nomi. Kultepa qishlog'ining tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, bu yer ko'plab tepalik va adirlardan tashkil topganligi uchun shunday taxmin qilinmoqda.

"Hayitkultepa" – bu qishloq ham Kultepa qishlog'i bilan yonma-yon joylashgan bo'lib, shu nomdagi tepalik bor.

"O'ria qishloq" – Zomin tumanidagi katta qishloqlarning ko'pchiligida shu qishloqning tarixan boshlangan joyi shunday ataladi. Vaqt o'tishi bilan qishloq kengayib borib, asos solingan oldingi joy o'rtada qolib ketganidan shunday atalgan deb qaraladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan to'rtta qishloq hozirgi kunda alohida hududda joylashsa-da, So'loqli urug'ining qishloqlari hisoblanadi.

Bundan tashqari "Yom", "Bolg'ali" va "Chaparashli" toponimlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu joylari ham urug' nomidan kelib chiqqan.

"Yom" — bekat, pochta stansiyasi. Klassik mo'g'ul yozma tilida, shuningdek, hozirgi mo'g'ul tili shevalarida yom so'zi jam, zam, yam shakllarida uchraydi va "yo'l" degan ma'noni anglatadi. Mo'g'ullar imperiyasi davrida esa "pochta stansiyasi", "bekat" degan ma'noni bildirgan. Yom so'zi yoqut, rus, turk, mo'g'ul, xitoy, anarait, tibet kabi ko'plab xalqlarning tillarida turli fonetik shakllarda uchraydi. Hamma xalqlarda deyarli bir ma'noda keladi. Yom so'zi mo'g'ullarda XIII asrga kelib paydo bo'lgan va turkiy tillarga o'tib, mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda keng tarqalgan va usmoniy turklarga yetib borgan.²

Yom toponimi hozirgi kunda ham mavjud va tarixiy joy nomi deb qaraladi. Bu toponim geografik joylashuvi jihatidan barcha atrofdagi qishloqlarga nisbatan qulay va o'rtada joylashgan hudud hisoblanadi.

¹ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 218-bet.

² Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 186-bet.

"Bolg'ali" – Quchchi qishlog'ining tog' tomonidagi yuqori qismida, O'ratepa bilan chegara yaqinida o't mashgan qishloq nomi. Qishloqning yoshi ulug' insonlarining bergan ma'lumotlari qaraganda, bu qishloq ham urug' nomi bilan atalgan. Bolg'ali aslida uchtag'ali urug'ining bir tarmog'idir. Bayrog'i va tamg'asida bolg'a tasviri bo'lgan.

S.Qorayevning ta'kidlashicha, Bolg'ali — umumturkiy etnonim, o'zbeklarning jaloyir, kenagas, qurama, qo'ng'iro't qabilalari tarkibida qayd qilingan. Narpay, Yakkabog', Oqqo'rg'on tumanlarida Bolg'ali oykonimlari qayd qilingan.¹

"Chaparashli" – Qoratepa (bu hozirgi Dashtobod)dan Zominga borishda joylashgan qishloq nomi. Bu qishloqning aholisi qirq urug'ining bir tarmog'i hisoblanadi. Hozirgi kunda ham bu yerda qirq urug'ining vakillari yashaydi.

Zemin tumanidagi joy nomlariga bog'liq afsona, rivoyat va hikoyatlarida haqiqatning salmoqli ulushi bor. Joy nomlarini o'rganish muayyan makonda yashayotgan kishilar tarixini o'rganishning g'iyat samarali vositasi. Bu tumanidagi joylarning eski nomlari, ko'pincha, o'sha yerda yashayotgan aholining qaysi urug' yoki tarmoqqa mansub ekanligini bildiradi. Bundan tashqari, toponimlarning atalishi geografik joylashuviga ham, shug'ullanadigan mashg'ulotlariga ham bog'liq. Ko'rinadiki, joy nomlarining atalishi bejiz va besabab emas. Binobarin, geografik nomlarni madaniy yodgorlik sifatida yozib olish, to'plash va ilmiy tadqiq etish fan uchun lingvistik hamda tarixiy-etnografik jihatdan muayyan ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Qorayev S. Toponimika. –Toshkent, 2006.

2. To'ychiyoyev B., Qashqirli Q. Zominning til qomusi. –Toshkent: Akandemnashr, 2012.

3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. –Toshkent, 2006.

CHUST TUMANI DAM QISHLOG'DAGI ETNONIM VA TOPONIMLARI XUSUSIDA

*Otabek ABDUNAZAROV,
GulDU 3-kurs talabasi*

Insoniyat yaratilgandan buyon o'z turmush tarzini yengillashtirishga harakat qiladi. Hayotiy tajribalari natijasida ma'lum bilimlarga ega bo'ladi va shu bilimlari orqali qarindosh-urug'lar, uy-joylar, daryo-ko'llar, tog'-toshlar, atrofdagi baland-pastlik yerlarini birikmali gaplar bilan atab kelgan va keyinchalik ular asta-sekin qisqarib so'z birikmasi, so'z holida atoqli otlarga aylanib ketgan. Bu atoqli nomlar ularning osonroq hayot kechirishida muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki ular u narsalarni bu narsalaridan ajratish uchun atoqli nomlardan foydalanishgan. Ammo bizning davrimizga qadar yozuv paydo bo'lguncha ishlatilgan atoqli nomlar yetib kelmagan. Qo'lyozma asriar orqali yetib kelgan atoqli otlar esa o'rganilib kelinmoqda.

¹Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasufi va ilmiy jamiyat nashriyoti, 2006. 175-bet.

Bu borada o'tgan asrning 60-yillarida o'zbek tilshunosligining tadqiq doirasi ancha kengaydi va unda an'anaviy leksikologiya, grammatika, semasiologiya sohalarida o'z maqsad va vazifalariga ko'ra farqlanuvchi yangi yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. Mana shu davrda paydo bo'lgan va rivojlanib kelayotgan yangi yo'nalishlardan birini o'zbek onomastikasi tashkil qiladi.

Kishi ismi, joy, daryo, ko'l, soy, ariq, tepalik, pastlik, urug' nomi, mozorlarning paydo bo'lish tarixi, ma'no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Bular bo'yicha onomastika sohasida doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilinib, o'nlab monografiya, to'plam va risolalar, ko'pgina maqolalar e'lon qilindi. «Toponimika yunoncha *topos* – joy va onoma (yoki onima) – nom so'zlaridan tarkib topgan».¹ Ya'ni joy nomlarini o'rganadi. U yana bir necha turlarga bo'linadi va ba'zilarini Damobod qishlog'i misolida ko'rib chiqamiz.

Qishloq etnotoponimlari. «Etnotoponimlar (yun **etnos** – xalq, **topos** – joy, **onoma** – nom) – qabila, urug'-aymoq nomiga qo'yilgan toponimlar: **Qo'ng'iro't, Nukus, Nayman** va hokazo».

JAYDOQ – Dam qishlog'idagi mahallalardan birining nomi. Mazkur nomning kelib chiqish tarixi haqida gapirdigan bo'lsak, qipchoq urug'larining o'z ichida bir qancha mayda guruhlariga bo'linadi va bu urug'larinig biri Jaydoq urug'i deb nomlangan. Jaydoq etnonimining bunday nomlanishiga sabab qadimda ushbu urug' vakillari ot. qo'y, sigirlarni boqib chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Aholining ko'pchiligi otlarni minishga usta bo'lishgan va minganda ham egarsiz minishgan. Bunday minish, ya'ni egarsiz minish boshqa urug' vakillari tomonidan *jaydoq minish* deyiladi. Natijada bu urug'ga nisbatan *jaydoqlar* nomi qo'llanila boshlangan, davr taraqqiyoti natijasida qipchoqlarning j lab gapirishi sababli jaydoq leksemasidagi y tovushi j tovushiga o'zgaradi. Keyinchalik ular yashagan hududga nisbatan ham *Jaydoq* nomi ishlatilib kelinmoqda.

PUCHIG'OY – Dam qishlog'idagi mahallalardan birining nomi. Yoshi ulug' insonlarning eshitganlarini aytishi bo'yicha qadimda qipchoq urug'laridan birini Oydin ismli kelishgan, juda aqlli, chiroyli, ko'rkam bir ayol kishi boshqargan. Urug' vakillari uni hurmatlab, erkalab *Puchig'oyim* deb ataganlar. Keyinchalik bu nom shu urug' vakillariga nisbatan qo'llanilib kelingan va ular yashagan hududlar hozirgi kunda *-im* egalik qo'shimchasi tushib *Puchig'oy* mahalla shaklida qo'llanilmoqda.

Qishloqdagi mavjud etnonimlar. Etnonim (yunoncha **etnos** – xalq, **onoma** – nom) – biron xalq, millat, qabila, urug'-aymoq nomlari. Qishloqda qipchoqlarning jami to'rtta urug'i bor. Bular: *Jaydoq, Puchig'oy, Ko'ch'yarog' va Yashiq* urug'laridir. Hozirgi ilmiy adabiyotlarga Ko'ch'yarodan tashqari qolgan uchta urug' nomi kiritilgan. Ko'ch'yarog' urug'i haqida ma'lumotlar yetarli emas.

KO'CH'YARAQ – qishloq oqsaqollarining aytishiga qaraganda ushbu urug' vakillari qadimda ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Chorvadorlar bir hududdan ikkinchi bir hududga ko'chish chog'ida o'z ko'chlarini² tuyalari, otlarining ustiga yuklaganlar, uzoqdan ko'rinishi uchun baland yog'ochga o'zlarining

¹ Qorayev S. Toponimika – Toshkent: O'zbekiston faylasulatlari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 5-bet.

² Ko'chish paytida tashiladigan uy to'zg'or buyumlaridan iborat yuk. O'zbek tiling izohli lug'ati. 2-jild. –Toshkent, 2006. 476-bet.

yaltiraydigan mis, kumushdan yasalgan buyumlarini ilib qo'yishgan ekan. Quyosh nuri tushganda ular yaraqlagan, ya'ni yaltiragan. Boshqa urug' vakillari tomonidan ularga nisbatan *ko'chilari yavaqlaydiganlar* birikmali tarzida ishlatilgan. Asta-sekin ushbu nom urug' nomiga aylanib *Ko'ch'yaroq* shaklga keladi va hozirda ushbu urug' vakillari avlodlari Yuqori mahallada istiqomat qilib kelishmoqda.

JAYDOQ – Farg'ona vodiysida istiqomat qiluvchi qipchoq urug'laridan biri. Kelib chiqish tarixi yuqorida ko'rib o'tildi.

PUCHIG'OY - Farg'ona vodiysida istiqomat qiluvchi tarmoqlangan qipchoq urug'laridan biri. Kelib chiqish tarixi yuqorida ko'rsatildi.

YASHIQ – qipchoq urug'laridan biri. «Mahalliy xalq mazkur etnonimning etimoni ruscha *yashik*, *yashchik* so'zi deb hisoblaydi. *Yashiq* – *yashiq* so'zining ruscha *yachik*, *yashik* so'zlariga hech qanday aloqasi yo'q» - deydi D.Madrahimova¹. *Yashiq* so'zi akademik V.V.Radlov lug'atida «ozg'in, *qiynalgan*, *bo'shashgan*, *holdan ketgan*, *ishga yaroqsiz*; *quyosh*» ma'nolarini bildirishi qayd etilgan. Prof. V.M.Nasilov qadimgi uyg'ur tilidagi *yashuk* so'zi «*yorug'*, *yorug'lik*» ma'nolarini bildiruvchi so'z bo'lib, *yashu* (*yarqiroq murlamvchi*) shaklidan olinganligini ko'rsatadi (<yashu+k).²

DAM³ oykonimi⁴ – Chust tumanidag qishlog'ning nomi. XVI asr boshlarida qo'shni Baymoq qishlog'idan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qipchoq urug'lari chorvasi erkin yaylovlash uchun shimoli-sharq tomonga siljib o'sha hududlarga asta-sekin o'troqlashadilar. Natijada dehqonchilik uchun soydan ariq kovlab suv chiqaradilar, bu suv damlanib chiqishi natijasida ariq *Damariq* nomini oladi va bu ariqning *DAM* nomi qishlog' nomiga ko'chadi.

QO'QON – Dam qishlog'dagi mahallalardan birining nomi. Aslida Qo'qon shahri Farg'ona viloyatining qadimiy shaharlaridan birining nomi. Dam qishlog'ining mahallalaridan biri ham Qo'qon mahalla deb nomlangan. Sababi ushbu mahalla endigina tashkil etilayotgan vaqtda qishloqda uy quruvchi ustalar bo'lmaydi. Natijada odamlar uylarini qurish uchun Qo'qondan ustalarni chaqirib qurdiradilar va bu mahallaning ko'plab uylarini qo'qonlik ustalar qurganligi sababli dastlab *qo'qonlik ustalar qurgan mahalla*, keyinchalik aytishga oson qilib *Qo'qon* mahalla deya nom berishgan.

YUQORI – bu ham qishloqdagi mahallalardan birining nomi. Bu nom tabiiy geografik joylashuv o'miga ko'ra nomlangan. Ya'ni, Dam qishlog'iga endigina chorvadorlar o'mashayotgan vaqtda, qipchoqlarning ko'ch'yaroq urug'i vakillari eski Damariqning yuqorisiga, ya'ni boshlanishiga joylashadilar. Ko'ch'yaroq urug'i vakillari yashagan hududlar boshqa urug' tomonidan *yuqoridagilar*, *yuqoriliklar* nomlari bilan atlgan. Hozirda ushbu hudud *Yuqori* mahalla nomi bilan ataladi.

O'RTA TO'P - qishloqdagi keyingi mahallalardan birining nomi. Mazkur nom ham tabiiy geografik joylashgan o'miga nisbat berilib nomlangan. Qishloqning turli tomonlariga o'mashgan qipchoq urug'lari o'rtasida asta-sekinlik bilan qarindosh-

¹ Madrahimova D. Noma'gan viloyati etnonimi va etnotoponimlarining tilsis' tadqiqi. –Nantamangan. 2016. 40-bet

² Yuqoridagi kitobdan 40-bet.

³ Ushbu nomdagi qishloq Surxondaryo viloyati Jarqo'g'on tumani va Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida ham bor.

⁴ Oykonim (xan-oncha oykos – uy, turar joy) – turli aholi punkti: shahar, qishloq, ovul nomi.

urug'chilik munosabatlari yuzaga keldi. U urug'dan bu urug'ga qiz olib, qiz berish natijasida barcha urug'lar uchun umumiy bo'lgan etnik qatlam yuzaga keladi va bu etnik qatlam aholi vakilari qishloqning o'rtasida to'p bo'lib yashaydilar. Natijada ularni *o'riada to'p bo'lganlar, o'riada to'planganlar* kabi birikmali holatda nomlashgan. Davr o'tishi bilan bu nom qisqarib *O'ri* to'p nomini olgan va hozirda ham shu nom bilan atalib kelinmoqda.

Hali o'rganilmagan qishloq, mahalla, urug' nomlarimiz joylarda talaygina. Yurtimizning eng chekka nuqtalarida ham ko'plab yurtdoshlarimiz bilmaydigan toponimlari, ko'pchilik uchun qiziq bo'lgan atqli otlarimiz etimologiyasi, nomlarini o'rganishi natijasida xaqimizning boyligiga aylangan onomastik lug'atlarimiz boyishini, avlodlarimiz tafakkurida atqli otlarimiz tarixi haqida qimmatli ma'lumotalar bilan tanishtirishimiz, ona vataniga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. -Toshkent, 2006.
3. Madrahimova D. Namangan viloyati etnonimi va etmotoponimlarining lisoniy tadqiqi. –Namangan, 2016.

НОМЛАРНИНГ УСЛУБИЯТИ

Мавжуда ИЛЪЯСОВА,

Олмалик ижтимоий иқтисодиёт ва сервис КХК директори

Номшуносликнинг хусусий кўринишларидан бири бўлган “Ўзбек номшунослиги” билан бирга унинг халқона ономастика, илмий ономастика ва бадий ономастика сингари турлари ҳам бор. Сабаби, атокли отлардаги фаркли ҳолатлардан бири сифатида халқона ономастика, илмий ономастика ва бадий ономастиканинг индивидуал тарздаги қўлланиш меъёрларининг борлигидир. Атокли отларнинг қўлланиш, айтилиш, ишлатилиш меъёрларини бир бутун ҳолда ифодалайдиган уларнинг услубияти тўғрисида гапириш лозим. Матбуотда, кундалик турмушда, радио, телевиденияда, бадий асарларда, хусусан, ижодкорларнинг асарлари матнида атокли отларнинг ишлатилиш жараёнларининг алоҳида-алоҳида кўринишлари уларга хос бўлган услубиятнинг ўзи ҳисобланади. Шунинг учун тилдаги атокли отларнинг услубияти бошқа соҳанинг услубиятидан маълум даражада фаркланади.

Турдош отлардан фарқ қилгани ҳолда атокли отлар номловчилик хусусияти билан биргаликда кўрсатувчилик, эмоционаллик, кўرғазмалилик ҳолатлари ҳам уларга хос бўлгани, яъни услубий хусусиятларни ҳам у ёки бу даражада ўзларида ифода тайди. Чунки халқона ономастика оғзаки сўзлашув услубини, илмий ономастика эса илмий услубдаги таҳлилу талкиндарнинг бажарилишини талаб этса, бадий ономастика, сўзсиз, бадий услубга хос хусусиятларни ўзида намоён этади. Ҳар бир номланган объект иккинчи бир объектдан номлангани билан фарқланганидек, худди ўша объектларга нисбатан кўрсатувчилик ҳам, кўрғазмалилик хусусиятларини ҳам ўзида намоён қилади.

Масалан, **Салим** ёхуд **Салима** (бошқа исмларни ҳам қўйиш мумкин) номи билан аниқ бир инсон бошқа одамлардан фарқланса, шу ном билан аталган одам бошқалар учун улар кидирган одамлиги ва одам эмаслиги билан кўрсатувчилик вазифасини бажаради. Шу билан биргаликда **Салим** деган одамнинг катта ёки кичик гавдали эканлиги, шунингдек, яхши ёки ёмонлиги, инсофли ёки инсофсизлиги каби ҳолатлар эса шу номнинг кўرғазмалигини билдиради.

Э.Қиличев “Ўзбек тили ономастикаси” номли махсус курс учун тайёрлаган ўқув қўлланмасида ономастик бирликларнинг тил луғат тизимидаги ўрни, антропонимлар, исмлар тарихи халқ тарихи, антропонимларда сўзлараро тизимий муносабатларнинг ифодаланиши, антропонимик индикаторлар, антропонимларнинг услубий хусусиятлари, С.Айний асарларидаги антропонимлар, А.Қаҳҳор асарларидаги антропонимларнинг услубий хусусиятлари, Э.Жуманбулбул дostonлари антропонимлари, шу жумладан, топонимлар, ойконимлар, гидронимлар, оронимларнинг услубий хусусиятлари сингари анчагина муаммолар илмий таҳлилга тортилган¹.

Номларнинг услубияти уларнинг объектларга берилишида, ном ҳамда исмлар сифатида айтилиши ва таҳлил қилинишида, бадий адабиётда уларнинг услубий воситалардан бирилигини кўрсатиш кўрсатиш лозим бўлади. “Исм қўйишда машҳур адабий асарлардаги бош ижобий қаҳрамонлар ҳам муайян даражада аҳамият касб этади”². Сабаби, машҳур адабий асарлардаги ижобий қаҳрамонлар халқ вакиллариининг дилидаги инсонларнинг рамзий образларини яратишгани учун уларнинг исмлари ҳам халқ ичида оммалашиб кетган.

Айни шу ўринда атоқли отлар услубияти соҳасида Э.Бегматов ва унинг шоғирдлари илмий кузатишлар олиб боришганини айтиб ўтиш лозим³. Унинг юқорида кўрсатилган илмий ишида исмлар услубияти тўғрисида қуйидаги фикрлар билдирилган: “Ўлуғ ўзбек шоирин Алишер Навоий ғазалиётида романтик ошиқнинг бутун орзу-умидлари, ишк-мухаббат йўлидаги барча орзу-умидларини идеал даражада гўзал, тенгсиз ва ноёб ҳисларнинг эгаси маъшукани, уларнинг ташки ва ички дунёсини бадий тасвирлаш муҳим ўрин тутadi.

“Хазойинул-маоний” асаридаги кўпгина ғазалларда лирик қаҳрамоннинг ўз тили ва дилидан ғоят маҳорат билан тасвирланишича, унинг севгани-маъшука тасвир ва тавсиф этиб бўлмас даражада кўркем ҳуснидир, хатто уни ойга, қуёшга ҳам тенглаштириб бўлмайди. Навоий маъшука образининг баркамол портретини яратиш ва унга ҳос бўлган инсоний ҳислатлар, нозиклик, уятчанлик, меҳр ва ҳаё, нафосат ҳамда аёлларга ҳос таъсирчанлик, нозу ишва ёки ошқикча нисбатан “атайин” бепарволик ҳамда раҳм-шафқатсизлик сингари хусусиятларни тасвирлашда кўпгина турли-туман бадий усуллар билан бир қаторда уни машҳур маъшукаларга солиштириш, киёслаш усулидан кенг фойдаланган. Навоий ғазалларида **Ширин**, **Лайли**, **Азро** (**Узро**) каби исмларнинг тез-тез учраб туриши аслида мана шу усул тақозоси билан юзага

¹ Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Т., 2004. 56-бет.

² Иброҳимов А. Ғуллиқ Т. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2006. 286-бет.

³ Бегматов Э., Шафқаров А. Исмлар услубиятига доир. Навоий. 2002. 12-14-бетлар.

келгандир. Чунончи, “Хазойинул-маоний” асарининг тўртта девонида, бизнинг хисобимизча, машҳур маъшуқаларнинг номи – **Лайли** исми 71 марта, **Ширин** исми эса 40 марта учрайди. Асар матнидаги барча ўринларда **Лайли** ва **Ширин** исмларининг ишлатилиши муҳим бадний-услубий максадлар билан алоқадордир. Шоирнинг куйлашича, ёри шу даражада кўркемки, унинг ҳуснини кўрган ажойиб, нафис гуллар ва машҳур гўзаллар **Лайлию Шириндан** ҳижолатда, уларнинг **Мажнуну Фарходи** бўлса хайронликдадир:

Боз аро руҳсору қаддинг жилвасин то кўроилар,

Бўлди обу тобсиз гулбарги ҳам, шаминоди ҳам.

***Лайлию Ширин** бўлиб сендин хижил мендин доғи,*

*Ҳам аини **Мажнунидур** хайрон мунинг **Фарходи** ҳам.*

Ошиқ ўзининг тенгсиз кўркем маъшукаси билан фахрланади ва бу ҳусн камолати олдида ўзини ҳушёр бўлишга, янглишиб колмасликка чакиради:

*Десаилар **Лайлиму** ортук ҳусн аро ё ул пари?*

*Гарчи **Мажнун**сен керак ёнгилмагайсен, эй кўнгил.*

Келтирилган байтда ажойиб сўз ўйини кўрамыз. Одатда, **Мажнун** доимо **Лайли**ни дейди ва унинг ишқида “Мажнун” бўлиб қолган, шундай экан, ҳусн аро “**Лайлиму** ортук... ё ул пари?” деб сўрасалар, албатта, **Мажнун**нинг “**Лайли**” деб жавоб бериши табиийдир. Чунки, у биринчидан, **Лайли**нинг ошиғи – **Мажнун**, иккинчидан эса, умуман – **Мажнун** (ақл-ҳуши ўзида эмас)дир. Демак, **Мажнун** номи келтирилган байтда ҳам атоқли отлик ва ҳам турдошлик (оддий сўзлик) вазифасида усталик билан ишлатилган.

Навоний ғазалларида тез-тез учраб турадиган **Лайли**, **Ширин** исмлари бу асарларга тасодифан киритилган эмас. Шоир ўзи тасвирлаётган маъшукани улғулаш, ундаги бекиёс гўзаллик, чуқур ва теран нафосатни юқори даражада таъриф ва тавсифлаш учун бу исмларга қатта услубий маъно юклайди. Навоний ғазалларида **Азро (Узро)**, **Лайли**, **Ширин** исмлари инсоний нафосат ва одобнинг рамзи, ўлчови сифатида қабул қилинган. Шоир ўзи тасвирлаётган маъшукани мана шу кўркемлик ва камолот ўлчови билан ўлчаётди. Аммо шу билан бирга унинг севгилиси шоир учун энг кўркем ва тенги ва киёси йўқ инсондир. У машҳур **Лайли** ва **Шириндан** ҳам ҳусну малоҳатда ҳам маънавий дунёсига кўра қиёслаб бўлмас даражада устун ва афзалдир¹.

Шу ўринда яна бир нарсани таъкидлаш керакки, ижодкор(лар) асари қаҳрамонларининг исмларига оид маълумотларни ўз давридан келиб чиқиб таҳлил ва талқин баён этишса, мана шундай қаҳрамоннинг исми оммалашиши – халқ вакиллари дилидан жой олиши анча тезлашади. Бунга мисол қилиб **Фарход** образини кўрсатиш мумкин. Ушбу образ **Фирдавсийда** ҳам, **Низомийда** ҳам, **Ҳисрав Дехлавийда** ҳам бор бўлган. Бироқ улар шу образни Навонийчалик таърифу тавсиф ва талқин этишга олмаганлиги туфайли асарларида **Фарход** етакчи қаҳрамон даражасига кўтарила олинмаган. Навоний эса буни амалга ошира олди ва шу исмнинг маъносини ўз даври имконияти ва салоҳиятидан келиб чиқиб, шундай бир ишончу эътиқод билан талқин этдики, **Фарход** образи кишиларнинг қалбига сингдиб қолди:

¹ Бегматов Ў., Шайхонаев А. Навоий услубиятига доир Навоний. 2002 12-14-беллар

*“Жамолдин кўрингач фарри шоҳи,
 Бу фардин ёруда маҳ то ба моҳи.
 Қўюб юз ҳилмату иқболу давлат,
 Ҳам ул фар соясидин топди зинат.
 Бу мавҳарларга чун исноб топти,
 Мураккаб айлагач Фарҳод топти.
 Анса фарзона Фарҳод исм қўйди.
 Ҳуруфу маъҳазин беш қисм қўйди.
 Фироқу раиқу ҳажру оҳ ила оаро,
 Бирор ҳарф ибтидодин айлабон фаро”¹.*

Бундай ҳароратли, шундай ширали ва дилга якин мисралар кишининг энг сеvimли қаҳрамони, яъни кўнгил мулки бўлиб қолиши табиий. Натижада, бу образ Навоидан кейин ҳам у истаган даражада ёзма ва оғзаки адабиётда фаол қўлланилганлигини кузатиш мумкин бўлади. Бу ҳам бадий услубият ва ижодкор имкониятининг атокли отларга маълум бир кирраси билан боғлиқлигини кўрсатиб турибди.

Одатда, атокли етлар бадний ҳамда публицистик асарларда ижодкорларгагина хос бўлган индивидуал услубиятнинг кўринишларини намоён қилади. Бунга машҳур ижодкор Миртемирининг Н.А.Некрасовнинг “Русияда ким яхши яшайди” таржимаси устидаги мазақатли меҳнати тўғрисида сўзлаб бундай фикрларни айтиш асос бўлиши мумкин. “*Унинг (Некрасовнинг) асарларидаги жўй номларининг ҳар бири ўзича маълум функциялар ташкил қилиб, шунинг учун уларни ўзимизда бор - ҳудуди шу маънони ифодақилидиган номлар билан бердим. Бу ўқувчиларга маъқул бўлганлиги ҳақлардан ва тақризлардан маълум, лекин ҳамма номларни таржима қилиб ўлгурламадим. Таржима битгач, редакторлар билан узоқ нисланга тўғри келди. Масалан, “заминдор” деган сўзни тушунириши ва ўтказиши учун қандай қийналганимни, бўғлиб кетганимни эслаётман”². Мана сизга бадий асардаги номларнинг алоҳида ижодкорнинг услубиятига хос характерли ҳоллардан бири.*

Шунингдек, бугунги матбуот, радио, телевидениянинг таъсирида ҳам анча номларнинг қисман илмий, қисман халқона мазмундаги талқини ва таҳлилини кўриши мумкин. Натижада, **Элбек, Элшод, Элёр, Шохрух, Фаррух, Жасмин, Жавохир, Эркин, Улугбек, Азиз, Азизбек, Асила, Абдулла, Бахтиёр, Баҳодир** сингари бир қанча номларнинг ёш болаларга қўйилиши фаоллашганлигини кузатиш мумкин. Булар: 1) номлар такрор қўлламаслиқни; 2) уларнинг маъносини билиб ишлатишни; 3) номларнинг атокли отлик маъносини билган ҳолда изохлашни; 4) уларнинг ёзишдаги қоидаларни; 5) номларни айтишдаги қоидаларни; 6) номларнинг замон билан ҳамоханг

¹ Мамлаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Т.Ўқитувчи. 1965. 507-бет. Муаслиф ёқоридати мисраларнинг маъносини бундай изохлайди: “Бу парчада Фарҳод сўзига яқин ҳал изох берилган: а) Фарҳод сўзи “фарри шоҳи”(шоҳлик нури) дан “фар” хикмат, иқбол ва давлат сўчларининг (араб сўзи)га - таъкид бизниқик - Т.О.) биринчи ҳарфини олиб бир-бирини қўшишдан ҳосил бўлган; б) Фарҳод сўзи фирқ, рашк, ҳажр, оҳ дара сўчларининг араб сўзи, та - таъкид бишиқик - Т.О.) биринчи ҳарфлари қўшилишдан таркиб тошган.

² Мухли Сайфиров. Ялангўш қалам доҳони. Сиймолар - Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2010 йил 27 август. №35 (4070). 3-бет.

бўлишлиги зарурлигини; 7) уларни бетақрор ҳолатда керакли маънода ишлата билиш имкониятини; 8) номларда халқнинг минг-минг йиллик тарихдаги маданиятию ҳикматлари ядиринганлигини; 9) уларнинг халқ ва тил тарихи билан боғлиқлигини таъкидлаб турибди.

Булардан кўриниб турибдики, атоқли отларнинг ўрганилиши, турлича ёзилиши, қўлланиши, маънолари ва ўзига хос ҳолатдаги услубияти улар юзасида янги-янги тадқиқотлар олиб бориш мумкинлигини кўрсатади.

MUNDARIJA

I SHO'BA. O'ZBEK NOMSHUNOSLIGINING NAZARIY HAMDA AMALIY MASALALARI

<i>Nosirjon ULUQOV</i> . O'zbek onomastikasining dolzarb vazifalari xususida	3
<i>Abdulkhay SOBIROV</i> . Narsa va uni nomlash masalalariga doir	6
<i>Eshpo'lat JABBOROV</i> . To'ra Nafasov va o'zbek tili onomastikasi muammolari	9
<i>Oydin MO'MINOVA</i> . O'rxun-yenisey bitiklaridagi mansab va unvon nomlarining bugungi nomlar bilan qiyosi	12
<i>Ahad ShUKUROV</i> . Bo'zbek nomshunosligi muammolari	14
<i>Nurbek G'ANIYEV</i> . Ob'ektlar nuqtai nazaridan nomlarning tasnifi	16
<i>Barchin YUNUSOVA</i> . "Alpomish" dostonidagi zoonimlarning lisoniy xususiyatlari	19
<i>Hulkarbegim UBAYDOVA</i> . Xalq maqollari tarkibidagi onomastik birliklar tadqiqi	23
<i>Dilnoza TOG'AYEVA</i> . Nomshunoslik va konversiya	26

II SHO'BA. O'ZBEK ONOMASTIK LEKSIKOGRAFIYASI

<i>Tolib ENAZAROV</i> . Abdumurod YESEMURTOV. Etimologik lug'at, etimologik tahlil va ularga oid terminlar	28
--	----

III SHO'BA. O'ZBEK TOPONIMIKASI

<i>Tojmuhammad ELSEVAR</i> . Afg'onistondagi ba'zi bir toponim va antroponimlar to'g'risida	34
<i>Y.IBRAGIMOV</i> . Toponimlar - til tarixini o'rganish manbai	35
<i>O.BEGIMOV</i> . Oronimiyada "dovon" atamasining qo'llanilishiga doir	38
<i>Ikrom XOJMURODOV</i> . Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining morfologik xususiyatlari	41
<i>Z.IBRAGIMOVA, B.ABDULAMITOV</i> . Qoraqalpog'iston hududida joy nomlarining o'rganilishi	43
<i>Mamarajab XO'JAMOV</i> . Toponimlar vositasida mamlakatimiz tarixining o'rganilishi	45
<i>Sabohat BOZOROVA, Saodat ASHUROVA</i> . Turkiyadagi ba'zi daryo va ko'l nomlarining etimologiyasi	47
<i>Madina VAHOBOVA</i> . Buxoro viloyati toponimlari haqida ayrim mulohazalar	49
<i>Nihufar SHODMONOVA</i> . Joy nomlari – tariximiz ko'zgusi	51
<i>Ibodat BOZOROVA, Sabohat BOZOROVA</i> . Dajla daryosining nomlanishi xususida	53
<i>Kamolola TO'RAYEVA</i> . O'zbek toponimikasi xususida ba'zi mulohazalar	55
<i>Farizabonu XUDOYBERDIYEVA</i> . Samarqand viloyatidagi ba'zi	57

toponimlarining kelib chiqishi	
<i>Charosxon NORIMBETOVA</i> . Amudaryo va o'g'uz atamasining o'zaro bog'liqlikda nomlanish tarixi	59
<i>Munisa A'ZAMOVA</i> . Qishloq nomlarining kelib chiqishi (Navoiy viloyati misolida)	61
<i>Dilbar ISMATULLAYEVA</i> . Toshkent shahridagi ayrim joy nomlarining kelib chiqishi haqida	62
<i>Xudayberdi ABDULLAYEV</i> . Zarafshon nomi haqida	64
<i>Nilufar MURODINOVA</i> . Gidronimlar – xalq boyligi	66
<i>Sh.A.ZOITOVA</i> . Toponimlarning guruhga ajratib o'rganilishi	68
<i>Odil BEGIMOV</i> . Balandlik bilan bog'liq oronimik indikatorlar (Janubiy O'zbekiston oronimlari misolida)	70
<i>Raximova DILSHODABEGIM</i> . Vodil qishlog'i shevasida toponim va antroponimlar	73
<i>Sevara JUMAMURATOVA</i> . Ibroyim Yusupov she'riyatida joy nomlarining qo'llanilishi	75
<i>Guli QODIROVA</i> . "Zubdatu-t-tavorix"da Xorazm hududidagi ayrim toponimlar	77
<i>Gulandom EGAMBERGANOVA</i> . Qoraqalpog'iston Respublikasigi nekronimlarni o'rganish masalalari	80
<i>Shiringul NURGENOVA</i> . "Ufq" trilogiyasida toponimik modellar	82
<i>Maftuna NASULLOYEVA</i> . Ba'zi toponimlarning etimologiyasi haqida	84
<i>Sabohat SAIDMURODOVA</i> . Ba'zi toponimlarning yasalishi (Ishtixon tumani misolida)	86
<i>N. QURBONOV</i> . Appelyativ va toponimlarning derivatsion imkoniyatlari	87
<i>Doston RO'ZIQULOV</i> . Samarqand viloyati toponimlari haqida	91
<i>Mexroj RAUPOV</i> . Toponimlarning yasalishi xususida	92

IV. O'ZBEK ANTROPONIMIYASI VA ANTROPOTOPONIMIYA

<i>Nishonboy HUSANOV</i> . O'zbek antroponimlarini tarixan va hozirgi davr asosida tasniflash	95
<i>J. ABDULLAYEV</i> . Topishmoqlarida kishi ismlarining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari	99
<i>Luifulla SINDOROV</i> . "Hibatul haqoyiq"dagi ba'zi antroponim va toponimlar haqida	101
<i>L. DEHQONOVA</i> . "O'zbek antroponimikasi"ni o'rganish tarixidan	104
<i>O. MURODQULOV, U. EGAMOV</i> . Ism, familiya, laqab, taxallus to'g'risida	106
<i>O. MURODQULOV, A. BOLIBEKOV</i> . Ismlar orqali ifodalanuvchi tagma'nolar	108
<i>Замира ДАНИЯРОВА</i> . Фольклорлық шығармаларда парсыша азам атларының қолланылығы	111
<i>Maxsuda XUSANOVA</i> . O'zbek tilida ideonim va dignitonimlarning	113

leksik-semantik tarkibi	
<i>Shaxnoza NIZAMOVA</i> . Doimiy va mavsumiy taxalluslar xususida	115
<i>Gulxayo PIRNAZAROVA</i> . Nomiarning etnografiyaga bog'liqligi masalasi	117
<i>Mafizma FAYZULLAYEVA</i> . Chaqaloqqa nom berishning an'anaviyligi haqida	119
<i>Mohigul AHMADALIYEVA</i> . "Otamdan qolgan dalalar"da To'g'ay Murodning antroponimlardan foydalanish mahorati	121
<i>Kamolola HAKIMBOYEVA</i> . Bolalarga nom qo'yish an'anasi haqida	123
<i>Dilrabo YUSUFJOVA</i> . Ismlardagi lahjaviy va erkalash-kichraytish shakllarining o'rganilishi	126
<i>Madina SABUROVA</i> . O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi antroponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari	127
<i>Gulbahor DUSHAYEVA, Abror ABDUXAMITOV, Guljahon ROZIQOVA</i> . Gul leksemasi bilan boshlanuvchi ismlar	129
<i>Oybek NORMURODOV</i> . Badiiy adabiyotda antroponimya (Erkin A'zam ijodi misolida)	132

V SHO'BA. O'ZBEK ETNONIMIYASI VA ETNOTOPONIMIYA

<i>O. MURODQULOV, A. BOLIBEKOV</i> . O'zbekiston etnonimikasi	134
<i>Gulnoza RAIMJONOVA</i> . Zomin vohasidagi ayrim etnonimlarning nomlanishi xususida	136
<i>Asalxon YULDASHEVA</i> . Qoraqalpog'iston Respublikasidagi etnonimlardan kelib chiqqan ayrim toponimlar	138
<i>Nuriddin ESHBEKOV</i> . Zomin tumanidagi etnonim va toponimlar	140
<i>Otabek ABDUNAZAROV</i> . Chust tumani Dam qishlog'dagi etnonim va toponimlari xususida	142
<i>Мавжуда И.ТЪЖОВА</i> . Номларнинг услубияти	145

Adadi 70 nusxa. Hajmi 9,5 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₁₆
 «Times New Roman» garniturasida. Ofset usulida bosildi.
 Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.
 Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.